

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

**5610200-Mexmonxona xo`jaligini tashkil etish va boshqarish (kundizgi)
yo`nalishi**

TURIZM GEOGRAFIYASI

FANIDAN



O`QUV – USLUBIY MAJMUA


Bilim sohasi: 600000–Xizmatlar soxasi
Ta`lim sohasi: 610000- Xizmat ko`rsatish soxasi
Bakalavryat yo`nalishi: 5610200-Mexmonxona xo`jaligini tashkil
etish va boshqarish (kundizgi) yo`nalishi

Annotatsiya

Ushbu o'quv-uslubiy majmua geografiya yo'nalishi talabalari uchun Turizm geografiyasi fanini o'qitishda foydalanish uchun mo'ljallangan. Undan fanning o'quv va ishchi dasturi, kalendar reja, dars jarayonida foydalaniladigan o'quv-metodik materiallar, nazorat savollari o'rin olgan. O'quv-uslubiy majmuadan o'qituvchi va talabalar o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish hamda ularga tayyorgarlik ko'rishda foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi

Geografiya kafedrası dotsenti:



H.S.Mirzaaxmedov

Taqrizchi:

Geografiya kafedrası dotsenti, g.f.n.:



Sh.Z.Jumaxanov

Namangan davlat universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti dekani
2021 yil " ____ " _____



A.Baratov

Geografiyakafedrası mudiri:

2019 yil " ____ " _____



K.Boymirzaev

O'quv-uslubiy majmua universiteti Kengashining 2021__yil " ____ " ____ dagi
____-sonli yig'ilishida muxokama etilganva nashr qilish uchun tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

| | | |
|------|--------------------------------|-----|
| 1. | O'quv materiallari: | |
| 1.1. | Ma'ruzalar | 4 |
| 1.2. | Amaliy mashg'ulot mavzulari | 155 |
| 1.3. | Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari | 165 |
| 1.4. | Glosariy | 167 |
| 2. | Ilovalar: | |
| - | fan dasturi | 172 |
| - | fan ishchi dasturi | 179 |
| - | tarqatma materiallar | 190 |
| - | testlar | 198 |
| - | baholash mezonlari | 209 |

I. O'QUV MATERIALLARI

Ma'ruza 1: «Turizm geografiyasi» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

- 1.«Turizm geografisi» fanini o'rganish predmeti, maqsadi va vazifalarini o'rgatish.
2. Turizm geografisi fanning fanlar tizimidagi ahamiyati.
3. Turizm geografisiga kirish.

Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar): sayoxat, sayoxatchi, sayoxat tashkilotlari, sayoxat motevatsiyasi, sayoxat bosqich, kapital, region, arxitektura, ekologiya, statsional turizm

1.«Turizm geografisi» fanini o'rganish predmeti, maqsadi va vazifalarini o'rgatish.

Aholining o'zi yashab turgan mintaqa, hudud, o'lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish maqsadida uyushtirilgan rekreatsion faoliyat turiga sayohat, ya'ni turizm deyiladi. «Turizm» termini frantsuzchadan olingan bo'lib, «tour» - aylana, aylanma harakat va «sayr-sayohat» degan ma'noni anglatadi. 1963 yilda BMT-ning Xalqaro turizmga oid Rim konferentsiyasiga muvofiq «sayyoh» deb, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga safarga borib, kamida 24 soat ichida o'sha yerda turib, sayyohlik xizmatidan foydalangan kishiga aytiladi (Mironenko, Tverdoxlebov, 1981, b.11). Agar kishilarning ana shu muddat davomida mamlakat hududining boshqa joyida o'zi yashab turgan manzildan tashqarida bo'lishi mahalliy turizm deyiladi.

R. Abdumalikovning fikricha, turizm- sayohat paytida «tur» (belgi) o'rganish degan ma'noni bildirib, tog', adirlar va uzoq masofalarga sayohat qilish, oxirgi manzilga belgi qo'yib kelish yoki cho'qqiga chiqqanlikni bildirish uchun biron belgi qo'yishni anglatadi, deb ta'riflaydi (Abdumalikov, 1978). Bu fikr ko'proq maktab o'lkashunosligi va turizmi bilan bog'liqdir.

Kishilarning biror mintaqadan yoki hududdan boshqa joylarga safar qilishida bevosita geografik xususiyatlar, ya'ni qulay tabiiy geografik sharoit va siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm geografiyasi, A.Soliev fikricha, bu «jonli, faol» yoki «harakatdagi geografiya» dir. Chunki, biror turistik ob'ektni ko'rish uchun o'sha joyga borib bevosita ko'rishi lozim. Bu maqsadga esa geografik marshrutlar asosida amalga oshiriladi. Qolaversa, geografiya fanining tarixi, kelib chiqishi ham ko'p jihatdan aynan turli xil sayohatlarga, hozirgi zamon tili bilan aytganda, turizmga bog'liq.

Turizm tugrisidagi konunda turizmga shunday tavsif berilgan

3 - modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- turizm - jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy - amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi);

- turist - O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo'nab ketgan) jismoniy shaxs;

- turistik faoliyat - ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq sayohatlarni va ular bilan bog'liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyat;

- ekskursiya faoliyati - turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa ob'ektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo'nalishlar bo'yicha ekskursiya yetakchisi hamrohligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi;

- turistik resurslar - tegishli hududning tabiiy - iqlim, sog'lomlashtirish, tarixiy - madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy - maishiy ob'ektlari majmui;

- turistik faoliyat sub'ektlari - belgilangan tartibda ro'yxatga olingan va turistik xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyasi bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar;

- turistik industriya - turistik faoliyatning turistlargaxizmat ko'rsatishni taminlovchi turli subektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy

ovqatlanish, transport kor-xonalari, madaniyat, sport muassasalari va boshqalar) majmui;

- tur - muayyan yo'nalish bo'yicha turistik xizmatlar majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqaxizmatlar) bilan ta'minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat;

- turistik xizmatlar - turistik faoliyat sub'ektlarining joylash-tirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklamaxizmatlari ko'rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqaxizmatlar;

- turistik guruh rahbari - turistik faoliyat sub'ektlarining vakili bo'lgan va uning nomidan ish ko'rib, turistlargaxizmat ko'rsatish shartnomasi shartlarining bajarilishini ta'minlovchi jismoniy shaxs;

- gid (ekskursiya yetakchisi) - tur qatnashchilariga turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi doirasida ekskursiya -axborot, tashkiliy yo'sindagi xizmatlar va malakali yordam ko'rsatuvchi jismoniy shaxs;

- turistik faoliyatni amalgaoshirish uchun litsenziya - turistik faoliyatni amalgaoshirishga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi maxsus ruxsatnoma;

- sertifikat - turistik xizmatlar sifatini va ularning muayyan standartga yoki boshqa normativ hujjatga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.

Turistik resurslar maqsad va vazifalariga ko'ra tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi (Putrik, Sveshnikov, 1986). Shu jihatdan turizm geografiyasi bilan rekreatsiya geografiyasining farqlarini aniqlash muhim masaladir.

Rekreatsiya geografiyasi dam olish, hordiq chiqarish, sog'liqni tiklash, tabiat go'zalligidan zavqlanib, ruhini ko'tarishga qaratilgan faoliyat majmuini o'z ichiga oladi. Rekreatsiya so'zi polyakcha «rekrasia» – dam olish, lotincha «rekratio» - sog'liqni tiklash demakdir. Binobarin, uzoq muddatga mo'ljallangan rekreatsion faoliyat turizmga mos keladi va shu nuqtai nazardan ham turizm geografiyasi an'anaviy rekreatsion geografiyaning bir qismidir. Rekreatsion turizm bevosita sog'liqni tiklash (sanatoriya, kurort, pansionat va h.k) bilan ham bog'liq. Bizningcha, turizm geografiyasi bilan rekreatsiya turizmi bir biri bilan aloqador tushunchalardir. Chunki, rekreatsiya geografiyasi kishilar sog'lig'ini tiklash, sog'lomlashtirish, dam olish paytida turistik ekskursiyalar uyushtirilib, ularning sayohatlarga chiqishi bevosita turizm bilan bog'lanib ketadi. Chunonchi, «ekskursiya» lotincha – safar-sayohat (muzeylarga, tarixiy yodgorliklarga, tabiat qo'yniga) qilish ma'nosini anglatadi.

Ba'zi olimlar fikricha, turizm o'zining umumiy xususiyatlari va vazifalariga ko'ra uch tipga ajratildi; 1. Davolanish, 2. Sog'liqni tiklash-sport 3. Tanishuv turizmi (Erdavletov, 2000). Bizning fikrimizcha, yuqoridagi tipologik vazifalarni hisobga olgan holda turizmni sog'lomlashtirish va sport, tanishuv, diniy, kasbiy va boshqa turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Dmitrevskiy bulardan tashqari, ilmiy, ekskursion, festival, xizmat, qishloq turizmlarini ham belgilagan (Dmitrevskiy, 2000)

Shu bois, sayyohning marshrutlarga chiqishidan maqsadi va istagi har xil bo'lishini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Turistik faoliyatda sayyoh yakka yoki maxsus marshrut asosida safarga chiqishi mumkin. Shuningdek, sayohat paytida bir vaqtning o'zida ko'pgina maqsadlarni, ya'ni, turizmning ko'pgina vazifalarida ishtirok etishi ham nazardan holi emas (2-chizma).

Aholining turmush sharoitini yaxshilab borishi, uning bo'sh vaqtini ko'payishi, oilaning moddiy daromadini o'sishi dam olish paytlarini ko'ngildagidek o'tkazishga sabab bo'ladi. SHU bois, kishilar dunyoni ko'rish, tabiat qo'ynida dam olish, sog'lig'ini tiklash va boshqa turistik manbalardan foydalanishni istashadi. Bu esa bevosita turizm geografiyasi bilan bog'liq masaladir. Chunki, kishilar dunyoni xaritadan emas, balki o'z ko'zlari bilan ko'rishni istashadi (Zachinyaev, Fal'kovich, 1972). Darhaqiqat, sayohat davomida sayyohlar hududlarning turistik imkoniyatlarini safarlar uyushtirish orqali amalga oshiradi. Bu turizmning o'ziga xos xususiyatidir. Shu o'rinda, turizmning turlari va ko'rinishlari, jumladan, tashkiliy asoslari, davomiyligi, mavsumiyligi va yosh jihatlari turlicha bo'lishini hisobga olish lozim (3-chizma).

Ma'lumki, turizmning 2 asosiy bo'limi mavjud bo'lib, bular ichki (mahalliy) va tashqi (halqaro) turizmdir. Mahalliy turizm - bu o'z mamlakati hududida qiyinchiliksiz (vizasiz, bojxona to'siqlarisiz va h.k) istalgan joyga safar qilishi, dam olishi va boshqa turistik faoliyatda mashg'ul bo'lishidir. Mahalliy turizm bilan xalqaro turizm bir biri bilan chambarchas rivojlanib boradi. Ammo mahalliy turizm so'zlashuv, transport (ko'pchilik o'z shaxsiy avtomobillarida sayohat qilishini hisobga olib) va boshqa muammolar ancha oson kechadi.

Mahalliy turizmning mintaqamiz (Markaziy Osiyo) uchun eng muhim jihati tanlagan sayyohlik marshruti bilan birgalikda diniy qadamjohlarga ziyorat qilishi hamda qarindosh-urug' va do'stlarni ko'rish bir vaqtning o'zida amalga oshishi mumkin. Mahalliy turizm o'zi yashab turgan mintaqani ko'rish va o'rganishi orqali ma'naviy dunyoqarashi oshadi hamda vataniga muhabbat uyg'onadi, shuningdek, aholini sog'lomlashtirish, ish qobiliyatini tiklash va mehnat resurslarining faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xalqaro turizm - bu bir davlatdan boshqa davlatga uyushtiriladigan sayohatdir. U viza, meditsina tekshiruvi, valyuta almashtirish va boshqa ko'pgina tadbirlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro turizm ma'lum maqsadda uyushtirilgan marshrut yo'nalishi asosida guruh yoki yakka tartibda kechishi mumkin. Bunda eng avvalo sayyohlar shu davlatning o'ziga xos bo'lgan tarixiy obida va shaharlari, madaniyati, san'ati, urf odati bilan tanishish hamda boshqa betakror turistik ob'ektlaridan zavq olishdan iboratdir. Shuningdek, xalqaro turizm sport musobaqalari, ilmiy anjumanlar, konferentsiya, madaniy aloqalar, diniy marosimlar (masalan, haj safriga borish) bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Xalqaro turizm juda qadimdan rivojlanib kelgan. Chunki o'sha davrda mamlakatlar o'rtasida aniq chegaralar bo'lmaganligi, bir davlatdan ikkinchi davlatga, shaharlardan-shaharlarga borish hech qanday qiyinchiliklar tug'dirmagan. Ayni vaqtda shu davlatning hududida joriy etilgan tartib qoidalarga qat'iy rioya qilinganligi uchun savdo-sotiq, madaniyat, san'at va fanning dunyo miqyosida yoyilishida turizmning ahamiyati katta bo'lganligi tarixdan ma'lumdir.

Kasbiy sayohat qadimdan rivojlangan bo'lib, hozirgi paytda ham bu sayohat eng an'anaviy va faol hisoblanadi. Kasbiy, jumladan, ilmiy sayyohlik olimlar, ilm namoyondalari va boshqa kasb egalari tomonidan biror hudud, mintaqaning tarixiy, arxeologik joylarini tekshirish, aholisi, etnografiyasi, madaniyati va san'atini o'rganish hamda ilmiy anjumanlar, hamkorlikdagi ilmiy ishlarni bajarish, malaka oshirish yuzasidan qilgan safarlarining turizm bilan aloqadorligidir.

Sog'lomlashtirish, sog'liqni tiklash turizmi bevosita rekreatsiya turizmi bilan bog'liq bo'lib, kishilarning mehnat ta'tili vaqtlarida o'z salomatligini va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan faoliyatdir. Sanatoriya-sog'lomlashtirish rekreatsiya majmuiga kurort deyiladi. «Kurort» so'zi nemis tilidan olingan bo'lib, u «davolanadigan joy» ma'nosini anglatadi.

Diniy turizm halqlarning o'z diniga bo'lgan xurmati va e'tiqoti nuqtai nazaridan muqaddas qadamjoylar, shaharlar, qabriston va aziz sanalgan maskanlarga ziyorat qilishdir.

Sport turizmi - sport o'yinlariga, musobaqalarga va sport musobaqalari o'tkaziladigan mintaqaga yoki mamlakatga sportchilar bilan birgalikda muhlislarning tashrifi demakdir. Qayd etish joizki, hozirgi paytda turizmning bu tarmog'i katta daromad manbai sifatida tez o'sib bormoqda.

Turizm geografisi fanning fanlar tizimidagi ahamiyati. Tanishuv turizmi keng qamrovli bo'lib, sayyohlikning barcha tarmoqlari bilan chambarchas bog'liq. Turizmning bu tarmog'ida sayohat paytida sayyoh yangi joylar bilan tanishish, ko'rish bilan ma'naviy zavq oladi. Shuning uchun yuqoridagi turizmning funktsional turlaridan barchasida asosan bu tarmoqning bevosita ishtirok etishi xarakterlidir.

Shunday qilib, **turizm geografiyasi (TG) iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir bo'lagi bo'lib, u turli mamlakat va mintaqalarda sayyohlikning shakllanishi, rivojlanish va xududiy tashkil etish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o'rganadi.** TG hududiy harakat oqibatida, ya'ni yer yuzining turli tomonlariga geografik marshrutlar uyushtirish asosida vujudga keladi. Bu esa mintaqada xizmat ko'rsatish geografiyasini tashkil etish va rivojlantirishga ham sababchi bo'ladi.

Turizmning rivoji o'z navbatida jamiyat ishlab chiqarishining o'sishiga, uning tizimlarini yaxshilashga, iqtisodiyotning turizmga to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lmagan sohalarda ham mehnat unumdorligini oshirishga ko'maklashadi. SHuningdek, turistik iste'mol ko'p bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni rag'batlantiradi, noturistik tarmoqlar uchun qo'shimcha bozor ochadi va bu bevosita ishlab chiqarishni rivojlantirishga olib keladi (Komilova, 2001).

Demak, turizm sohasida qo'shimcha xizmatlarning paydo bo'lishi yangi ish joylarni vujudga keltirishga, turistlarni joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmatlarini tashkil etish, qo'shimcha xizmatlarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Buning uchun, bizningcha, mintaqaning ho'jaligi, aholisi, soni, tarkibi va boshqa xususiyatlarni o'rganish ham talab qilinadi. Quyidagi chizmadan ko'rish mumkinki, turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarni rivojlantirishda o'rni beqiyosdir.

Modomiki, barcha fanlar bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanar ekan, turizm geografiyasi ham ko'plab tabiiy va gumanitar fanlar bilan jumladan, rekreatsiya geografiyasi, tibbiyot geografiyasi, landshaftshunoslik, o'lkashunoslik, mamlakatshunoslik hamda iqtisodiyot, tarix, etnografiya, huquqshunoslik va boshqalar bilan bog'liq holda taraqqiy etadi.

Turizm geografiyasi o'z tadqiqot doirasida ayniqsa rekreatsiya geografiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Sababi har qanday turistik sayohat davomida kishilar ma'lum darajada dam oladilar, o'z kuch-quvvatini tiklaydilar. Ayni vaqtda rekreatsiya, ya'ni dam olish, davolanish paytida albatta vaqt-vaqti bilan turli sayyohlik tadbirlari o'tkaziladi, marshrutlarga chiqiladi. SHu jihatdan bu ikki tarmoq bir-birini to'ldirib turadi.

Turizmning geografik xususiyatlari. Sayohat inson tafakkurini kengaytiradi, dunyoni teran anglashga xizmat qiladi. Kishilar yer yuzining bir biriga o'xshash bo'lmagan joylarini ko'rishni xohlashadi. Demak, biror hudud yoki mintaqaga sayohatga chiqishda tabiiy sharoit katta ahamiyatga egadir. Aksariyat sayyohlar bo'sh paytlarida tabiat qo'ynida dam olish, ovchilik qilish, sport va boshqa mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni istashadi hamda sog'lig'ini tiklaydilar. Shuning uchun xorijiy davlatlardagi ko'plab turistik firma va kompaniyalar kengroq bu omillardan foydalanishga xarakat qiladilar. Bu o'rinda Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika, Markaziy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniya davlatlari turistik firmalari o'z xaridorlari bo'lgan Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari sayyohlarini ko'proq tabiati go'zal hamda ekzotik joylarini ko'rsatishga katta e'tibor qaratadi.

Dengiz bo'yi, o'rmon, tog' va tog'oldi rayonlaridagi davlatlar, O'rta dengiz havzasida joylashgan hamda Malayziya, Indoneziya, Singapur va boshqa shunga o'xshash mamlakatlar sayyohlarni keng jalb qiladi. Bu, o'z navbatida, tabiiy turistik imkoniyatning yuqoriligidan dalolat beradi. Shuningdek, tog' tabiati, landshafti, rel'efi, iqlimi, tog' sporti va boshqa xususiyatlari bilan sayyohlarni o'ziga qiziqtiradi. Bunday tog' turizmi Yevropaning Al'pida, Osiyoning Himoloyida, Afrikaning Atlas tog'larida, Amerikaning Kordil'erasida keng rivojlangan.

Turizmning ekologik jihatlari. Turizmni iqtisodiy geografik jihatdan baholashda aholi va uning xo'jalik faoliyatining o'sishi tabiatga, tabiiy muhitga salbiy ta'siri o'rganilsa, tabiiy geografiyada esa atrof-muhit, tabiiy komponentlar va landshaftlarning antropogen omil ta'sirida o'zgarishi bilan bog'liq muammolar tahlil etiladi. Ushbu masalalar bilan turizmning nisbatan yangi yo'nalishi bo'lgan ekologik turizm yoki ekoturizm shug'ullanadi.

1997 yil Braziliyada bo'lib o'tgan Butunjahon kongressida qayd etilgan ma'lumotga ko'ra dunyo bo'yicha jami sayohatga chiqqanlarning 12 foizi ekoturizmga ya'ni, «yashil» sayohatga chiqishgan. G'arb olimlarining baholashicha, 1993 yil ekoturizmdan tushgan daromad 30 mlrd. AQSH dollarini, ya'ni uning xalqaro turizmga daromad hissasi 10 foizni tashkil etgan. Sayohatning bu turi asosan AQSH, Kanada, Avstraliya, Nepal, Ekvador, Braziliya, Fillipin, Keniya, JAR davlatlarida tez rivojlanmoqda (Aleksandrova, 2002). Dunyo miqyosida turizmning eng yangi yo'nalishlaridan biri- «ekoturizm»ning asosiy maqsadi turistik marshrutlarni hududiy tashkil etishda atrof muhitni, tabiiy muvozanatni saqlab qolishga e'tiborni kuchaytirishdir. Shu nuqtai nazardan ekologik turizm umumiy ekologik muammolarni yechish bilan uyg'unlashib ketadi. Bunda turizm landshaftlar ekotizimida turistik salohiyatidan ularga zarar ko'rsatmagan

holda foydalanish jiddiy ahamiyat kasb etadi. Bu esa 1992 yilda Rio-de-Janeyroda BMT-ning atrof muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan konferentsiyasida qabul qilgan « barqaror rivojlantirish» tamoyiliga muvofiq keladi.

Turistik sayohatlarga chiqishdan maqsad sayohat paytida yangi joylarni ko'rish, tabiat go'zalligidan, toza tog' yoki o'rmon havosidan bahra olish, yovvoyi tabiat bag'rida dam olish, shuningdek, o'zga halq urf-odati, madaniyati, san'ati, tarixiy obidalarini ko'rishdan iboratdir. Binobarin, ekologik toza hudud ajoyib tabiat va boshqa rekreatsiya resurslari ekoturizmning muhim ob'ekti bo'lishi bilan birga, ayni vaqtda ekologik tang hududlarni ham tadqiq qilish ahamiyatdan xoli emas.

Ekologik turizmning o'sishini shundan ham ko'rish mumkinki, asosiy xalqaro turistik marshrutlar go'zal ekzotik tabiati va betakror turistik resurslari mavjud bo'lgan Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Amerika, Afrika davlatlariga, Gavayya orollariga to'g'ri kelmoqda. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro turizm bozorida ekoturizmning hissasi hozirgi vaqtda 1/5 ga yetdi.

Respublikamiz tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at, musiqa va boshqa turistik imkoniyatlarga nihoyatda boy. Bundan tashqari, O'zbekistonning betakror tabiati, tog' va daryolari, cho'l va vohalari, ko'l va landshaft zonalari asosiy rekreatsiya resurslaridir. Ularni ekoturizm nuqtai nazaridan o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dengiz va okeanlarda nihoyatda katta turistik imkoniyatlar mavjud. Keyingi paytlarda dunyo okeani bo'ylab yer sharining turli qismlariga sayohatlarga chiquvchilar soni tez o'sib bormoqda. Chunki, dengiz sarguzashtlari, iqlimi, go'zalligi, tabiati, hayvonot dunyosi, orollarining o'ziga xos tabiati bilan tanishish kishiga zavq bag'ishlaydi.

O'rmon ham dam oluvchi va tabiat qo'yniga sayr qiluvchi sayyohlarni o'ziga tortadi. O'rmon o'zining kislorod zaxirasi, o'simlik va xayvonot dunyosi bilan, shuningdek, sog'lig'ini tiklovchi va sokinlikni istovchi sayyohlar uchun muhim turistik ob'ekt hisoblanadi. SHu bois, botanik bog'lar, parklar, milliy bog'lar sayyohlarning eng gavjum joylaridir. Daryo va ko'llar o'ziga xos landshaft, mikroiklim hususiyatlari kishilarning asosan mavsumiy dam olishi, baliq tutishi, suv sporti, cho'milish joylari (plyajlar) va hokazolar sayyohlarni qisqa vaqt davomida maroqli dam olishini ta'minlaydi. Bejis emaski, hozirgi paytda ko'plab dam olish uylari ushbu turistik ob'ektlarda qurilgan. Turizm yaxshi rivojlangan Italiya, Shvedsariya, Ispaniya kabi mamlakatlarda mahalliy va chet ellik sayyohlar uchun turistik firmalar tomonidan har xil marshrutlar asosida ekskursiyalar ko'proq daryo va ko'llarga uyushtiriladi. Bunda daryo va ko'llarning ekologik jihatdan tozaligini saqlab qolish nazarda tutiladi.

Respublikamizda ham qator katta va kichik daryo va ko'llar, suv omborlari mavjud bo'lib, ularning turistik salohiyati hozircha uncha ko'ngildagidek emas. Binobarin, bunday gidrologik ob'ektlaridan samarali foydalanish uchun avvalo keng ko'lamli geografik va kartografik tadqiqotlar o'tkazish, sayyohlik bilan shug'ullanadigan firma va kompaniyalar qiziqishini oshirish lozim. Masalan, Samarqand shahri va uning atrofi ko'l va bog'lari nihoyatda turizm uchun qulay. Ammo shaharni kesib o'tgan Zarafshon daryosi qirg'oqlariga faqatgina tartibsiz mavsumiy, mahalliy sayyohlar kelib ketadi, xolos. Vaholonki, shaharning qulay turistik imkoniyati va demografik sig'imini hisobga olib, Zarafshon daryosi sohilida, Samarqand dengizi (Xishrav suv ombori) va boshqalarda turistik xizmatni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Orol dengizi va Orolbo'yi hududlari ekologik tang zona hisoblanadi. Bu hududga bevosita tanishtiruv ahamiyatiga ega bo'lgan ekoturistik sayohatlar uyushtirish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'lkamizda qator baliq-ko'llar (mozorlar) mavjud bo'lib, ular Baxmal, Nurota, Yangiqo'rg'on va boshqa tumanlarda joylashgan. Albatta bunday ob'ektlarni ham mahalliy va xalqaro turizm dasturlariga kiritish lozim.

Tarixiy obidalar ekoturizmi. O'zbekistonning boy tarixi, uning bosib o'tgan yo'li va shon-shuhratidan dalolat beruvchi tarixiy obidalar uzoq yillardan beri saqlanib kelinmoqda. Biroq, keyingi yillarda aholi soni va ehtiyojining o'sishi, shaharlarning kengayishi va rivojlanishi (urbanizatsiya) sanoat hamda transportning yuksalib borishi ta'sirida bunday ob'ektlarda ekologik vaziyatning keskinlashuvi yuzaga kelmoqda. Demak, aytish mumkinki, tabiiy muhit,

tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi nomutanosiblik oxir oqibat ekologik vaziyatning yomonlashuvi, ekoturistik vaziyatning salbiy ko'rinishini vujudga keltiradi.

Tarixiy yodgorliklar bilan tanishish respublikamizda juda ko'p bo'lgan qadimiy shahar xarobalarini bevosita ko'rishni ham nazarda tutadi. SHu jihatdan Axxi, Afrosiyob, Ayozqal'a, Kampirqal'a, Tuproqqal'a, Pop, Nasaf, Kosonsoy kabi shahar qoldiqlari sayyohlar diqqatini o'ziga jalb qilishi mumkin.

Tog' ekoturizmi bevosita tabiat bilan inson o'rtasida o'zaro to'qnashuvi qay tarzda kechishi bilan bog'liq. Yurtimizdagi ko'plab tabiat go'shalari borki, u bevosita sayyohlarning dam olish va sog'lomlashtirish vazifasini bajaradi. Binobarin, tog' hududidagi hushmanzara joylar chet ellik sayyohlar uchun ochilmagan qo'riqdir. Biz ularni qiziqтира olsak, har bir sayyohni tabiat qo'ynida dam olish va sog'lig'ini tiklashga erisha olsak ekoturizmning imkoniyatlari nihoyatda kengayadi. Ammo buning uchun ekologik vaziyat va turizm xizmatini yaxshilash talab etiladi. Mahalliy sayyohlarning mavsumiy dam olish paytlaridagi tartibsizligi natijasida o'simlik va xayvonot dunyosining payhon qilinishi, lola, ravoch, kiyik o'ti, tog' piyoz kabi noyob, tibbiyotda foydalaniladigan o'simliklarning yo'q qilinishi shu joylarda noxush ekologik vaziyatni yuzaga keltiradi. Bunday hududlarni qo'riqlash, avaylab asrash, dam olishni va turistik marshurutlarni to'g'ri tashkil etish lozim. SHu maqsadda ekoturistik tadqiqotlar o'tkazish va quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

-tog'lardagi hushmanzara va noyob tabiat go'shalarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, buning uchun maxsus qo'riqxona va milliy bog'lar (parklar) tashkil etish;

-hududlarni turistik rayonlashtirish va ularni ekoturistik nuqtai nazardan baholash;

-sog'liqni saqlash xodimlari tomonidan shifobaxsh joylarni o'rganib chiqish;

-tog' ekoturizmini rivojlangan davlatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda yo'lga qo'yish

Turizm turlari va klassifikatsiyasi

Hozirgi zamon turizmini klassifikatsiya qilish uchun eng avvalo uning asli mohiyatini ochib beradigan belgilarni aniqlash maqsadiga muvofiqdir. M.Eferemovanning (1998 y) fikriga ko'ra turizmning asl mohiyatini geografik belgilar, turistik oqimlarning yo'nalishi, maqsadi, mablag' bilan ta'minlanganligi, harakatlanishi, joylashishi, turistlar soni, tashkiliy va huquqiy asoslari ochib beradi.

Ushbu belgilarga ko'ra M.Efrimova (1998 y) tomonidan turizm quyidagicha klassifikatsiya qilinadi.

TURIZM KLASSIFIKATSIYASI

| Klassifikatsiya belgilari | Turizm turlari |
|--------------------------------------|---|
| 1. Geografik belgilar | Ichki, xalqaro |
| 2. Turistik oqimlar yo'nalishi | Kelishi, ketishi |
| 3. Maqsadi | Rekratsiya, davolanish va dam olish, ko'rish (ekskursiya), tadbirkorlik (ish yuzasidan), ilmiy, sport va dam olish, shop-turizm, qiziqish, ziyorat qilish, ekoturizm, ekzotik va boshqalar. |
| 4. Mablag' bilan ta'minlanish manbai | Ijtimoiy, savdo |
| 5. Harakatlanishi | Piyoda, samalyotda, dengizda, daryoda, avtomatika bilda, poezda, velosipeda, aralash |
| 6. Joylashish joyi | Mehmonxonada, motel'da, pansionotda, kemping, palatkada |
| 7. Turizmda qatnashuvchilar | Yolg'iz, oilaviy, guruh |
| 8. Tashkiliy shakli | Tashkiliy, ixtiyoriy |

Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida turistlarni guruhlariga ajratishning har biriga to'xtalib o'tamiz.

Ichki turizm. Agar turist o'z yashab turgan mamlakat hududdan chiqmasdan sayohat qilsa, turizmning bunday shakliga ichki turizm deb ataladi. Bunday turistlar uchun viza kerak emas,

o'zining milliy pulidan foydalanadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda turistik sayohatlarga chiqishning 90%i ichki turizmga to'g'ri keladi. Ichki turizmning rivojlanishi har bir mamlakatda turistik resurslardan foydalanish, turizm infra tuzilmalarini rivojlantirish, turizm bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi.

Keyingi yillarda xalqaro turizm bilan ichki turizm orasida bir-biriga yaqinlashuv yuz bermoqda. 1985 yil iyun oyida Yevropa davlatlarining bir guruhi Gollandiya, Bel'giya, Germaniya, Frantsiya, Lyuksenburg, Italiya kabi davlatlarning hukumat boshliqlari Shengel hamkorligiga imzo chekdilar. Keyingi yillarda Yevropa davlatlarining 12 tasida yagona pul muomalasi «Evro»ga ega bo'ldilar. Bu esa Ushbu mamlakatlarning barchasida pul, tovar va turistlarning erkin harakat qilish imkoniyatini beradi. Ushbu davlatlarda yagona viza siyosati amalga oshirildi. Bu esa Yevropaga turistlar oqimining ko'plab kelishi va ularning viza uchun mablag' va vaqt sarflanmasligiga olib keldi.

Xalqaro turizm. Turistlarning bir mamlakatdan baoshqa mamlakatga tomosha qilishga, ko'rishga, dam olishga, davolanishga borishidir. Xorijiy mamlakatlarga pul ishlab kelish uchun borish turizmga kirmaydi. Agar turist bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga kamida 24 soat tursa, bunday kishilar turist hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarga sayohatga chiqishdan oldin sayohatga chiqayotgan kishilar uchun viza ochiladi, ular tibbiyot ko'rigidan o'tkaziladi, milliy pul, xorijiy mamlakat puliga almashtiriladi. Bunday ishlarining amalga oshirilishi eng avvalo aholini noqonuniy migratsiyasiga, xalqaro terrorChilikka harakati, narkotik moda va fohishabozlikka qarshi kurash uchun amalga oshiriladi.

Xalqaro turizmning ikkinchi o'ziga xos xususiyati yana shundan iboratki, xalqaro turizm mamlakat iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Chet ellik turistlarning tavar va turizm xizmatlari uchun to'lovlar mamlakatga val'yuta tushumining ortishiga olib keladi. SHu sababli xalqaro turizm faol turizm deyiladi. Shu bilan birga turistlarni eksport qiluvchi mamlakatlarda pulning bir qismi turistlar bilan chiqib ketadi. Shu sababli faqat turistlarni eksport qiluvchi mamlakatlardagi turizm passiv turizm deyiladi.

Xalqaro turizm qatnashuvchi turistlarning 65 foizi Yevropa mamlakatlariga, 29 foizi Amerikaga, 15 foizi boshqa mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Kelish turizmi- biror mamlakatga turistlarning kelishi.

Ketish turizmi- biror mamlakatdan turistlarning ketishi.

Rekreatsiya turizmi-turistlarning o'z yurti yoki biror bir mamlakatga dam olishi uchun borishidir. Ispaniya, Italiya, Frantsiya va Avstriyaga boruvchi turistlar ko'proq dam olish uchun boradilar.

Davolanish turizmi. Ushbu tardagi turizm shaxsiy xarakterga ega bo'lib, ko'p hollarda turistlar o'z sog'lig'ini tiklash, ya'ni davolanish uchun bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga boradilar. Davolanish turizmining muddati ko'p hollarda 24-29 kunni tashkil qiladi. Davolanish turizmi organizmga ta'sir ko'rsatishiga qarab, iqlimiy, dengiz iqlimida davolanish, shifobaxsh balchiqqa, quyosh nurlarida davolanish kabi turlarga bo'linadi.

Ko'rish (ekskursiya) turizmi. Turizmning Ushbu turi biror bir mamlakat hududini tamosha qilish uchun tashkil qilinadi. Sayohat qilishdan asosiy maqsad-turistlarning dunyoqarashini kengaytirishdir. Tomosha qilish uchun sayohatga chiqishning muhim turlaridan biri avtomobillarda, avtobuslarda sayohat qilish hisoblanadi.

Tadbirokarlik turizmi. Turizmning Ushbu turida turistlar ma'lum bir maqsad yuzasidan bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga boradilar. Ish yuzasidan amalga oshiriladigan turistlarga davlat yoki biror bir tashkilot tomonidan safar xarajatlari to'lanadi. SHu sababli ko'pChilik davlatlar o'zlarida ko'proq xalqaro yig'ilishlar o'tkazishga harakat qiladilar. Tadbirokor turizmida savdo-sotiq ishlarini tashkil qilish, ilmiy kongres, anjuman, ishlab chiqarish seminarlari, stanoklarining Yangi texnologik linyalarini ishga tushirish, xalqaro ko'rgazmalar, shartnomalarni imzolash ishlari amalga oshiriladi. Ushbu turizmga umumiy turistlar oqimining 10-20 foizi to'g'ri keladi. (M.Efrimova, 1998 y)

Ilmiy turizm. Bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga o'qish malakasini oshirish uchun

boriladigan turistlar ilmiy turizm deb ataladi. Ilmiy turizm turlaridan bir tilni o'rganish uchun tashkil qilinadigan turizmdir. Turizmning ushbu turi Buyuk Britaniyada rivojlangan.

Sport turizmi. Turizmning Ushbu turi sportchilarning turli musobaqalarda qatnashishi, ma'lum sport turi bo'yicha tayyorgarlik ko'rish uchun joy mamlakatlarga borishidir.

Shop turizmi. Rossiya va boshqa xamdo'stlikdagi mustaqil davlatlarning xalqlari uchun xos bo'lib, ular xorijiy mamlakatlarga har xil tovarlar sotib olishi va uni o'z mamlakatida sotishi uchun borishadi. Jumladan turistlar Turkiya, Italiya, Portugaliya va Suriyaga poyafzal, trikotaj va boshqa tovarlar sotib olish uchun borsa, Hindistonga to'qimaChilik mahsulotlarini sotib olish uchun Gretsiya va Argentinaga mo'yna, po'stin sotib olish uchun, Italiyaga radio sotib olish uchun borishadi. Turizmning ushbu turi hisobiga tovar sotuvchi mamlakatlar katta foyda oladilar. Jumladan, Turkiya turistlarga tovar sotish evaziga yiliga 8-10 mlrd dollar foyda oladi.

Tasodiflar turizmi. Turizmning Ushbu turi yovvoyi hayvonlarni ov qilish, baliq ovlash, qadimgi boyliklarni izlab topishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradi. Tasodiflar turizmi quyidagi turlarga bo'linadi.

- a) paxodlarga chiqish;
- b) ovga chiqish (ov qilish, baliq ovlash, kapalak tatish);
- v) dengizda yelkanli kemada suzish.

Turizmning bunday turi ko'p hollarda guruhlar asosida amalga oshiriladi. Turizmning Ushbu turi uchun maxsus ruxsatnomalar sotib olinadi. Bundan tashqari turizmning Ushbu kishi hayoti uchun xavfli bo'lganligi sababli yuksak malakali instruktorlar jalb qiladi. Tasodiflar turizmi juda qimmatga tushadi. Shu sababli uni elletar dam olish turiga kiritiladi.

Diniy ziyorat qilish turizmi Turizmning ushbu turi aholi o'rtasida keng tarqalgan. Ziyorat qilish turizmi bir nechta turlarga bo'linadi:

- a) muqaddas joylarni ziyorat qilish;
- b) muqaddas joylarni ko'rish, ularning tarixi, madaniyatini o'rganish;
- v) ilmiy safar diniy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchilarning muqaddas joylarga borishi.

Turizmning Ushbu turi uchun eng muhim muammolaridan biri yuqori malakali gidlarni tayyorlash hisoblanadi.

Qo'msash (nostal'gik) turizmi Turizmning Ushbu turida sayohatchilar o'zlarining tug'ilib o'sgan joylarini borib ko'radilar. Turizmning Ushbu turi xalqaro turizmدا muhim rol o'ynaydi. Jumladan, Gretsiyadan chiqqan turistlar Volga bo'yida, yaxudiyalar Isroilda yashovchi yaxudiyalar orasida katta hurmatga sazovor bo'ladilar.

Ekoturizm. Atrof muhitni muhofoza qilishga qaratilgan turizmdir. Ekoturizm turistlarni tabiat quchog'iga olib chiqishdan tashqari, milliy bog'lar, qo'riqxonalar tuzishgacha bo'lgan muammolarni o'z ichiga oladi.

Ekzotik (antiqa) turizmi. keyingi yillarda tarkib topa boshladi. Jumladan, Gretsiyaning «Manos Treval» turistik firmasi oyiga sayohat qilishni rejalashtirmoqda Frantsiyaning «Ajara» turistik firmasi muzyorar kemada Antarktida va Arktikaga sayohat qilishni rejalashtirmoqda. Antarktidaga bunday turistik sayohat 1989 yilda tashkil qilingan edi.

1997 yilda Antarktidaga 10 mingga yaqin 9 ming dollardan 16 ming dollargacha safar xarajatlarini to'laganlar. Ayrim turistlar suv ostiga sayr qilishni yaxshi ko'radilar. 1996 yilda dengiz va okeanlar tagiga sayr qilgan sayyohatlar 2 mln.dan oshadi. Suv ostiga sayr qilishni tashkil qilish evaziga firmalar tamonidan 147 mln dollar foyda olindi. (M.Efrimova, 1998 y).

Keyingi yillarda turistik firmalarga daromad keltiradigan turizm turlaridan bir kelin-kiyovlar sayohati hisoblanadi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning «Tompson xoldeyz» turistik kompaniyasi yiliga 5 ming kelin-kiyovlar uchun chipta sotadi. Tajribalar shuni ko'rsatadika, ko'pChilik kelin-kiyovlar Karib dengizi havzasi, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Italiya, AQSHda o'zlarining asal oyini o'tkazishini yaxshi ko'radilar.

Ijtimoiy rag'batlantirish turizmi. Ushbu turizm davlat tomonidan aholining ma'lum qatlami uchun ijtimoiy yordam sifatida ajratilgan mablag' hisobiga amalga oshiriladi. Turizmning ushbu turi evaziga daromadi kam kishilarning dam olishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Tashkiliy turizm. Yakka holda yoki guruh holda turistik tashkilotlar tomonidan uyushtiriladi. Bunday turistlar turistik yo'llanmalarga ega bo'ladilar.

Ixtiyoriy turizm odamlarning bir biriga tashkilotga bog'liq bo'lmagan holda sayohat qilishidir.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танкидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Қурбониезов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sayohat deganda nimani tushunasiz?
2. İlk sayohatchilar kimlar?
3. Ko`chmanchilarni sayohatchilar deyilishiga sabab nimada?
4. Ziyoratchilar qanday maqsadda sayohat qilishgan?
5. Savdogarlar sayohati haqida nimalarni bilasiz?
6. Nima uchun Tomas Kukni turizmning asoschisi deyiladi?
7. Turizmning ta'rifini aytib bering?
8. Turizmning sayohatdan farqi nimada?
9. Vatandoshlarimizdan kimlarni ilk sayohatchilar qatoriga qo`shishimiz mumkin?
10. Turizmning rivojlanishiga sabab bo`lgan voqealar qaysilar?

Ma'ruza 2: Turizmni rivojlantirish omillari

Reja

1. Turistik qadamjoylar yoki ob'ektlar
2. Turizmni rivojlantirish omillari
3. Turizmning maqsadiga qarab tasniflanishi
4. Respublikamizda turizmni rivojlantirishda qabul qilinayotgan farmon va qarorlar

Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar): Turizmni rivojlantirish omillari, Butunjahon turistik tashkilot, turizm, sayohat, sayoxatchi, sayohat tashkilotlari, sayohat motevatsiyasi, sayohat bosqich, kapital, region, arxitektura, ekologiya, statsional turizm

Butunjahon turistik tashkilotining hisobotida turizmni barqaror rivojlantirishning 10 ta dasturi bayon etilgan bo'lib, unda «ekoturizmni rivojlantirish uchun iqlim o'zgarishi, chiqindilarni nazorat qilish, yerlardan barqaror foydalanish, bioxilma-xillikni va alohida muhofaza etiladigan hududlarni saqlash masalalariga alohida e'tibor berish»¹ lozimligi ta'kidlangan. Shu bois ekoturizmni rivojlantirishda ekotizimlarning barqarorligini saqlash, bioxilma-xillikni va tabiat yodgorliklarini asrashni ilmiy asosda tashkil etish, ekoturizmni barqaror rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahon amaliyotida ekoturizmni rivojlantirishda tabiat yodgorliklari, alohida muhofaza etiladigan hududlar, ekotizimlarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. SHuningdek, ekoturizmning davriyligini uzaytirish, hududiy tarkibini takomillashtirish, komplekslik imkoniyatlarini aniqlash hamda samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda turizm va uning (eko, agro, tarixiy, diniy, ekstremal, shop) tarmoqlarida xizmat turlarini shakllantirish, hududlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, turfirmalar sonini ko'paytirish va ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish» hamda «odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash»² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, tabiiy sharoiti va ekotizimlari turlicha bo'lgan Namangan viloyatida ekoturizmning hududiylik, davriylik va komplekslik hususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2018 yil 3 fevralda PF-5326-son «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, 2018 yil 6 fevralda PQ-3509-son «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2018 yil 7 fevralda PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Turizmni samarali tashkil etish va olib borish uchun turistik ob'ektlar, unda faoliyat olib boruvchi mutaxassilar va sayyohlarga qo'yiladigan bir qator minimal va maksimal talablar mavjud (M.B. Birjakov 2005). Ilmiy, amaliy adabiyotlar va internet veb-saytlaridan keng foydalangan va ularni tahlil qilgan tarzda biz ***turistik qadamjoy yoki ob'ektlarga qo'yiladigan umumiy talablar:***

- aniq bir maqsad va vazifalarni bajarish imkoniyatiga egaligi;
- sayyohlarni 24 soatdan ortiq yashashi uchun sharoitning mavjudligi;
- turistik xavfsizlikni ta'minlanganligi;
- transport logistikasining yo'lga qo'yilganligi;
- turistik marshrutlarning ishlab chiqilganligi;
- turistik servis va xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yilganligi;
- turistik ob'ektlar bo'yicha sayyohlarni qiziqtiruvchi ma'mulotlarni yetarli darjada egaligi;
- turlarni turistik ob'ektlar bo'yicha gidlar bilan ta'minlanganligi;
- sayohatbob axborot-kartografik kabi ma'lumotlar bilan ta'minlangan va h.k.

¹<https://www.e-unwto.org>. UNWTO Annual report. 2017

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони

Turistik qadamjoylar yoki ob'ektlarda faoliyat olib boruvchi mutaxassislar bilan ta'minlash talablari quyidagilardan iborat:

- turizmni tashkil etish va uni samarali olib borishda zarur bo'lgan tegishli ixtisoslik va mutaxassislarning mavjudligi;
- ularni doimiy ravishda malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yo'lga qo'yilganligi;
- innovatsion va tadbirkorlik xarakterga egaligi;
- chet tillarni yaxshi bilishi va axborot kommunikatsiya tizimlaridan atroflicha foydalana olishi;
- ijtimoiy-psixologik jihatdan maqbulligi;
- turistik ob'ektlar bo'yicha atroflicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi va yuqori darajadagi kasbiy kompetentligi va h.k.;

Yuridik yoki jismoniy shaxsni "turist" maqomiga ega bo'lish uchun quyidagi talablarga javob berishi zarur, deb hisoblaymiz:

- o'z oldiga aniq bir sayohlik maqsadi va vazifalarini qo'yishi;
- turistik ob'ektlarga doir iloji boricha to'liq va atroflicha ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- sayyohlik maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan tarzda unga tayyorgarlik ko'rishi;
- turistik xavfsizlikni ta'minlash uchun kerakli bo'lgan barcha sharoitlarni baholay olishi va uni ta'minlashi;
- bir sutkadan ortiq muddatga qolish imkoniyatining mavjudligi va h.k.;

Keyingi o'n yilliklar mobaynida turizm shu qadar jadal rivojlanib bormoqdaki, uning amaliyoti ilmiy-nazariy asoslariga nisbatan ilgarilab ketdi. Turizm turlarini tasniflashda (klassifikatsiyalashda) esa uning vizual ko'rsatgichlari, ya'ni ko'zga tashlanadigan indikatorlari olinmoqda. Masalan – tog' turizmi, qishloq turizmi, tabiiy turizm, daryo turizmi, dengiz turizmi va h.k. (Erdavletov S.R.,2000). Lekin turizmni ushbu amaliy-vizual sinflash ilmda ko'pgina chalkashliklarga va noaniqliklarga olib kelmoqda. Masalan, "tabiat qo'yni"ga turistlarning noekologik maqsadlarda (sport bilan shug'ullanish, baliq yoki hayvonlarni ovlash, xordiq chiqarish yoki cho'milish, davolanish yoki dorivor o'simliklarni yig'ish, tabiat qo'ynida ovqatlanish) sayohatlari ekoturizm deya e'tirof etilmoqda (Nigmatov A., SHamuratova N., Xolov Ya.,2013). Qishloq joylarda yashash orqali joyning agrosanoati bilan tanishish esa qishloq turizmi deya ta'riflandi (Nigmatov A.N., Yakubjonova Sh.T.,2007,2008).

Tasniflash yoki klassifikatsiya – bu biror hodisa, jarayon, holat yoki voqelikni ma'lum bir ko'rsatkichlariga qarab *tizimli darajalash yoki turkumlash*

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki (B.Kamolov,2017) ko'p tarmoqlashayotgan va jadal sur'atlarda rivojlanayotgan turizmni tasniflash o'ta muhim amaliy–ilmiy va nazariy ahamiyat kasb etmoqda. Turizmni tasniflashda mutaxassislarning e'tibori ko'proq uning ob'ektiga, ya'ni sayyohlarning tanlagan manziliga qaratilmoqda. Namangan viloyatida olib borilgan anketa-so'rovnoma natijalari ham ko'rsatib berdi

Turizmni tasniflashda anketa-so'rovnomalardan foydalanish

| T\r | Qo'yilgan savollar | Javob (ko'rsatib o'tilgan javoblardan birini tanlang va qo'shimcha savollarga aniqlik kiriting) | Natijalar % hisobida |
|-----|------------------------------------|---|----------------------|
| | Kasbingiz | Tadbirkor | 18 |
| | | Pedagog | 23 |
| | | Boshqa soha vakillari | 59 |
| | Sayyohlikka bo'lgan munosabatingiz | Ijobiy | 63 |
| | | Salbiy | 18 |
| | | Befarqman yoki o'ylab ko'rmadim | 19 |
| | Qay bir sayyohlik turi | Tarixiy turizm | 47 |

| | | | |
|--|---|---------------------------|----|
| | Sizga ma'qul | Diniy turizm | 30 |
| | | Turizmning boshqa turlari | 23 |
| | Siz ma'lum bir turizm turini tanlashda nimani asos qilib oldingiz | Imkoniyatimni | 17 |
| | | Yuzaga kelgan sharoitni | 10 |
| | | Oldimga qo'ygan maqsadni | 73 |

Shunday qilib turizmni sinflashtirishda sayyohning nima maqsadda 24 soatdan 6 oygacha safar qilishi va mehnat vazifasiga kirmagan hayot faoliyati asosiy ko'rsatgich ekanligi viloyatning turistik imkoniyatlarini jadval orqali ochib berishda qo'l keldi.

Turizmning maqsadiga qarab tasniflanishi

| T/r | Turizm turlari | Turizmning maqsadi |
|-----|---------------------------|--|
| | Tarixiy turizm | Joyning tarixini o'rganish |
| | Diniy | Diniy qadamjoylarni ziyorat qilish |
| | Rekreatsiya | Dam olish va xordiq chiqarish |
| | Nozo (tibbiyot) turizmi | Salomatlikni tiklash va reabilitatsiya qilish |
| | Sport turizmi | Joyning sharoitidan jismoniy tarbiyaga erishish |
| | Agro yoki qishloq turizmi | Agrar sohani o'rganish orqali qishloq xo'jaligini aniqlash |
| | Ekstremal turizm | An'anaviy yoki noan'anviy ekstremal holatda dam olish va xordiq chiqarish |
| | SHop turizmi | Joy sharoitidan tijorat bilan shug'allanish |
| | Ekologik turizm | Ekotizimlarga tashrif buyurish orqali atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish |
| | va h.k. | Muayyan maqsadlarni ko'zlash |

Yuqorida biz **tarixiy turizm** ta'rifini misol tariqasida berdik. U jahon turizm industriyasida qadimdan eng ommalashgan turizm turi bo'lib hisoblanadi. Chunki har bir davlat va millatning o'z tarixi bor va uni tasdiqlovchi qadamjoylari mavjud. Har bir davlat yoki ma'muriy birlik o'zining tarixiy yodgorliklari, muzeylari va obidalarini orqali keng jamoatchilik oldida milliy qadriyatlarni targ'ib qiladi, ma'naviyati va ma'rifati namoyon etadi. Bunga O'zbekistonning dunyoga mashhur bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, SHaxrisabz, Toshkent, Namangan kabi shaharlarida hanuzgacha saqlanib qolgan va respublikamiz mustaqilligi tufayli kundan kunga o'z ko'rkini hamda sayyohlik jozibadorligini oshirib borayotgan tarixiy obidalarini va arxeologik manbalarini misol qilib olsak bo'ladi. Tarixiy turizmning maqsadi: sayyohlik tashkil etilgan joyning yoki ob'ektning tarixi bilan tanishtirish orqali milliy qadriyatlarni saqlash, ma'rifatni targ'ib qilish va ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilgan sayyohlik turidir.

Diniy turizm tarixiy turizm kabi eng qadimiy sayyohlik turlaridan biridir. Uning maqsadi asosan uchta vazifani o'z tarkibiga qamrab oladi. *Birinchisi*, diniy aqida, farz va urf-odatlarini shaxs tomonidan ro'yobga chiqarishga xizmat qilish. Bunga musulmonlar, ya'ni islom dinini e'tiqod qiluvchilarning 5 ta farzlaridan biri bo'lib hisoblangan "Xaj" va "Umra" safarini ado etishlari uchun Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina shaharlariga qiladigan sayyohatlari. Katoliklarni Italiya hududida joylashgan va alohida bir mamlakat tariqasida ro'yxatga olingan hamda Rim papasi qarorgohi joylashgan Vatikanga qiladigan sayyohatlari. Iudey va Xristian dini provasavlarining Ierusalimga, buddizmdagilarni esa bir qator Osiyo qit'asi mamlakatlarida joylashgan buddu obidalariga qiladigan sayyohatlarini misol tariqasida olish mumkin. *Ikkinchisi*, muayyan bir dinni yuzaga kelishi, rivojlanishi va ommalashuvida rol o'ynagan diniy shaxslar bilan bog'liq bo'lgan qadamjoylarga qiladigan sayyohatlar. Bularga O'zbekiston Respublikasining barcha hududlaridagi azim-avliyolar Al-Buxoriy, At-Termiziy, Zangiota,

Mullaoxun kabi shaxslarning ruxi poklari yotgan joylariga sayyohatlarni misol qilib keltirish mumkin. *Uchinchisi*, diniy qadamjoylar – maqbara, masjid, exromlar, haykal, budda, muzeylar kabi sayyohlik ob'ektlari kiradi. SHunday qilib diniy turizmning maqsadi – diniy farz, odat, ko'nikma va o'ziga xos hususiyatlari bilan sayyohlikni tashkil etish, olib borish va hisobini yuritishdir.

Rekreatsiya so'zi polyakcha “rekrasiya” – dam olish, lotincha esa “rekratio”- sog'liqni tiklash degan turli ma'nolarni anglatadi. Zamonaviy turistik tasniflashda (Yu.P.Suprunenko, 2005) sog'liqni tiklashga tegishli ijtimoiy munosabatlar “nozoturizm” yoki “medikoturizm” taksonomik birligi alohida tur sifatida ajratilib ko'rsatilmoqda. SHuning uchun ham *rekreatsiyani shaxsning dam olishi va hordiq chiqarishi maqsadida uyushtiriladigan alohida sayyohlik turi* deb ajratish maqsadga muvofiqdir.

“*Nozoturizm*” yoki “*Medikoturizm*”, rekreatsiya turizmidan farqli ravishda, shaxsga ikki funksional turistik vazifalarni, ya'ni odamning sog'lig'ini saqlash va muhofaza qilish hamda ularni rehabilitatsiya qilish yoki buzilgan salomatliklarini qayta tiklash yo'naltirilgan boshqaruv, menejment va marketingdir. Bizningcha uning hududiylik ko'rsatgichlariga qarab, to'rt turga – lokal (mahalliy sharoit va imkoniyatlardan), milliy (davlatning sharoiti va ichki imkoniyatlaridan), regional (mintaqaviy sharoit va imkoniyatlar), global (jahondagi nozogeografik imkoniyatlardan) foydalangan tarzda uyushtirilgan sayyohlikdir. Ma'lumki aksariyat kasalliklarni davolash uchun O'zbekiston aholisining 14-17 mingga yaqini Germaniya, Hindiston, AQSH, Rossiya kabi davolanish maskanlarida xirurgiya operatsiyalarini o'tkazib kelmoqdalar O'zbekistondagi mavjud davolanish maskanlarida Markaziy Osiyo davlatlaridan yiliga 3000-4000 kishi Turkmaniston, Qozig'iston va Qirg'iziston respublikalaridan kelib o'z salomatliklarini tiklab ketmoqdalar.

Aholining sog'lom turmush darajasi va sportchilarga bo'lgan jamiyat- davlat e'tiborining oshib borishi, transport logistikasini tarmoqlashuvi, global miqyosda jahon urushlarining bartaraf etilganligi “*Sport turizmi*”ni ommalashib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bunga turli miqyosdagi sport o'yinlari va musobaqalarining doimiy ravishda o'tkazilishi, unda barcha mamlakatlardan kelgan turli yoshlarning keng tarmoqlashgan sport turlariga bag'ishlangan musobaqalarining muntazam ravishda yil bo'yi o'tkazilishi uning o'ziga xos turizmi sifatida shakllanishiga olib keldi. SHunday qilib sport turizmining maqsadi – shaxsning sport bilan shug'ullanishi, musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazilishini tashkil etish, olib borish va hisobini yuritishiga doir pul to'lanmaydigan sayohat turidir. Agarda ushbu musobaqalarda ishtirokchilarga pul to'lanadigan bo'lsa u sayyohlikka kirmaydi.

Agroturizm qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun uning turistik imkoniyatlaridan keng foydalanish (A.Nigmatov, SH.Yakubjanova, 2010). Ushbu maqsadda nafaqat joyning qishloq xo'jaligini rivojlantirish, balki ma'rifiy va ma'naviy maqsadlarni ko'zlagan xolda ham tashkil etilgan sayyohlik agroturizmga kiradi. Bunda qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'ziga xos ravishda joylashtirilish va yetishtirish texnologiyalari, yig'ishtirib olish, saqlash va realizatsiya qilish usullari, ushbu jarayon bilan bog'liq etnografik jarayonlar (urf-odatlar, marosimlar, bayramlar) ham kiradi. Agrofirma va uning tarmoq tarkibidagi majmualarning ish faoliyatini bilan yaqindan tanishtirish, ko'rgazmalar o'tkazish va muzeylar bilan tanishtirish ham agroturizm ob'ekti bo'la oladi.

O'zbekistonda agroturizmni yo'lga qo'yishda Sh.T.Yakubjonovanning ko'p yillik olib borgan tadqiqotlari (2008-2014 yy.) uning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishda katta xissa qo'shdi. U *agroturizm ob'ektlariga* agromajmualar: ekin maydonlari (paxta, g'alla, sholi maydonlari), chorvachilik (qorako'lchilik, yilqichilik kabilar) komplekslari, baliqchilik, asalarichilik, pillachilik, parrandachilik kabi xo'jaliklarni kiritdi. Milliy an'analar – o'zbek millatiga xos bo'lgan bayram, tantana, urf-odat va marosimlardan (tabiat va uni muhofaza qilish maqsadida o'tkaziladigan bahor bayramlari Navro'z, Sumalak sayli, bahor va yoz fasllarining bir qator oylarida suv sayli bilan bog'liq tadbirlar, mevalari pishib yetilgan vaqtlarda tut sayli, hosillarni yig'im-terimiga bag'ishlangan bayramlar sirasiga mehrjon, hosil, qovun, uzum, anjir va anor kabi sayllar asosan yilning kuz oylarida bo'lib o'tadi. Milliy urf-odat va marosimlarga

esa qadimdan nishonlanib kelinayotgan, ayrim hududlarda saqlanib qolgan urf-odatlar, (osmon-yomg'ir suvlariga bag'ishlangan – Sust xotin, Xorazm, Boysun, Forish, Zomin kabi tuman va shaxarlarida mazkur marosim turlarini bahor oylarida bo'lib o'tadi), tabiiy ravishda yuzaga kelgan geyzer buloqlari va hududdan oqib o'tuvchi soylar bilan bog'liq (SHohimardonda Ko'li Qubbon, Namanganda Peshqo'rg'on, Boysunda Bibi seshanba, Urgutda suv chashmalari) tadbirlarni ham bo'lishini inobatga olib, bu soha rivoji yo'lida yangi metodlardan foydalangan holda takomillashtirish lozim.

Ekstremal turizm – so'ngi yillarda keng ma'noda turli miqyos va darajaga tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lgan dam olishning alohida turiga kiritilayotgan sayyohlik. Unda zamonaviy texnik vositalar va qurollardan (GPSi boshqa navigatorlar, o'q otish kabi) foydalanishni inkor etuvchi sayyohlik inobatga olinadi. Insonlarning ibtidoiy imkoniyatlarini (qadimiy anjomlar va jihozlar, eng oddiy va sodda qurollar – pichoq, gugurt, flyaga, yog'och tayoq kabilardan) yoki katta to'lqinlar, shovqinli soylar, baland binolardan foydalanish mumkinligini eslab o'tish darkor. Ekstremal turizm kishini tabiat qo'ynida yakkama-yakka yashash tarzini olib borish ham kiritilmoqda. Ko'pgina telekanallarda aynan turizmning eng xavfli turini keng targ'ib qilinishi uni yoshlar o'rtasida ommalashib borishda katta turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur turizm turiga – “CHernobil tur” (Ukraina), “O'lim yo'li” (Boliviya), “Sak Aktun (Meksika), “Alpinizm”, “Rafting” (Germaniya, Avstriya, Rossiya, Shvedsariya, Kanada, AQSH), “Dayving” (Yaponiya, BAA, SHri Lanka, JAR), “Speleoturizm” (Chexiya, Rossiya, Xitoy, Xorvatiya), “Roup-jumping” (Slovakiya, AQSH, Pol'sha) misol qilib olish mumkin

Shop turizmi – aksariyat hollarda rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon turistik oqimning arzon moddiy ne'matlarni savdo qilish orqali tijoratni yuritishga qaratilgan turizm turi. Shop turizmni tashkil etish, olib borish va nazoratini yo'lga qo'yish barcha mamlakatlardagi turistik firmalarning faoliyati kiritilgan savdo bilan bir qatorda turizmning boshqa turlaridan keng foydalanishdagi sayyohlik turidir. Turistlar tomonidan amalga oshiriladigan sayohat davomiyligi 4-6 kuni tashkil etadi va unda o'ziga xos usullaridan foydalaniladi. Masalan, Yevropa mamlakatlariga qilinadigan shop turlarga mavsumiylik, ya'ni yilning arzonlashtirilgan (“sale”) savdo vaqtiga to'g'ri kelishini inobatga olish, Arab amirligi va Xitoy Xalq Respublikalariga tashrif etiladigan shopturlar arzon va keng tovar assortimentligi bilan o'zini yil bo'yi jalb etadi.

Ekoturizm tor ma'noda kishilarni ekotizimlarga sayohat qilishlari. Keng ma'noda esa **ekoturizm** — shaxslarning doimiy yashash joylaridan dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashish, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy-ma'naviy ishlarni amalga oshirish yoki boshqa maqsadlarni ko'zlagan holda ekotizimlarga qiladigan sayohatlari (A.Nigmatov, N.SHomuratova, 2011). Yuqorida turizmga berilgan ta'rifdan kelib chiqqan tarzda **ekoturizmni** – *shaxsning doimiy yashash joyidan vaqtinchalik biror joyga 24 soatdan to 6 oy muddatga ketma-ket, uning ekotizimlaridan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat muammolarini qayta tiklashni maqsad qilib olgan pul to'lanmaydigan sayohatni turli miqyosda tizimli tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish.* Bunday tushuncha uning Barqaror rivojlanish ta'limiga bergan talablariga mos tushadi

Hozirgi kunda respublikamizda turizm va uning turlarini rivojlantirish, soha istiqboli uchun hududlarga investitsiya olib kirish, xorij tajribasini o'rganish natijasida turizmning barcha turlari kabi ekoturizm tarmog'ida ham chuqur ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqib, amalda qo'llash lozim. Bu borada ekoturizmning sayyohlik ob'ekti – ekotizimlar doirasida amlaga oshirish darkor. Ekoturizmni o'rganish, tadqiq etishdan bosh maqsad turizmni mazkur turini ob'ekti hisoblangan ekotizimlarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat tizimlarini qayta tiklashga qaratilgan sayyohlikdir

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати **Асосий адабиётлар**

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.

2. Мирзиёев. Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

Ма’руза 3: Туризм географиясининг тарихи ва ривожланishi

Reja:

1. İlk sayohatlar va sayohatchilar tarixi
2. O’tmish tarix haqida xabar beruvchi manbalar
2. Zamonaviy turizm asoschisi - Tomas Kuk

***Tayanch tushunchalar (kalit so’zlar):** Buyuk Ipak yo’li, turizm, sayoxat, sayoxatchi, sayoxat tashkilotlari, sayoxat motevatsiyasi, sayoxat bosqich, kapital, region, arxitektura, ekologiya, statsional turizm*

1. İlk sayohatlar va sayohatchilar tarixi

Turizm qadimdan xalqlar o’rtasidagi (iqtisodiy, savdo sotiq, fan, madaniyat, san’at, hunarmandchilik va h.k.) aloqa manbai sifatida muhim ahamiyatga ega. Jumladan, eramizdan avvalgi 3-2 ming yillar davomida kishilarning yangi geografik joylarni ochish, o’zlari uchun qulay hududlarni egallab olish, boylik orttirish va boshqa maqsadlarda dunyoni o’rgana boshlangan.

«Buyuk Ipak yo’li» ning o’chilishi va undagi xalqaro munosabatlarning rivojlanishi bevosita turizm geografiyasining tarixiga borib taqaladi. Bundan tashqari, Buyuk geografik kashfiyotlar davrida dunyo okeani bo’ylab sayyohatlar olamni bilish va yangi yerlarni ochish maqsadidagi turli geografik sayohatlar turizmning shakllanishida muhim omil bo’ldi. Bu o’rinda yurtimizning buyuk olim va mutafakkirlari Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Farobiy, Amir Temur, Mirzo Ulug’bek, Bobur va boshqalarning ham xizmatlari kattadir.

Mazkur fanning paydo bo’lishi va rivojlanish tarixini ba’zi ilmiy adabiyotlarda (Unitsiker, Mariotti va h.k.) o’ziga xos tarixiy bosqichlarga ajratgan. Jumladan, M.V. Sokolova turizm tarixini keng ko’lamli tadqiq etib, uni 4 bosqichga (Qadimgi sayohat, O’rta asr yurishlari va sayohatlar, Yangi davr turizmi rivojlanishi va XX asr turizmi) ajratgan (Sokolova, 2002). Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda turizm tarixini 3 qismga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Qadimgi hamda o’rta asr va uyg’onish davri turizmi;
2. Ikkinchi jahon urushigacha bo’lgan davr turizmi;

3. Hozirgi zamon turizmi.

Ma'lumki, dastlabki turistik sayohatlar savdo sotiq maqsadlarida vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi, bundan 14 ming yil avvalgi qadimgi Misrda o'ziga xos tusga kirgan Misr shohi Xatshepsut dengiz ekspeditsiyasida sayohat uyushtiradi (SHapoval, 1998). Eramizdan avvalgi VI – asrda Misr firauni Nexao uch yillik sayohatni Afrika bo'ylab tashkil etadi. Keyinchalik esa misr zodagonlari ko'plab shaharlarga (Gretsiya, Rim va h.k.) sayohatga chiqa boshladi. Bu davrda turizm boylik topish uchun uyushtirilardi. Shuning uchun ular o'zlari uchun qulay yo'llar va dam olish joylari barpo etadi.

Boylik orttirish maqsadida bundan 2300 yil avval Ksenofont grek portini qurish, savdo rastalari va davlat uylari barpo etishni buyuradi. Bu unga katta daromad olib keladi. Ayni paytda mehmonxona xo'jaligi xizmatlari shakllantiriladi. Ba'zi yunon va rimliklar o'zi yashab turgan shahardan uncha uzoq bo'lmagan tog' va tog' oldi hududlarida dam olish, davolanish va ov qilish uchun maxsus joylarni barpo etishgan.

Turizm ayniqsa Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin tez o'sib bordi. K. Liberening ta'rificha, «Evropada XVIII asrda turizm yangi ko'rinish oldi va sayyohlar tanishuv, davolanish va dam olish maqsadida hamda savdo-sotiq ahamiyatidagi sayohatlar tez o'sdi» -deb aytadi (Erdavletov, 2000, s.81-84).

XVII-XVIII asrda maktab o'quvchilarining Yevropa davlatlari bo'ylab piyoda sayohati tarixga «Buyuk turistik sayohat» bo'lib kirdi. Ular Londondan boshlab Ispaniya, Frantsiya, Italiya va Gretsiya davlatlarida bo'lishib, sayohat davomida xar bir davlatning hayoti, turmush tarzi, urf odati, madaniyati va san'ati bilan tanishdilar. Birinchi bo'lib ommaviy turistik sayohat Angliyada 1841 yili Tomas Kuk uyushtirgan turistik marshrut bo'ldi. U 600 kishilik sayyohni temir yo'l transportida Leysterdan Lafboroga sayohat tashkil qildi. Kuk 1845 yil Liverpulga, 1865 yil Shvedsariyaga sayohat uyushtirdi va 1882 yil dunyoda birinchi bo'lib jahon bo'ylab turistik sayohat qildi. Tomas Kuk o'z sayohat marshrutida temir yo'l, kema, mehmonxona va boshqa ob'ektlar bilan shartnoma asosida sayohatni tashkil etdi (Erdavletov, 2000, s.85).

XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin G'arbiy Yevropa va Amerika davlatlarida turizm alohida boshqaruv va uyushtirilgan turistik guruhlar asosida rivojlana boshladi. Birinchi jahon urushigacha chet el turizmida aksariyat yuqori tabaqali boy aholi qatnashdi. Bu davrda turistik sayohatlar asosan dengiz va dengiz bo'ylari qirg'oqlari hamda dam olish uylariga uyushtirildi. Bunda asosan Frantsiya, Italiya, Shvedsariya va boshqa davlatlarda turistik faoliyat rivojlandi.

Birinchi va Ikkinchi jahon urushi yillari oralig'ida turistik sayohatlar o'ziga xos yangi mazmun kasb etdi. Endilikda turistlar tomosha va dam olish bilan birgalikda tanishuv maqsadlari, qadimiy yodgorliklar, arxitektura, san'at, madaniy yodgorliklarni o'rganishni ham o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar.

Biroq, Ikkinchi jahon urushi yillarida dunyo miqyosda xalqaro turizmning o'sish sur'ati nihoyatda pasayib ketdi. Birinchi jahon urushi davrida yiliga halqaro turizmida 18-19 mln. kishi mashg'ul bo'lgan bo'lsa, 1947 yilda ushbu faoliyatda 16,6 mln, 1949 yilda esa 20 mln. kishi qatnashdi. G'arbiy Yevropada XX asrning ikkinchi yarmidan keyin «ichki Yevropa xarakteri»ga xos turizm rivojlandi (Zachinyaev, Fal'kovich,1972).

Turistik sayohatlar Skandinaviya, Avstriya, GFR, Ispaniya, Italiya, Frantsiya va boshqa qo'shni davlatlar o'rtasida keng miqyosda uyushtirildi. Amerika qit'asida ham AQSH, Kanada, Meksika, Panama kabi davlatlarda u tez o'sdi. Amerika sayyohlarining Yevropaga va, aksincha, Yevropa sayyohlarining Amerika va boshqa qit'a mamlakatlariga sayohati kengaydi.

XX asrning ikkinchi yarmidan keyin sobiq Ittifoqda ham turizmga e'tibor qaratildi. Ushbu turistik sayohatlarni asosan sobiq sotsialistik davlatlarga uyushtirishni ko'zda tutdi. Bu xukumat 1969 yil 26 iyun ittifoqdosh respublikalarda turizmni rivojlantirish to'g'risida farmon chiqardi. SHundan keyingi yillar davomida Hamdo'stlik davlatlarida turizm shakllana boshladi. Biroq, ta'kidlash joizki, uzoq mustabit tizim davrida qadimdan shakllanib kelgan sayyohlikning o'ziga xos hususiyatlari ancha yo'qolib ketgan edi. Binobarin, sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlarda turizmning yangi yo'nalishlari vujudga kela boshladi. Afsus bilan aytish lozimki, 70 yillik qatog'onlik deb atalmish sovetlar davrida jahon

turizmining nihoyatda rivojlanishi, xo'jalikning muhim tarmog'i sifatida shakllanishi asosan G'arbiy Yevropa, Amerika va Sharqiy Osiyo davlatlarida ko'zga tashlandi, bizda esa, aksincha, u unchalik taraqqiy etmadi.

O'tmish tarix haqida xabar beruvchi manbalar. Sayohat va turizm (travel and tourism) - bir - biri bilan o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, ular inson hayoti faoliyatining ma'lum bir tarzini ifodalaydi. Bu - dam olish, aktiv (faol) yoki passiv (nofaol) ko'ngilocharlik, sport, atrof - muhitni anglash, savdo, fan, davolanish va boshqa ko'plab narsalarni qamrab oladi. Biroq, bunda har safar sayohatni boshqa faoliyat turlaridan ajratib turuvchi o'zigaxos harakat - insonning vaqtinchalik boshqa joyga, mamlakatga, qit'aga borishi, uning doimiy yashash joyidan uzoqlashishi - mavjud bo'ladi. Shuningdek, sayohat - odamlarning turmush tarzi, ishi, dam olishi bo'lishi mumkin. Rossiyalik mashhur "Sayohatchilar klubi" teledasturi boshlovchisi Yuriy Senkevich o'zining ko'plab sayohatarida turist hisoblanmaydi, chunki bu uning ishi bo'lganidan tashqari, turmush tarzi hamdir. Ayrim xalqlar uchun sayohat bu asrlar davomida yashash joyining tabiiy - iqlim sharoitlari tam'sirida shakllangan turmush tarzidir. Masalan, mavsumiy qishloq xo'jaligi tufayli meksikaliklar har yili AQSHning Shimoliy qismiga daladan hosil yiqqani boradilar.

Sayohat

Sayohat umumiy tushuncha ma'nosiga egaatama bo'lib, odamlarning maqsadlaridan qat'iy ko'chib yurishlarini anglatadi. Ko'p asrlik tarix guvohki, kishilar savdoni rivojlantirish, yangi erlarni ochish va o'zlashtirish, resurslar va yangi transport yo'llarini izlab topish maqsadida jahon bo'ylab sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Sivilizatsiyamizning rivojlanishi unchalik katta davr bo'lmay, besh ming yilga yaqin hisoblanadi, biroq faqat yaqin o'tmishdagi sayohatlar haqidagi hikoya va tasvirlargina saqlanib qolgan. Tarixdan bizga yangi qit'a vaerlarni, xalqlar va tabiiy xodisalarni ochgan, o'zigaxos geografik tizimlarni asoslab bergan buyuk sayohatchilarning nomlari ma'lum.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "Sayohat- arabcha so'z bo'lib, dam olish, xordiq chiqarish yoki dunyoni ko'rish, o'rganish maqsadida qilingan safardir", -deyiladi. Safar tushunchasining o'zi ham arabchadan olingan va u xizmat yoki sayohat maqsadida biror erga borishdir.

Moziyga murojaat qilib, shularni aytish mumkinki, ilk sayohatchilar deyilganda ko'z oldimizda ko'hna davrlardagi - bir erdan ikkinchi erga ko'chib yurgan ko'chmanchi qabilalar, diniy e'tiqoddagi ziyoratchilar, davlatlararo yurgan va "Buyuk ipak yo'li" bo'ylab safarga chiqqan savdogarlar, keyinroq esa mamlakatlar manfaatini himoya qiluvchi davlat elchilari, ilmni maqsad qilib olgan olimlar, allomalar va mutasavvuflar, harbiy jabhalarda o'zga hududlarga kirgan jangchilar gavdalanadi. SHukurlar bo'lsinkim, bularning aksariyati safarlari davomida o'zga hududlar tarixi, geografiyasi, zahmatkash xalqi, millatlarning urf - odatlari, an'ana va marosimlari, boy madaniy merosi bilan yaqindan tanishganlar hamda ular haqidaajoyib asarlar, xotira vaesdaliklar yozib qoldirishgan. Masalan, tarix fanining otasi - Gerodot (eramizdan avvalgi 5 - asr) Yevropa, Osiyo va Misr bo'ylab sayohat qilgan. Uning "Tarix" nomli asarida Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlari - ko'chmanchi qabilalari: agrippiylar, issedonlar, massagetlar, daylar, saklar hayoti, odat va marosimlari, qo'shni mamlakatlar (masalan, Eron) bilan aloqalari bayon etiladi. Gerodot massagetlarni hunarmand ekanliklari: mis vaoltindan yasalgan qurol - aslahalar, ot anjomlari, turli idishlar, zeb - ziynatlar, bosh kiyimlar, belbog', zardo'zlik ustalari bo'lganliklarini yozib qoldirgan. Yoki, frantsuz tadqiqotchisi va geografi Pifey (eramizdan avvalgi 320 - yil) esa o'sha vaqtlarda aql bovar qilmaydigan tarzda butun Yevropa bo'ylab sayohat qilgan. U Britaniya orollarini aylanib o'tib, Norvegiya va Islandiyagacha borgan. Uning "Okean haqida" deb nomlangan ajoyib asarida ko'plab geografik ixtirolar tasvirlab berilgan. Keling, ularning ayrimlari haqida (garchi yurtimizga tashrif buyurgan va tashrif buyurmagan bo'lsalarda) fikr bildiraylik. Aslida esa ular juda ko'p vaxilma - xildir.

Marhum tarixchi olim, akademik Bo'riboy Ahmedovning "O'zbekiston tarixi manbalari" kitobida biz tadqiq etmoqchi bo'lgan ushbu masalagaalohida e'tibor bilan qaralgan. Asarning ilk

sayohatchilar tarixini o'rganishdagi ahamiyati cheksizdir. Ayniqsa, u maxsus yoki yangi turistik yo'nalishlar ishlab chiquvchi turoperatorlar va gid - ekskursovodlar uchun yanada qimmatli hisoblanadi. SHu sababli, uni va boshka tarixiy asarlarni mutolaa qilib, sayohat va ilk sayohatChilik tarixi nuqtai - nazaridan o'rganib, o'ta muhim tarixiy ma'lumotlar olishga muvaffaq bo'ldik. Ushbu manbalarda keltirilishichasayohatchilarning ibtidosi hisoblangan - ko'chmanchi qabilalar (sayyohlar) dastlab chorvaChilik bilan hayot kechirganlar va ular bir hududdan ikkinchi bir hududga tabiiy - iqlim sharoitlari, jangu - jadallar tufayli ko'chib yurishgan va o'zlarining sayohatchi ekanliklarini sezishmagan. Ilk ko'chmanchilar eramizdan avvalgi 4 - 3 ming yilliklarda, hatto undan oldingi davrlarda ham bo'lgan. Osiyo, Shimoliy Afrika va Janubiy Yevropa hududlarida ularning dastlabki jamoalarini kuzatamiz (masalan - aborigenlar, indeyslar).

Eramizdan avvalgi 2 - ming yillikning oxiri va 1 - ming yillikda Markaziy Osiyo hududida ham chorvador podachi jamoalarining moddiy madaniyat yodgorliklari qadimiy Xorazm (Tozabogen)da, Zarafshon vodiysi (Urgut, Kattaqo'rg'on)da, Farg'ona vodiysi (Vodil va Karomko'l)da, Toshkent vohasi (Achiko'l) da ham mavjud bo'lgan. O'lkamizdagi ko'chmanchi qabilalar haqida "Avesto"da, yunon tarixchilari asarlarida muhim manbaalar mujassam. Eramizdan avvalgi VI - IV asrlarda yozilgan vaotashparastlik (zoroastrizm) dinining mazkur kitobidaEron va Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati (e'tiqodi, tili, adabiyoti), tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar mujassam.

Ko'chmanchilarni sahroyi, dashtlik, tog'lik kabi nomlar bilan atashgan. Eramizdan avvalgi 3 - asr va eramizning 4 - asrlarida Sirdaryo bo'ylarida tashkil topgan Qang' davlati jabg'ulari (mulkka ega qabilalari) o'z chorva mollarini Talas yaylovlaridan Sarisu va CHu daryolari (Qirg'iziston va Qozog'iston hududlaridan oqib o'tuvchi daryolar) etaklari tomon haydasa, qishdaOhangaron vodiysi tomon olib borishgan.

Ko'chmanchilar qatoriga lo'lilar, qochoqlar va zo'rlab ko'chirib yuborilganlarni kiritish mumkin. Zo'rlab ko'chirib yuborish voqealarini tasdiqlovchi tarixiy manbalar ham mavjud. Masalan, qadimdan Shimoliy Xitoyda yashagan xunlar eramizdan avvalgi 2 - asr oxirlaridaxitoylar tazyiqi ostida g'arbg'a qarab chekinishga majbur bo'lganlar va Sharqiy Turkistonga hamda Yettisuv (Qozog'iston) vohasida ko'chib yurgan skif va usun qabilalarini surib chiqarganlar. Natijada, skif va usunlar So'g'diyona (Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzasidagi hudud) va Baqtriya (O'zbekiston va Tojikistonning janubiy, Afg'onistonning Shimoliy qismlari) hududiga ko'chib o'tib, bu erda saklar bilan birga qo'shilib ketganlar.

Shuningdek, indeyslarni majburiy ko'chirish hollari yuz berganligini, Amerikaga ko'plab aholining o'zga hududlardan borganligini, bm'zi davlatlarda lo'lilar jamoalari borligini, Afg'oniston va Iroq kabi mamlakatlar aholisining boshka davlatlarga boshpana istab ketib qolganliklarini, O'zbekistonda yashagan (yashayotgan) greklar, koreyslar, turklar, ruslar avvalo qaysidir bir sabablar bilan ko'chmanchi bo'lganliklarini bilish kiyin emas. Shu boisdan, ko'chmanChilikni hozirgi kunga kelib butunlay yo'q bo'lib ketdi, - deya olmaymiz. Masalan, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrikadagi ko'chmanchilar (mo'g'ullar, arablar, balujlar, kurdlar) haligacha mavjud. Lekin, transport vositalarining paydo bo'lishi bilan ko'chmanchilarda o'troqlashuv jarayoni ham kuchaydi. Ko'rinib turibdiki, ko'chmanchik keyingi davrlarda ham qaysidir shakllarda mavjud bo'ldi. Lekin, ularni ilk sayyohlar deb bo'lmaydi, chunki, ular yashagan davr yaqin o'tmishimizdir.

O'tmish tariximiz haqida xabar beruvchi manbalariga e'tiborimizni qaratsak, qadimgi davrlardagi diniy e'tiqoddagi ziyoratchilarni ham ilk sayohatchilar qatoriga qo'shishimiz mumkin. Barcha din vakillarining muqaddas deb bilgan o'z qadamjolari - ziyoratgoxlari mavjud. O'tmish davrlarini tasavvur qilsak, kishilar nimalargadir e'tiqod qilishgan, sig'inishgan. Kerak bulsa, shu yo'lda qurbonlik ham amalgaoshirishgan. E'tiqod qilish yoki sig'inish maqsadida bir hududdan ikkinchi bir hududga borishgan va diniy amallarini bajarishgan. Odamlarning e'tiqod qiluvchi kitoblari Olloh tomonidan bandalariga yuborib turilgan. Ushbu kitoblarga muvofiq e'tiqod qilingan. Masalan, musulmonlar Xaj ziyorati tufayli farz amallaridan birini ado etishgan, tam'bir joiz bo'lsa, sayohat qilishgan. Demak, kishilar diniy - ziyorat maqsadida borib,

sayohatchilar toifasiga qo'shilganlar. Shuningdek, buddizm va xristian dinlari vakillarining muqaddas deb bilgan joylariga uyushtirgan qadim ziyoratlari ham sayohatlaridir. SHu bois, necha ming yillar avval bo'lib o'tgan bunday ziyoratlarni ilk sayohatlar, ularning ishtirokchilarini esa ilk sayohatchilar qatoriga kiritamiz. Shuningdek, yurtimizda mavjud imom Buxoriy, imom Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Zangi ota qadamjolarini ham ziyoratgohlar, - deb bilamiz. Hozirda ko'plab musulmon davlatlaridagi turoperatorlar diniy turizm bilan shug'ullanib, ularni tashkillashtirib, Xaj va umra ziyoratlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Bularni diniy - ziyorat turizmi turiga kiritamiz.

Savdogarlar masalasiga kelsak, ular ham savdogarlik maqsadida bir hududdan ikkinchi bir hududga borganlar vasayohatchi bo'lganlar. Eramizdan avvalgi X - VIII asrlarda yaratilgan "Mahabxarata" ("Bharataavlodlari jangnomasi") dostonida Hindistonga saklar, toxarlar va qanhaliklar savdogarlik tufayli borganliklari quyidagi tarzda bayon etilgan: "Uning (podshoh Yudxishtxiraning) eshigi oldida boshqaxalqlar bilan birga saklar, toxarlar va qanhaliklar ham navbat kutib turardilar. Paxmoq soqol, peshonalari shoxlar bilan bezatilgan, qo'llarida turli - tuman sovg'alar, jun, rangu, ipak va patta (oq qayinning biri turi) daraxti tolasidan, shuningdek, kamyob matolardan, paxtadan to'qilgan gazlamalar, mayin, nafis terilar, uzun va o'tkir qilichlar, shamshirlar, temir nayzalar, har - xil boltalar, ichimliklar, xushbo'y narsalar, turli - tuman qimmatbaho toshlar...".

Eramizdan avvalgi V - IV asrlarda (Doro I davrida) sopolga o'yib yozilgan bitikda Eronning qadimgi Suza shahridagi saroyning qurilishi uchun oltinlar Baqtriyadan, qimmatbaxo toshlar So'g'diyonadan, feruzalar Xorazmdan olib kelinganligi bayon qilinadi. Tosh - tasviriy suratlarda Eron ahamoniylariga qaram mamlakatlardan o'lpon olib kelinganligi tasvirlangan manbalar - suratlar ham mavjud. Masalan, baqtriyaliklardan turli - tuman mato, teri, qo'yilar; saklardan chakmon vaotlar; parfiyaliklardan idishlar, tuyalar; xorazmliklardan qurol - aslahalar, otlar olib kelinganligi tasvirlanadi.

Tarix fanlari doktori, professor G.A. Hidoyatov o'zining " Mening jonajon tarixim" kitobida: "O'rta Osiyoga kelgan birinchi xitoy elchisi (sayyohi) Chjan - Szyan eramizdan avvalgi 140 - yilda Xivaga borganligini tam'kidlab o'tgan. Albatta, sayyohning ko'rgan - bilganlari haqidagi ma'lumotlar ham anchagina.

Shuningdek, eramizdan avvalgi II asrdan eramizning XV asrigacha davom etgan, qadimda va o'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarini o'zaro bog'lagan karvon yo'li - "Buyuk ipak yo'li" orqali ham ajdodlarimiz savdogarlik maqsadida o'z sayohatlarini amalga oshirganlar. Savdogarlar karvonlari uchun bunyod etilgan karvonsaroylarda ularga barcha shart - sharoitlar mujassam qilingan. Karvonlar turishi uchun joy, yem - xashak, savdogarlar uchun ko'nalg'a joy (mehmonxona), oziq - ovqat oldindan hozirlab qo'yilgan va boshqaxizmat ko'rsatish (servis) shahobchalari tunu - kun o'z mijozlarini kutib olib, mehmonnavozlikni amalga oshirganlar. Albatta, savdogarlik mahalliy tojirlar tomonidan o'lkamizaro ham amalga oshirilgan. Demak, o'tmishda mamlakatlararo, xalqlararo iqtisodiy, madaniy aloqalar bo'lgan va bu aloqalarni sayyohlikning ilk ko'rinishlaridan, deb aytish mumkin.

Madaniy - maishiy turmush tarzimiz shu darajada rivojlangan ediki, hatto bundan uch ming yil avvalgi ichimlik suvi va chiqindi suvlar oqadigan sopol quvurlar qoldiqlarini arxeolog olimlarimiz topishga muvaffaq bo'lganlar.

Bu manbm'lar yurtimizda sayohatchilik soxasidagi (hozirgi atama bilan aytganda) servis va infratuzilma tizimi qay darajada bo'lganligidan dalolatdir. SHu o'rinda karvonsaroylarga alohida to'xtalib o'tishni joiz, deb bilamiz. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida karvon va karvonsaroy haqida: karvon - forscha so'z bo'lib, uning 1 - ma'nosi: uzoq joylarga yuk va odam tashuvchi, qator bo'lib ketayotgan hayvonlar (tuya, eshak, xachir, otlar), aravalar va ularni boshqaruvchi shaxslar guruhi, qatori. Karvon uzilib qolmasligi uchun eng oldingi va oxirgi hayvonga qo'ng'iroq osib qo'yilgan, - deyilsa; 2 - ma'nosi: o'zaro yordam va xavfsizlikni ta'minlash uchun birga qo'shilib yo'lga chiqqan yo'lovchilar, sayyohlar yoki elchilar guruhi. Karvonni karvonboshi boshqargan, - deyiladi. Karvonsaroy - karvonlar tunab o'tadigan rabot, saroy. Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Kavkaz orti shaharlari savdo yo'lida

barpo etilgan. Karvonsaroylar odatda, o'rtada katta hovli, atrofi bir - ikki qavatli hujralar bilan o'ralgan, minorali qal'aband istehkom shaklida bo'lib, savdo manzillarida va shahardagi bozor (tim, toq) lar qatoriga qurilgan. 9 - 18 - asrlarda shaharlarning o'sishi va karvon savdosining kuchayishi natijasida karvonsaroylar ko'plab bunyod etilgan. Arab sayyohlari Istahriy va ibn Xavqallarning ma'lumotiga ko'ra, 10 - asrda savdo markazi hisoblangan Movarounnahrda 10 mingdan ortiq karvonsaroylar bo'lgan. Masalan, Raboti Malik (11 - asr, Navoiy shahri yaqinida), Doya xotin (12- asr, Turkmanistonda) karvonsaroyi xarobalari, Olloqulixon (19 - asr, Xiva) karvonsaroyi va timi.

Yaqin o'tmishimizda bo'lib o'tgan shunday ma'lumotlar ham borki, davr nuqtai - nazaridan ularni ilk sayohatlar qatoriga kiritmasdan, oddiy sayyohlik darajasida o'rganamiz. Masalan, o'zbek romanChilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidaOtabekning Toshkent - Marg'ilon - Toshkent yo'nalishida sevgilisi Kumush izidan bir necha marotaba safar - sayohatga chiqqanligini olaylik. Mana shunday sayohatlar bo'lganligiga ham tarix guvoh. Balki bunday safarlarni sevishganlar sayohati, deb o'rganamiz. Garchi o'z hududimiz doirasida bo'lgan bo'lsada. Otabekning Toshkentning CHuqur qishloq degan joyida qozoqlar tomonidan ochilgan bo'zaxonada bir necha marotaba tunab qolganligi, otni otxonaga joylashtirish, ozuqa berishdan tortib Otabekka ko'rsatilgan boshqaxizmatlar - turli taomlar (bo'zaxo'rlik), hatto kechasiligiga qaramay mashshoqning bo'lishi va unga dutor bilan kuy chalib berishi - bularning bari garchi uni mehmonxona deyilmasada, servisning joy - joyiga qo'yilganligi emasmi?

Elchilarni ham sayohatchilar deyish mumkin. Tarixga murojaat qilinsa, V - VII asrlargaoid Samarqand tarixidaAfrosiyob saroyi mehmonxonasidagi rasmlar ajoyib bo'lib, undaoq kiyim kiygan Chag'aniyon (eramizdan avvalgi VI asrdan - eramizning XVI asrigacha hozirgi Surxondaryo viloyatidagi Sho'rchi, Denov, Sariosiyo, qisman Jarqo'rg'on tumanlari xududlaridagi viloyat, shahar) elchisining surati tasvirlangan. Ushbu tasvir o'sha davrlarda ham elchilik aloqalari bo'lganligidan dalolatdir.

Xasrda yashagan arab sayyohi vaolimi Ahmad ibn Fadlan Bag'doddan Bulg'orga Buxoro, Xorazm orqali elchilar bilan birga tashrif buyurgan va o'z xotiralarida muhim tarixiy, geografik ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Yoki, Sohirqiron Amir Temur saltanatiga Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III ning elchisi Lui Gonzales de Klavixo tashrif buyurib, yurtimiz ichki turmushi, shaharlari, qishloqlari, Amir Temur saroyidagi odatlar, Temurbekning xotinlari, SHahrisabz va Samarqand haqida qimmatli ma'lumotlarni yozadi. (Shuningdek, bavariyalik ritsar Iogann SHiltberger ham Temur va uning avlodlari xizmatida bo'lgan). Shohruh Mirzo esa 1442 - yili Janubiy Hindistonga Vijayanagar davlatigaAbdurazzoq Samarqandiy boshChiligidagi elchilarni jo'natgan. Ular Hirot, Eronzamin, Fors qo'ltig'idan o'tib, kemalar orqali Janubiy Hindistonga borganlar. 1444 - yili esa yana Hirotga qaytganlar. Uch yillik elChilik xotiralarini kundaligini yozib qoldirganlar. Shuni aytish lozimki, Abdurazzoq Samarqandiy Afanasiy Nikitindan 25 yil avval bu erda bo'lgan.

Hofiz Ko'hakiy (16 - asr) - Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy tarixchi, huquqshunos, tarjimon bo'lib, Mirzo Ulug'bekning sevimli shogirdi Aliqushchining nabirasidir. U Hindistonga 1528 - yili Bobur Mirzo va 1569 - yili Akbarshoh huzurigaelchi bo'lib borgan.

XVII asrda rus elchilaridan I.D. Xoxlov, V.A. Daudov, M.Yu. Qosimov (tatar millatiga mansub), aka - uka Pazuxinlar Buxoro vaXiva shaharlaridaelChilik qildilar. Petr I (1682 - 1725) Xiva va Buxoroni qo'lga kiritish maqsadidaavval Bekovich - CHERkasskiyni, so'ng Florio Benevinini elchi qilib yuboradi.

Shuningdek, XVIII asrda sayyoh Mitropolit Xrisanf, savdogar Filipp Nazarov, harbiy Nikolay Muravyov, poruchik Dmitriy Gladishev vaer o'lchovchi Ivan Muravinlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Marg'ilon va Namangan shaharlari haqidaajoyib esdaliklarni yozib qoldirishgan.

Ilk sayohatchilarni umumiy ma'noda ko'chmanchilar, ziyoratchilar, savdogarlar, - deb oldik. Shuningdek, ayrim shaxslar hayoti va faoliyatini o'rganib, ularni ham ilk sayohatchilar qatoriga kiritamiz, asarlarini esa ilk sayohatChilik ilmini yangi, original manbaalar bilan

boyitgan dastlabki fundamental tadqiqotlar qatoriga kiritamiz. Ular o'zga hududlardagi hayotni, agar tam'bir joiz bo'lsa, xuddi biz kutgandek sayohatChilik nuqtai - nazaridan yoritib berishgan. Qadimgi Eron, hind, yunon, rim, turk, xitoy, so'g'd, mo'g'ul, arab, fors, eski o'zbek va fors - tojik tilidagi manbaalarda bularni ko'ramiz.

Gerodotdan tashqari yunon sayohatchi - olimlaridan Diodor (er. av. 90 - 21 y.) - skiflar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar haqida; Pompey Trog (er. av. I asr - er. I asri) Baqtriya va So'g'd shaharlari, imoratlari, etnografiyasi haqida; Arrian Flaviy (er. 95 - 175 y) va Kvint Kurtsiy Ruf (er. I asri) ning Iskandar Zulqarnaynning hayoti, bosqinChilik yurishlari, xususan, uning Markaziy Osiyoni istilo qilishi, Spitamen boshliq qo'zg'olon haqida; Polibiy (er. av. 201 - 120 y.), Strabon (er. av. 63 - er. 23 y.), Gay Pliniy Sekund (er. 24 - 79 y.), Ptolemey Klavdiy (er. 90 - 160 y.) lar o'lkamizg tarixi, skiflar, Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo), Baqtriya va uning tabiiy boyliklari haqida qimmatli ma'lumotlar berishgan.

Abulqosim Firdavsiy tomonidan yozilgan "SHohnoma" (Xasr) kitobidaEron va Markaziy Osiyoda zardushtiylikning paydo bo'lishidan toarablar xalifaligigacha bo'lgan davrdagi (er. av. VI - er. VI asrlar) siyosiy vaziyat, diniy aqidalar bayon etilgan.

Arab sayyohi va geograf olimi Abu Dalaf (Xasr) Buxoroga kelgan va o'z asarlari orqali muhim tarixiy, geografik ma'lumotlarni keltirgan.

Italiyalik savdogar - sayyoh Marko Polo (XIII asr) Xitoyga safar uyushtirib, u erda 17 yil yashagan va noyob manbaalar bitib ketgan. Uning Samarqandda bo'lganligi esa biz uchun yanada qimmatli. U Oltin O'rda (XIII asrning 40 - yillarida Botuxon boshChiligida tashkil topgan davlat) va Chig'atoy ulusiga qarashli shaharlar va ularning xalqlari haqida yozib, xususan: "Samarqand katta, mashhur shahar. Unda sarasinlar bilan birgaxristianlar ham istiqomat qiladilar", - deydi.

Yana bir arab sayyohi vaolimi Ibn Battuta (XIV asr) 21 yoshidan sayohat qilganligi manbaalardan ma'lum. U Shimoliy Afrika mamlakatlari, Xitoy va Hindistonda bo'lib, mamlakat va savdo yo'llarining geografik nomlarini, xalqlarning urf - odatlarini yozib qoldirgan. SHuningdek, uning Samarqandga sayohati va temuriyzodalar xilxonasi (xususan, SHohizinda)da bo'lishi biz turizm mutaxassislariga tam'luqli muhim tarixiy ma'lumotdir.

Buyuk sayohatchi - olimlar, kashfiyotchilar katorigaXV - XVI asrlarda yashagan Fernan Magellan, Vasko da Gama, Xristofor Kolumblarni ham kiritish mumkin. Jumladan, Kolumb 1492 - 1493 yillarda uchta karavelladaAtlantikaokeanini bosib o'tib, Amerika qit'asini kashf etgan.

Eng qadimgi rus sayyohlaridan Igumen Daniil 1065 - yildaAfon va muqaddas Erga ziyorat qilgan va safar davomida ko'rgan xalqlari vaerlari haqida batafsil ma'lumotlar yozib qoldirgan. "Uch dengiz osha sayohat" nomli ajoyib asar muallifi bo'lgan Afanasiy Nikitin esaXV asrdaEron va Hindistonga sayohat qilgan. Sovet davrida shu nomli badiiy film ham yaratigan edi. Keyinchalik, Bering (XVII - XVIII asr), Mikluxo - Maklay, Prjevalskiy (XIXasr) lar mashhur sayohatchilar sifatida o'z nomlarini tarixda qoldirganlar. Yaqin o'tmishimizda esa "Sayohatchilar klubi" teledasturining muallifi bo'lgan Yuriy Senkevichdan tashqari, Artur CHillingarov, Dmitriy SHparolarning nomlari sayohatChilik bilan shug'ullanuvchilarga yaxshi tanish. Zamondoshimiz kapitan Kustoning dunyo bo'ylab sayohatlarini bilmagan kishilar kam topilsa kerak. O'zbekiston mustaqillikkaerishgach esa vatandoshimiz Murod Qosimovning bir qator davlatlarni kezib chiqqanligini mutaxassislar yaxshi bilishadi.

Allomalar

Bulardan tashqari, VIII - XXasrlarda yashab o'tgan allomai zamonlardan - Abu Yusuf Ya'kub, Madoiniy, Al - Ya'qubiy, Balazuriy, Ibn al - Faqih, Ibn Xurdadbeh, Tabariy, Al - Mas'udiy, Abulfaraj Kudama, Istaxriy, Ibn Havqal, Al -Muqaddasiy, Utbiy, As - Saolibiy, Al - Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Miskavayx, Mahmud Koshg'ariy, Al - Idrisiy, Sam'oniyy, Ibn al - Asir, Ibn Xalliqon, Shihobuddin Muhammad Nisoviy, Jamol Qarshiy, Ibn Arabshohlarning arab tilidagi;

Narshahiy, Nizomulmulk, Nizomi Aruzi Samarqandiy, Gardiziy, Najmuddin Abu Xafs Nasafiy, Faxruddin Muborakshoh Marvarrudiy, Abulfazl Bayhaqiy, Avfiy, Juvayniy,

Rashiduddin, Hamdulloh Qazviniy, Banokatiy, Nizomuddin SHomiy, Mu'inuddin Natanziy, Hofizi Abru, Sharafuddin Ali Yazdiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxondlarning fors tilidagi;

Abdulla Nasrullohiy, Muhammad Solih, Abulg'ozixon, Munis, Ogahiy, MirzaOlim Toshkandiy, Muhammad Yusuf ibn Bobojonbek Bayoniylarning eski o'zbek tilidagi;

Mulla Shodiy, Kamoliddin Binoiy, Fazlulloh ibn Ruzbehon, Xondamir, Mirzo Muhammad Haydar, Hasanbek Rumlu, Hofiz Tanish Buxoriy, Abulfazl Allomiy, Muhammadyor ibn Arab Kattagon, Amir Ahmad Roziy, Iskandarbek munshiy, Mahmud ibn Vali, Xoja Samandar Termiziy, Muhammad Yusuf munshiy, Mir Muhammad Amini Buxoriy, Mulla SHarafuddin M'lam, Abdurrahmon Davlat, Xoji Mir Muhammad Salim, Muhammad Kozim, Muhammad Vafoyi Karminagiy, Mulla Ibodulla, Mulla Muhammad SHarif, Mir Olim Buxoriy, Hakimxon to'ra, Ahmad Donish, MirzoAbduazim Somiy Bo'stoniy, Mirza Salimbek, Muhammad Solih Toshkandiy, Niyoz Muhammad Xo'qandiylarning fors - tojik tilidagiasarlarida sayohatshunoslik tarixigaoid muhim ilmiy manbaalar mujassam.

SHuningdek, geografiya va kosmografiyaga tam'luqli - Kitobi Mullazoda, Majmu' al - g'aroyib, Ajoyib ut - tabaqot, Dili g'aroyib; o'zbek xalqining shakllanishigaoid - Tarixi Abulxayrxoniy, Nasabnomayi o'zbek, Asomiyi navadu du firqayi o'zbek asarlari; Davlatshoh Samarqandiy, Xoja Bahouddin Hasan Nisoriy, Mutribiy, Maleho Samarqandiy, Tazkirayi Bug'roxoniy, Manoqibi Xoja Yusuf Hamadoniy, Risolayi Shayx Najmiddin Kubro, Manoqibi Amir Kulol, Xoja Muhammad Porso, Maqomati xojaAhror, Rashaxotu ayn ul - hayot, Jomi' ul - maqomati Mahdumi M'zam Kosoniy - biografik asarlari; Bobur, Zayniddin Vosifiy, Fasih Ahmad Xavofiy, Seydi Ali Reislarning - memuar asarlari o'z qimmatiga ko'ra ko'hna tarix, el - ulus, uning osori - atiqalari, qadamjolari, geografiyasi, etnografiyasi, madaniy merosiga tam'luqli yangiliklar bilan yanada qiziqarli. Bir so'z bilan aytganda respublikamiz va unga tutash hududlargaoid ilmiy - tarixiy manbaalar mujassam.

Bugungi kunda zamonaviy turizm asoschisi deb tan olingan baptist ruxoniysi - Tomas Kuk birinchilardan bo'lib sayohatchilarning ommaviy safar uyushtirishining foydaliligini anglab yetdi hamda 1843 - yilda o'z qavmi uchun dastlabki temir yo'l orqali turni tashkillashtirdi va muvaffaqiyatgaerishdi. Kuk 1851 - yili mamlakatning barcha burchagidan kelgan inglizlarning Parijdagi ko'rgazmada ishtirok etishini tashkillashtirib, 165 ming kishini olib kelishga musharraf bo'ldi. Ko'rgazma turlari katta foyda keltirganligi sababli, Kuk Angliyalik turistlarning 1865 - yilda Parijga Butunjahon ko'rgazmasigaommaviy ravishda tashrif buyurishi tashkilotchisi bo'ldi. 1856 - yildan boshlab Yevropa bo'ylab turlar odatiy holgaaylandi, Kukning turistik agentligi va joylarda uning filiallari tuzildi. Turistik kompaniyaning misli ko'rilmagan muvaffaqiyatgaerishganligini Kuk turistlarga taklif etgan katalogdan 8 mingdan ortiq mehmonxonalarining o'rin olganligi ham tasdiqlaydi. 1870 - yilda "Tomas Kuk" turistik firmasi mijozlari soni 500 ming kishiga yetdi.

Evropa vaAmerika qit'alari o'rtasida muntazam kema qatnovi 1832 - yilda yo'lga ko'yilgan bo'lib, 1866 - yilda Kuk AQSHga turistlarning dastlabki ikki guruhini jo'natadi. Turlar uzoq muddatli bo'lib, besh oygacha davom etgan. Tomas Kuk xizmatlaridan foydalangan Amerikalik taniqli turistlardan biri Mark Tven bo'lib, u oltmish kishidan iborat guruh tarkibida ishtirok etgan va keyinchalik bu sayohatni qalamgaolgan. Tomas Kuk 1872 - yilda birinchi bo'lib sanoat asosida jahon bo'ylab sayohat uyushtirishni taklif qilgan. Dastlabki 20 sayohatchi butun jahon bo'ylab 220 kun davomida sayohat qilganlar. Tomas Kuk 1892 - yilda vafot etdi va uning ishlarini o'g'illari va sheriklari davom ettirishgan. Kompaniya o'z faoliyat sohasini kengaytirib, yirik moliyaviy institutgaaylangan va sayohatchilar uchun yo'l cheklari chiqara boshlagan. Bu esa o'z mohiyatiga ko'raasr ixtirosi - xavfsiz pullar edi. Bugungi kunda "Tomas Kuk" kompaniyasi butun dunyoda 12000 dan ortiq turistik agentliklarga ega bo'lib, yiliga 20 milliondan ortiq turistgaxizmat ko'rsatadi.

Zamonaviy samolyotlarning ixtiro kilinishi bilan bir xududidan ikkinchi bir xududgaer aylanishi tezligidan tezroq yetib borish imkonini berdi. Natijada sayohatchilar boshqa soat mintaqalariga tashrif buyuraoldilar. Kosmik sayohatlarda vaqt samarasi yanada yaqqol ko'zga

tashlanadi.

Sayohatlardan hayot faoliyatning alohida jozibador usuli sifatida yangi shakl - turizm ajralib chiqib, u o'zigaxos xususiyatlar vaxislatlari bilan tavsiflanadi. Turizmni sayohatlardan ajratib turuvchi asosiy jihati bu uning tashkiliy jihatdan yo'lga qo'yilganligida, maqsadli vaommaviyigidadir.

Boshqaodamlar orasidan alohidaajralib turish, birinchi bo'lish istagi sayohatchilar orasida yaqqol ajralib turadi. Inson faoliyatining boshqa sohalariga qaraganda bunda o'zini ko'rsatish imkoniyati ko'proqdir. Kim eng yuqoriga chiqadi va uzoqroqqa boradi, kim kishilar hayoliga kelmagan, ularni hayron qoldiradigan ishlarni qiladi - rekordchi - sayohatchilarning fantaziyasi chegaralanmagan bo'lib, Ginnesning rekordlar kitobida bunday yutuqlargaalohida bo'lim ajratilgan.

1913 - yilda velosipedda butun dunyoni aylanib chiqib, bunda 50 ming km yo'l bosgan va 52 ta pokrishka, 36 ta kamera, 9 ta zanjir, 9 ta pedal, 4 ta egar, 2 ta rul va hokazolarni almashtirgan hamda «Brilliant Yulduz» belgisi bilan mukofotlangan Anisim Pankratovni turistlar toifasigaemas, balki aynan sayohatchilar qatoriga kiritish mumkin. SHuningdek, uch yil (1928 - 1931) ichida sobiq SSSR chegaralari bo'ylab velosipeddaaylanib chiqqan Gleb Travinni ham sayohatchilar qatoriga kiritish mumkin. Bir necha yil mobaynida «Tatra» avtomobillarida sayyoramizning barcha qit'alari bo'ylab sayohat uyushtirgan Chexoslavkiyalik sayohatchilar Irji Ganzelka va Stanislav Zigmudlarni turistlar toifasiga kiritish yanada qiyin. Ularning qit'alararo yo'nalishi «Tatra» kontserni tomonidan moliyaviy va texnik ta'minlangan bo'lib, u firmaning reklama maqsadlarigaxizmat qilgan. Amalda bu texnika sinovchilarining normal va haq to'lanuvchi xizmati bo'lgan.

Ginnesning rekordlar kitobida boshqalarni hayron qoldirish niyatida uyushtirilgan sayohat va jasoratlariga katta joy ajratilgan. Jessi Rosdayl ismli bir shaxs dunyodagi ko'p mamlakalarda bo'lish va o'z hujjatlariga barcha mamlakatlar chegaraxizmatlari shtampini qo'ydirishni maqsad qilib olgan, buning uchun u 2.627.766 km masofani bosib o'tgan va 215 ta mamlakat chegarasini kesib o'tgan hamda buning uchun Ginnes diplomiga sazovor bo'lgan. Biroq buning uchun unga Illinoys (AQSH shtati) maktabidagi o'qituvChilik o'rnini tashlashga to'g'ri kelgan. Missioner Alfred Uoldern (AQSH) otda sayohat qilishni maqsad qilib qo'ygan va424.850 km masofani (bitta yoki bir nechta ekanligi noma'lum) otda bosib o'tgan. Bunda u 16 mingdan ortiq ma'ruza o'qigan. Piyoda, chang'ida, velosipedda, avtomobilda, temir yo'l, avia va dengiz transportida sayohat qilish bo'yicha ham rekordlar o'rnatilgan. Biroq, ularning aksariyat qismi insonning mukammalligini isbotlash va qo'yilgan maqsadgaerishish yo'lida barcha qiyinChiliklarni yengib o'tish uchun og'ir mehnatlardan iborat bo'lgan.

Hattoki, kosmosda - oyga qo'nuvchi, er orbitasi atrofida parvoz qiluvchi kosmonavtlar (ularni ham sayyohlar qatoriga kiritish mumkin) ham rekord o'rnatishga intiladilar. Kosmosga birinchi bo'lib parvoz qilgan odam, birinchi kosmonavt ayol, parvoz uzunligi, balandligi va uzoqligi, oy sathida Lunoxodda sayr qilish uzunligi va boshqa bir qator faktlar rekord qayd etishgaasos bo'ladi.

Sayohatlar va turizmning bir - biridan farqlarini ko'rib chiqishda ushbu faoliyatning maqsadlari va moddiy ta'minotiga to'xtalib o'tish joiz. Sayohat vaekspeditsiyalarning aksariyat qismi ma'lum bir maqsadlar (savdo, fan, yangi erlarni ochish, mahsulot reklamasi va hokazo)gaxizmat qilib, manfaatdor shaxslar, tashkilotlar, davlat vaxususiy jamg'armalar tomonidan moliyalashtiriladi. Masalan, Afrikani zabt etib, Zambezi daryosidagi Viktoriya sharsharasini ochgan buyuk David Livingston missionerlik jamg'armalari hisobiga sayohat qilib, asosan mahalliy aholini xristian diniga jalb qilish bilan shug'ullangan vaahyon - ahyonda geografik ixtirolar qilib turgan.

Sayohatchi - bu birinchi navbatdaagar tam'bir joiz bo'lsa kasb bo'lib, odamlarning kun ko'rish manbai yoki sayohatda ishtirok etuvchilarning turmush tarzigaaylanishi mumkin. Bu esa faoliyatning maqsadi bo'lib, turizm maqsadlaridan farq qiladi. SHunday sayohatlar ham borki, ularni kasb ham deb bo'lmaydi. Bunday sayohatlar e'tiqod bilan bog'liq. Masalan, Imom Buxoriyni olaylik. U payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislarini to'plash

maqsadida Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jidda, Basra, Kufa, Bag'dod, SHom, Misr, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol shaharlarida bo'lib, o'ta mashaqqatli tarzda fidoyilik ko'rsatgan. Bunday misollarni Imom Termiziydan ham topish mumkin. Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo va boshqa ko'plab sarkarda, alloma, ahli donishlarimizning o'zga yurtlarga o'z maqsadlarini amalgaoshirish uchun borganliklarini ham sayohatlar qatoriga kiritishimiz mumkin. Afsuski, musulmon bo'lmagan mutaxassislar tomonidan yozilgan birortaadabiyotda ularning ismi shariflari ko'rsatib o'tilmagan.

Vaqt insonning imkoniyatlarini sezilarli darajada o'zgartirib yuborgan. Bugungi kunda bo'sh vaqt va yetarli mablag'ga ega bo'lgan deyarli har bir shaxs jahon bo'ylab havo sharida yoki boshqa transport vositalarida sayr qilishi, dunyoning inson oyog'i yetmagan nuqtalariga tashrif buyurishi mumkin. Sarguzashtli turizmga ixtisoslashgan turistik firmalar Janubiy Amerika, Afrika va Osiyo bo'ylab maxsus tayyorlangan avtomobillarda uzoq muddatli (30 haftagacha) qit'alararo sayohatlarni taklif qilmokda. Buyuk yangi er ochuvchilarning yo'nalishlarini takrorlovchi, narxi 50 ming AQSH dollariga teng bo'lgan 190 kunlik dengiz sayohatlari ham taklif etilmokda.

Shulardan kelib chikib aytish mumkinki, turizm - bu sayohatlarning bir turi bo'lsada, (biz yuqorida aytib o'tgan tavsifnomaga asosan) odamlarning turli hududlarga tashrif buyurishi bo'lib, unda ishtirok etuvchi shaxs maqsadlari, yo'nalishi va harakatlanish vositalaridan qat'iy nazar turist deb ataladi. Sayohatlardan farqli ravishda, turizm iqtisodiyot va siyosatning kuchli tam'siriga uchrovchi toifadir. Turizmning o'zigaxos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turistni dengizchi, kosmonavt, biznesmen, naturalist va hokazo deb atash mumkin. Statistikada sayohat qiluvchi shaxs visitor deb ataladi. Tashrif buyuruvchilar tunovchi, ya'ni, vaqtinchalik bo'luvchi joylarda hech bo'lmasa bir kecha yotib qoluvchilar va bir kunlik (24 soatgacha bo'luvchi) turistlarga bo'linadi. Turizm bu:

a) turistlar tomonidan amalgaoshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega omaviy sayohatlar turi, ya'ni turistning faoliyatidir;

b) bunday sayohatlarni uyushtirish va amalgaoshirish bo'yicha turistik faoliyatdir. Bunday faoliyat turli xil turistik sanoat korxonalarini va ular bilan bog'liq tarmoqlar tomonidan amalgaoshiriladi.

Ho'sh, turizm qadimda ham mavjud bo'lganmi? - degan haqli savol tug'ilishi, tabiiy. Bu savolga javob juda oddiy: maqsadi va amalgaoshirishning tashkiliy shakliga ko'ra turizm sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan sayohatlarni qadimdan bilish mumkin. O'rta asrlarda esa diniy - ziyoratchilar guruhlarini kuzatib borish bo'yicha tashkillashtirilgan faoliyatning boshlanishi ko'zga tashlanadi. Bu jarayonlarni detalli ravishda ko'rib chiqqanda ularni turizmga, yanayam to'g'rirog'i, turizm ibtidosiga borib taqash mumkin. Hozirgacha Tomas Kuk turizmni tashkillashtirganligi uchungina bu faoliyatning asoschisi sifatida tan olinadi. Nima, xaj va umra ziyoratini tashkillashtirgan tashabbuskorlar o'sha vaqtlarda bo'lgan emasmi? Albatta bo'lgan. Bunday ziyoratlarga ham odamlar guruh - guruh bo'lib borishgan. Ota - bobolarimiz ularni uyushtirishgan. Kimlardir shunday ishlarga bosh bo'lgan. Yoki, savdogarlikni olaylik, ayniqsa, "Buyuk ipak yo'li" tarixida bunday ishlarni tashkil etgan, savdogarlarning omon - eson manzillariga yetib borishlarini tashkillashtirib bergan kishilar bo'lmaganmi? Bo'lgan, albatta. Balki, ularni mingboshi, yuzboshi, ellikboshi tarzida atalgandir. Mana shular tufayli ushbu sayohatlar, tam'bir joiz bo'lsa, turizm faoliyati amalgaoshirilgan. Bizning galdagi vazifamiz shunday zahmatkash kishilarni, sayohat (turizm) ishi tashkilotchilarini eski manbaalardan izlab topish va uni xalqimizga yetkazishdir.

Turizm XIX asrning oxiriga borib shakllangan bo'lsada, faqat XX asrga kelib u jadal suratlarida rivojlandi hamda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyat munosabatlarining yuksalishi natijasida u «XX asr fenomeni» nomini oldi. Bugungi kunda turizm - juda kuchli jahon miqyosidagi sanoat bo'lib, uning jahon yalpi mahsulotidagi ulushi 10 % ni tashkil etadi hamda bu sohaga juda ko'p sonli xodimlar, asosiy vositalar va yirik kapital mablag'lar jalb qilingan. Turizm - yirik biznes, katta mablag' va global miqyosdagi jiddiy siyosatdir.

Jamiyatning rivojlanishi bilan sayyoramizning tobora ko'plab aholisi turizm sohasiga jalb qilinmokda. 1995 - 97 yillar mobaynida sayohat qiluvchilar sonining barqaror o'sish tendentsiyasi yiliga o'rtacha 4 % kuzatilib, 1998 - yil Osiyodagi moliyaviy inqiroz sababli bu sohadagi faollikning biroz susayganligini qayd qilish mumkin. JTT ma'lumotiga ko'ra, 1996 - yilda turistlarning kelishi soni 594 mln., 1997 - yilda esa - 616 mln. kishini tashkil qilgan. Turizmdan olinuvchi daromad 1997 - yilda 448 mlrd. AQSH dollariga (1996 - yilga nisbatan 7,9 % ko'p) yetgan. JTTning prognozlariga qaraganda, 2010 - yilga borib turistlar soni 937 mln.ga, turizm orqali olinuvchi daromad esa 1,1 trln. AQSH dollariga yetadi. Dunyoning juda ham ajoyib, jozibador turistik resurslariga ega bo'lgan barcha burchaklari hali yaxshi o'zlashtirilmaganligi va keng turistlar ommasi uchun ochiq emasligi shubhasiz, albatta. Bunda tabiiy - iqlim sharoitlari va siyosiy - iqtisodiy omillar, mintaqadagi tinchlik, turizm sanoatining rivojlanishi kabilar muhim rol o'ynaydi. Turizm infratuzilmasi va sanoati turizmga qo'shni tarmoqlarni o'ziga yanada ko'proq tortib, ko'plab kishilarni ish bilan ta'minlamokda. Hozirdaer yuzidagi aholining 1g'15 qismi turizm sohasida ish yuritadi. Turizm sohasiga ko'proq ishchilar jalb qilinmokda, natijada ko'p sonli ish joylari paydo bo'lishigaolib kelmokda, bu esa juda muxim masala bo'lib, jamiyatga foydali bo'lgan hollar ichida birinchi o'rinda turadi. Turizmda band bo'lgan ishchilarning kategoriyasini aniqlash maqsadida talaygina usullar qo'llanilmokda. Yirik turistik markazlarda har o'nta turist ikki kishini doimiy ish joyi bilan ta'minlaydi. Masalan, Petropavlovskka kruiz laynerining kelishining o'zi aholi hayotida katta bir ayyomdir. 50 - 60 kishi ish bilan ta'minlansa, uch kun mobaynida yo'lboshChilik, gitlik vazifasini o'tayotgan o'qituvchilar esa o'z oylik maoshlariga teng bo'lgan qiymatda mukofot oladilar.

Turizmdan tushadigan foydani tahlil etish qiziq taqqoslargaolib keladi. Rossiyaliklarga qaragandaAQSH aholisining har biriga ikki barobar ko'p turist to'g'ri kelsa, bu tarmoqdan tushadigan foyda esa besh barobar ko'pdir. Sankt - Peterburg kurortining 250 ming aholisidan 60 ming nafari turizm sohasida band bo'lib, har yili 5 mlrd turistgaxizmat ko'rsatishadi. Andorrada esaahvol yanada keskinroq. Bu erda 50 - 60 ming kishi 12 mln. turistlargaxizmat kilib, ularga mahsulot sotishadi. Andorra soliqsiz savdo hududidir. Demak, bu holat ishni yanadaavj oldirish uchun muhim. Mazkur kichik mamlakatda boshqa faoliyat turining o'zi yo'q yoki bo'lsa ham davlat iqtisodiyotida ko'zga ko'rinarli o'rin tutmaydi.

Maqsadlariga ko'ra, turistik sayohatlar muddati bo'yicha quyidagi kunlarga bo'linadi:

1 - 2 kunlik (dam olish kunlari);

3 - 7 kunlik;

8 - 28 kunlik;

29 - 91kunlik;

92 va undan ortiq kunlik.

Turist albatta o'z mamlakatini sayohat qilish maqsadida boshqa qismiga boradi yoki o'zga mamlakatni borib ko'radi. Er aholisining aksariyat qismi o'troq hayot kechirishmoqda, - degan fikrga qo'shilishimiz kerak. Turist o'z turistik sayohatini amalgaoshirayotgan joyda uzoq qolmasligi va sayohat yakunida bu joyni tark etishi lozim. Demak, turist - bir erdan ikkinchi bir erga vaqtinchalik boruvchi kishi (musofir) dir. Turizm bo'lishi uchun ikki shart kerak: bush vaqt va mablag'. Hatto, Rim imperiyasi davrida badavlat kishilar o'z tam'tillarini Misrda o'tkazishgan. Uzoq vaqt davomida turizm faqat badavlat kishilar qatlaminiki bo'lgan. Hozirda ham bu holat afsuski saqlanib turibdi.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.

4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ikk sayohatlar kimlar tomonidan amalga oshirilgan?
2. O'tmish tarix haqida xabar beruvchi manbalar deganda nimani tushunasiz?
2. Tomas Kukni turizmga qo'shgan xissasi ni aytib bering?
3. Zamonaviy turizm asoschilari kimlar?

Ma'ruza 4: Sayyoxning xuquq va majburiyatlari. Turizm xavfsizligi Reja:

1. Sayyoxning xuquqi.
2. Sayyoxning majburiyatlari.
3. Aloxida kategoriyadagi turistlarni imtiyozlari
4. Sayyoxlarning xavfsizligini taominlash.
5. Sayyoxlarning xavfsizligini taominlash bo'yicha maxsus xizmatlar

Tayanch iboralar va so'zlar: *turizm xavfsizligi, su'uta ma'sus xizmatlari, turistlarni sug'urtalash, imtiyozlar, qidiru-qutqaruv, xizmatlari, tibbiy xizmat, turizm soxasidagi suboektlar vazifasi, O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risidagi qonuni»*

1. Sayyoxning xuquqlari. O'zbekistonn Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan «Turizm to'g'risida» qonunining 14 – moddasiga muvofiq turist sayoxatga tayyorgarlik ko'rish va o'tash vaqtida, tranzitni qo'shib xisoblaganda quyidagi xuqularga ega:

- Ko'zlangan shartnomaga muvofiq to'la turistik xizmatini olish.
- Sayoxat bilan aloqador bo'lgan to'liq va ishonchli axborotlarni olish.
- Shaxsiy xavfsizlik, xuquqining ximoyasi, shuningdek mol – mulkinging muxofazasi.
- O'z vaqtida tibbiy xizmat olish.
- Shartnoma buzilishi natijasida yuzaga keladigan moddiy va maonaviy zararlarni o'rnini to'ldirish.

Sayyox qonuniy nuqtai nazardan boshqa xuquqlarga xam ega.

Turizm faoliyati suboekti turistlarga xizmat ko'rsatish cho'ida O'zbekistonn Respublikasi xududida quyidagi xuquqlarga ega: (16– modda).

1. Turizmni davomiyligi va yo'nalishini o'zgartirish orqali, faqat Sayyoxning xoxishi va roziligi bilan, xizmat ko'rsatish sifatini transport xizmati turini, Sayyoxning mol – mulkini saqlash va shaxsiy xavfsizligini taominlash.
2. Turistning roziligi bilan xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va faqat uni bu xaqda sayyoxat boshlanishidan xaoi yigirma kun oldin bildirish sharti bilan.
3. Sayyoxlarga yoki turistlarga xizmat ko'rsatishda sherikChilik qimlgan tashkilotlarga

yetkazilgan zararni o'rnini qoplash bo'yicha talablarni qonuniy xal qilishni taaminlash. Turistik faoliyat suboektlari qonundan kelib chiqib boshqa xuquqlarga xam ega.

2. Sayyoxning majburiyatlari

Sayoxatni o'tash vaqtida tranzitni qo'shib xisoblaganda Sayyox quydagilarga majbur:

- Shartnoma talablariga amal qilishga.
- Bojxona va chegara talablariga rioya qilishga.
- Mazkur mamlakat qonunlariga amal qilishga.

Sayyox qonuniy meoyorlardan kelib chiqib, boshqa majburiyatlarga xam ega va ular:

- Bo'lgan mamlakatida o'rab turgan tabiatni asrash, tarixiy, madaniy merosga xamda tabiatga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish.
 - Sayoxatni o'tash cho'ida shaxsiy xavsizlik qaidaoari va boshqalarga rioya qilishga
- Turizm faoliyati subektlarining majburiyatlari. (17-modda)
- Shartnoma talablaridan kelib chiqib, sayoxlarini xizmatlar bilan tanishtirish
 - tanishtirilmagan yoki tor doirada tanishtirilgan yoxud turizm xizmatiga aloqadar bo'lmagan xizmatlar bo'yicha sayoxlarga yetkazilgan zararlar o'rinin qoplash
 - sayoxlarga turizm tashkilotlarining xuquq va majburiyatlari to'g'risida maolumentlar taqdim etish.
 - Turizm resurslari va abektlarini sayoxlargi ko'rsatish cho'ida saqlanishini taominlashda yordam berish(ular bo'lishi mumkin tarixiy-arxitektor xaykallar, tabiat zonalari va boshqalar).
 - Sayoxlarni mazkur malakat qonunlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish
 - Turizm faoliyati suboektlari qonunChilikdan kelib chiqib boshqa majburiyatlarni bajaradi.

-1.Aloxida kategoriyadag turistlarni imtiyozlari.

O'zbekiston respublikasida aloxida toifadagi turistlarga imtiyozlar davlat tomonidan ijtimoiy vaziyatni xisobga olgan xolda o'rnatiladi. Shuni aytish joizki «O'zbekiston respublikasi Prezidentini O'zbekiston respublikasini Buyuk ipak yo'lidagi ishtirokini tiklashni jadalashtirish chora tadbirlari va respublikada turizmni kuchaytirish» to'g'risidagi farmonda 5 yil muddatga sarmoya kiritgan va Xiva, Samarqand, Buxoro, va Toshkent shaxarlarida turizmni doirasida qo'shma korxonalar ochgan sarmayodordlar soliq to'lashdan ozod etiladi. Bundan tashqari mexmonxona yoki mexmonxona tipidagi qurilishlarni amalga oshiruvchi korxonalarga tijorat banklari tomonidan 5 yildan kam bo'lmagan muddatga kreditlar beriladi.

O'zbekistonning soliq kodeksiga binoan quydagi xollarda:

«agar turistik faoliyat yangidan tashkil etilgan bo'lsa, Buxoro, Xiva, Toshkent, Samarqand shaxarlaridan turistik faoliyat bilan shug'ulanilssa, tashkil topgan vaqtidan boshlab dastlabki foyda olgan davrgacha va ro'yxatdan o'tgan davrdan boshlab 3 yildan kam bo'lmagan vaqt orali'ida yuridik shaxslar daromad soli'idan ozod qilinadi. 1-yil yuridik shaxs olgan foydasidan, turistik faoliyati bilan Buxoro, Xiva, Toshkent, Samarqand shaxarlari shu'llansan 50%, 2-yil 75%, 3-yil boshlanishida 100% soliq to'laydi.»

bundan tashqari soliqdan qo'shimcha qiymat soqit qilinadi. Bular bo'lishi mumkin: tibbiy-sanitar va sog'lomlashtirishga qaratilgan turistik ekskursiya xizmatlari va boshqalar.

Sayoxlar xafsizligini taaminlash.

Turizm xavsizligi deganda sayoxlarni shaxsiy xavsizligi, ularni moliyaviy-mulkini ximoyasini taaminlash tushuniladi.

O'zbekiston respublikasi xududida sayoxlar xavsizligi davlat tomonidan kafotlangan (O'zbekiston Respublikasining «Turizm» to'g'risidagi qonuni 28-modda).

Davlat vakilik organlari turistlarni ximoyasi va xavsizligi bo'yicha dastur ishlab chiqadi va uni bajarishini taaminlaydi.

Turizm faoliyati suboektlari sayoxlarni ximoya va xavfmizligini taaminlash maqsadida, ya'ni tibbiy va boshqa yordamlar ko'rsatish jaroxat va kassalik vaqtida xamda boshqa xollarda aniq chora tadbirlar ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining «turizm to'g'risida»gi qonuning 19-moddasida turistlarni xavsizligi bo'yicha turizm faoliyati suboektlari quydagi vazifalarni bajaradi.

1. sayoxlarning sayir, transpor xizmati bo'yicha xamda sayir va musobaqa, o'tkaziladigan

joylarda xavfsizligini taaminlash.

2.buloq va chashmalarni xavfi haqida marshurutni xarakteriga va sayoxlarni o'ziga bog'liq bo'lgan, shu bilan birgalikda jaro'at va tasodifiy xolatlarda turislarga masla'at va imoya usulida tibbiy yordam ko'rsatish.

3.sayoxlarni asyoxatga safarga, musobaqalarga tayorgarligi ustidan nazoratni amalga oshirish.

4.xar-xil xalokat vaqtida sayoxlarga tez yorda ko'rsatish.

5.avtomobil, to', qor, velosiped, suv, mototsikil, yayov va boshqa turizm turlarini amalga oshirish bo'yicha o'ziga xos talablarni ishlab chiqish.

Turistlarni xavfsizligi taaminlash bo'yicha maxsus xizmatlar.

O'zbekiston Respublikasi xududida sayoxlarga xarakatli xolatlarda ko'rsatiladigon maxsus xizmatlar O'zbekiston Respublikasi xukumati tomonidan amalga oshiriladi.

Maxsus maqsadli xizmatlarga quyidagilar kiradi.

1.Qidiruv-qutqaruv xizmatlari.

2.So'liqni saqlash organlari .

3.Aloqa tashkilotlari xizmati.

4.Ichki ishlar vazirligi.

5.Fuqoro avmatsiyasi xizmati o'rmon va suv xo'jaliklar.

6.Suv xujaligi xizmati.

7.O'rmon va suv xujalik xizmati.

8.Favqulotda xolatlar bo'yicha vazirlik.

Ushbu tashkilotlar o'z vaqtida turistlarni xavfsizligini taminlashi uchun turistik tashkilotlar ular bilan shartnoma tuzishi kerak.

Turistik faoliyatni amalga oshirishda sug'urtalash.

Chet el sayoxlarni sug'urtalash majburiy bo'lib, bunday faoliyatni amalga oshirish xuquqiga ega bo'lgan turizm faoliyati subektlari tomonidan sug'urta tashkiloti roziligi asosida amalga oshiriladi. (O'zbekiston Respublikasi «Turizm to'g'risida» qanuni 20-modda).

Zararlarni qoplash, sayoxlarni so'li'i va mulki bo'yicha masalalar milliy qonunchilikdan va xalqvaro kelishuvlardan kelib chiqqan xolda tartibga solinadi. Agar shunday xolat bo'lib, davlat qonunchilikdan kelib chiqib vaqtinchalik tibbiy xizmatda xaq to'lash bo'yicha shu mamlakat teritoriyasida maolom talablar quyilsa, turizm agentligi sayoxlarga maolom kafolatlar berishi kerak turistlarni tasodifiy kassalik xolatlarda va baxsiz xodisalarida sug'urtalash shunday kafolatlardan xisoblanadi.

Sug'urta polisida turistlarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat haqi va davlatdan vaqtinchalik bo'lgan paytdagi sayoxlarni sug'urta xarakatlari xisobga olish kerak.

Sug'urta polisi mamlakatimizda davlat tilida vaqti kelganda rus-tilida ham amalga oshirilishi mumkin.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1.Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.

2.Мирзиёев. Ш.М “Танкидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.

3.Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.

4.Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.

5.Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002

6.Усмонов М.Р.,Жумабоев Т.Ж.,Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013

7.Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012

8.Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

Мавзунини mustahkamlash uchun savollar:

1. О'zbekistonda turistlar xavfsizligini taaminlovchi mutaxassisliklarga kimlar kiradi?
2. sug'urta kompensatsiyasi deb nimaga aytiladi?
3. maxaliy turistik maxsulot isteomolchisi qanday ximoyalangan?
4. О'zbekistonda chet el turisti qanday xuquqlarga ega?
5. О'zbekistonda turist qanday menejmentlarga ega?
6. О'zbekistondagi ipak yo'li turistik fimasining fayda soli'i qanday shakillangan?
7. О'zbekistonning Farg'ona vodiysidan turistik borishi tavsiflang?
8. Sayoxat qanday tashkilotlar orqali amalga oshiriladi?

Мавзу 5: Jahonning turistik regionlari

Reja:

1. Xalqaro turizm geografiyasi
2. Jahonda birinchi o'nlikda turadigan davlatlarga keladigan sayyohlar soni
3. Xalqaro turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi
4. Dunyo mintaqalari bo'yicha xalqaro turizm harakatlari

Tayanch iboralar va so'zlar: *turistik regional, Xalqaro turizm, axoli badligi, Dunyo mintaqalari, turistlarni sug'urtalash, imtiyozlar, qidiru-qutqaruv, xizmatlari, tibbiy xizmat, turizm soxasidagi suboektlar vazifasi, O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risidagi qonuni»*

Xalqaro turizm geografiyasi. Davlatlar o'rtasida sayyohlar ayriboshlash xalqaro aloqalarning bir turi bo'lib, u turistik tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydi. Xalqaro turizm jahon xalqlarini bir-birini o'rganishga, xalqlar o'rtasida do'stona aloqani, savdo-sotiqni, madaniyat va ilm-fanni yusaltirishga xizmat qiladi.

Halqaro turistik faoliyat - mintaqa va regionlar yoki davlatlar bo'yicha migratsion xarakat hisoblanadi. Sayohat paytida sayyohlar mehnat (mahsulot ishlab chiqarish, moddiy daromad olish) bilan band bo'lmasdan, balki qabul qiladigan davlatga valyuta to'lashadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dunyo miqyosida turizmning geografik taqsimoti bir xil emas. SHu bois, mintaqa yoki davlatlar turistik salohiyatlari va ulardan foydalanish hususiyatlariga ko'ra bir biridan farq qiladi. Yevropa 57,7 foizni, Amerika qit'asi 18,5, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi 16.0 foizni tashkil etgan. Jahon miqyosida Yevropa va Amerika mintaqasida xalqaro turizm salmog'i yuqori, ammo rivojlanish sur'ati esa Sharqiy Osiyo, xususan Tinch okeani sohillari davlatlarida jadal kechmoqda.

Turizm jahon iqtisodiyotining asosiy tarmog'i sifatida sohalar ichida yillik foyda ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarning biriga chiqib oldi. Jahon mamlakatlari ichidagi birinchi o'nlikda turadigan davlatlarda turizmdan keladigan foyda ko'rsatkichlarini hamda keladigan sayyohlar sonini taqqoslash asosida xalqaro turizmning mintaqaviy o'rnini aniqlash mumkin

Jahonda birinchi o'nlikda turadigan davlatlarga keladigan sayyohlar soni

(2000 yil holati)

| t/r | Mamlakatlar | Sayyohlar soni. mln.kishi | Um. jahondagi ulushi % hisobida |
|-----|-----------------------------|------------------------------|---------------------------------------|
| | Jaxon bo'yicha jami: | 697,6 | 100,0 |
| 1 | Frantsiya | 75,5 | 10,8 |
| 2 | AQSH | 50,9 | 7,3 |
| 3 | Ispaniya | 48,2 | 6,9 |
| 4 | Italiya | 41,2 | 5,9 |
| 5 | Xitoy | 31,2 | 4,5 |
| 6 | Buyuk Britaniya | 25,3 | 3,6 |
| 7 | Rossiya | 21,2 | 3,0 |
| 8 | Meksika | 20,6 | 3,0 |
| 9 | Kanada | 20,4 | 2,9 |
| 10 | Germaniya | 19,0 | 2,7 |

**Jahon mamlakatlari ichidagi birinchi o'nlikda turadigan davlatlarda turizm
keladigan foyda**

(2000 yil, mlrd. AQSH dollari hisobida)

| t/r | Mamlakatlar nomi | Sayyohlikdan keladigan foyda | Umumiy jahondagi ulushi (%) |
|-----|-----------------------------|---------------------------------|--------------------------------|
| | Jaxon bo'yicha jami: | 423.1 | 100 |
| 1 | AQSH | 85,2 | 17,8 |
| 2 | Ispaniya | 31,0 | 6,5 |
| 3 | Frantsiya | 29,9 | 6,3 |
| 4 | Italiya | 27,4 | 5,7 |
| 5 | Buyuk Britaniya | 19,5 | 4,1 |
| 6 | Germaniya | 17,8 | 3,7 |
| 7 | Xitoy | 16,2 | 3,4 |
| 8 | Avstriya | 11,4 | 2,4 |
| 9 | Kanada | 10,0 | 2,0 |
| 10 | Germaniya | 9,3 | 1,9 |

jadval Butunjahon turistik tashkiloti* ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqoridagi jadvallardan ma'lum bo'ladiki, xalqaro turizm eng yuqori daromad bo'yicha AQSH (85,2 mlrd. dol. – 17,8 foiz), sayyohlar soni jihatidan esa Frantsiya (75,5 mln. kishi – 10,8 foiz) ajralib turadi. SHuningdek, ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha AQSH, Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya mamlakatlari ham ancha yuqori mavqega ega.

Xalqaro turizmning jahon miqyosida yil sayin o'sib, foyda ko'rsatkichlari oshib bormoqda. SHu bois, olimlar va mutaxassislar XXI asrni turizm asri bo'lishini bashorat qilmoqdalar.

Turizm XX asrning oxiriga kelib murakkab tarmoqqa aylandi. CHunki, u xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, mexmonxona xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, sport va boshqa ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir (Lipets va boshqalar, 1999). 1970 yildan 1991 yilgacha o'tgan davr mobaynida jahondagi sayyohlar soni 160 mln. dan 525 mln. kishiga oshdi. 2000 yili sayohatga chiqqan turistlar soni 698 mln. kishidan oshdi, ya'ni shu yili dunyo aholisining 1/4 qismi turizmga band bo'lgan (Aleksandrova, 2002).

* Бугунжако́н туристик ташкилоти (БТТ) 1975 йил ташкил этилган. Бу ташкилотга 30 дан ортиъ давлатлар аъзо бълиб, штаб квартираси Мадрид шақрида жойлашган

Keyingi yillarda dunyo bo'yicha turizm tarmog'ida band bo'lgan aholining soni yildan-yilga oshib bormoqda. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 2005 yilgacha bo'lgan davrda butun jahonda 930 mln. kishini, ya'ni yer yuzi aholisining 16 foizini turizmga jalb etish mumkin. 1996 yilda dunyoda mehnatga yaroqli aholidan 7 kishidan biri turizm sohasida ishlagan bo'lsa, ayrim davlatlarda 20 kishidan 15 tasini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich Yevropada 300 mln., Shimoliy va Markaziy Amerikada 98 mln., Osiyoda 95 mln. kishini tashkil etgan. Demak, aholi va uning turizm sohasidagi bandligi turli mamlakatlarda turlicha. Bu avvalo shu davlatning iqtisodiy geografik o'rni va tarixiy rivojlanishi hamda tabiiy sharoitning qay darajaligi bilan bog'liqdir. Binobarin, turizm sohasidagi qo'shimcha xizmat turlarining paydo bo'lishi mehnat resurslarining bandlik darajasiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Sayyohlikning o'sishi, unga bo'lgan intilish bir tomondan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligini, transport vositalarining mukammallashganligi ko'rsatsa-da, ikkinchi tomondan, urbanizatsiya darajasining o'sganligi, kishilar turmush sharoiti, madaniy hayoti va moddiy farovonligining oshganligi, kishilarning boshqa hudud va mamlakatlar xalqlarini bilishga qiziqishini kuchaytirdi. Shuningdek, tabiiy, madaniy, ma'naviy, tarixiy yodgorliklar bilan tanishishga, ziyorat qilishga, tabiat go'zalligidan barhamand bo'lishga intilishini oshirdi.

Sayyohlar qabul qilish bo'yicha rivojlangan davlatlarning tartibiy joylanishidagi o'zgarishlar

| o'rni | 1950 | 1970 | 1990 | 2000 |
|----------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------------|
| 1 | AQSH | Italiya | Frantsiya | Frantsiya |
| 2 | Kanada | Kanada | AQSH | AQSH |
| 3 | Italiya | Frantsiya | Ispaniya | Ispaniya |
| 4 | Frantsiya | Ispaniya | Italiya | Italiya |
| 5 | Shvedsariya | AQSH | Vengriya | Xitoy |
| 6 | Irlandiya | Avstriya | Avstriya | Buyuk Britaniya |
| 7 | Avstriya | Germaniya | Buyuk Britaniya | Rossiya Federatsiyasi |
| 8 | Ispaniya | Shvedsariya | Meksika | Meksika |
| 9 | Germaniya | Yugoslaviya | Germaniya | Kanada |
| 10 | Buyuk Britaniya | Buyuk Britaniya | Kanada | Germaniya |
| 11 | Norvegiya | Vengriya | Shvedsariya | Avstriya |
| 12 | Argentina | Chexoslavakiya | Xitoy | Pol'sha |
| 13 | Meksika | Bel'giya | Gretsiya | Vengriya |
| 14 | Niderlandiya | Bolgariya | Portugaliya | Gongkong |
| 15 | Daniya | Ruminiya | Malayziya | Gretsiya |
| Jami dunyo bo'yicha (mln. kishi) | 25,3 | 165,8 | 457,2 | 697,6 |

Manba: Problemy stanovleniya industrii turizma Kazaxstana, Almaty, 2002, s.30

Xalqaro turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi (1950-2005 yillar)

| Yillar | Tashrif buyurgan turistlar (mln.kishi) | O'rtacha yillik o'zgarishi% | Daromad mlrd. dollar | O'rtacha yillik o'zgarish% |
|--------|--|-----------------------------|----------------------|----------------------------|
| 1950 | 25.282 | - | 2.1 | - |
| 1960 | 69.296 | 10.6 | 6.867 | 12.6 |
| 1970 | 159.690 | 8.7 | 17.9 | 10.0 |

| | | | | |
|------|---------|------|---------|-------|
| 1980 | 284.841 | 6.0 | 102.372 | 19.1 |
| 1985 | 329.558 | 3.29 | 117.63 | 4.59 |
| 1986 | 340.571 | 3.34 | 142.074 | 2.78 |
| 1987 | 366.872 | 7.72 | 174.323 | 22.63 |
| 1988 | 401.723 | 9.5 | 201.51 | 15.67 |
| 1989 | 430.954 | 7.28 | 218.369 | 8.35 |
| 1990 | 459.233 | 6.56 | 264.708 | 21.22 |
| 1991 | 466.044 | 1.48 | 271.822 | 2.69 |
| 1992 | 503.617 | 8.06 | 308.596 | 13.53 |
| 1993 | 518.258 | 2.91 | 313.963 | 1.74 |
| 1994 | 546.266 | 5.4 | 346.674 | 10.42 |
| 1995 | 566.082 | 3.63 | 393.23 | 13.43 |
| 1996 | 592.122 | 4.6 | 423.116 | 7.60 |
| 2000 | 687.300 | 10.8 | 473.414 | 6.2 |
| 2001 | 684.100 | -0.5 | 459.512 | -2.9 |
| 2002 | 702.600 | 2.7 | 474.276 | 3.2 |
| 2003 | 694.100 | -1.8 | 533.000 | 6.4 |
| 2004 | 764.500 | 10.1 | 633.000 | 9.3 |
| 2005 | 806.300 | 5.5- | 680.000 | 3.3 |

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti (YuNVTO) (Ma'lumotlarni 2006 yil sentyabrda yig'gan)

Dunyo bo'yicha 2001-2005 yillarda xalqaro turistik tashriflar

| Mintaqalar | Xalqaro turistik tashriflar mln.kishi | | | | | O'zgarishi% | | Ulushi% |
|---|---------------------------------------|-------|-------|-------|-------|-------------|-----------|---------|
| | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2001-2000 | 2005/2004 | 2005 |
| Afrika | 28.3 | 29.1 | 31.2 | 33.8 | 36.7 | 3.2 | 8.5 | 4.6 |
| Shimoliy Afrika | 10.6 | 10.3 | 11.4 | 12.8 | 13.7 | 4.8 | 7.5 | 1.7 |
| Saxroi-Kabr cho'li mintaqasi | 16.7 | 18.0 | 19.5 | 21.1 | 23.0 | 4.9 | 9.1 | 2.9 |
| Amerika | 120.2 | 114.9 | 113.1 | 125.7 | 133.5 | -6.1 | 6.2 | 16.6 |
| Shimoliy Amerika | 84.4 | 81.6 | 77.3 | 85.7 | 89.9 | -7.5 | 4.9 | 11.2 |
| Karib orollari | 16.9 | 16.1 | 17.1 | 18.1 | 18.9 | -1.6 | 4.3 | 2.3 |
| Markaziy Amerika | 4.4 | 4.7 | 4.9 | 5.7 | 6.5 | 1.7 | 15.7 | 0.8 |
| Janubiy Amerika | 14.4 | 12.5 | 13.8 | 16.2 | 18.2 | -5.0 | 12.2 | 2.3 |
| Osiyo va Tinch okeani | 121.1 | 131.3 | 133.2 | 144.2 | 155.4 | 5.1 | 7.8 | 19.3 |
| Shimoliy-Sharq. Osiyo | 65.6 | 73.6 | 61.7 | 79.4 | 87.6 | 5.0 | 10.3 | 10.9 |
| Janub.-Sharq. Osiyo | 40.2 | 42.2 | 36.1 | 47.1 | 49.3 | 8.7 | 4.8 | 6.1 |
| Okeaniya | 9.5 | 9.6 | 9.0 | 10.1 | 10.5 | -1.6 | 3.8 | 1.3 |
| Janubiy Osiyo | 5.8 | 5.9 | 6.4 | 7.6 | 8.0 | -4.5 | 5.5 | 1.0 |
| Evropa | 390.8 | 399.8 | 407.1 | 424.4 | 441.5 | -0.5 | 4.0 | 54.8 |
| Shimoliy Yevropa | 44.6 | 46.4 | 45.8 | 49.6 | 52.9 | -4.7 | 6.5 | 6.6 |
| Farbiy Yevropa | 139.2 | 141.4 | 136.1 | 139.0 | 142.7 | -2.6 | 2.6 | 17.7 |
| Markaziy-Sharq. Yevropa | 63.4 | 65.2 | 78.5 | 86.3 | 87.9 | 1.8 | 1.9 | 10.9 |
| Janubiy. Farbiy O'rta yer dengizi Yevropa | 143.7 | 147.1 | 146.8 | 149.5 | 158.0 | 2.2 | 5.7 | 19.6 |
| Yaqin Sharq | 23.6 | 27.6 | 29.5 | 36.3 | 39.1 | -1.3 | 7.7 | 4.8 |

| | | | | | | | | |
|-----------------------|-------|-------|-----|-----|-----|------|-----|-----|
| Jahon bo'yicha | 684.1 | 702.6 | 694 | 764 | 806 | -0.5 | 5.5 | 100 |
|-----------------------|-------|-------|-----|-----|-----|------|-----|-----|

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti (YuNVTO) (Ma'lumotlarni 2006 yil sentyabrda yig'gan)

**Mintaqalar bo'yicha xalqaro turizmdan tushgan tushumlar tahlili
(2005 yil bo'yicha)**

| Mintaqalar | Xalqaro turizmdan kelib tushgan tushim mlrd.doll. AQSH | Bitta turistlik tashrifdan tushgan tushim miqdori (AQSH.dol.) | O'zgarishi% | | Ulushi % |
|-----------------------|--|---|-------------|-----------|----------|
| | | | 2004/2003 | 2005/2004 | |
| Afrika | 21.5 | 590 | 6.9 | 8.5 | 3.2 |
| Amerika | 144.6 | 1.080 | 11.5 | 3.8 | 21.2 |
| Osiyo va tinch okeani | 138.6 | 890 | 24.4 | 4.3 | 20.4 |
| Evropa | 348.2 | 790 | 3.2 | 2.4 | 51.2 |
| Yaqin Sharq | 710 | 27.6 | 11.3 | 1.5 | 4.0 |
| Dunyo bo'yicha | 680 | 840 | 9.3 | 3.3 | 100 |

2005 yilning eng ilg'or mamlakatlariga qilingan tashriflar 2000 yilga nisbatan 2005 yildagi o'zgarishlar

| Reyting | Mamlakat | Xalqaro turistlik tashriflar (mln. kishi hisobida) | | | | | O'zgarishi | | | |
|---------|-----------------|--|------|------|------|------|------------|-----------|-----------|-----------|
| | | 1999 | 2000 | 2002 | 2004 | 2005 | 2000/1999 | 2001/2000 | 2002/2001 | 2005/2004 |
| 1 | Frantsiya | 73.0 | 75.5 | 77.0 | 75.1 | 76.0 | 3.4 | -2.6 | 2.4 | 1.2 |
| 2 | AQSH | 48.5 | 50.9 | 41.9 | 46.1 | 49.4 | 4.9 | -11.9 | 6.7 | 7.2 |
| 3 | Ispaniya | 46.8 | 48.2 | 51.7 | 52.4 | 55.6 | 3.0 | 4.6 | 3.3 | 6.0 |
| 4 | Italiya | 36.5 | 41.2 | 39.8 | 37.1 | 36.5 | 12.8 | -3.9 | 0.6 | -1.5 |
| 5 | Xitoy | 27.0 | 31.2 | 36.8 | 41.8 | 46.8 | 15.5 | 6.2 | 11.0 | 12.1 |
| 6 | Buyuk Britaniya | 25.4 | 25.2 | 24.2 | 27.8 | 30.0 | 0.8 | -9.4 | 5.9 | 8.0 |
| 7 | Rossiya | 18.5 | 21.2 | 7.9 | 19.8 | 19.9 | 14.5 | 5.3 | 7.3 | 0.2 |
| 8 | Meksika | 19.0 | 20.6 | 19.7 | 20.6 | 21.9 | 8.4 | -4.0 | -0.7 | 6.3 |
| 9 | Kanada | 19.5 | 20.4 | 20.1 | 19.0 | 18.6 | 4.9 | 0.3 | 1.9 | -2.2 |
| 10 | Germaniya | 17.1 | 19.0 | 18.0 | 20.4 | 21.5 | 10.5 | -5.9 | 0.6 | 6.8 |
| 11 | Avstriya | 17.5 | 18.0 | 18.6 | 19.4 | 20.0 | 2.9 | 1.1 | 2.4 | 3.0 |
| 12 | Pol'sha | 18.0 | 17.4 | 14.0 | 14.3 | 15.2 | -3.1 | -13.8 | -6.8 | 6.4 |
| 13 | Vengriya | 14.4 | 15.6 | 15.9 | 12.2 | 10.1 | 8.1 | -1.5 | 3.5 | -17.7 |
| 14 | Gonkong | 11.3 | 13.1 | 16.6 | 13.6 | 14.7 | 15.3 | 5.1 | 20.7 | 8.2 |
| 15 | Gretsiya | 12.2 | 12.5 | 14.2 | 13.3 | 14.2 | 2.8 | 7.3 | 0.9 | 7.2 |

Dunyo mintaqalari bo'yicha xalqaro turizm harakatlari

| | |
|--|--|
| Mintaqalar bo'yicha turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlar | Mintaqalar bo'yicha turistlarni jo'natuvchi mamlakatlar |
| Afrika mintaqasi bo'yicha | |
| Tunis. Marakko. Jazoir. Janubiy Afrika respublikasi. Botsvana. Keniya. Zambiya | Frantsiya. Germaniya. Italiya. Buyuk Britaniya. Ispaniya Amerika Qo'shma Shtatlari. Shvedsariya. Niderlandiya. |
| Amerika mintaqasi bo'yicha | |

| | |
|--|---|
| Amerika Qo'shma SHTatlari. Kanada. Puerto-Riko. Dominikan respublikasi. Meksika. Gavayya orollari. Argentina. Braziliya. | Buyuk Britaniya. Germaniya. Kanada. Amerika Qo'shma SHTatlari. Meksika. Frantsiya. Yaponiya. Skandinaviya mamlakatlari. |
| Osiyo va tinch okeani mintaqasi bo'yicha | |
| Xitoy. Malayziya. Gonkong. Yaponiya. Tailand. Koreya. Singapur. Avstraliya. | Yaponiya. Buyuk Britaniya. Amerika Qo'shma Shtatlari. Germaniya. Koreya. Tailand. Avstraliya. Yangi zelandiya. |
| Evropa mintaqasi bo'yicha | |
| Frantsiya. Avstraliya. Ispaniya. Buyuk Britaniya. Italiya. Germaniya. Vengriya. Shvedsariya. | Germaniya. Niderlandiya. Buyuk Britaniya. Frantsiya. Italiya. Skandinaviya mamlakatlari. Amerika Qo'shma shtatlari. Bel'giya. |
| Yaqin Sharq mintaqasi bo'yicha | |
| Iordaniya. Yegipet. Saudiya Arabistoni. Birlashgan Arab Amirliklari. Suriya. Baxreyn. | Egipet. Iordaniya. Amerika Qo'shma shtatlari. Germaniya. Buyuk Britaniya. Frantsiya. |
| Janubiy Osiyo mintaqasi bo'yicha | |
| Indiya. Pokiston. SHri-Lanka. Nepal. Maldiv respublikasi. Bangladesh. Eron Islom respublikasi. | Buyuk Britaniya. Indiya. Amerika Qo'shma shtatlari. Germaniya. Frantsiya. Yaponiya. Italiya. |

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti.

So'nggi yillarda AQSH va G'arbiy Yevropa davlatlari xalqaro turizmda yetakchi o'ringa chiqib oldi. Ayni vaqtda rivojlanilayotgan mamlakatlarda ham bu sohaga e'tibor kuchaymoqda. Ayrim davlatda turizm hisobiga milliy daromadning 40-50 foizdan ortiqni tashkil qilmoqda. Bunday mamlakatlar jumlasiga Marokash, Tunis, Keniya, Kipr, Barbados, Bagama, Bermud, Seyshall' orollarini ko'rsatish mumkin.

Ta'kidlash joizki, har bir mamlakatning turistik salohiyati uning maydoni, hududining tabiiy geografik, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy turli tumanligi hamda turistik bozor va infratuzilmaning rivojlanganligiga bog'liq. Bunday omil va sharoitlarning dunyo bo'yicha farq qilishi xalqaro turizmning eng muhim ko'rsatkichidir.

jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, so'nggi yarim asr davomida davlatlarning xalqaro turizmga tutgan o'rni o'zgarib borgan. Masalan, 1950 yilda jahon bo'yicha sayyohlarning soni 25 mln. kishidan ortiq bo'lgan. Bu borada AQSH, Kanada, Italiya, Frantsiya va Shvedsariya mamlakatlari oldinda turgan. 1970 yilga kelib «birinchi beshlikda» Italiya oldinga chiqib olgan, AQSH esa 5- o'ringa tushib qolgan. Oraliq o'rinlarni Kanada, Frantsiya va Ispaniya davlatlari egallagan. Ayni vaqtda Norvegiya, Argentina, Meksika, Niderlandiya, Daniya kabi mamlakatlar mavqei keskin pasaygan.

1990 yilda Frantsiya sayyohlarni qabul qilish bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqib olgan va hozir ham u ana shunday mavqeni saqlab qolmoqda. Xuddi shunday fikrni ikkinchi va uchinchi o'rinlarda turgan AQSH hamda Ispaniya uchun bildirish mumkin. 1970 yilda birinchi o'rindagi Italiya davlati 1990-2000 yillarda beshinchi o'ringa tushib qolgan.

Shu o'rinda Ispaniya to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tish mumkin. Bu mamlakatda o'tgan asrning 70-80 yillarida o'tkazilgan iqtisodiy islohatlar aynan turizmdan boshlangan. Ispaniya 2000 yilda 54 mln. sayyohlarni qabul qilgan va bundan kelgan daromad 12 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan (Dergachev, 2002, b. 100)

Umuman olganda, so'nggi o'n yilda ayrim mamlakatlarda (Venetsiya, Avstriya, Gretsiya va h.k.) xalqaro turizm sust rivojlangan, boshqa ba'zi bir davlatlarda esa u tezkor taraqqiy qilgan (masalan, Xitoy, Rossiya, Meksika).

Xalqaro turizm erkin iqtisodiy mintaqalarni tashkil etishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, dunyo bo'yicha bunday mintaqa dastavval Irlandiyada o'tgan asrning 60-yillarida

vujudga kelgan (Shennon) va uning bosh omili turizm bo'lgan. Hozirgi davrda qator erkin iqtisodiy mintaqalar faoliyatida turizm ancha salmoqli o'rinda turadi. Masalan, birgina Syangan (av.Gongkong) erkin iqtisodiy mintaqasi yiliga 7 mln. sayyohni qabul qilib, o'rtacha 7 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad oladi (Dergachev, 2002, b.288). Bu ko'rsatkich xatto mashhur Rim shahridan ham yuqori (u o'rtacha bir yilda 3 mln. sayyoh qabul qiladi).

SHunday qilib, hozirgi vaqtda eng mashhur turistik mamlakatlarga Frantsiya, Ispaniya, AQSH, Italiya, Shvedsariya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Chexiya, Slovaniya, Turkiya kabilar kiradi. Andorra, San Marino, Manokoga o'xshash «mitti» davlatlarda turistlarga xizmat ko'rsatish anchadan beri asosiy daromad manbai hisoblanadi. Bu mamlakatlarda har bir mahalliy aholiga 100 dan ortiq turist to'g'ri keladi.

Xorijiy Yevropa dengiz buyi turizmining asosiy rayoni O'rta yer dengizi bo'yi bo'lib, unga yiliga 100 mln. dan 150 mln.gacha turist kelib ketadi. Bu borada ayniqsa Laguriya dengiz sohillari mashhurdir. Bu yerda shimoldan Al'p tog'lari to'sib turuvchi Riv'era markazi Pitstsa, Xorvatiyadagi Adriatika sohillari, Ispaniya sohillari, Bamar orollari joylashgan.

Tog' turizmining asosiy rayoni Al'p tog'idir. Tog'ning quyi mintaqasi tog'-changi sportida, yuqori mintaqasi esa Al'pinizmida foydalanadi. Yevropaning Parij, Rim, Madrid shaharlari turistlarning o'ziga xos «Makka» si hisoblanadi. SHuningdek, London, Amsterdam, Vena, Bern, Drezden, Praga, Budapesht, Venetsiya, Neapol', Syangan (Gongkong) kabi shaharlarida ham turistlar oqimi ko'pchilikni tashkil qiladi.

So'nggi yillarda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Tailand, Birma, Singapur, Malayziya, Indoneziya) hamda Avstraliyada turizmining rivoji yil sayin oshib bormoqda. Xususan Avstraliya yashil materik sifatida sayyohlikning o'ziga xos tarmoqlarini rivojlantirmoqda. SHu bilan birgalikda Markaziy Osiyodagi davlatlar ham o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin jahon tajribasi asosida turizmni rivojlantirish uchun harakat qilmoqda

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танкидий тахлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xalqaro turizm geografiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Jahonda birinchi o'nlukda turadigan davlatlarga qaysi davlatlar kiradi?
3. Jahonda birinchi o'nlukda turadigan davlatlarga keladigan sayyohlar xaqida nimani bilasiz?
3. Xalqaro turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi nima?
4. Dunyo mintaqalari bo'yicha xalqaro turizm harakatlariga misollar keltiring?

Ma'ruza 6: Yevropa mamlakatlarida xalqaro turizm geografiyasi

REJA:

1. Yevropa mintaqasida xalqaro turizmni rivojlanish yo'nalishlari
2. Evropa mamlakatlari turizm industriyasida axborot texnologiyalarining rivojlanishi
3. Yevropa ittifoqiga a'zo yetakchi mamlakatlar turizm
4. Yevropaning «Benilyuks» iqtisodiy ittifoqiga kiruvchi Bel'giya. Niderlandiya va Lyuksemburg mamlakatlari turizmi
5. Skandinaviya mamlakatlari Shvedsiya. Finlandiya. Norvegiya. Daniya turizmi
6. Sharqiy Yevropa mamlakatlari turizmi

Tayanch iboralar va so'zlar: *Yevropa mintaqasi, Yevropa mamlakatlari, Turistik regional, Xalqaro turizm, axoli badligi, Dunyo mintaqalari, turistlarni sug'urtalash, imtiyozlar, qidiru-qutqaruv, xizmatlari, tibbiy xizmat, turizm sohasidagi suboektlar vazifasi,*

Hozirgi kunda turizm tarmog'i dunyodagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish hamda xalqaro va mintaqalararo rivojlanish dasturlariga integratsiyalashuvning o'ta muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bu bo'limda Yevropa mintaqasi mamlakatlari turizmning o'ziga xos xususiyatlari. shakllanishi va ommaviylashishi. mintaqada xalqaro turizmni rivojlanish yo'nalishlari. Yevropa mamlakatlari turizm industriyasida axborot texnologiyalarining rivojlanishi. «Onlayn» turizm bozorining holati hamda Yevropa ittifoqiga a'zo yetakchi mamlakatlar turizm iqtisodiyoti. Yevropaning «Benilyuks» iqtisodiy ittifoqiga kiruvchi Farbiy Yevropa mamlakatlari turizm iqtisodiyoti. Shimoliy Yevropa Skandinaviya mamlakatlari turizm iqtisodiyoti. Sharqiy Yevropa mamlakatlari turizm iqtisodiyoti. Yevropa mintaqasi mamlakatlarining geografik o'rni. joylashuvi. Yevropa mamlakatlariga qilinayotgan tashriflar va daromadlar tahlili hamda bu mamlakatlar bilan O'zbekiston o'rtasida olib borilayotgan diplomatik munosabatlar o'rganiladi.

Evropa mamlakatlarida turizmning shakllanishi va kishilarning ommaviy sayohat qilishlari XVIII-XIX asrlarda ziyorat qilish va migratsiya harakatlari davomida rivojlandi. Nomdor kema kompaniyalari mamlakat ichkarisida ham yuk hamda kishilarni tashish uchun vositaChilik byurolarini ta'sis eta boshladilar.

Temir yo'li orqali ijtimoiy sayohat qilishning boshlanishi 1841 yilning 5 iyulida. ya'ni Leicester dan Loughborough tomon temir yo'l poezdining yo'l olishiga borib taqaladi. Mana shu sayohatdan boshlab. pekij tur sayohati kelajak avlodlarning bo'sh vaqt tadbirlari qatoriga qo'shila boshlagan. Mazkur sayohatlarning tashabbuskori Tomas Kuk (1802-1892) hisoblanadi. Asli duradgor bo'lgan bu kishining sayohat uyushtirishdan maqsadi turist manfaatlarini aks ettirmas edi. U "Leicester Temperance Society" ning kotibi sifatida. Loughboroughda ichkilikka qarshi namoyish uyushtirib. safarni yengillashtirish va chiroyliroq tashkil etish maqsadida «Midland Counties Railway» dan butun bir poezdni ijaraga olgan edi. 570 ga yaqin yo'lovchilar uchun Loughborouhgda faqatgina vazxonlik emas. balki keng qamrovli ko'ngil ochar dasturlarni ham ishlab chiqqan edi. Tomas Kuk o'sha paytda avj olayotgan ijtimoiy muammolarga o'z fikrini bildirib ishchilar sinfi ishlab topgan pullarini ichkilikka emas. balki sayohat qilib atrof muhitni o'rganishga sarflaganlari ma'qul deb hisoblardi. Tomas Kuk uyushtirgan bu sayohat ilk pekij tur hisoblangan. Uning bir qator belgilari sayohat shaklini tashkil etuvchi quyidagi elementlar va xususiyatlar sifatida namoyon bo'ladi:

yo'nalish bahosi tarkibiga bir nechta xizmatchilar kiritilgan; sayohatga avvaldan tayyorgarliklar ko'rilgan. ya'ni rivojlantirilgan tashkilotchi turoperatorlar poezdni o'z tavakkalchiliklari asosida charter qilganlar;

sayohat reklamasi maqsadli ravishda ishlab chiqilgan. turli tarqatma materiallar va boshqa reklama vositalari orqali amalga oshirilgan.

Yo'llar narxlarining nisbatan arzonligi yangi aholi tabaqalariga sayohat qilish imkonini yaratib berdi. O'sha paytlarda hali yangi bo'lgan temir yo'l kompaniyalari uchun Tomas Kuk bir vaqtning o'zida sotish bo'yicha ham hamkor. ham raqobatchi sifatida qatnashgan. U mijozlarni topib, jalb etib sayohatlarni ommaviylashtirgan bo'lsa, temir yo'l kompaniyalarining o'zlari ham bu kabi ijtimoiy sayohatlarni tashkil etishga harakat qilganlar.

1845 yili Tomas Kuk, birinchi marotaba temir yo'l transportidan tijorat maqsadida foydalanuvchi turoperatorlik sohasiga asos solib, uni to'xtovsiz ravishda rivojlantiradi.

Tomas Kuk o'z faoliyatini rivojlantira borib, alohida temir yo'l tashkilotlari bilan shartnoma tuzish orqali ularda tan olinadigan aylanma sayohat chiptalarini joriy etish xuquqini qo'lga kiritadi.

1855 yilga kelib, yuqorida ko'rib o'tilgan aylanma sayohat chiptalarining amal qilish doirasi butun kontingent chegaralarigacha kengaytiriladi. Umumiy narx asosida bir necha xizmatlarni taklif etish natijasida vaucherlar, mehmonxona talonlari joriy etildi. Tomas Kuk xorijiy sayohatlarda to'lov muammolarini kamaytirish maqsadida, kredit kartochkalari va sayohat cheklarini joriy qilib, uni o'z mijozlariga taklif etadi. Sayohat cheklari ham turli mintaqalarda banklar aro ayriboshlash vositasiga aylandi. Vaholanki, o'sha paytlarda xalqaro ayriboshlash vositasida faqat oltin qo'llanilar edi. Bundan tashqari, u sayohat broshyuralarini ommalashtirdi hamda o'z mijozlari uchun jurnal nashr ettira boshladi.

Tomas Kuk zimmasiga 1851 yili Londonda bo'ladigan dunyo ko'rgazmasi uchun xususiy sayohatlarni tashkil etish yuklandi. U markaziy Angliyaning shaharlarida "Ko'rgazma klublari"ga asos soldi. Bu klublarning a'zolari haftalik to'lovlar orqali o'zlarining Londonga sayohatlarini mablag' bilan ta'minlab bordilar. Natijada insonlarda sayohat qilish uchun mablag' jang'arish g'oyasi vujudga keldi.

Turizm strukturasi rivojlanmagan u paytlarda Tomas Kuk xizmat ko'rsatuvchi sifatida bevosita o'zi faoliyat ko'rsatadi. U mehmonxonalarni ijaraga olib, bank ishiga asos soladi va Nilda kema flotini vujudga keltiradi hamda nafaqat Yevropada balki Hindiston, Avstraliyada, Amerika va Afrikada turistik byurolar (turagentlar) tashkil etadi.

Tomas Kukning ijtimoiy sayohat g'oyasi tez orada o'z taqlidchilarini topadi. Angliyada – Gaze, Dean & Dawson, Amerikada xususiy pochta tadbirkori Henry Wells G. Pomeroy va C Livingstone bilan birgalikda 1850 yili American Express Company ga asos solib, "sayohat qilishni istasangiz – Kukni tanlang" degan shior ostida faoliyat olib boradi.

Xalqaro turizmning tarixiy rivojlanish asoslaridan biri bu - Ommaviy standartlashgan uzluksiz turizmdan ommaviy difirensiyalashgan xizmat ko'rsatishga o'tish hisoblanadi. Turizm XIX asrning 50-yillarida Yevropada ommaviy tus oladi. Jahonda turizm harakatlarida qatnashgan umumiy sayyohlar soni 25 million kishini tashkil qilgan. Turizmning bunday tus olishi nafaqat boy tabaqaga mansub kishilarning ko'payishi yoki ularning ehtiyojini qondirilishi bilan, balki industrial rivojlangan davlatlar aholisining bu jarayonga ommaviy tarzda qatnasha boshlagani va zamonaviy sayohat qilish madaniyatining shakllanganligi bilan ifodalash mumkin. Aynan shu paytga kelib dam olish maskanlarini tashkil qilish va ularni boshqarish uslublariga asoslangan kuchli turizm industriyasi vujudga keladi. Turli xil hordiq chiqarish maskanlari, mehmonxonalar, motellarni ommaviy tarzda qurish davom ettirildi. Ommaviy turizm 1970 yillargacha uzluksiz davom etdi. Bu davrda turistik sayohatdan maqsad jismoniy dam olib, ish qobiliyatini tiklashdan iborat edi. Bu model aholining psixologiyasida shakllandi va «Yaxshi dam mehnatga hamdam» tushunchasi tarkib topdi. 1960-1970 yillarda Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi natijasida turizm bozorida talabning ortishi kuzatildi. Bunda ichki va tashqi turizm harakatlarida ekstensiv o'sish ro'y berdi. Bunga javoban turistik tashkilotlar va turistik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar hajmi ortdi.

Turistik firmalar «Uzluksiz ommaviy turizmga o'ta boshladilar. standart xizmatlar» pekij turlar kombinatsiyasiga asoslangan edi.

Uzluksiz turizmdan diferentsial turizmga o'tish modeli iqtisodiyotdagi «Ishlab chiqaruvchilar bozori»dan «Iste'molchilar bozori»ga asoslangan mezonda amalga oshirildi. Bozorlarning tovarlarga to'lishi. ommaviy iste'molchilar turmush darajasining o'sishi. ish sharoitlarining yaxshilanishi va bo'sh vaqtning ortishi diferentsial turizmning rivojlanishiga olib keldi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki. diferentsial turizm har ikkala bozorda (ishlab chiqaruvchilar va istemolchilar bozorida) ham o'z o'rnini topdi. Iste'molchilar bozori diferentsiallashgan turistik talab bilan tavsiflanadi. ya'ni iste'molchilarga turistik xizmatlarning keng assortimenti taklif qilina boshlandi va ayni vaqtda iste'molchilarning ham tanlash imkoniyatlari kengaydi. Turistik mahsulotlarning sifati va narxi. iste'molchilarning ijtimoiy bazasining kengayishi. turizmning ommaviylashuvini ta'minlaydi. unda nafaqat boy va o'rta me'yordagi. balki aholining quyi qatlami ham ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ishlab chiqaruvchilar turizm talabining yangi sigmentlarini o'ylab topa boshlashdi. Ular taklif qilinayotgan xizmatlarning turlarini ko'paytirishdi. taklifni diferentsiallashtirib. uni umumiyashtirishdi.

1980 yillarga kelib Yevropada turizm tendentsiyasi batamom shakllandi va ommaviylashdi. Buning asosiy belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin: axborot bilan ta'minlanganligi va bilim darajasining yuqoriligi; tovar va xizmatlar sifatiga qo'yilgan talablarning oshishi; faol hayot kechirish usuliga moslashish; doimo o'z bilimini oshirib borishga harakat qilish.

Turizmda «ommaviy iste'mol» ko'pgina rivojlangan davlatlar. ayniqsa. Yevropa mamlakatlariga xosdir. Iste'molchilarning turizm bozoridagi harakatlarining yangi ko'rinishlari va xususiyatlari shakllana boshladi. Bunda axborot hajmining ko'payishi va erkinligi bilan bir qatorda. taklif qilinayotgan xizmatlarga ham yangi ilmiy va amaliy qarashlar vujudga keldi.

1. Yevropa mintaqasida xalqaro turizmni rivojlanish yo'nalishlari. 1999-2000 yillarda Yevropadagi umumiy iqtisodiy taraqqiyot bir oz sekinlashdi. Yevropadagi ishsizlar soni 12.6 mln. kishini tashkil etib. ularning salmog'i o'tgan yillardagiga nisbatan (11.1%dan) bir oz kamayib 10.2% ni tashkil qildi. Iqtisodiy o'sishda ham pasayish kuzatildi. Yalpi ichki mahsulot Germaniyada o'tgan yili 2.2% dan atigi 1.4% ga o'sdi. Bu bilan Germaniya. Italiyadan tashqari barcha Yevropa mamlakatlari YaIM larining o'sish darajasidan ancha ortda qoldi: Muhim iste'mol bozorlaridagi o'zgarma inflyatsiya darajasi hamda bir nacha yillardan beri birinchi bor ko'rsatilgan ta'rif kelishuvlari shaxsiy iste'molga katta ta'sir o'tkaza olmadi. Germaniyada shaxsiy iste'mol 2.0% ni tashkil etib. sal pastroq (2.3%) ko'rsatgichga erishdi.

2002 yilning makroiqtisodiy ko'rsatgichlari bunday bo'lishiga qaramasdan. turizmdagi ahvol umumiy kon'yunktura taraqqiyotidan ancha farq qilmoqda. CHunki Germaniyada sayyohlik harajatlarining o'sishi shaxsiy iste'molnikidan ikki marotaba ortiq bo'ldi. ya'ni 5.0%. Ayni vaqtda ta'til sayohatlari boshqa iste'mol mollari nisbatan konyunkturaga unchalik bog'liq emas. «Ta'til» iste'mol mahsulotiga bo'lgan talabning tobora ortib borishi olinayotgan daromad tarkibida sayohat harajatlari salmog'ining ortishiga olib keldi. Bunday baho quyidagi sabablarga ko'ra berilgan: shaxsiy uy xo'jaliklarining uzoq muddatli maishiy tovarlari bilan yuqori darajada jihozlanganligi; ta'til sayohatining mohiyati nuqtai nazaridan yagona xollarda uchrab. saqlab qo'yish imkoniyati bo'lmagan va ehtiyojlar shkalasida yuqori ahamiyatga ega bo'lgan sarguzasht ekanligi; shaxsiy uy xo'jaliklari daromadining oshganligi.

2000 yil Yevropa mintaqasiga qilingan tashriflar

| № | Asosiy turistik manzillar | Turistlar soni | O'zgarishi% |
|---|---------------------------|----------------|-------------|
| 1 | Frantsiya | 75580000 | + 3.5 |
| 2 | Ispaniya | 47898000 | + 2.4 |
| 3 | Italiya | 41181000 | + 12.8 |
| 4 | Buyuk Britaniya | 25211000 | - 0.7 |

| | | | |
|----|-----------------------|----------|--------|
| 5 | Rossiya Federatsiyasi | 21169000 | + 14.5 |
| 6 | Germaniya | 18983000 | + 10.9 |
| 7 | Pol'sha | 17400000 | - 3.1 |
| 8 | Avstriya | 18818000 | + 2.0 |
| 9 | Vengriya | 15571000 | + 8.1 |
| 10 | Gretsiya | 12500000 | + 2.8 |
| 11 | Portugaliya | 12000000 | + 3.2 |
| 12 | Shvedsariya | 11400000 | + 6.5 |
| 13 | Niderlandiya | 10200000 | + 3.2 |
| 14 | Turkiya | 9623000 | + 39.6 |
| 15 | Irlandiya | 6720000 | + 5.0 |

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti.

Ichki turizm-dagi aylanmalar va nemis xalqining xorijda sarflagan valyuta mablag'lari miqdori 158 mlrd. Doych markani tashkil etmoqda. SHuning uchun ham. Germaniya aholisi xalqaro sayohat almashinishida eng ko'p sof valyuta yetkazib beruvchi manba hisoblanadi. Ularning xorijiy sayohatlar uchun sarf harajatlari shaxsiy iste'molning 4.2%ni tashkil etadi. Nemis turistlarining xorijda qiladigan harajatlari miqdori 2000 yil 47.6 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib. yana bir bor rekord darajasiga yetdi. Turizmning kon'yunkturasining ijobiy tomonga o'zgarishining yana bir sababi yakka xoldagi sayohatga nisbatan pekiy turlar raqobatbardoshligining oshib borishidir. Bunga sabab mijozga yo'naltirilgan narx-xizmat munosabatining ustunligi. qisqa muddatli davomiylik. qulaylik. tavakkalChilikning kamligi hamda kuchli va sifatli xizmatni kafolatlovchi firmalar orqali farqli strategiyalarning ishlab chiqilganligi. deb hisoblanmoqda. Bu rivojlanish deyarli barcha Yevropa bozorlarida tashkil etiladigan sayohatlar salmog'ining umumiy turizm bozorida ortishi bilan ko'zga tashlandi. Masalan. 1980 yili nemislarning deyarli chorak qismi tashkiliy ravishda sayohatga chiqqan bo'lsa. 2000 yil esa ularning soni deyarli 2 marotaba ortdi. 1980 yili 26%ni tashkil etgan bo'lsa. 2000 yilga kelib 50%ni tashkil etdi. Hozirgi kunda Yevropa mintaqasi zamonaviy turistik markazlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Evropa mintaqasi har galgidan 2000 yil ham turizm industriyasining yulduzi sifatida maydonga chiqdi. Asosan. Germaniyadagi EKSP – 2000 ko'rgazmasining tashkil etilishi va Italiyadagi Vatikan yubileyi Xalqaro turistlarni yana bir bor bu hududga jalb qildi. Sharqiy Yevropaning yangi taraqqiy etayotgan mamlakatlarida ham biroz rivojlanish kuzatildi. Kosovada avjiga chiqqan urush va mamlakat iqtisodiyotiga ko'pgina talofatlar keltirgan tabiiy ofatlar. turistik harakatlarni chegaralab qo'ygandi. Yevropaning Shimoliy hududlarida havoning sovuqligiga qaramasdan. u yerlarga turistlarning qiziqishi oxirgi yillarda yanada ortdi. jumladan. Ispaniyada (+19%). Finlandiyada (+10%) va Estoniyada (+15.8%)ga o'sish kuzatildi. Buyuk Britaniyada esa turizm harakatlarida kamayish kuzatildi. Ispaniya o'zining turizm statistikasini qaytadan ishlab chiqqanligi bois ma'lumot to'plash. uni qayta ishlash uslubiyatini o'zgartirib. oldingi yillarga nisbatan keluvchilar soni ortganligini yana bir bor isbotladi.

Butun jahon turizm tashkiloti ma'lumoti bo'yicha. 2000 yilda Yevropa mintaqasiga 300 mln.dan ortiq turistlar tashrif buyurgan.

Ayniqsa bu ko'rsatgich Turkiya. Irlandiya. Vengriya. Shvedsariya. Germaniya. Rossiya. Italiya mamlakatlarida o'tgan yillarga nisbatan yuqori bo'lgan. Yevropa mintaqasi bo'yicha eng ko'p turistik tashriflar Frantsiya (75580000). Ispaniya (47898000). Italiya (41181000) mamlakatlariga to'g'ri keladi. 2000 yilda jahon bo'yicha turizm daromadlari 477 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa. shundan 234.5 mlrd. dollari Yevropa mintaqasi mamlakatlari daromadlariga to'g'ri keladi. Jahon turizmi daromadlarining salkam 50%i Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi.

Yevropa mintaqasi mamalakatlariga xalqaro turistik tashriflar 2001 yilga nisbatan 2002 yilda 2.3% ga ko'paygan. Xalqaro turizm daromadlari 6.5% ga o'sgan. 240.4 mlrd. AQSH

2002 yil Yevropa mintaqasiga qilingan tashriflar va xalqaro turizmdan kelib tushgan tushum

| № | Turistlarni qabul qiluvchi asosiy mamlakatlar | Qator ¹ | Xalqaro turistik tashriflar | | | | Xalqaro turizmdan kelib tushgan tushum miqdori | | | |
|-----|---|--------------------|-----------------------------|-------------|-----------|-----------------|--|-------------|-----------|-----------------|
| | | | 2002 | o'zgarishi% | | ulushi% 2002 | 2002 mlrd. AQSH dol. | o'zgarishi% | | ulushi% 2002 |
| | | | | 2001/2000 | 2002/2001 | | | 2001/2000 | 2002/2001 | |
| 1. | Frantsiya | TF | 77.012 | -2.6 | 2.4 | 19.3 | 32.329 | -2.5 | 7.8 | 13.4 |
| 2. | Ispaniya | TF | 51.748 | 4.6 | 3.3 | 12.9 | 33.609 | 4.5 | 2.2 | 14.0 |
| 3. | Italiya | TF | 39.799 | -3.9 | 0.6 | 10.0 | 26.915 | -6.2 | 4.3 | 11.2 |
| 4. | Buyuk Britaniya | VF | 24.180 | -9.4 | 5.9 | 6.0 | 17.591 | -16.7 | 8.0 | 7.3 |
| 5. | Avstriya | TSE | 18.611 | 1.1 | 2.4 | 4.7 | 11.237 | 1.9 | 11.1 | 4.7 |
| 6. | Germaniya | TSE | 17.969 | -5.9 | 0.6 | 4.5 | 19.158 | -0.3 | 4.0 | 8.0 |
| 7. | Vengriya | VF/2 | 15.870 | -1.5 | 3.5 | 4.0 | 3.273 | 9.4 | -13.2 | 1.4 |
| 8. | Gretsiya | TF | 14.180 | 7.3 | 0.9 | 3.5 | 9.741 | 2.4 | 3.1 | 4.1 |
| 9. | Pol'sha | TF | 13.980 | -13.8 | -6.8 | 3.5 | 4.500 | -21.1 | -6.5 | 1.9 |
| 10. | Turkiya | TF | 12.782 | 12.5 | 18.5 | 3.2 | 9.010 | -3.3 | 22.0 | 3.7 |
| 11. | Portugaliya | ITF | 11.666 | 0.6 | -4.1 | 2.9 | 5.919 | 4.2 | 7.5 | 2.5 |
| 12. | Shvedsariya | TF | 10.000 | -1.8 | -7.4 | 2.5 | 7.628 | -3.5 | 4.4 | 3.2 |
| 13. | Niderlandiya | TSE | 9.595 | -5.0 | 1.0 | 2.4 | 7.706 | -6.8 | 14.6 | 3.2 |
| 14. | Rossiya fed. | TF | 7.943 | 5.3 | 7.3 | 2.0 | 4.188 | 3.8 | 17.6 | 1.7 |
| 15. | Xorvatiya | TSE | 6.944 | 12.2 | 6.1 | 1.7 | 3.811 | 20.9 | 14.3 | 1.6 |
| 16. | Bel'giya | TSE | 6.724 | -0.1 | 4.2 | 1.7 | 6.892 | 4.7 | -0.2 | 2.9 |
| 17. | Irlandiya | TF | 6.476 | -4.4 | 1.9 | 1.6 | 3.089 | 7.0 | 10.7 | 1.3 |
| 18. | Ukraina | TF | 6.326 | 31.4 | 9.2 | 1.6 | 2.992 | 23.5 | 9.8 | 1.2 |
| 19. | Evropa bo'yicha | | 399.759 | -0.5 | 2.3 | 100 | 240.490 | -1.7 | 6.5 | 100 |

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti (BTT) (Ma'lumotlar BTT tomonidan 2003 yil sentyabrda yig'ilgan).

¹Qatorlar-TF: CHegaradagi xalqaro turistik qabul (bir kunlik tashriflarni hisobga olmaganda).

VF – CHegaradagi xalqaro turistik qabul (bir kunlik tashriflarni va turistlarni hisobga olgan holda).

TCE-Guruh bo'lib joylashish joylardagi xalqaro turistik qabul

dollarini tashkil etgan. har bir xorijiy tashrif o'rtacha 600 AQSH dollariga to'g'ri kelgan.

Xalqaro turistik tashriflar bo'yicha 2002 yilda Turkiya 18.5%. Rossiya Federatsiyasi 7.3%. Ukraina 9.2%. Xarvatiya 6.1%. Buyuk Britaniya 5.9%. Bel'giya 4.2% ga oldingi yillarga nisbatan tashriflar miqdori ko'paygan. Pol'sha – 6.8%. Shvedsariya-7.4%. Portugaliya – 4.1% ga Xalqaro turistik tashriflar soni 2001 yilga nisbatan kamaygan.

Xalqaro turizmdan tushgan daromadlar miqdori bo'yicha Turkiya 22.0%. Rossiya Federatsiyasi 17.6%. Xarvatiya 14.3%. Niderlandiya 14.6%. Avstriya 11.1%. Irlandiya 10.7%. Buyuk Britaniya 8.0%. Ukraina 9.8%. Frantsiya 7.8%. Portugaliya 7.5%. 2001 yilga nisbatan o'sish kuzatilgan. Lekin Vengriya 13.2%. Pol'sha 6.5%. Bel'giya 0.2% ga mamlakatlarida pasayish kuzatilgan. Ispaniya 22%. Italiya 4.4%. Germaniya 4.0%. Gretsiya 3.1%. Shvedsariya 4.4% mamlakatlarida Yevropa mintaqasining o'rtacha o'sish sur'atidan. (6.5%) bu mamlakatlarda o'sish sur'atlari past bo'lgan.

2. Yevropa mamlakatlari turizm industriyasida axborot texnologiyalarining rivojlanishi

Evropa mamlakatlari turizm industriyasi rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu - turizm sohasiga infarmatsion texnologiyalarning kirib kelishidir. Turizm sohasidagi infarmatsion texnologiyalar bu. shu soha ichidagi va tashqarisida. tijorat maqsadida qo'llaniladigan barcha kommunikatsiya hamda infarmatsion texnologiyalar majmuidir. Internet va global axborot tarqatish texnologiyalari turizm industriyasining asosiy axborot texnologiyalari hisoblanadi.

Evropa Onlayn (online) turizm bozorining hajmi 2-mlrd. AQSH dollarini tashkil qilmoqda.

Onlayn (online) turizm bozori – internet va boshqa global axborot uzatish tarmoqlari orqali vujudga kelgan turizm bozori. 2000 yilgi ma'lumotlarga qaraganda. 800 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan. bu bozorda Angliya 240 mln. AQSH dollari atrofida tovar aylanmasiga erishib. bozorning 30% ni o'z nazoratiga oldi. 2000 yilda vujudga kelgan siljishlarni hisobga olsak. o'tgan yillardagiga nisbatan 150% o'sish bilan 2 mlrd. AQSH dollariga erishgan. Yevropaning onlayn turizm bozori 2005 yilda 4 mlrd. AQSH dollaridan oshib ketishi kutiloqda.

Evropada «Onlayn» turizm bozorining rivojlanish holati

1998-2002 yillar

| Yillar | Umumiy bozor hajmi | Internet orqali pekij sotishlar | Internet orqali sotishlarning umumiy sotishlar ichidagi ulushi% | Internet sotishlardagi o'sish; |
|--------|--------------------|---------------------------------|---|--------------------------------|
| 1998 | 172 mlrd S | 250 mln h | 0.15% | 220% |
| 1999 | 179 mlrd S | 800 mln h | 0.45% | 220% |
| 2000 | 186 mlrd S | 2000 mln h | 1.1% | 150% |
| 2001 | 194 mlrd S | 3200 mln h | 1.7% | 60% |
| 2002 | 202 mlrd S | 400 mln h | 2.0% | 25% |

MANBA: TTNA. September. 2002.

Ma'lumki Yevropa bozorida asosan 2 ta mamlakat muhim ahamiyat kasb etadi. Bulardan biri Angliya bo'lsa ikkinchisi Germaniyadir.

Germaniyaning 2000 yilgi bozor ulushi 27% ni tashkil qildi. Yevropa umumiy bozorining yetakchi davlatlaridan hisoblangan har ikkala mamlakat ham onlayn turizm bozorining teng yarmiga egalik qilmoqda.

Evropa mamlakatlarning internet orqali turistik mahsulotlarini sotishi va ularning ulushi

| Mamlakatlar | Bozor ulushi% |
|--|---------------|
| Angliya | 30% |
| Germaniya | 27% |
| Frantsiya. Gollandiya. Belgiya. Avstriya. Shvedsariya va Irlandiya | 19% |
| Skandinaviya. Finlandiya va Islandiya | 16% |
| Italiya. Ispaniya. Partugaliya va Gretsiya | 8% |

MANBA: TTNA. September. 2002

Bunday raqobat muhitida boshqa qo'shni mamlakatlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak. Frantsiya. Gollandiya. Bel'giya. Avstriya. Shvedsariya va Irlandiya kabi davlatlarning umumiy bozor ulushi 19% ni. Italiya. Ispaniya. Gretsiya. va Portugaliyaning umumiy bozor ulushlari esa 8% ni tashkil qilmoqda.

PhoCusWright tashkiloti va London Westminster Universitetidan Carl H. Marcussen va Daniya Bornholm tadqiqot markzining qilgan tahlil natijalariga ko'ra. Yevropa onlayn turizm bozoridagi o'sish keyingi yillarda ham davom etadi.

Turizm industriyasidagi tarmoqlarning internet orqali sotishlari

| Tarmoqlar | 1998 | 1999 | 2000 |
|----------------------------------|-------|-------|-------|
| Havo yo'li | 0.18% | 0.70% | 1.90% |
| Mehmonxona | 0.13% | 0.36% | 0.74% |
| Pekij turlar | 0.16% | 0.37% | 0.75% |
| Boshqa xizmatchilar | 0.07% | 0.18% | 0.38% |
| Umumiy sotishlar ichidagi ulushi | 0.15% | 0.45% | 1.1% |

MANBA: London Westminster Universitetidan Carl H. Marcussen. Daniya Bornholm tadqiqot markazi tomonidan qilingan rivojlanish tahlillari va PhoCus Wright ilmiy-tadqiqot tashkiloti ma'lumotlari.

Bozorning rivojlanishi kutilganidan ancha sust darajada bo'lishi ham mumkin. Agar bozordagi o'sish sur'ati 60% ni tashkil qilgudek bo'lsa. 2001 yilda bu 3.2 mlrd. AQSH dollariga. 2002 yildagi o'sish tezligi 25% ni tashkil qilsa. bozor hajmi 4 mlrd. AQSH dollariga chiqishi mumkin.

Tabiiyki. turizm bozorining qirollari hisoblangan havo yo'llarining ulushi katta bo'ladi. Internet global axborot tizimining bu kompaniyalarda joriy etilishi turizm bozoridagi ulushini yanada oshiradi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki. 1999 yilda havo yo'li kompaniyalari daromadlarining 0.7% internet orqali qilingan sotishlardan kelib tushgan. Bu ko'rsatrich 2000 yilning oxirlariga kelib 2.0% ni tashkil qildi. Mehmonxona joylashtirish sektorining 0.36% ga teng bo'lgan bozor ulushi 2002-2005 yillarda 2-3.5% ni tashkil etishi kutilmoqda Pekij (paskage tours) turlarni sotish esa. 0.75% dan 3.0% ga yetishi kutilmoqda.

Evropa onlayn turizm bozorining natijalarini AQSH bilan taqqoslaydigan bo'lsak. uning ancha orqada ekanligini ko'ramiz. Masalan. internet orqali uchish biletlarini sotish Yevropada 2.0% ni tashkil qilsa. AQSH da 7.4% ni tashkil qilmoqda. Mehmonxona sohasidagi holat Yevropada 0.5% ni tashkil qilsa. AQSH da jami turizm mahsulotlarining tovar aylanmasi ichida internet sotishlarning ulushi 2002 yilda 3.5% ni tashkil qildi. 2005 yilda bu ko'rsatgichni 15% ga yetkazish kutilmoqda.

Ko'rinib turibdiki. Yevropa turizm bozorining rivojlanishi global axborot turizmining rivojlanishi bilan uzviy bog'lanishda davom etmoqda. Global ahamiyatga ega bo'lgan har qanday ilmiy-texnikaviy o'zgarish va rivojlanishlar turizm iqtisodini buguni va kelajagini belgilab beradi.

O'zbekistonga tashrif buyuruvchi turistlarning 60% ni yevropaliklar tashkil etadi. Internet va har xil global axborot uzatish tarmoqlaridan samarali va unumli foydalanish O'zbekistonda turizm iqtisodiyotini rivojlantirish dolzarb va yaqin kelajakda hal qilinishi kerak bo'lgan masalalardan biridir.

3.Evropa ittifoqiga a'zo yetakchi mamlakatlar turizm .Evropa ittifoqi (EI) – Yevropaning rivojlangan davlatlarni iqtisodiy jihatdan birlashtiruvchi tashkilot. 1993 yil 1 noyabrgacha rasmiy ravishda yetakchi Farbiy Yevropa mamlakatlarining birlashgan guruhi Yevropa hamjamiyati deb atalar edi. 1993 yil birinchi noyabrda Maastrixt bitimi kuchga kirgandan keyin. bu guruhning nomi rasmiy ravishda Yevropa Ittifoqi deb atala boshlandi. Ittifoq a'zolari o'rtasida keng iqtisodiy erkinlik va hamkorlik (Erkin savdo. turizm sohasi bo'yicha ochiq iqtisodiy hududi siyosati. bojxona. valyuta. tovar va xizmatlar. transport harakati erkinligi munosabatlari) o'rnatilgan. SHengen' shartnomasiga asosan YeI ga a'zo davlatlar o'rtasida shunday kelishuv

mavjudki. bu davlatlarning biriga kelgan mehmon. qolgan 9 ta davlatga erkin o'ta oladi. Bunday tartib soddalashtirilgan. YeI ga a'zo mamlakatlarga xorijiy turistlarni juda katta qismi tashrif buyuradi.

Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar ichida xorijiy turistlarni qabul qilish bo'yicha Frantsiya. Ispaniya. Italiya. Buyuk Britaniya mamlakatlari yetakchilik qilmoqda. Bu mamlakatlarga umumiy tashriflarning 73%i to'g'ri keladi. Xalqaro turizm daromadlari bo'yicha birinchi o'rinda Ispaniya. keyin Frantsiya. Italiya va Germaniya mamlakatlari yuqori ko'rsatgichlarga erishgan.

Evropa mintaqasi bo'yicha xalqaro turistik tashriflarning 66% Yevropa ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarga to'g'ri keladi. Xalqaro turizm daromadlarining qariyb 68%i Yevropa mintaqasida. Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Evropa ittifoqiga hozirgi kunda 15 ta davlat a'zo: Germaniya. Buyuk Britaniya. Bel'giya. Italiya. Lyuksemburg. Gollandiya. Niderlandiya. Frantsiya. Daniya. Irlandiya. Ispaniya. Portugaliya. Avstriya. Finlandiya. Shedsiya. uning kengayish istiqbollari ham bor.

2002 yil Yevropa Ittifoqiga qilingan tashriflar va xalqaro turizmdan kelib tushgan tushum

| № | Turistlarni qabul qiluvchi asosiy mamlakatlar | Xalqaro turistik tashriflar | | | | Xalqaro turizmdan kelib tushgan tushum miqdori | | | |
|-----|---|-----------------------------|--------------|----------|------------------|--|--------------|-----------|------------------|
| | | 2002 | o'zgarishi % | | ulushi % 2002 | 2002 mlrd. AQSH dol. | o'zgarishi % | | ulushi % 2002 |
| | | | 200/2000 | 200/2001 | | | 2001/2000 | 2001/2002 | |
| 1. | Frantsiya | 77.012 | -2.6 | 2.4 | 29.2 | 32.329 | -2.5 | 7.8 | 19.7 |
| 2. | Ispaniya | 51.748 | 4.6 | 3.3 | 19.6 | 33.609 | 4.5 | 2.2 | 20.4 |
| 3. | Italiya | 39.799 | -3.9 | 0.6 | 15.0 | 26.915 | -6.2 | 4.3 | 16.4 |
| 4. | Buyuk Britaniya | 24.180 | -9.4 | 5.9 | 9.2 | 17.591 | -16.7 | 8.0 | 10.7 |
| 5. | Avstriya | 18.611 | 1.1 | 2.4 | 7.1 | 11.237 | 1.9 | 11.1 | 6.8 |
| 6. | Germaniya | 17.969 | -5.9 | 0.6 | 6.8 | 19.158 | -0.3 | 4.0 | 11.6 |
| 7. | Portugaliya | 11.666 | 0.6 | -4.1 | 4.4 | 5.919 | 4.2 | 7.5 | 3.6 |
| 8. | Niderlandiya | 9.595 | -5.0 | 1.0 | 3.6 | 7.706 | -6.8 | 14.6 | 4.7 |
| 9. | Irlandiya | 6.476 | -4.4 | 1.9 | 2.4 | 3.089 | 7.0 | 10.7 | 1.9 |
| 10. | Bel'giya | 6.724 | -0.1 | 4.2 | 2.5 | 6.892 | 4.7 | -0.2 | 4.2 |
| | Jami | 263.78 | - | - | 100 | 164.44 | - | - | 100 |

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti (BTT).

Germaniya Davlatining turizm iqtisodi. Germaniya respublikasi yuqori darajada rivojlangan industrial davlat. Germaniya aholisini joylashuvi. mehnatda bandlik strukturasi va sinfiy tarkibiy jihatdan nafaqat Yevropada. hatto dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Aholisi - 82.0 mln. kishi. egallagan maydoni - 356 ming kv.km.

Germaniya Yevropaning markazida joylashgan. uni Sharq tomondan Pol'sha va Chexiya. Janubdan Shvedsariya va Avstriya. Janubiy-Farbdan Frantsiya. Farbdan Bel'giya va Gollandiya. SHimolda esa Daniya davlati. Shimoliy Sharqda Boltiq dengizi va Shimoliy Farbda Shimoliy

dengiz o'rab turadi.

Millionlab sayyohlarga turistik xizmat ko'rsatish. bir tomondan juda katta tadbirkorlik imkoniyatlarini ochib bersa. ikkinchi tomondan. keyingi yillarda vujudga kelgan raqobat muhitini kuchaytirib yubormoqda. Ayni paytda tobora ko'payib borayotgan ishlab chiqaruvchilar (bevosita xizmat ko'rsatuvchilar. turoperatorlar) va vositachilar (turagentlar) sekin rivojlanayotgan turizm bozorini o'zaro taqsimlashi kerak. Yangi ochilgan turagentliklarning qarayib yarimi 5 yildan so'ng o'z faoliyatini to'xtatishi mumkin. CHunki keyingi yillarda bankrotga uchragan kompaniyalar soni keskin ko'paydi. Har yili 200 ga yaqin firmalar yopilishi kuzatilmoqda. SHu tufayli. tarmoqqa xos bo'lgan tajribalar va shaxsiy tadbirkorlik qobiliyati bilan birga. tadbirkorlik sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun korxonalar xo'jaligi bo'yicha «nou-xau»lardan xabardor bo'lishni taqozo etmoqda.

Xorijiy sayohatlar uchun harajatlarning o'sishi va yakka holdagi sayohatlarning pekij turlar tomonidan tobora siqib chiqarilishi orqali yutig'i 2-barobar ortgan bozor hajmi 2000-yilda pekij turlar uchun avvalgi yilgi salmoqli siljishga nisbatan yana bir bor kuchliroq o'sish imkoniyatiga ega bo'ldi. Germaniyada mehmonlar soni avvalgi yildagi +5% dan +9.5% ga o'sdi. Masalan: birgina Cg'N Touristic AG guruhini olib qaraydigan bo'lsak. uning sotish bozorlaridagi o'sish salohiyatlari turlicha. Tashkiliy turizm salmog'i Buyuk Britaniyada 60.0% ga yetgan. Germaniyada 50.0% ni tashkil etadi. shu bilan birga. kelajakdagi o'sish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Bunday imkoniyatlar Bel'giya va Frantsiyada yanada kuchliroq. biroq ulardagi tashkiliy turizm salmog'i 25.0-27.0% ni tashkil etadi.

Hozirgi kunda Germaniyaning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti o'zining vazifalariga ega bo'lib. bu iqtisodiyot va Texnologiya Federal Vazirligi ITFV dir (Bundesministerium fuer Wirtschaft und Technologie BMWI).

Germaniyada turizm iqtisodiyot uchun katta daromad keltiruvchi sohalardan biri bo'lib hisoblanadi (o'rtacha yiliga 17.5 mlrd. dollar). Turistlar xush ko'radigan asosiy maskanlari Boltiq dengizi qirg'oqlari. Saksoniya Shvedsariyasi. Boden ko'li atroflari. Al'p tog' yonbag'irlari va boshqalar.

Germaniya fuqarolarining katta bir qismi uchun sayohat odatdagi yashash standartiga kiradi. Ularning sayohat qilish intensivligi 74% ni tashkil etadi. Umuman olganda har yili Germaniya fuqarolari kamida 5 kun davom etadigan 70 milliondan ortiq ta'til sayohatlariga chiqadilar.

Masalan. 1980 yili nemislarning deyarli chorak qismi tashkiliy ravishda sayohatga chiqqan bo'lsa. 2000 yili esa ularning soni deyarli ikki marta ortdi.

Binobarin. Germaniya turizmini qo'llab-quvvatlash FITVning ko'p sonli vazifalaridan biridir. Buning ortida Germaniya iqtisodiy hududini ta'minlash turadi. Bunga shuningdek. Yevropa integratsiyasini kengaytirish. xalqaro savdo munosabatlarini qo'llab-quvvatlash. shuningdek. o'rta tabaqaga mansub aholi sonini ko'paytirish va korxonalarining mustaqilligini mustahkamlash ham kiradi.

Germaniyada ta'til sayohatlarining tashkil etilishi

| Yillar | Turoperator sayohatlari salmog'i | Individual sayohatlar salmog'i |
|--------|----------------------------------|--------------------------------|
| 1970 | 17% | 83% |
| 1980 | 26% | 74% |
| 1990 | 38% | 62% |
| 1992 | 42% | 58% |
| 1994 | 43% | 57% |
| 1996 | 42% | 58% |
| 1997 | 43% | 57% |
| 1999 | 47% | 53% |
| 2000 | 50% | 50% |

MANBA: Leitfaden zum DRV-Existenzgruenderpaket 2000.

2001 yilda Germaniya turoperatorlar va turagentlar bozorida 19822 ga yaqin turistik tashkilotlar 23.8 mlrd. yevro miqdoridagi oborotga (aylanma) erishdi. Turizm bozorining 50.0% turagentlik zanjirlari va kooperatsiyalar tomonidan nazorat qilinadi.

Germaniyada turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyati uchun erkinlik mavjud. ya'ni turagentlik yoki turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyalashtirish jarayoni yoki ruxsatnomalarni chegaralash kabi hollar kuzatilmaydi. Buning uchun avvalo tadbirkorlik faoliyati qo'mitasida ro'yxatdan o'tish lozim. SHu bilan birga kasb-hunar jamiyati. tadbirkorlikni nazorat qilish qo'mitasi. sanoat va savdo nazorati organlarining ro'yxatlaridan o'tiladi. SHuningdek. Moliya vazirligining joylardagi tegishli idoralari ro'yxatidan o'tib. soliq to'lov raqami olish kerak. Korxonaning soliqqa tortilish tartibi quyidagicha:

- daromadga bog'liq bo'lgan soliq (daromad korporatsiya. tadbirkorlik faoliyati solig'i);
- mulkka bog'liq bo'lgan soliq (mulk. tadbirkorlik faoliyati yer solig'i);
- aylanma oborot solig'i;
- korporatsiya solig'i (kapital jamiyatlarida).

Turistik korxonaning tashkiliy hududiy tuzilishi ko'proq korxonalar iqtisodiy. soliq. fuqarolik hududi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tanlanishi kerak. Bunda korxonaning mas'uliyati cheklanganligi va soliqni minimallashtirish istagi muhim ahamiyat kasb etadi. Muhimi rahbarlik huquqi. o'z kapitali bilan ta'minlanish imkoniyati kabilarga bog'liq bo'lgan maxsus talablarga javob berish uchun oqilona shartnoma tuzilishi kerak. Undan tashqari. tashkiliy-hududiy tizim shunday tanlanishi kerakki. kelajakda korxonaning o'sishi uchun yetarli darajada taraqqiyot imkoniyatlari mavjud bo'lsin.

Tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish barcha korxonalar uchun majburiydir. Kapital tashkilotlari (masalan MGHJ) savdo rejasiga kiritilishi kerak. SHaxsiy jamiyatlar orasida "ochiq savdo jamiyati" (ONG) va "kommandit jamiyati" (KG) majburiy ravishda savdo reestriga kiritiladi.

Yakka holdagi tadbirkorlar uchun savdo reestriga kiritilish majburiyati ularning oboroti hajmiga bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

1994 yil bahorida Germaniya parlamenti pekij tur hududiga o'zgartirishlar kiritdi. Ularning mohiyati shundan iboratki. turoperator mijozlarning oldindan to'langan pullarini va ularning sayohatdan qaytishlarini o'zining bankrotga uchrash xavfidan saqlanishini kafolatlashga majburdir.

Germaniya turizm industriyasining eng muhim tashkilotlaridan biri Germaniya Turizm Markazi - Deutsche Zentrale fuer Tourismus (keyinchalik GTM)-Germaniya federal xukumati tomonidan turizmni boshqarish va nazorat qilish uchun mac'ul milliy tashkilot hisoblanadi. Uning bosh idorasi Frankfurt Maynda joylashgan. GTM milliy turizm tashkiloti sifatida xorijda GFR ga sayohat transportini jalb qilish. bunda keng qamrovli milliy va xalqaro korxonalar bilan hamkorlik qilish hamda o'z malakasi va soha bo'yicha olgan tajribalarini Federal Xukumat va boshqa turizm masalalari bo'yicha mas'ul idoralar ixtiyoriga taqdim etish va taklif kiritish bilan shug'ullanadi. Mazkur faoliyati bilan GTM xalqlarning o'zaro bir-birini anglashlariga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. GTMning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak. bu tashkilot 1948 yilda tashkil topgan. Undan avval ish yuritgan tashkilot esa 1920 yili vujudga kelib. "Reichszentrale fuer Deutsche Verkehrswerbung". ya'ni «Germaniya Transport Reklamasi Davlat Markazi» deb atalgan. 1939 yilda bu tashkilotning dunyo bo'ylab 40-ta axborot agentligi bo'lgan.

GTM malakali. professional va inovativ ravishda Germaniya turizmi uchun marketing tadbirlarini o'tkazuvchi organ hisoblanadi. Uning faoliyatini mablag' bilan ta'minlashning 80 foizi FITV tomonidan amalga oshiriladi. GTM 50 yildan ortiq vaqtdan beri xorijda barcha maketing tadbirlarini rejalashtirish. kordinatsiya qilish va amalga oshirish ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Ichki hududlararo marketing faoliyatini 1999 yil 1 yanvardan beri yuritib kelayotgan bu tashkilotning strategik poydevorini Germaniyaning turli hududlariga ta'til sayohatlarini talabga yo'naltirilgan ravishda amalga oshirish faoliyatlarini tashkil etmoqda. GTM milliy turistik tashkilotlarni va xizmatlarni xalqaro turizm bozorida sotishning muhim

vazifalarini o'z zimmasiga olgan. Bular tarkibiga barcha marketing tadbirlari hamda sotishni rivojlantiruvchi faoliyatlar kiradi. GTM yaqin kelajakka mo'ljallangan strategiyalarini amalga oshirishda Germaniya turizmi bilan hamda iqtisodiyot sohasi va birlashmalardagi tadbirkorlar bilan mustahkam aloqalarni vujudga keltirgan. Bu esa maqsadlarga erishishida muhim tayanch nuqtasi hisoblanadi.

GTM o'z faoliyati davomida quyidagi maqsad va srategiyalarni ko'zlaydi:

-sayohatdan keladigan umumiy tushumni oshirish;

-Germaniyani iqtisodiy hudud sifatida kuchaytirish;

-Germaniyani har tomonlama ko'rkam sayohat mamlakati sifatida namoyish etish.

Butun dunyo bo'ylab GTMning 28 ta xorijiy vakolatxonalari va savdo shaxobchalari mavjud. Ular turistik mahsulotlarni o'tkazishda asos bo'lib hisoblanadilar va Germaniyani sayohat mamlakati sifatida imkon qadar butun dunyoga tanitish uchun harakat qiladilar. Mazkur vakolatxonalarining 12 tasi GTMning o'z vakolatxonalari. 16 tasi esa "Deutsche LufthansaAG" hamda "Deutcher Industrie-und Handelstag" kabi hamkorlar tarkibidagi sotish agentliklaridan iborat. Ularning rejasi buyudjet imkoniyatlariga qarab. rivojlanib borayotgan bozorlarga sotish strukturasi tobora kengaytirish.

Hozirgi kunda GTMning 41 ta a'zosi bo'lib. shulardan eng muhimlari quyidagi korxonalar va tashkilotlardir:

- Accor Hotellerie Deutschland G m bH.
- Arbeitsgemeinschaft Deutscher Verkehrsflughafen.
- ASR-o'rta toifadagi turistik korxonalar uyushmasi.
- Autobahn Tankg' Rast GmbH.
- Germaniya Turizm Iqtisodi uyushmasi.
- Germaniya mehmonxonalar uyushmasi.
- Germaniya turizm uyushmasi.
- Germaniya Turoperatorlari va Turagentlari uyushmasi.
- Evropa Turizmsug'urta tashkiloti.
- RDA - Xalqaro Avtobus Turizmi uyushmasi.
- Deutsche Bahn AG.
- Deutsche Lufthansa AG.
- Deutscher Industrie-und Handelstag.
- Magic Cites Germany.
- Steigenberger Hotels AG.
- TUI.

GTM o'z faoliyatida marketing rejasiga tayanadi. Bu reja uning a'zolari va tashqi transport xo'jaligi oldida ovozga qo'yilgan va boshqaruv kengashi tomonidan qabul qilingan bo'ladi. Reja asosan 2 yilga tuzilib. o'z mohiyatiga ko'ra. barcha operativ vazifalarni rejalashtirish va bajarish uchun boshqarish vositasi bo'lib hisoblanadi.

Marketing rejasida bozor tadqiqoti natijalariga asoslangan holda GTM marketing ishining maqsadli va maqsadli guruhlar aks ettirilgan hamda mazkur maqsadli guruhlar bilan muvaffaqiyatli aloqa o'rnatishga va har bir rejalashtirish davri uchun o'rtacha ehtiyojni raqamlarda aks ettirishga va xususiyashtirishga imkon beruvchi strategiyalar va instrumentlar sanab o'tilgan bo'ladi.

Turistlar salohiyatining qanday qamrovda va jadallik bilan rivojlanish mumkinligi GTMning moliyaviy jihatdan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Germaniya turizmini mamlakat ichida rivojlantirish uchun GTM quyidagi marketing tadbirlarini amalga oshiradi:

- u yangi iste'molchilar istaklariga moslashtirilgan mavzularni takomillashtiradi;
- turistik mahsulotni takomillashtirishni qo'llab quvvatlaydi;
- sayyohlik agentliklaridagi savdo sotiqni rag'batlantiradi;

GTM turagentlar va turoperatorlardan tortib. sotish kanallari hamda reklama markazlari orqali. joylardan boshlab hududlargacha - barcha iqtisodiy hamkorlar va birlashmalarning uyushishi. o'zaro muloqatda bo'lishlari hamda mablag' bilan ta'minlash imkoniyatlarini takomillashtirib boradi.

GTM marketing strategiyasining mazmuni - hududlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda. haridorlarga yo'naltirilgan takliflarni professional darajada rivojlantirish va shu orqali davomli ravishda tashkilot imijini yaxshilashdan iboratdir. Pirovard natijada iste'molchilar ham hududlararo imij tadbirlari. ham innovativ axborot vositalari kooperatsiyasi orqali ma'lumot oladilar.

Xorijiy manba bozorlar uchun GTM mijozlar istaklariga mos keluvchi umumiy mavzularni va davlatlararo dasturlarni ishlab chiqadi. shuningdek. o'z hamkorlari bilan bozorga yo'naltirilgan va mijozlarga mos keluvchi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar beradi. Yuqoridagi takliflarni esa qiziqarli reklama vositalari va har xil qo'llanmalar orqali taqdim etadi. Bundan tashqari. yana bir qancha turdagi marketing vositalari qo'llaniladi. bularga reklama va e'lonlar. takliflar va mavzular orqali iste'molchilar bilan muloqatda bo'lish. o'rganish - bilim va malaka oshirish sayohatlarni uyushtirish muhim ahamiyatga ega bo'lgan yarmarkalardagi taqdimot. jurnallar va boshqa fikr bildiruvchilar bilan doimiy ravishda muloqatda bo'lish va hokozolar kiradi.

Aslini olganda 1999-2000 yillar Germaniya turizm tarmog'i uchun jadallashgan tarkibiy o'zgarishlar yili bo'ldi. Yevropada hozirgi kunda vertikal integratsiyalashuv natijasida barcha turizm xizmatlarini o'ziga jamlagan yirik turistik kontsernlar vujudga kelmoqda. Vaziyatning bunday tus olishi turizm bozorini industriallashtiradi. pekij turlar esa firma mahsuloti sifatida va mijozlar birlashishini mustahkamlashtirish maqsadida tobora ko'proq namoyon bo'ladi. Reklama harajatlarning hajmi ham iste'mol mollari sanoatiga yaqinlashib bormoqda. Yevropaning eng muhim turizm markazlaridan biri hisoblangan Germaniya milliy turizm industriyasini to'liq shakllantirgan mamlakat hisoblanadi. Germaniya bir necha yillar mobaynida tavakkalChilik va puxta ishlab chiqilgan rejalar asosida kuchli turizm industriyasini barpo etishga erishdi. Yevropa mintaqasidagi umumiy turizm balansini saqlab turuvchi yirik turistik firmalar ham. shuningdek. eng ko'p sayohat qiluvchi insonlar ham bu mamlakatda faol ish yuritishadi.

Germaniya mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon bo'yicha turistik tashriflarning 2.5% Germaniya mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 0.6%ga ko'paygan. Daromadlar bo'yicha jahon turizm daromadlarining 4.0% bu mamlakatga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 4.0%ga o'sgan. Yevropa mintaqasi bo'yicha xalqaro turistik tashriflarning 4.5%ni. daromadlar miqdori bo'yicha 8.0%ni tashkil qilgan.2002 yilda har bir xorijiy tashrif 1066 AQSH dollarini tashkil qilgan. O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasida 1992 yil 6 martda diplomatik munosabatlar elchixonalar darajasida o'rnatilgan. Ikkala mamlakat o'rtasida yaxshi iqtisodiy munosabatlar mavjud. Germaniya yordamida Toshkent aeroporti modernizatsiya qilindi. 132 ta qo'shma korxonalar mavjud. Toshkent - Frankfurt shaharlari o'rtasida bevosita samolyot aloqalari o'rnatilgan.

Buyuk Britaniya davlatining turizm iqtisodi

Buyuk Britaniya - Farbiy Yevropadagi Britan orollarida joylashgan davlat. Buyuk Britaniya yuqori darajada rivojlangan industrial davlatdir. Jahon iqtisodiy ishlab chiqarishida YaIM bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Hududi 244.1 kv.km.. aholisi 65.3 mln. kishini tashkil etadi. Buyuk Britaniya Yevropa mintaqasidagi turizm sanoati rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. 2000 yil Buyuk Britaniya turistik markazlariga 25211000 sayyohlar tashrif buyurgan. lekin bu ko'rsatkich 1999 yilgi ko'rsatkichga solishtirilganda 0.7 foizga kamaygan. Buyuk Britaniyada turizm sohasining rivojlanish sabablaridan biri bu - turizm sohasida informatsion texnologiyalardan unumli foydalanishidir. Turizm sohasida informatsion texnologiyalar. shu soha ichida va tashqarisida. tijorat maqsadida qo'llaniladigan barcha kommunikatsiya hamda informatsion texnologiyalar majmuidir. Internet va global axborot tarqatish texnologiyalari turizm industriyasining asosiy axborot texnologiyalari hisoblanadi.

Ma'lumki. Yevropa bozorida turizm sohasi bo'yicha asosan ikkita mamlakat muhim ahamiyat kasb etadi. Bulardan biri Buyuk Britaniya bo'lsa. Ikkinchisi Germaniyadir. Buyuk Britaniyada 2000 yilda bozor ulushi internet orqali turistik mahsulotlarni sotish bo'yicha 27%ni tashkil qildi. Yevropa umumiy bozorining yetakchi davlatlaridan hisoblangan har ikkala mamlakat ham «Onlayn» turizm bozorining teng yarmiga egalik qilishmoqda. SHunga qaramasdan hozirgi kunda chet davlatlarga chiquvchi Britaniyaliklar soni Buyuk Britaniyaga keluvchi mehmonlarga nisbatan juda ko'p. CHunki Britaniyaliklar o'z ta'tillarini Ispaniya. Frantsiya. Gretsiya. Kipr. Portugaliya va Turkiyaning eng yaxshi kurortlarida o'tkazishni xush ko'radilar.

Buyuk Britaniyaning chet elga chiqish turizmida asosiy o'rinni Shimoliy Amerika sayohatlari egallab turibdi. Britaniyaliklar uchun yozgi davrda Amerikaning Mayami kurorti katta mavqega ega. Boshqa vaqtda esa bu yerga faqat qarindoshlar. do'stlar bilan uchrashish uchun sayohat qiladilar. Buyuk Britaniyaga turistlar turli maqsadlarda kelishadi. Ta'tilni o'tkazish uchun keluvchilar 43%ni. ish yuzasidan keluvchilar 21%ni tashkil qiladi. Keladigan chet ellik mehmonlarning 50%ga yaqini Yevropa Ittifoqi mamlakatlari fuqarolaridir. Ulardan 40% ta'til o'tkazuvchilar va 26% biznes turistlaridir. Buyuk Britaniyaga tashrif buyuruvchi chet el mehmonlarining asosiy qismini biznes sayohatchilar tashkil qiladi. Ular madaniy turizm mavjud bo'lgan katta shaharlarga. masalan. Londonga sayohat qilishni xush ko'radilar. (3.2.1-jadval).

Buyuk Britaniya mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarining ko'rsatishicha. Jahon bo'yicha turistik tashriflarning 3.4% Buyuk Britaniya mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda Xorijiy turistlar tashrifi 5.9%ga ko'paygan.

Daromadlar bo'yicha jahon turizm daromadlarining 3.7% bu mamlakatga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 8.0%ga o'sgan.

Evropa mintaqasi bo'yicha xalqaro turistik tashriflarning 6.0%ni. daromadlar miqdori bo'yicha 7.3%ni tashkil qilgan.

2002 yilda har bir xorijiy tashrif 727 AQSH dollarni tashkil qilgan.

Turizm mamlakat iqtisodiyoti uchun katta daromad keltiruvchi sohadir.

YaMMning 5.9% turizm sohasiga to'g'ri keladi.

Buyuk Britaniya bilan O'zbekiston o'rtasida 1992 yil 18 fevralda elchixonalar darajasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan.

Toshkent - London va Birmingem shaharlari o'rtasida bevosita samolyotlar yo'lga qo'yilgan.

Italiya davlatining turizm iqtisodi

Italiya Yevropaning janubida. O'rta yer dengizi qirg'og'ida joylashgan davlat. Appenin yarim oroli. Sitsiliya. Sardiniya va bir qancha mayda orollarni o'z ichiga oladi. Italiya hududi 309.5 kv.km.. aholisi 62.8 mln. kishi. Italiyaning «Umumiy bozor»ga kirishi Farbiy Yevropa integratsiyasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayishiga imkoniyat yaratdi. Italiya yuqori darajada taraqqiy etgan industrial mamlakat. Italiya iqtisodiyotida turizm sohasi katta o'rinni egallaydi. Tovarlarini eksport qilishda soliqdan ozod etilgan. O'rta yer dengizidagi qulay dam olish va sayir qilish imkoniyatlari katta daromad manbai bo'lib hisoblanadi. Mamlakatda mehmonxonalarining umumiy o'rni 55 mln. Yiliga 40-45 mln. turist kelib ketadi. Rim. Venetsiya. florentsiyadagi tarixiy va me'moriy yodgorliklar turistlarni jalb etadi. 2000 yil 41.2 mln. xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan. yillik o'sish 12.8 foizni tashkil etgan. Internet orqali Yevropa mintaqasida sotilgan turistik mahsulotlarning 8 foizi Italiyaga to'g'ri keladi.

Italiyada turizm sanoatining rivojlanish tarixi 100 yildan oshgan. Ushbu davr ichida mamlakat dunyoning asosiy turistik markazlaridan biriga aylandi. O'rta yer dengizi qirg'oqlariga keluvchi turistlarning 36.0% Italiyaga to'g'ri keladi.

Italiyaning asosiy turistik resurslari: ko'llar va madaniy boyliklari. tog'lar. Italiyaning turistik resurslari asosan mahalliy turistlarni emas. balki chet ellik turistlarni ko'proq jalb etadi. 1980 yilda Yevropa hamjamiyati Italiyaning janubiy hududi - «Medzodjornoda» turizm infratizimini rivojlantirish bo'yicha umumiy miqdori 34.9 mln. EKYu bo'lgan qimmatbaho loyihani amalga oshira boshladi. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi Italiyada turizm sanoatini

rivojlantirish. aholini ish bilan ta'minlash mahalliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishdan iborat edi. Ushbu loyihani amalga oshirish natijasida Italiyaning janubiy hududlarida 65 ming nomerli mehmonxonalar tashkil qilindi. Italiya mehmonxonalarida hamda boshqa yashash joylarini hisobga olganda har yili 60 millionga yaqin turistlar to'xtaydi. SHulardan 35%ni chet ellik turistlar tashkil qiladi. CHet ellik turistlar o'z turistik kunlarini asosan uch yulduzli mehmonxonalarda o'tkazishni xush ko'radilar. Bu ko'rsatkich 2000 yil 85.2 million turistik kunni tashkil qilgan edi. Italiyada 35870 ta mehmonxona mavjud bo'lib. bulardan bir yulduzli mehmonxonalar 30.6%ni; ikki yulduzli mehmonxonalar 32.4%ni; uch yulduzli mehmonxonalar 30.0%ni; to'rt yulduzli mehmonxonalar 6.2%ni; besh yulduzli mehmonxonalar 0.8%ni tashkil qiladi.

Italiyada mehmonxonada yashash va ovqatlanish narxi geografik zona, fasl, mehmonxona toifasi va boshqa omillarga bog'liq bo'lib. shu bilan birga ushbu narx tur mahsulotning umumiy hisobida 60-65% tashkil qiladi. Italiyaga tashrif buyuruvchi turistlarning aksariyati Shvedsariya, Germaniya, Frantsiya va Avstriyadan keladilar. ularning yarimidan ko'pini bir kunlik mehmonlar yoki tranzit pasajirlar tashkil qiladi. Germaniyalik turistlar esa nafaqat son bo'yicha ko'pchilikni tashkil qiladi. balki dam olishni davomiyligi bo'yicha ham yetakchilik qiladilar. Amerika va Yaponiyaliklar esa asosan bir haftalik sayohatlarga keladilar. lekin shu qisqa vaqt ichida ular uchta madaniy markaz Rim, Florentsiya, Venetsiyani ziyorat qilishga ulguradilar. Avstraliyalik turistlarni asosiy qismi esa dam olish kunlarini Adriatika qirg'oqlarida, 25% Italiya shaharlarida, 10% esa tog'larda o'tkazishni xush ko'radilar. Frantsuzlar ko'proq shahar kezadilar. keluvchilarning 25% gina dengiz qirg'oqlarida dam olishni xush ko'radilar. CHet ellik mehmonlarning ushbu mamlakatga kelish sabablarining 45% mamlakatning tarixiy yodgorliklarini ko'rish uchun; 43.0% iqlimi uchun; 27.0% tabiati uchun; 30%ga yaqini esa yuqoridagilarni barchasidan bahramand bo'lish uchun tashrif buyuradi. 1990 yili umumiy hisobga nisbatan chet ellik turistlarning ushbu mamlakatda o'tkazgan turistik kunlarining 57% Italiyaning Shimoliy turistik maskanlariga to'g'ri kelgan edi. Chet ellik mehmonlarni qabul qilish bo'yicha birinchi o'rinda Venetto shahri turadi. Bu shahar Italiyaga tashrif buyurgan mehmonlarning 20% ni qabul qiladi. Ikkinchi o'rinda Toskana va Alto - Adidje shaharlari turadi. Bu shaharlar chet ellik mehmonlarning 13% ni qabul qiladi. Mahalliy turistlar (39 millionga yaqin dam oluvchilar) dam olish kunlarini o'z viloyatlari kurortlarida o'tkazishga harakat qiladilar.

Italiyada avtomobil' yo'llarining yaxshi rivojlanmaganligi sababli ham mahalliy turistlar ta'til kunlarini o'z hududlarida o'tkazadilar. SHuningdek, yozgi mavsumning yaxshi va mo'tadil kelishi Shimoliy viloyatlar aholisini dengiz qirg'oqlaridagi turistik maskanlarda dam olishga undaydi. SHuning uchun ham Italiyaning Emiliya-Roman'ya, Venetto va Toskana viloyatlari aholisining dengizga chiqish imkoniyatlari mavjud. Lombardiya viloyatida esa qishki sport turlari rivojlangan. Ushbu viloyatlarning har qaysisi ichki turistlarning 10% ni qabul qilish imkoniyatiga ega. Turistlarning ko'plab kelishi asosan yozning iyul' va avgust oylariga to'g'ri keladi. Bu holat dengiz bo'yi kurortlari uchun anchagina muammolar tug'diradi. CHunki bu viloyatlarda mehmonxonalar fondi unchalik katta emas. Mehmonxonalarning asosiy qismi shimol va Sharq tomonlarda joylashgan. Bu hududlarda esa mehmonxonalarning 46.1% joylashgan xolos. Mehmonxonalarning aksariyati Trantino-Al'to-Adidje viloyatlarida 18.5% joylashgan. Italiyaning markaziy qismida, ya'ni qirg'oq bo'yi tumanlarida asosan lager' tipidagi shaharchalar joylashgan. Mamlakat janubida esa mehmonxona o'rinlarining yetishmasligi sababli turar joylar ijaraga beriladi.

Mamlakatda xalqaro turizmni rivojlantirishda, turizm bo'yicha milliy boshqarma ENIT katta ahamiyatga ega. Bu boshqarma chet mamlakatlarda ham o'z vakolatxonalariga ega. Ayrim mamlakatlarda u o'z faoliyatini «Alitaliya» davlat avia kompaniyasi va boshqa firmalar orqali amalga oshiradi. ENITning vazifasiga xalqaro turistik bozor kon'yunkturasini o'rganish, reklama tadbirlarini o'tkazish va chet mamlakatlarda o'z davlatiga nisbatan turistlar oqimini ko'paytirish kiradi. Italiyaliklar kamdan-kam hollarda o'z ta'tillarini o'zga davlatlarda o'tkazadilar. Italiyaning turli xil turistik resurslari ularga o'z yurtlari ichida ehtiyojlarini qondirishga imkon

beradi. ammo shunga qaramasdan Italiyada iqtisodiyotning o'sishi hamda valyuta nazoratining soddalashtirilishi. so'nggi yillarda chet ellarga chiqishni rivojlantirishga turtki bo'lmoqda. Masalan: 2000 yilda chet davlatlarga 14.7 million Italiyalik chiqqani kuzatilgan. lekin ular o'zlariga yaqin bo'lgan mamlakatlarga sayohat qiladilar. Keyingi yillarda chetga chiqish turizmining o'sishi Italiya kurortlari ish faoliyatini ancha osonlashtirdi. SHu bilan birga. Italiyaning tarixiy. madaniy yodgorliklari hali juda ko'p vaqtlar chet ellik mehmonlarni o'ziga jalb qilishi shubhasiz. SHuning uchun ham ularni asrash va turist oqimlarini turizm markazlariga yo'naltirishni boshqarish muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. (3.3.1-jadval). Italiya mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon bo'yicha turistik tashriflarning 5.7% Italiya mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 0.6% ga ko'paygan.

Daromadlar bo'yicha jahon turizm daromadlarining 5.7% bu mamlakatga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 4.3% ga o'sgan. Yevropa mintaqasi bo'yicha xalqaro turistik tashriflarining 10% ni. daromadlar miqdori bo'yicha 11.2% ni tashkil etgan (3.3.1-jadval). Italiya mamlakati YaIMning 2.8% ni. YaMMning 3.7% ni turizm sohasi tushumlari tashkil etadi. 2002 yilda har bir xorijiy tashrif 676 AQSH dollarini tashkil qilgan.

Italiyaning mustaqil O'zbekiston bilan aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Italiya O'zbekistonni 1991 yilning 10 yanvarida tan oldi va shu yilning 24 martida elchixonalar darajasida diplomatik munosabatlar o'rnatdi. O'zbekistonda ko'plab qo'shma korxonalar ish olib boradi. Ikkala mamlakat aloqalari qadimga borib taqaladi. «Buyuk ipak yo'li» orqali o'zbek savdogarlari Rim bilan Karvon yo'llari orqali mustahkam bog'langan edilar. Ana shu an'analar hozirgi kunda yanada ravnaq topmoqda. Toshkent va Rim o'rtasida aviatsiya aloqasi o'rnatilgan.

Avstriya mamlakatining turizm iqtisodi

Avstriya markaziy Yevropadagi davlat. Ushbu mamlakat Shimoliy Yevropani Janub bilan. Farbiy Yevropani Sharq bilan bog'lovchi trassalarning kesishuv yo'lida joylashgan. hududi 83.849 kv.km.. aholisi 9.0 mln. Yirik shaharlari Vena. Grats. Lind. Zal'tsburg. Rasmiy tili - nemis tili. Yevropa Ittifoqi a'zosi. 2002 yildan yevroga o'tilgan.

Avstriya Yevropa va umuman jahondagi eng rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. So'nggi yillarda bu davlatning iqtisodiyoti yuqori sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Yalpi milliy mahsulot hajmi 139.3 mlrd. dollar. yillik o'sish 3% ga teng.

Avstriyada XX asrga xos muhim o'zgarish shundan iboratki. agar avvallari sanoat va qishloq xo'jaligi hal qiluvchi o'rinni egallagan bo'lsa. so'nggi yillarda xizmat ko'rsatish sohasi asosiy o'ringa chiqib oldi. Ayniqsa. xalqaro turizm mamlakat iqtisodiyotida eng serdaromad sohaga aylangan. Faqat shu soha faoliyati tufayli davlat xazinasiga deyarli 15 mlrd. AQSH dollari miqdorida foyda keltiradi. bu yalpi milliy mahsulotning 11% ga to'g'ri keladi. Bu kichik bir davlat iqtisodiyoti uchun nihoyatda katta daromad manbai hisoblanadi. Albatta. bunday yutuqqa erishish osonlik bilan ro'y bermaydi. Avvalo mamlakatda tinchlik-osoyishtalik ta'minlangan. turistlarning turli tuman talablarini qondiradigan infratuzilma yaratilgan bo'lishi lozim. Bu avvalo qulay transport. mehmonxonalar ulardagi bekamu-ko'st servis. aloqa xizmatlari. tarixiy yodgorliklar. yaxshi muomala va boshqalar yuqori saviyada amalga oshirilishi natijasidir.

Avstriyaning qulay geografik joylashuvi. iqlimining mo'tadilligi. jahonga mashhur Al'p o'tloqlari. tog'lari. qishki chang'i uchun kerakli imkoniyatlar yaratilganligi bunga qulaylik yaratadi.

Demak. mamlakatning geografik holati. shuningdek. uning qulay avtomobil' trassalarini katta miqdorda tranzit va bir kunga keluvchi turistlar tashkil qiladi.

Tranzit turistlarning asosiy qismi Shimoliy Yevropadagi mamlakatlardan O'rta yer dengizi qirg'oqlariga yo'l oladilar. 1980 yillarning oxirlarida sotsializm lageri bilan g'arb o'rtasidagi «temir parda» olib tashlangandan keyin bir kunga keluvchi turistlar soni yana ham oshdi. 1990 yillarning boshida mamlakatga qo'shni bo'lgan Vengriya. Chexiya va Slavakiya. shuningdek. Pol'sha turistlari faol qatnay boshladilar. 1992 yilda chet el turistlari Avstriyada umumiy hisobda 99.7 million turistik kunni o'tkazdilar. Ichki turistlar esa 30.6 million turistik

kun o'tkazdilar. Hozirgi payitda Avstriya qishi sport o'yinlari bo'yicha yetakchi turistik markaz hisoblanadi.

Vaholanki. xalqaro turizm asosan mamlakatning g'arbiy qismida rivojlangan. Avstriya xalqaro turizmini asosiy ta'minlovchi mamlakatlar Germaniya. Niderlandiya va Buyuk Britaniya hisoblanadi. Bu uch davlat fuqarolarining Avstriyada o'tkazgan turistik kunlari 80%ni tashkil qiladi. Tashrif buyuruvchi turistlarning yarimi Germaniyaga to'g'ri keladi. Undan keyin esa Niderlandiya. Italiya. Buyuk Britaniya. Shvedsariya. Frantsiya. AQSH. Bel'giya. Shedsiya. Sharqiy Yevropa mamlakatlari va boshqalar turadi. Avstriya ko'proq Germaniya turistik bozoriga muhtojlik sezadi. lekin so'nggi yillarda ko'proq Italiya bilan hamkorlik qilmoqda. 1992 yilda Avstriyada turistik kunlar miqdori 1990 yilga nisbatan 3.6 mln.ga ortdi.

Avstriyada g'arbiy sezon avgust oyiga to'g'ri keladi. 2000 yilda Avstriyaga tashrif buyurgan turistlar soni 17818000 ming kishini tashkil etgan. yillik o'sish esa +2.0%ni tashkil qildi. Turistik mahsulotlarni internet orqali sotish esa 19%ni tashkil etgan.

Avstriyada qishki turizm mavqeining o'sishi bilan birgalikda ushbu mamlakat va boshqa Al'p davlatlari. ya'ni Shvedsariya. Italiya. Frantsiya. Germaniya va Sloveniya oldida qishki sport o'yinlarining ekosistemaga ta'sir qilish muammosini hal qilish turibdi. SHu bilan birgalikda ushbu mamlakatlarda yozgi turizm mavqeining pasayishi sezilmoqda (3.4.1-jadval).

Avstriya respublikasi mustaqil O'zbekiston respublikasini 1992 yil 15 yanvarda tan oldi va 25 martda diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Siyosiy. iqtisodiy va madaniy munosabatlar har ikkala mamlakatlar o'rtasida tobora avj olib bormoqda. Vena universiteti bilan hamkorlikda Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti qoshida iqtisodchi kadrlarni tayyorlash bo'yicha katta loyiha amalga oshirilgan. Avstriyada bir necha bor O'zbekistonga oid ilmiy va amaliy konferentsiyalar. ko'rgazmalar o'tkazildi.

5. Frantsiya davlatining turizm iqtisodi

Frantsiya Yevropaning Farbiy qismida joylashgan davlat bo'lib. hududi 674.6 ming kv.km.. aholisi 68.1 mln. kishini tashkil etadi. Yirik shaharlari Parij. Lion. Marsel'. Tuluza. 2002 yildan Yevroga o'tgan. Katta Yettilik. Yevropa Ittifoqi. BMT xavfsizlik kengashining doimiy a'zosi.

Frantsiya yuksak darajada rivojlangan industrial agrar davlatdir. Frantsiya boy va qadimiy madaniyat o'chog'i hisoblanadi.

Turizm Frantsiya iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydigan sohalardan biri hisoblanadi. Qimmatli kurort va ajoyib otellar mamlakatning Lazur qirg'og'ida joylashgan va bu yerda xorijiy ishbilarmonlar o'z sarmoyalarini sarflaydilar. SHu bilan birga ancha arzon keng xalq ommasi uchun mo'ljallangan dam olish maskanlari ham anchagina. O'rta yer dengizi sohilidagi bu oromgohlardan tashqari. turizm Atlantik okeanining janubiy-g'arbiy qirg'og'ida hamda Shimoliy dengiz atrofida rivojlangan. Frantsuz Al'p tog'lari turistlarni yil bo'yi jalb etadi. Mehmonlarga ko'rsatiladigan xizmat (servis) nihoyatda yuqori darajada va yiliga katta daromad keltiradi. Frantsiyaga yiliga 95 mln. turistlar kelib ketadi. va 74 mlrd. dollar foyda keltiradi. Frantsiya turizm sohasi bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi.

Frantsiyaning ichki turizm bozori boshqa Farbiy Yevropa davlatlarining ichki turizm bozorida tubdan farq qiladi. Birinchidan. frantsuzlarning juda oz miqdori o'z ta'tillarini o'zga davlatlarda o'tkazadi. bu bir yilda 18%ga to'g'ri keladi. Ikkinchidan. bu yerda ta'til davrining qizg'in pallalari mavjud: iyul va avgust oylarida o'quvchilar ta'tillari. qisqa rojdestvo ta'tillari. fevral oyida esa pasxa davridagi ta'tillar boshlanadi. Uchinchidan. frantsuzlar avtomobillarda sayohat qilishni xush ko'radilar. bu ko'rsatkich 81%ni tashkil qiladi.

Frantsuzlarning 50%ga yaqini o'z ta'tillarini yozda dengiz bo'yida. 25% qishloq joylarida. 17% esa tog' kurortlarida o'tkazadilar. CHet elga chiqish turizmiga kelsak. frantsuzlarning 5%igina Pekij turlar bo'yicha va 6%i aviatsportlarda sayohat qiladilar. 1991 yilda Ispaniya Frantsiyadan 8 mln. turist. Italiya esa 7.3 mln. turistni qabul qildi. Hozirgi paytga kelib frantsuzlar AQSH. Osiyo kabi uzoq hududlarga sayohat qilishni ma'qul ko'rmoqdalar. Ish yuzasidan bo'ladigan sayohatlarning aksariyati Germaniya va Buyuk Britaniyaga to'g'ri keladi. 1980-2000 yillarda xorijiy turistlarning Frantsiyaga kelishi keskin o'sdi va 29 mln. dan 75.5 mln.

kishiga yetdi.

Frantsiya uchun eng asosiy katta bozor - bu Germaniya hisoblanadi. U yerdan umumiy keladigan turistlarning 25 foizi tashrif buyuradi. ya'ni yiliga 18.5-19.0 mln. mehmon kelishi kuzatiladi. Germaniyadan keyin Buyuk Britaniya. Bel'giya. Italiya. Shvedsariya. Niderlandiya va boshqa mamlakatlar turadi. Frantsiyaga keluvchi turistlar ko'proq Frantsiya Riv'erasida. Parij. Al'p. Akvitaniya. Langedok-Russilionlarda dam olishni xush ko'radilar.

Frantsiya davlati muvozanatini saqlagan holda hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida mehmonlarni qabul qilish uchun muntazam ravishda qishloq joylarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu sa'i-harakatlar. birinchi navbatda. chet el turizmini emas. balki ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan edi. 1967 yilda Frantsiya rahbariyati tomonidan Akvitaniyada qishloq joylarda turizmni rivojlantirish rejasi qabul qilindi. Bu rejaga ko'ra dengiz bo'yi qirg'oqlari 16 sektorga bo'linib. ulardan 9 tasi turizmni rivojlantirish uchun. ya'ni plyajlar. dam olish zonalari. suv sportlari qurilishi lozimligi. qolgan 7 ta sektor esa «yashil zona» deb nomlanib. u yerdagi landshaft va yovvoyi tabiatni saqlab qolish ko'zda tutilgan edi. Bu rejaga ko'ra. amaldagi Arkashon va Biarits kabi faoliyat ko'rsatayotgan kurortlarni saqlab qolish. yashash joylarni kengaytirish va nihoyat Moliets kabi yangi kurortlarni qurish lozim edi. Yangi ob'ektlarni qurish. rejalashtirish mamlakatni ichki turizm talablarini qondirish maqsadida amalga oshirilar edi. Ushbu loyiha amalga oshishi bilan turizm sezilarli darajada rivojlandi. Bu xolatga 1980 yillardagi iqtisodiy inqiroz ham ta'sir ko'rsata olmadi. 1964 yilda hududiy turizm sektorini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida frantsuz hokimiyati rejaning amalga oshirish dasturini ishlab chiqdi. Bu dasturga asosan 5 ta turistik yashash joylari. ularni bog'lovchi yo'llar va avtomobil' trassalari qurish ko'zda tutilgan edi. 1990 yilda bu dasturni amalga oshirish uchun hududda turizmni rivojlantirish uchun belgilangan mablag'ning 24%i ajratildi. Dasturga muntazam ravishda o'zgartirishlar kiritildi. uni amalga oshirish hududda o'tkazilayotgan turistik kunlarni oshishiga olib keldi. Natijada 1990 yilga kelib turistlarning soni 5 mln. kishiga yetdi. Turizmning rivojlanishi hudud iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatayotgani tan olinib. Frantsiya hukumati avtomobil' yo'llarini kengaytirish va ekologiyani yaxshilash ishlariga katta mablag' ajratdi. Yaqin yillarda ichki turizm modelini o'zgartirish. yoz mavsumida yashash joylariga bo'lgan talabni oshirish uchun Frantsiyada imkoniyatlar ko'p. La-Manshdagi tunnelning o'Chilishi Buyuk Britaniyalik turistlar oqimini ko'payishiga va xorijiy turizm modelini o'zgartirishga olib keldi. Natijada 2000 yil Frantsiyaga Yevropa mamlakatlari ichida eng ko'p. ya'ni 75.5 mln. turistlar tashrif buyurdi. 1999 yilga nisbatan 2000 yilda xorijiy turistlar oqimini o'zgarishi +3.4%ni tashkil qildi (3.5.1-jadval).

Frantsiya mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha jahon bo'yicha turistik tashriflarning 11.0%i Frantsiya mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 2.4%ga ko'paygan.

Daromadlar bo'yicha jahon turizm daromadlarining 6.8%i bu mamlakatga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 7.8%ga o'sgan.

Evropa mintaqasi bo'yicha xalqaro turistik tashriflarning 19.3%ni. daromadlar miqdori bo'yicha 13.4%ni tashkil qilgan.

Frantsiya mamlakati xorijiy turistlar qabuli bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. YaMMning 11.7%ni turizm tushumlari tashkil etadi. 2002 yilda har bir xorijiy tashrif 1200 AQSH dollarini tashkil qilgan.

O'zbekistonni Frantsiya 1992 yili tan olgan va elchixonalar darajasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan.

O'zbek va frantsuz olimlari Samarqanddagi Afrosiyobni yangidan o'rganish ishlarida katta ish olib borishmoqda. Madaniy va ma'rifiy sohada o'zaro hamkorlik tobora rivojlanmoqda.

Toshkent - Parij shaharlari o'rtasida bevosita aviatsiya qatnovi o'rnatilgan.

Ispaniya davlatining turizm iqtisodi

Ispaniya davlati Yevropaning janubiy-g'arbiy qismida joylashgan. Pireney yarim orolining deyarli 80%ni. O'rta yer dengizidagi Balear va Atlantika okeanidagi Kanar orollarini o'z ichiga oladi. Hududi 504.748 kv.km.. aholisi 50.54 mln. kishi. Yirik shaharlari Madrid.

Barselona. Bil'bao. Valensiya. Sevil'ya. Saragosa. 2002 yildan Yevroga o'tgan. Ispaniya NATO a'zosi. 1986 yilda Yevropa Ittifoqiga kirgan. Bu mamlakat sanoati rivojlangan agrar mamlakatlar qatoriga kiradi. YaMM 515.8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. yillik o'sish 4% atrofida. Transport kommunikatsiyalari diqqatga sazovor. Temir yo'llar. avtomobil' yo'llari. dengiz transporti. aeroportlar xizmat ko'rsatish jihatidan nihoyatda rivojlangan.

Turizm Ispaniya iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydigan sohalardan biri hisoblanadi. Ispaniya asosan ommaviy plyaj turizmiga ixtisoslashtirilgan va u dunyoning asosiy turistik markazlaridan hisoblanadi. Mamlakatda turizmni rivojlanishi O'rta yer dengizi qirg'oqlari va Balear orollaridagi turizm rivojiga bog'liq. Ispaniyaning Atlantika qirg'oqlarida turizm nisbatan kam rivojlanganligi sababli ko'p turistlar bu yerga asosan qishki ta'tillarni plyajlarda o'tkazish uchun tashrif buyuradilar. Ispaniya hukumati turizm tarmog'ining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rnini tan olib turli yo'llar bilan, ya'ni otellar qurish uchun ssuda berish yo'li bilan turizmni rag'batlantirish siyosatini amalga oshiradilar. Buning natijasida Ispaniya o'z qirg'oqlariga Italiya va Frantsiyaga nisbatan turistlarni ko'proq jalb qila boshlaydi. Natijada Ispaniya turizm markaziga aylanadi.

1960 yillarga kelib Ispaniya xususiy turizm tarmog'i bilan jiddiy shug'ullana boshlaydi va O'rta yer dengizi qirg'oqlarida yangi otellar. apartamentlar va villalar hech qanday reja va kardinatsion siyosatsiz qurila boshlanadi. Buning natijasida 10 yil ichida turistlar soni qariyb to'rt barobarga ortadi va 1970 yilda umumiy turistlar soni 24 mln. kishiga yetadi. 1970 yilning o'rtalariga kelib turizm mamlakatda yanada rivojlandi. ommaviy turizm talablarini to'laroq qondirish uchun katta zamonaviy yotoqxonalar qurilishi ishlari boshlab yuborildi.

1980 yillarda turizm Ispaniya iqtisodiyotida muhim rol o'ynashda davom etdi va mamlakat potentsial ishchi kuchining 11%ni yangi ish joylari bilan ta'minladi. 1988-1992 yillarga kelib Ispaniya turizm bozorini ta'minlovchi mamlakatlar Frantsiya. Germaniya. Niderlandiya va Italiyadan tashrif buyuruvchi turistlar soni keskin tarzda qisqarib bordi. Buyuk Britaniyalik turistlar soni 1988 yildagi 7.6 mln. kishidan 1991 yilga kelib 6.1 mln. kishiga tushdi. Boshqa turistik markazlar bilan raqobat hamda Ispaniyaning ko'plab qadimiy kurortlaridagi ekologik holatlar bir qator muammolarni tug'dirdi. Ushbu negativ holatlarga javoban aksariyat kurort rayonlarida atrof muhitni yaxshilashga e'tibor berila boshlandi. SHu maqsadda avtomobil' transporti harakati qisqartirildi. yangi parklar tashkil qilinib daraxtlar ekildi. ko'cha va plyajlar tozalandi. yangi dam olish zonalari qurila boshlandi. Bundan tashqari. turistlarni joylashtirish uchun yangi turistik manzillar. ko'ngil ochar tadbirlar uchun mablag'lar ajratildi. Benidorm. Salou. Torremolinos va Balear orollaridagi turizm sanoati qayta jihozlandi. 1992 yilda Barselona shahrida olimpiya o'yinlari o'tkazildi. Sevil'yada esa «Ekspo-92» butun dunyo ko'rgazmasi tashkil qilindi. Bundan tashqari. Madrid Yevropaning madaniy shahri deb nomlandi. Bularning barchasi Ispaniyaning ulkan turistik mamlakat sifatida nom qozonishiga sabab bo'ldi. SHunday qilib O'rta yer dengizi kurortlari mahalliy va xorijiy turistlarni qabul qilishda yetakchilik qildi.

Ispaniyada chet ellarga chiqish turizmi sust rivojlangan. ammo oxirgi yillarda sezilarli darajada o'sish kuzatilmoqda. Mamlakatdan chiquvchi turistlar soni umumiy turistlar soniga nisbatan ancha kam. ammo ularning quyoshli mamlakatlarga chiqishlari tez-tez uchramoqda. Masalan: Portugaliya davlatiga chiquvchi turistlar soni 1986 yilda 2.5 mln. kishini tashkil qilgan bo'lsa. 1991 yilga kelib 4.1 mln. kishiga ortdi.

Hozirgi kunda nisbatan arzon bo'lgan turistik markazlar hisoblanmish Gretsiya. Marokash. Portugaliya. Tunis va Turkiyaga chiquvchi turistlar soni jadal ravishda o'sib bormoqda. Mamlakatdan chiquvchi umumiy turistlarni 30-57% ushbu mamlakatlarga to'g'ri keladi. Qimmat hisoblanadigan Frantsiya. Italiya va Buyuk Britaniya mamlakatlari turistik markazlariga chiqish holatlari bir muncha kamaymoqda. Uzoq masofalarga chiquvchi turistlarga asosan biznes bilan shug'ullanuvchi turistlar kiradi. Ularning 40.7% Kanada mamlakatiga va 44.5% Yaponiya davlatiga to'g'ri keladi.

2000 yilda Ispaniya mamlakatiga 48.2 mln. turistlar tashrif buyurgan. 1999 yilga nisbatan o'sish 3.0%ni tashkil qilgan. Ispaniyaning internet orqali turistik mahsulotlarni sotish ulushi 2000 yilda 8%ni tashkil etgan.

Ispaniya mamlakati xorijiy turistlarni qabul qilish bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi.

Ispaniya mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha, jahon bo'yicha turistik tashriflarning 7.4%i Ispaniya mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 3.3%ga ko'paygan.

Daromadlar bo'yicha jahon turizm daromadlarining 7.1%i bu mamlakatga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 2.2%ga o'sgan.

Evropa mintaqasi bo'yicha xalqaro turistik tashriflarning 12.9%ni, daromadlar miqdori bo'yicha 14.0%ni tashkil qilgan.

2002 yilda har bir xorijiy tashrif o'rtacha 650 AQSH dollarini tashkil qilgan.

Ispaniya O'zbekistonni 1991 yilning 31 dekabrda tan olgan va 1992 yilning 17 martidan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Ikkala davlat o'rtasida yaxshi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar mavjud.

Portugaliya davlatining turizm iqtisodi

Portugaliya Yevropaning janubiy-g'arbida, Pireney yarim orolining g'arbiy qismida joylashgan davlat. Unga Atlantika okeanidagi Azor va Madeyra orollari ham kiradi. Hududi 92.185 kv.km., aholisi 12.5 mln. ga yaqin kishini tashkil etadi. Portugaliya industrial-agrar mamlakat. Yevropa Ittifoqi a'zosi. Yirik shaharlari Lissabon, Portu, Braga, Setubal va Evora. Portugaliya davlati qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi.

Portugaliya iqtisodiyotida muhim tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, an'anaviy sanoat va qishloq xo'jaligi o'rniga maishiy xizmat sohalari ustuvorligi kuzatilmoqda. Xizmat sohaslarida aholining 42% band bo'lib, YaIMning 51% huddi shu sohada yaratilmoqda. Portugaliya iqtisodiyotida xizmat sohalari rolining ortib borishi turizm sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Portugaliya Ispaniya turizm sanoatidan hajmiga nisbatan ancha farq qiladi, ammo ularning ijobiy tomonlari ham anchagina, ikkala mamlakatda ham turistik sektor katta bo'lmagan hududlarda, mamlakat ichkarisida, ya'ni janubiy qirg'oqlarda joylashgan. Shimoliy Atlantika okeani qirg'oqlarida turistlar kam bo'ladi. Portugaliya Ispaniya kabi Atlantika Okeanida. Afrikaning g'arbiy qirg'oqlarida o'z hududlariga ega. Bu Madeyra orolidir. Bu yerdagi iqlimning yumshoqligi turistlarni o'ziga jalb qiladi. Bu mamlakatda ichki va chetga chiqish turizmi kam rivojlangan, ichki turizm hajmi hozircha kichik va faqat aholining 1/3 qismigina ta'tillarini o'z mamlakatlarida o'tkazadilar. Mamlakatda chetga chiqish turizmi ham uncha katta emas. 1986 yilda mamlakat aholisining faqat 8%igina chet mamlakatlarga sayohatlarga chiqqan. Portugaliya bir yilda 20 millionga yaqin turistlarni qabul qiladi, lekin ularning asosiy qismini quyoshli Ispaniya mamlakatining bir kunlik turistlari tashkil etadi. Portugaliyada xalqaro turizm 1980-1990 yillarda jadal rivojlandi. Portugaliya turistik bozorini turistlar bilan ta'minlovchi mamlakatlar qatoriga Buyuk Britaniya umumiy tarzda tashrif buyuradigan turistlarning 13.5%ni, Germaniya 9.1%ni, Frantsiya 7.7%ni, Italiya 2.9%ni, Niderlandiya 3.8%ni, AQSH 1.7%ni tashkil qiladi.

2000 yil Portugaliya turistik markazlariga 12 million chet ellik turistlar tashrif buyurgan, yillik o'sish esa +3.2%ni tashkil etadi. Portugaliyaning internet orqali turistik mahsulotlarni sotish ulushi 2000 yilda 8%ni tashkil etgan (3.7.1-jadval). Portugaliya mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalari ko'rsatishicha, jahon bo'yicha turistik tashriflarning 1.7%i Portugaliya mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 4.1%ga kamaygan. Daromadlar bo'yicha jahon turizm daromadlarining 1.2%i bu mamlakatga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 7.5%ga o'sgan. Yevropa mintaqasi bo'yicha xalqaro turistik tashriflarning 2.9%i, daromadlar miqdori bo'yicha 2.5%ni tashkil qilgan. Portugaliya respublikasi O'zbekiston Respublikasini 1992 yilning 16 yanvarida tan olgan va 1992 yil 12 avgustda diplomatik munosabatlar o'rnatilgan.

8. Gretsiya davlatining turizmi

Gretsiya Yevropaning janubiy-Sharqiy va Bolqon yarim orolining janubiy qismida O'rta yer va Egey dengizlari qirg'og'ida joylashgan. Hududi 131.957 kv.km., aholisi 11.64 mln. kishini

tashkil qiladi. Yirik shaharlari Afina. Soloniki. Patri. Ralos va Irkalion. Yevropa Ittifoqi a'zosi. 2002 yilda yevroga o'tilgan.

Gretsiya industrial-agrar davlat bo'lib, o'rtacha iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga ega. Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha. Yevropa mamlakatlari ichida 15-chi. ya'ni eng oxirgi o'rinda turadi. Aholining asosiy qismi ishlab-chiqarishdan tashqari. xizmat sohaslarida faoliyat yuritadilar. 1980 yillarda tarkibiy qayta qurish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy inqiroz ro'y beradi. Bu jarayon asosiy iqtisodiy tarmoqlarda kuzatiladi. Faqat 1990 yillar boshlaridan iqtisodiy yuksalish boshlanadi. jumladan. qishloq xo'jaligida o'sish 1%. sanoatda 0.4%. xizmat sohaslarida 2.2% ga o'sish kuzatildi.

YaMM 93.0 mlrd. AQSH dollari. YaMMning 9.5%i turizm sohasiga to'g'ri keladi.

Gretsiya jahon madaniyati o'chog'idir. Elladaning jahonga mashhur arxeologik va me'morchilik yodgorliklari Afinadagi Akropol'. Korinf. Miken. Olimp ma'budalari va boshqalar dunyo aholisini o'ziga jalb etib kelgan. Qadimgi yunon olimlari va donishmandlarining asarlari hozirgi zamon ilm-fani uchun asos bo'lib xizmat qiladi. SHu yerdan Yevropa poeziyasi. dramaturgiyasi boshlanadi. Qadimgi Elladada demokratiya asoslari yaratilgan. Afinada demokratiya asoslari yaratilishining 2500 yilligi tantanali ravishda bayram qilindi.

Gretsiya ko'p yillar davomida turizmning bir yo'nalishi-tarixiy. madaniy yo'nalishida rivojlanganligi sababli. ommaviy turizm uning uchun yangi yo'nalish hisoblanadi. Asosan AQSH turistlarini jalb qiladigan tarixiy-madaniy turizm urushdan keyingi yillarda jadal rivojlandi.

Gretsiya demokratik rivojlanish yo'liga o'tgandan keyin mamlakatda plyaj turizmi juda tez rivojlana boshladi. 1970 yillarda Gretsiyada asosan Buyuk Britaniya va Germaniyadan turistlar tashrif buyurar edilar. 1980 yillarga kelib Yevropaning turli mamlakatlari turistlari Gretsiyada ommaviy turizmning boshqa turlarini rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydilar. Bunga Gertsianing qulay geografik joylashuvi va barqaror iqtisodiy. siyosiy holati turtki bo'ldi. 1992 yilda bu yerga tashrif buyurgan turistlar soni 7 mln. kishini tashkil etdi. Gretsiya turizmini rivojlanishida Buyuk Britaniya turizm bozori muhim rol o'ynaydi. Oxirgi yillarda tashrif buyuruvchi turistlar salmog'i 10% dan 22% gacha o'sganligi kuzatilgan.

Gretsiya turizm maskanlariga Germaniya mamlakati turistlari umumiy turistlarning 19.9%ni. Italiya 6.4%ni. Frantsiya 5.6%ni tashkil qiladi. Tashrif buyuruvchi turistlardan Ispanlarning 41%. Yaponlarning 35%. Italiyaliklarning 25% Gretsiya madaniy-tarixiy turizmini xush ko'radilar. 2000 yilda Gretsiya turizm markazlariga 12 mln. 500 ming xorijiy turistlar tashrif buyurgan. yillik o'sish 2.8%ni tashkil etadi. Gretsiyaning internet orqali turistik mahsulotlarni sotish ulushi 2000 yilda 8% ni tashkil etadi.

Gretsiya mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon bo'yicha turistik tashriflarning 2.0%i Gretsiya mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 0.9% ga ko'paygan.

Daromadlar bo'yicha jahon turizm daromadlarning 2.1%i bu mamlakatga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 3.1%ga o'sgan.

Evropa mintaqasi bo'yicha xalqaro turistik tashriflarning 3.5%i. daromadlar miqdori bo'yicha 4.1% ni tashkil qilgan.

Evropaning «Benilyuks» iqtisodiy ittifoqiga kiruvchi Bel'giya. Niderlandiya va Lyuksemburg mamlakatlari turizmi

1958 yilda Benilyuks mamlakatlari Benilyuks iqtisodiy ittifoqi shartnomasini tuzadilar. Yevropaning uchta mamlakati – Bel'giya. Niderlandiya. va Lyuksemburg mamlakatlari ommabop turistik markazlar deb hisoblanadi.

A) Bel'giya davlatining turizm iqtisodi

Bel'giya qirolligi Yevropaning g'arbiy qismidagi Shimoliy dengiz qirg'oqlarida joylashgan davlat. Hududi 30.5 ming kv.km.. aholisi 12 milliondan ortiqroq. Yirik shaharlari Bryussel'. Antiverpen. Gent. Bryugge. SHarlerua. L'ej. Namyur. Luana. NATO va Yevropa Ittifoqi a'zosi. Yevropada iqtisodiy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etib keladi. Eslatib o'tamiz. NATOning shtab kvartirasi Bryusselda joylashgan. Benilyuks Ittifoqi ham shu davlat

tashabbusi bilan bunyod etilgan. Yevropa ittifoqi a'zosi. 2002 yilda yevroga o'tilgan.

Bel'giya iqtisodiyotida turizm katta daromad keltiruvchi muhim soha bo'lib hisoblanadi. Mamlakatda 2148 ta mehmonxona mavjud. Turizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar ishga solingan. chunki undan katta daromad keladi. Bel'giyaning ichki turizm bozori 1990 yilda 23.9 mln. turistik kunni tashkil qildi. Uning asosiy qismi, ya'ni 59%i mamlakatning qirg'oq bo'yi zonalarida. an'anaviy kurotlar Ostende. Knokkl va Blankenbergga to'g'ri keladi. Bel'giyada o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish sektorida dam olishni xush ko'radilar.

Bel'giyaliklar uchun qirg'oq bo'yi zonalaridan keyin ikkinchi dam olish maskani. bu ommabop Ardenna tog'i hisoblanadi. Ushbu tog'larda dam oluvchilar soni mamlakatning yozgi ichki turizmining 6%i to'g'ri keladi.

Bel'giya mehmonlarining asosiy qismini Buyuk-Britaniya. Germaniya. Italiya. Ispaniya. Niderlandiya. Frantsiya va AQSH fuqarolari tashkil qiladi.

1992 yilda mamlakatni 3.2 mln. xorijiy turistlar ziyorat qilgan. Xorijiy turistlarni mamlakatda bo'lishi o'rta hisobda ikki kunni tashkil qiladi. Bel'giyaga tashrif buyurgan xorijiy turistlarni asosiy qismini ishbilarmon sayohatchilar tashkil qiladi. Bryussel' Bel'giyaning nafaqat poytaxti. balki Yevropa Ittifoqi. NATO va ko'pgina transmilliy kompaniyalarning bosh ofislari joylashgan shahardir. Ushbu tashkilotlarga qarashli mehmonlar qimmatbaho otellarda yashaydilar.

Bel'giyada O'rta asr kvartallari yaxshi saqlangan 9-ta shahar mavjud. Xorijiy turistlarning ko'proq qiziqtiradigan shaharlar-bu. Bryusseldan tashqari. Antverpen. Bryugge va Gent shaharlaridir. Turistik kunlarning 85%i ushbu shaharlarga to'g'ri keladi.

Bryugge - o'tgan asrdan darak beruvchi go'zal shahar. O'zining tor ko'chalari. eski ko'priklari. binolari bilan Venetsiyani eslatadi. Bryuggeda 1248 yil qurilgan Belfi end Kloz Xoll. 1336 yil qurilgan Toun Xoll va boshqa ko'plab XII-XIII asr ibodatxonalarini mavjud. Dunyo san'ati namunalariga boy bo'lgan Groening muzeyi. shu jumladan. o'rta asrning yana bir shahri hisoblanmish - Gent o'zining gullar Ko'rgazmasi bilan tanilgan. Uning markazida 1180 yilda qurilgan cherkov. 1300 yilda qurilgan Belfi End Kloz Xoll va XV asrda barpo etilgan Sant Bravo Kafedral joylashgan. Antiverpen shahri nafaqat o'zining qadimiy binolari bilan tanilgan. balki u yerda Almaz ishbilarmonlar turizmi ham rivojlangan. Bryussel' shahri ham o'rta asrlarda vujudga kelgan shaharlar hisobiga kirib. ishbilarmonlar turizmidan tashqari. katta tarixiy-madaniy turizm markazi bo'lib hisoblanadi. So'ngi yillarda o'rta asrlar. ya'ni 1696 yilda qayta qurilgan Bryussel' shahrining asosiy maydoni Grand-Palas xorijiy turistlar e'tiborini jalb qila boshladi. Bu yerda yunon uslubida qurilgan shahar saroyi. «Mezon de Roy» va «Gold Xausez» binolari joylashgan. CHet davlatlardan kelgan mehmonlarning deyarli 1/3 qismi Bel'giyaning qirg'oq zonalarida dam olishni ma'qul ko'radilar. Mehmonlar asosan qo'shni bo'lgan Buyuk Britaniya. Germaniya. Niderlandiya va Frantsiya mamlakatlaridan tashrif buyuradilar. Mamlakatga. shuningdek. bir kunlik mehmonlar ham ko'p miqdorda keladi. Oxirgi yillarda xorijiy turistlarning soni 15-16 million kishini tashkil qilmoqda. Bel'giya Yevropa yo'llarining chorrahasida joylashgan. Parij va Shimoliy Germaniya. Buyuk Britaniya hamda Yevropa orollariga chegaradosh. SHu sababli mamlakat chegarasini juda ko'p miqdorda tranzit turistlar kesib o'tadi. Ularning soni yiliga 7 millon kishini tashkil etadi. Bel'giyaning tarixiy obidalari va qirg'oq zonalarini turizm iqtisodini rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Bel'giya qirolligi bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida 1992 yilning 10 martida o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Hozirgi kunda har ikki mamlakatda elchixonalar ochilgan.

B) Niderlandiya davlatining turizmi

Benilyuks ittifoqiga kiruvchi ikkinchi davlat bu Niderlandiya. Niderlandiya davlati G'arbiy Yevropaning Shimoliy qirg'og'ida joylashgan. Hududi 41.5 ming kv.km.. aholisi 17.8 million kishi. Yirik shaharlari: Amsterdam. Rotterdam. Utrext. Xarlen. Yevropa Ittifoqi. NATO tashkilotlari a'zosi. 2002 yildan yevroga o'tgan.

Niderlandiyada ichki turizm bozori juda yaxshi rivojlangan. 2000 yilda 15 millionga yaqin fuqarolari o'z ta'tillarini o'z mamlaktlarida o'tkazganlar. Ularning katta qismi o'z-o'zini

boshqarish sektoridan foydalanadilar. Keyingi paytlarda mamlakatda o'z-o'zini boshqarishning yangi kontseptsiyasi ommabop bo'lib kelmoqda. «Parks Markazi» kompaniyasi o'rmon massivlari va suv havzalarida joylashgan. Umumiy maydoni 120-160 gektar bo'lgan sog'lomlashtirish sport komplekslariga ega. Bunday komplekslardan mamlakatda 7 tasi mavjud. Ularning har biri yiliga 1.5 mln. mehmonni qabul qila oladi. Ushbu komplekslar tarkibiga yaxshi ta'minlangan bungalolar, restoranlar, magazinlar, basseynlar, sport bilan shug'ullanish uchun boshqa vositalar kiradi. Boshqa Yevropa mamlakatlari aholisiga qaraganda Niderlandiyaliklar o'z ta'tillarini mamlakat ichkarisida joylashgan dam olish zonalarida o'tkazadilar.

Niderlandiya hududi kichkina bo'lganligi sababli unga asosan bir kunlik mehmonlar tashrif buyurishadi. 1991 yilda Niderlandiyaga 5.8 mln. xorijiy turistlar kelgan bo'lsa, 2000 yilga kelib ularning soni 10 million 200 ming kishini tashkil qildi. Niderlandiya turizm bozoriga tashrif buyuruvchi asosiy turistlar Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH mamlakatlari fuqarolari hisoblanadi.

Niderlandiya xalqaro turizmning asosiy markazi bo'lib, uning poytaxti Amsterdam shahri hisoblanadi. Bu shaharda qadimiy (XVII asr yodgorliklari) va go'zal binolar ko'p. Shahar aeroportini ulkan transport tarmog'i bilan bog'lovchi Rotterdam Yevropaning eng katta dengiz porti hisoblanadi. Demak mamlakat chegarasini 5 million tranzit yo'lovchilarning kesib o'tishi hech kimni hayron qoldirmaydigan holatdir.

Niderlandiya O'zbekistonni 1991 yil 31 dekabrda tan oldi. 1992 yil 10 iyulda diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

Toshkent - Amsterdam shaharlari o'rtasida aviatsiya qatnovi o'rnatilgan.

V) Lyuksemburg davlatining turizm iqtisodi

Benilyuks ittifoqiga kiruvchi uchunchi davlati Lyuksemburg. Lyuksemburg Farbiy Yevropada joylashgan davlat bo'lib, hududi 2587 kv.km., aholisi 678 ming kishi. Yevropa ittifoqi a'zosi. 2002 yildan yevroga o'tgan. Yirik shaharlari Lyuksemburg. Dikirish, Esh, Klervo. Lyuksemburg rivojlangan industriyal mamlakat hozirgi davrda xizmat ko'rsatish sohalari, ayniqsa, bank tarmog'i keskin rivojlanib bormoqda. Lyuksemburg Farbiy Yevropaning asosiy moliyaviy markazidir. Barcha yevro-valyuta bozorining 10% aktivlari shu yerda mujassamlashgan. Mamlakatda 193 ta bank faoliyat yuritadi. YaMM 9.2 mlrd. AQSH dollari, jon boshiga 22.830 AQSH dollarini tashkil etadi.

Ushbu mamlakat yuqoridagi ikki mamlakatga nisbatan turistlarni kam qabul qiladi. Masalan: mamlakat 760 ming xorijiy turistlarni hamda ikki million bir kunlik mehmonlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Turizm mamlakat iqtisodiyotining uchunchi muhim sohasi bo'lib hisoblanadi. Lyuksemburg qo'shni davlatlar Bel'giya hamda Niderlandiyaga qaram. Bu qaramlikni sabablari shundan iboratki, aynan shu mamlakatlar Lyuksemburgning xalqaro turizmini rivojlantiradilar. SHuningdek, xorijiy mehmonlarning asosiy qismini ishbilarmon sayohatchilar tashkil qiladi. CHunki bu mamlakatda YS banklarining shtab kvartirasi va ko'plab chet el banklari joylashgan. Lyuksemburg aholisi ko'p emas, ammo mamlakat aholisi chet davlatlarga, shuningdek, qo'shni mamlakatlarga sayohat qilib turadilar.

O'zbekiston va Lyuksemburg o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 10 iyunda o'rnatilgan.

“Benilyuks” iqtisodiy ittifoqiga kiruvchi Farbiy Yevropa mamlakatlari xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha, jahon bo'yicha turistik tashriflarning 2.3%i “Benilyuks” iqtisodiy ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda tashriflar soni 2.4% ga ko'paygan.

Daromadlar bo'yicha jahon turizm daromadlarining 3.1%i bu mamlakatlarga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 3.2% ga o'sgan.

Evropa ittifoqi bo'yicha xalqaro turistik tashriflarning 4.1%ni, daromadlar miqdori bo'yicha 6.1 %ni tashkil qilgan.

10. Skandinaviya mamlakatlari Shedsiya, Finlandiya, Narvegiya, Daniya turizmi

1980 yillardan boshlab skandinaviyada ishbilarmonlar turizmi juda tez rivojlana boshladi. CHet mamlakatlardan kelgan mehmonlarning 1/3 qismini Skandinaviyaga tegishli

boshqa mamlakat fuqarolari tashkil qiladi. Buni esa o'z shaxsiy turistik mahsulotlarini rivojlantirayotgan mahalliy turistik tashkilotlarning faol ish natijalari deb hisoblash lozim. Bu yerda shubhasiz mamlakatlar orasidagi madaniy tafovutlar va mahalliy qonunlar muhim rol o'ynaydi. Skandinaviya mamlakatlarini turizm bozorini ta'minlovchi asosiy mamlakatlar Shimoliy Amerika mamlakatlari hisoblanadi. XIX asrda Skandinaviyadan Shimoliy Amerikaga katta emigratsiya uyushtirilganligi natijasida ushbu ikki hudud orasida madaniy aloqalar o'rnatilgan.

A) Shedsiya davlatining turizm iqtisodi

Dunyo haritasini kuzatsangiz. Yevropa qit'asining Shimoliy qismida o'ljasiga tashlanayotgan yo'lbarsga o'xshab ketadigan quruqlikni ko'rasiz - bu Shedsiyadir. Bu quruqlik qadimdan Skandinaviya deb yuritilib kelingan. Yarim orolning bir qismida Birlashgan millatlar tashkiloti toifalashirishiga ko'ra. eng rivojlangan davlatlarning biri - Shedsiya joylashgan. Bu iqtisodiy baquvvat. aholisi farovon yurtning hududi yarim orolning 60%ni egallaydi. hududi - 449 kv.km. Mamlakat hududining 54% o'rmonlar. 16% tog'lar. 9% ko'llardan iborat. Aholisi 10 mln. kishiga yaqin bo'lib. uning bir millionini muhojirlar tashkil etadi. Yevropa Ittifoqi a'zosi.

Mamlakatning keyingi vaqtdagi erishgan iqtisodiy muvaffaqiyati butun dunyoga "Shedsiya modeli" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Bizning respublikamiz Shedsiya bilan taqqoslanganda. hududi qariyb teng bo'lsa-da. ammo bu ikki mamlakatning jo'g'rofiy o'rni. tabiiy boyliklari. aholisining soni bilan bir-biridan keskin farq qiladi. SHunday bo'lsa-da. mustaqil respublikamiz bozor iqtisodiyotiga jadal kirib borayotgan bir sharoitda Shedsiya iqtisodchilarimizda qiziqish uyg'otishi tabiiydir.

Mamlakatning 80-yillardagi rivojlanishi. 1983 yildan beri Shved iqtisodiyotida uzluksiz o'sish qayd qilinishi shuni ko'rsatadiki. Shved modeli sharoitga moslasha oladi. Bu bilan u o'zining hayotiyiligini isbot qildi. SHuni ta'kidlash kerakki. Shved modeliga 50-yillarning boshlarida asos solindi va keyinchalik sotsial-demokratlar iqtisodiy siyosatining muhim o'zagi bo'lib kelmoqda.

Shved modeli shunga asoslanadiki. davlat firmalarning ishlab chiqarish faoliyatiga aralashmaydi. mehnat bozorida faol siyosat yurgizadi. bozor ijtimoiy-iqtisodiy chiqimlarini iloji boricha kam miqdorda sarflaydi. Modelning yana bir muhim tomoni shundaki. xususiy tarmoq ishlab chiqarishini yuksak o'stirish. xalqning turmush darajasini yaxshilash. soliqlar tizimi orqali davlat tomonidan olingan foydaning iloji boricha ko'proq qismini aholiga bo'lib berishni nazorat qiladi. Bunda asosan jamoa pul fondlari va infratuzilma unsurlariga ko'proq yon bosiladi. O'z navbatida soliqlar va davlat harajatlari orqali milliy daromadning taqsimoti iste'mol qilinishi va qayta bo'lib berilishida davlat roli tobora oshib bordi. Shuning uchun ham bunday faoliyatni «funktional sotsializm» deb atashmoqda. Shved modelining bu jihatlari mamlakatimiz faoliyatida o'rin olsa. foydadan holi bo'lmaydi.

YaMM 163.1 mlrd. AQSH dollari. jon boshiga 18580 dollarni tashkil etadi.

Shved modelining ahamiyat kasb etuvchi tomonlari. xususan. uning yuqori darajada institutlashtirilganligi. ya'ni qonunlashtirilganligi davlatning inqirozlarga qarshi siyosatining faolligidir.

Shedsiya mamlakatining turistik markazlari butun o'lka bo'ylab tarqalgan. Bu mamlakat xalqaro ichki turizmning asosiy markazi bo'lib. poytaxti Stokgol'm va shahar chekkalari hisoblanadi. Hudud o'z tarkibiga ikki mingdan ortiq bo'lgan orollardan tashkil topgan arxipelagni qamrab oladi. Ushbu orollarning ko'pchiligiga katerlar yordamida boriladi. 1990 yilda ushbu hudud Upsala shahri bilan birgalikda ichki turistlarning 17% ni va xorijiy turistlarning 24% ni qabul qilgan. Mamlakatning boshqa ommabop turistik hududi plyajlarga ega bo'lgan 400 km. masofalik oltin qirg'oq hisoblanadi. Unga ichki turizmning 14%i. xalqaro turizmning 13.7%i to'g'ri keladi. Ulardan keyin Shved ko'llari hududi. Glass mamlakati hamda tungi qirg'oq turadi. Ularning har biriga turizm ichki bozorining 10%i to'g'ri keladi. Shedsiyaning internet orqali turistik mahsulotlarni sotish ulushi 2000 yilda 19% ni tashkil etgan.

Shedsiya O'zbekiston Respublikasini 1992 yilning 16 yanvarida tan oldi. O'sha yilning 8 apreldan diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Ikkala mamlakat o'rtasidagi siyosiy. iqtisodiy va

madaniy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda.

B) Finlandiya davlatining turizm iqtisodi

Finlandiya Yevropaning Shimolida. Skandinaviya yarim orlida joylashgan. Bu davlat iqtisodiy jihatdan yuksak rivojlangan industrial mamlakat hisoblanadi. Hududi 338.2 kv.km., bo'lib, bu jihatdan qit'ada beshinchi o'rinda turadi. Mamlakat aholisi 5.8 million kishini tashkil etib, 93%i finlardan iborat. Eng yirik shaharlari: Xel'sinki. Tamperya. Turku. Finlandiyani mahalliy aholi «Suomi» deb ataydi. Yevropa Ittifoqi a'zosi. Hududining 6.9%i o'rmonlar, 8%igina qishloq xo'jaligi uchun yaroqlidir. chunki qolgan qismi botqoqlik va ko'llardan iborat. ana shunday ko'llar soni 180 mingdan ortiq bo'lib, o'rtacha chuqurligi 7 metr atrofida. shu sababli Finlandiyani «Ko'llar mamlakati» deb ham yuritiladi. YaMM 81.8 mlrd. AQSH dollari. jon boshiga esa 22.3 ming AQSH dollarini tashkil etadi.

Mamlakat aholisi jon boshiga hisoblaganda yuqori ko'rsatkichlarga ega. Iqtisodiyotning yillik o'sishi 2.4%ni tashkil etadi.

Hozirgi davrda Finlandiya yalpi ishlab chiqarishning 60%dan ortig'i va xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 57%i xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi. bu jarayon barcha industrial rivojlangan mamlakatlarda ro'y bermoqda. Ayniqsa, ulgurji va chakana savdo, aloqa, transport, turizm sohalari avj olgan. Moliya va sug'urta, tijorat va maslahat beruvchi xizmat sohalari roli ham ortib bormoqda.

Finlandiya mamlakatiga kelgan chet el mehmonlarining asosiy qismi mamlakat poytaxti Xel'sinkiga tashrif buyuradi. CHet el mehmonlarining turistik kunlarini 38%i mamlakat poytaxti Xel'sinkiga to'g'ri keladi. Mamlakat aholisining atigi 7.3% gina o'z ta'tillarini Xel'sinkida o'tkazadilar. Aholining katta qismi o'z dam olish kunlarini Finlandiya ko'llarida o'tkazadilar. Aholining yana bir qismi Shimoliy hududlar, ya'ni Laplandiyada va Finlandiya tungi qirg'og'ida dam olishni xush ko'radilar. Finlandiyada aholi farovonligi yuqori bo'lganligi sababli mamlakatda chet elga chiqish turizmi yaxshi rivojlangan. Mamlakat fuqarolari asosan AQSH, Kanada, Meksika, Frantsiya, Avstriya, Ispaniya, Italiya, Germaniya, Shvedsariya mamlakatlariga sayohatlar uyushtiradilar. Finlandiya mustaqil O'zbekistonni 1991 yilning 30 dekabrda tan oldi va 1992 yilning 26 fevralida diplomatik munosabatlar o'rnatdi. Ikkala mamlakat o'rtasida aloqa vositalarini yangilash bo'yicha shartnomalar tuzilgan.

V) Norvegiya davlatining turizm iqtisodi

Norvegiya Yevropaning shimolida joylashgan davlat. Skandinaviya yarim orolining Shimoliy qismini egallagan. SHpitsbergen arxipelagi. Yan-Mayin va boshqa bir qancha orollar Norvegiyaga tegishli. Hududi 285.2 ming kv.km., aholisi 5.8 mln. kishi. Yirik shaharlari: Oslo, Bergen, Tronxeym, Stavanger. NATO a'zosi. Norvegiya yuqori darajada rivojlangan industrial-agrar mamlakat. Iqtisodiyotda neft va gaz sanoati yetakchi bo'lib, YaMMning 14%ni, umumiy eksportning 30%ni tashkil etadi. YaMM 95.7 mlrd. AQSH dollari, jon boshiga 22170 AQSH dollarini tashkil etadi. Tashqi savdo mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi. Norvegiya jon boshiga yetishtiriladigan YaIM bo'yicha eng yuqori o'rinlarni egallaydi. Norvegiyada ichki hamda xalqaro turizmning asosiy markazi muzeylarga boy bo'lgan Oslo shahri hisoblanadi. Bu yerda Norvegiyaning yotoqxonona biznesining 30%ga yaqin nomer fondi joylashgan. Nomer fondining yana 10%i boshqa ommabop turistik hudud Bergen shahriga to'g'ri keladi. Skandinaviya mamlakatlaridan Shimoliy Amerikaga emigratsiya uyushtirilganligi sababli Norvegiya aholisining ko'pchiligi Shimoliy Amerikaga turistik safarlarga chiqadilar. O'zbekiston va Norvegiya o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 10 iyunda o'rnatilgan.

G) Daniya davlatining turizm iqtisodi

Daniya Yevropaning Shimoliy g'arbidagi davlat. Unga Far'er va Grenlandiya orollari kiradi. Hududi - 43 ming kv.km., aholisi 6 mln. 200 ming kishi. NATO va Yevropa Ittifoqi a'zosi. Iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohalarning ulushi YaIM ning 60%ga teng. Daniya Germaniyaga yaqin bo'lganligi sababli o'z mamlakatiga kirish turizm bozorini ushbu mamlakat hisobiga to'ldiradi. Germaniya Daniya turistik kunlarining 37% ni tashkil qiladi. Daniya tarixiy yodgorliklar va muzeylarga boy mamlakat. Uning asosiy turistik markazi mamlakat poytaxti Kopengagen hisoblanadi. Kopengagen mamlakatga keladigan xorijiy turistlarni 28%ni qabul

qiladi. O'zining tarixiy yodgorliklaridan tashqari, shahar har yili 4 millionga yaqin xorijiy mehmonlarni qabul qila oladigan Tivoli Garden parki bilan mashhur. Mamlakatning yana bir mashhur parki Legoland har yili bir millionga yaqin xorijiy mehmonlarni qabul qila oladi va u Buyuk Britaniyaliklar orasida o'z mavqeiga ega. Skandinaviya mamlakatlari aholisi uchun Yevropa mamlakatlari asosan: Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya va Pol'sha ommabop turistik markaz bo'lib hisoblanadi. Ulardan keyin esa O'rta yer dengizi mamlakatlari turadi. Skandinaviya mamlakatlarining 18% sayyohlari Ispaniya, Italiya, Gretsiya, shuningdek, Kipr va Turkiyaning qirg'oq bo'yi kurortlarida dam oladilar. Hozirgi kunda Kipr va Turkiyaga turistik safarlar ko'paymoqda. 1992 yil yanvarda O'zbekiston va Daniya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Skandinaviya mamlakatlari (Shimoliy Yevropa) xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha, jahon bo'yicha turistik tashriflarning 4.5%i skandinaviya mamlakatlariga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 10.0% ga ko'paygan. Daromadlar bo'yicha jahon turizm daromadlarining 5.7%i bu mamlakatlarga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 4.0% ga o'sgan. Yevropa

Sharqiy Yevropa mamlakatlari turizm iqtisodiyoti

A) Chexiya, Slovakiya davlatining turizm iqtisodiyoti

Chexoslovakiya respublikasi 1993 yil 1 yanvardan ikki respublikaga bo'lindi, g'arbiy qismi Chexiya respublikasiga, Sharqiy qismi Slavakiya respublikasiga. 1993 yilgacha Chexoslovakiya Sharqiy Yevropaning turizm sanoati va iqtisodi yaxshi tashkil etilgan va rivojlangan eng katta turistik mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanar edi.

1989-1991 yillarda Chexoslovakiyada iqtisodiy reformalar boshlanishi bilan mamlakatning turizm sektori jadal rivojlana boshladi. Masalan: xorijiy mamlakatlarga chiqish turizmi 1999 yilda 8.5 mln. sayohatlarni tashkil qilgan bo'lsa, 2000 yilda 20.6 mln. sayohatchilarni, 2001 yilda esa, 39.6 mln. sayohatchilarni tashkil etgan. Aholining ko'pchiligi bir kunlik safarlarga chiqar va chet mamlakatlarda oz mablag' sarflar edilar.

2000-2001 yillarda chet el safariga chiquvchilar soni keskin o'sishiga qaramasdan sarflangan mablag' 636 mln. AQSH dollaridan 393 mln. AQSH dollariga kamaydi. Bu holat iqtisodiy o'zgarishlar bilan yuzaga kelgan qiyinliklarni yaqqol namoyon qiladi.

Chexoslovakiya aholisi tomonidan uyushtirilgan sayohatlarning 2/3 qismi g'arbiy mamlakatlarga to'g'ri kelar edi. Ushbu davrda qo'shni Pol'sha mamlakatiga boruvchilar soni keskin oshib bordi. 1990 yilda 1.3 mln. kishi safar qilgan bo'lsa, 2001 yilga kelib ularning soni 6.1 million kishiga yetdi. SHu yillari mamlakatga kirish, ya'ni qabul qilish turizmida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Chexoslovakiyaga sayohat qiluvchi turistlarning aksariyati Germaniyadan tashrif buyuradigan sayohatchilardir, ular umumiy sayyohlarning 21% ni tashkil etadi. SHuningdek, Pol'sha hamda Avstriyadan tashrif buyuruvchi sayohatchilar soni ham ortib borishi kuzatiladi. Keyingi yillarda chet el sayohatchilar soni 37.6 million kishiga yetdi.

B) Vengriya davlatining turizm iqtisodiyoti

Sharqiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy barqaror mamlakat hisoblanadi. Iqtisodiy reforma dasturini mamlakat 1969 yildan o'tkaza boshladi va bu yo'nalishda qo'shni sotsialistik mamlakatlarga nisbatan siljishlar bir muncha yuqoriroq bo'ldi.

1989 yilda Vengriya turizm sanoati yaxshi yo'lga qo'yilgan va Chexoslovakiyadan keyin 2-o'rinda turar edi. Mamlakat turistik markaz sifatida chexlar, polyaklar va Sharqiy Germaniyaliklar oldida katta mavqega ega edi. Vengriya turizmi g'arbiy mamlakatlar turistlarini, ayniqsa, Avstriya hamda g'arbiy Germaniyaliklarni o'ziga ko'proq jalb qiladi. 1988 yilda Vengriyaga 17.9 million turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, ularning 30% ni rivojlangan Yevropa mamlakatlari turistlari tashkil qilgan edi. 1989 yildagi revalyutsiyadan keyin chet eldan tashrif buyuruvchi mehmonlar soni birmuncha o'sdi va 1990 yilda umumiy turistlar soni 37.6 million kishiga yetdi. Mehmonlarning asosiy qismini Avstriya, Germaniya va Ruminiya fuqarolari tashkil qilgan edi. 1985-1990 yillarda Vengriyaning dunyo turistik markazlariga chiqish hajmi ikki barobarga ko'paydi. Ammo keyingi yillarda bu ko'rsatgich pasaya boshladi. 1990 yildan boshlab Venger hukumati tomonidan o'tkazilgan valyuta nazorati siyosatining kuchayishi turizm

sanoatining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ushbu davrda chet el turistlarining bu yurtga bo'ladigan sayohatlari tahminan ikki marotabaga kamaydi. 1990 yilda Vengriyaga 37.6 mln. turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, valyuta nazorati siyosatini kuchaytirish natijasida 2000 yil mamlakatga 15.6 mln. turistlar tashrif buyurdi. lekin oldingi yillarga nisbatan o'sish sur'ati 8.1% ni tashkil qiladi.

V) Pol'sha davlatining turizm iqtisodiyoti

Pol'sha Sharqiy Yevropa hududida eng ko'p aholiga ega bo'lgan davlat. Uning aholisi 38.0 mln. kishini tashkil qiladi. Pol'sha yuqori texnologiyali iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakat. ammo turizm infratuzilmasi kam rivojlangan qoloq mamlakatlar qatoriga kiradi. Sotsialistik lagerning tarqalishiga qadar Pol'sha boshqa mamlakatlar turizm bozorining to'ldiruvchi asosiy hududi bo'lib hisoblanar edi. Chunki 1970 yillarda ham polyaklar erkin sayohat qilish xuquqiga ega edilar.

1989 yilda mamlakatga kirish va mamlakatdan chiqish turizmi ancha rivojlandi. Ammo mamlakatning iqtisodiy muammolari turizmning rivojlanishiga xalal berdi. Sayohatchilar miqdori 1990 yilda 22 mln. kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1991 yilda 20.8 mln. kishiga tushdi. SHuni ham inobatga olish kerakki, mamlakatdan chuquvchilarning aksariyati savdo-sotiq yoki chet davlatlarda ishlash maqsadida chiqishar edi. Ikkinchi tomondan, 1991 yilda 80% ni tashkil qilgan inflyatsiyaning yuqori pog'onasi mamlakatni xalqaro turizm uchun nisbatan arzon bo'lishiga olib keldi. SHu sababli chet el turistlari soni sustlik bilan bo'lsa-da, ortib bordi. 1990 yilda ularning soni 3.4 mln. kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1991 yilda 3.8 million kishini, 1992 yilda 4.0 mln. kishini, 2000 yilda 17.4 mln. kishini tashkil qildi. Keyingi yillarda Pol'sha mamlakatiga kirish va chiqish tarkibida katta o'zgarishlar kuzatildi. Pol'sha tabiiy madaniy resurslarga boy mamlakat. Ulardan mamlakat turizmini rivojlantirishda foydalanish mumkin. Mamlakatda g'arb mamlakatlari talabiga javob beruvchi otellarning kamligi hamda chet el mehmonlarining aksariyat hollarda o'z qarindoshlari va do'stlarinikida joylashishi mamlakat turizm sanoatining kam rivojlanganligidan dalolat beradi.

G) Ruminiya davlatining turizm iqtisodiyoti

Ruminiya qora dengiz qirg'oq bo'yi va tog' resurslariga boy mamlakat. Keyingi yillarda Ruminiyada chet elga chiqish turizmi rivojlanib o'sib bormoqda. Ruminiyaliklar Vengriya (yiliga 9.0 mln. kishi), Bolgariya (yiliga 1.8 mln. kishi), va Turkiya (yiliga 500 ming kishi) mamlakatlariga ko'proq tashrif buyuradilar.

Revolutsiyaga qadar bu mamlakatga hammasi bo'lib, 4.5 mln.ga yaqin turistlar tashrif buyurar edi.

Ruminiya Sharqiy Yevropada qora dengiz qirg'oqlari bo'yida dam olish va pekiy turlarga ega bo'lgan yagona mamlakat hisoblanadi. Hozirgi kunda bu mamlakatga 6.5-7.0 mln.ga yaqin xorijiy turistlar tashrif buyuradi. Ularning aksariyati Sharqiy Yevropa, Rossiya va Vengriya fuqarolariga to'g'ri keladi. Rossiyadan yiliga 2.0-2.1 mln. turist, Vengriyadan esa 0.9-1.0 mln. turistlar tashrif buyuradi. Xorijiy turistlarning 13%-15% gina Yevropaning boshqa mamlakatlariga to'g'ri keladi.

D) Bolgariya davlatining turizm iqtisodiyoti

Bolgariya 1989 yilga qadar uncha katta bo'lmagan, mamlakat uchun iqtisodiy zarur hisoblangan xalqaro turizm sektoriga ega edi. Xorijiy turistlarning kelib-ketish soniga ko'ra, Ruminiyadan keyin turar edi. Ammo Bolgariyaga g'arbiy Yevropa mamlakatlaridan tashrif buyuruvchi xorijiy turistlarning miqdori nisbatan katta, umumiy xorijiy turistlarning 9-12% ni tashkil qiladi va ular mamlakatga zarur bo'lgan chet el valyutasining kirib kelishiga imkon yaratadi. 1991 yilda bu mamlakatni 1.5 mln. xorijiy turistlar sayohat qilgan bo'lsalar bu mehmonlarning 60%ini Sharqiy Yevropa, asosan Ruminiya, Pol'sha, Rossiya mamlakatlari fuqarolar tashkil qilgan. 1990-1992 yillardagi Bolgariyada bo'lib o'tgan giperinflyatsiya mamlakat fuqarolarini chet el safarlariga chiqishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu esa barcha bolgarlar ham chet ellarga chiqa olmasligi va siyosiy erkinlikni iqtisodiy chegaralash bilan qoplanayotganligidan dalolat beradi.

Bolgariyada ichki hamda chet elga chiqish tizimini rivojlantirish uchun barcha turistik

resurslar. ya'ni tarixiy yodgorliklar. Qora dengiz sohillari bo'yi plyajlarida dam olish uchun imkoniyatlar hamda go'zal landshaftlar mavjud.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon bo'yicha turistik tashriflarning 10.3%i Sharqiy Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 3.5% ga ko'paygan.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

Мавзунини mustahkamlash uchun savollar:

1. Xalqaro turizm geografiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Jahonda birinchi o'nlikda turadigan davlatlarga qaysi davlatlar kiradi?
3. Jahonda birinchi o'nlikda turadigan davlatlarga keladigan sayyohlar haqida nimani bilasiz?
3. Xalqaro turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi nima?
4. Dunyo mintaqalari bo'yicha xalqaro turizm harakatlariga misollar keltiring?

Ма'руза 7: Америка мamlakatlarida xalqaro turizm geografiyasi

REJA:

1. Америка mintaqasi turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi
2. Америка Qo'shma Shtatlari turizmi
3. Kanada davlatining turizmi
4. Meksika davlat turizmi
5. Braziliya davlatining turizmi
6. Chili mamlakati turizmi
7. Argentina mamlakatining turizmi

Tayanch iboralar va so'zlar: *Amerika mintaqasi, Tinch okeani mintaqasi, turizm harakatlari, Turistik regional, Xalqaro turizm, axoli badligi, Dunyo mintaqalari, turistlarni sug'urtalash, imtiyozlar, qidiru-qutqaruv, xizmatlari, tibbiy xizmat, turizm soxasidagi suboektlar vazifasi*

Bu bo'limda Amerika hamda Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi. Amerika mintaqasi turizm markazlari. Shimoliy. Markaziy. Janubiy hamda Karib orollari mamlakatlari xalqaro turizm iqtisodiyoti. Amerika Qo'shma SHtatlari xalqaro turizm faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. AQSH va Kanada milliy parklari. shuningdek. Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari turizm iqtisodiyoti. Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari turizm iqtisodiyoti. Okeaniya va Janubiy Osiyo mamlakatlari turizm iqtisodiyoti. Amerika va Osiyo mintaqasi mamlakatlari geografik joylashuvi. mamlakatlarning xalqaro turizmni rivojlantirishga qaratilgan siyosatlarini. xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalari. tarixi. madaniyati. milliy bog'lari va qo'riqxonalari tabiati. manzaralari. bu mintaqalarga qilinayotgan xorijiy tashriflar va tushimlar tahlili. mustaqil respublikamiz bilan iqtisodiy. siyosiy va madaniy sohalarida olib borilayotgan munosabatlarini yoritish ko'zda tutilgan.

1. Amerika mintaqasi turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi

Amerika mintaqasi xorijiy turistik tashriflar bo'yicha Yevropa mintaqasidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Butunjahon turizm tashkiloti tarkibiga kiruvchi turizm hududlari Shimoliy Amerika. markaziy Amerika. Janubiy Amerika va Karib orollari hisoblanadi. Mintaqa bo'yicha xorijiy tashriflarning yarimi AQSH va Kanada mamlakatlariga to'g'ri keladi. Amerika Qo'shma SHtatlari. Kanada va Meksika mamlakatlari Amerika mintaqasining asosiy turizm markazlari hisoblanib. ularning turizm bozorini asosiy qismini Shimoliy Amerika mamlakatlari ta'minlaydi. Mintaqada xalqaro turistik tashriflar va xalqaro turizm tushumlari bo'yicha birinchi o'rinda Amerika Qo'shma SHtatlari turadi. Mintaqaga qilingan xorijiy tashriflarning 35-50%i. xalqaro turizm tushumlarining 50-60%i Amerika Qo'shma SHtatlari mamlakatiga to'g'ri keladi. Mintaqa bo'yicha ikkinchi o'rinda Karib orollari turadi. bu hududga yiliga 12-15 million turistlar tashrif buyuradi. Janubiy Amerika mamlakatlarida nisbatan turizm kam rivojlangan. umumiy turistik tashriflarning 9-10%i to'g'ri keladi. Bunga asosiy sabab siyosatning beqarorligi. va iqtisodiy rivojlanishning notekisligi bo'lishi mumkin.

Amerika mintaqasiga qilingan xorijiy tashriflarning 0.9%i Afrika. Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlariga to'g'ri keladi. 5.5%i Sharqiy Osiyo va Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlariga. 9.0% esa Yevropa mintaqasi mamlakatlariga. 85.0%i Amerika mintaqasi mamlakatlariga to'g'ri keladi.

Amerika mintaqasi 1970 yilda jahon turizm tashriflarining 25.5% ni tashkil qilgan bo'lsa. keyingi yillarda turizm harajatlarining o'sishi sababli muntazam ravishda pasayish kuzatilgan. 1985 yilga kelib bu ko'rsatkich jahon turistik tashriflarining 20.17% ni tashkil etgan. 1985-1995 yillarda. turistik tashriflar bo'yicha o'sish kuzatilmagan. 1996 yilga kelib 19.5% ga tushib ketgan. 2000-yilga kelib xalqaro turistik tashriflar 10.8% ga o'sgan. lekin jahon bo'yicha 18.62% ni tashkil etgan. 2001 yilda 6.1% ga. 2002 yilda esa 4.4% ga pasayish kuzatilgan.

Amerika mintaqasida xalqaro turistik tashriflardan tushgan tushim 2000 yilda 121 mlrd. 800 million AQSH dollarini tashkil etgan. Oldingi yillarga nisbatan 14.4% ga o'sish kuzatilgan. 2001 yilda bu ko'rsatkich 1.6% ga. 2002 yilda esa 4.8% ga pasayish kuzatilgan.

Amerika mintaqasi 2002 yilda xalqaro turistik tashriflarni 16.3%ni tashkil etgan. 2002 yilda bu mintaqaga 114.9 mln. turistlar tashrif buyurgan: Shimoliy Amerika hududiga 81.6 mln. Karib orollariga 16.1 mln. Markaziy Amerikaga 4.7 mln. Janubiy Amerika hududlariga 12.5 mln. 2001 yil 11 sentyabr Amerika Qo'shma SHtatlari sodir bo'lgan voqealar ta'sirida 2001 yil 2000 yilga nisbatan xorijiy turistlar tashrifi 6.1%ga. 2002 yilda 2001 yilga nisbatan 4.4%ga kamaygan. Amerika mintaqasining hamma hududlarida 2002 yilda xorijiy tashriflarning kamayishi kuzatilgan. Faqatgina

Xalqaro turizm daromadlari miqdori bo'yicha Urugvay 43.3. Braziliya 16.0%. Kanada 10.0%. Chili 8.2%. AQSH 7.4%. Puerto-Riko 8.9%. Kuba 3.5%. Dominikan respublikasi 2.2%. Kosta-Rika 1.6% ga 2001 yilga nisbatan 2002 yilda pasayish kuzatilgan. Meksika mamlakatida 5.4%ga 2001 yilga nisbatan 2002 yilda o'sish kuzatilgan. Umuman mintaqa bo'yicha 2002 yilda 2001 yilga nisbatan 6.5% ga pasayish kuzatilgan.

2. Amerika Qo'shma SHtatlari turizmi

Amerika Qo'shma Shtatlari Shimoliy Amerika qit'asida joylashgan bo'lib. maydonining kattaligi bo'yicha dunyoda Rossiya, Kanada va Xitoydan keyingi to'rtinchi o'rinda turadi. Uning maydoni 9.4 mln. kv.km.ga yaqin bo'lib. hududiy jihatdan uch qismdan iborat.

1. Asosiy qism Butun hududning 84% ni egallaydi. Sharqdan Farbga 4.5 ming. SHimoldan Janubga sal kam uch ming km. ga cho'zilgan. SHimoldan Kanada. Janubdan Meksika. Sharqdan Atlantika va Farbdan Tinch okeani bilan o'ralgan.

2. Alyaska hamda Aleut orollari. Mamlakat hududining 16.0% ni tashkil etadi. Alyaska Kanadaning Shimoliy - Farbiy qismi bilan chegaradosh.

3. Gavayi orollari 24 oroldan iborat arxepelag bo'lib. mamlakat hududining 0.2% ni tashkil etadi.

AQSH ning geografik o'rni tarixning barcha bosqichlarida mamlakat turizm industriyasini rivojlanishiga qulaylik yaratgan.

Bu. avvalo dengiz chegaralarida ajoyib tabiiy bandargohlarning mavjudligi. ayniqsa. mamlakat hududining Atlantika va Tinch okeanlari orasida joylashganligi bilan bog'liq. Kanada bilan quruqlik chegaralari ham tabiiy chegaralar. ya'ni daryo va ko'llar orqali o'tiladi savdo va turizm aloqalarining rivojlanishiga qulayliklar tug'diradi.

AQSH da turizm asosan Florida, Kaliforniya va Nevada shtatlarining Shimoliy Sharqiy qismida rivojlangan. Ularning iqlimi yozda dengiz bo'yida dam olish hamda sportning qishki turlari bilan shug'ullanish uchun qulay.

Shimoliy Amerika hududi tarixiy yodgorliklarga boy bo'lmasa ham. ularning aksariyat qismi aynan shu hududda joylashgan. Ayrim eski shaharlarda ko'chalar XVIII asrda qanday bo'lgan bo'lsa. o'sha holatda saqlanib qolgan bu. albatta. xorijiy turistlarni qiziqishlarini ortiradi. Ammo bu hudud birinchi navbatda. N'yu-York shahri boshChiligida zamonaviy madaniyat va biznes markazi sifatida dunyoga mashhur. Plyajlar tizimi Shimoliy hudud Keyp – Kodedan boshlanib. Janubiy hudud Keyp – Xatterasgacha davom etadi. qirg'oqlar esa qum tepaliklardan iborat. Long – Aylend Shimoliy qirg'oqlari parus sporti bilan shug'ullanish uchun qulay. Masalan: N'yuport rayonida N'yu-York badavlat aholisining shaxsiy plyajlari mavjud bo'lgan ikkinchi uylari joylashgan. MEN lar shtati qirg'oqlari toshlardan iborat bo'lganligi sababli. u yerlarda turizm kam rivojlangan. Bu yerda joylashgan Arkadiya milliy bog'i o'z mavqeiga binoan mamlakatning ikkinchi bog'i hisoblanadi va bir yilda to'rt million turistlarni qabul qila oladi. Florida shatatida turizm avvalgi asrning 70-yillarida qishki dam olish zonasi sifatida rivojlana boshlagan. Boy amerikaliklarning aksariyat qismi bu yerga qishda kelib dam olish uchun uylar qurganlar. ammo XX asrning 20 – yillarida shtatda katta o'zgarishlar bo'ldi va bu hudud ulkan turistik markazga aylandi. 1987 yilga kelib yiliga 34 mln. turistlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shtatda turizmdan keladigan daromad miqdori 40 mlrd. dollardan oshib ketdi. Shu bilan birga 1.28 mln. aholi ish bilan ta'minlandi. Mayyami- Bich ulkan ko'ngil ochar tadbirlari bilan dunyoda nom qozongan. SHimolda elita villalariga boy Palm – Bich joylashgan. g'arbiy qirg'oqda esa fort Meyers va Sankt–Petesburg oralig'ida yuqori sifatli plyajlar mavjud. Shtatning ko'zga tashlanadigan joylari – bu. Disneylend va Kosmik tadqiqotlar markazi hisoblanadi. Florida shtatida katta avtomobil' yo'l tizimi mavjud. SHu sababli ham bu yerga avtoturistlarning katta qismi tashrif buyuradi.

Floridaning tranzit turizmi uncha katta emas. Mayyami porti Amerika kruiz yo'lovchilari uchun darvoza hisoblanadi va bir yilda bir millionga yaqin turistlarni o'tkazadi. AQSH shtatlari orasida Kaliforniya shtati xorijiy turistik tashriflar bo'yicha yetakchilik qiladi. Aholining 90% dan oshig'i Tinch okeani qirg'oqlarida joylashgan shaharlarda yashagani uchun. bu yerda bir kunlik ichki turizm yaxshi rivojlangan va shunga qaramasdan Kaliforniya AQSH xalqaro turizmining asosiy markazlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kaliforniya qirg'oqlari turli – tuman tabiat manzaralarga boy. Bu yerda qumlik plyajlar va qoyalar mavjud. Shtatning ichki qismida esa dam olish va sayohat qilish uchun ko'plab go'zal joylar bunyod qilingan. Bu yerda yiliga uch millionga yaqin mehmonlarni qabul qila oladigan mamlakat milliy parki – Yosemite parki bunyod etilgan.

Los – Anjeles shtatning asosiy turistik markazi hisoblanadi. Bu yerda dunyoga mashhur

Gollivud kinostudiyasi va bolalar oromgohi Disneylend mavjud.

Kaliforniyaning boshqa yirik turistik shaharlariga San – Diego va San – Frantseskolar ham kiradi.

Kaliforniya yaqinida AQSHning boshqa muhim turistik markazlari Nevada shtatining Las – Vegas shahri va Arizona shtatining Grand – Kan'on shahri joylashgan. Yiliga 16.2 million sayyohlar uni ziyorat qilishga tashrif buyuradilar. Ular yiliga 8.6 mlrd. dollar foyda keltiradilar. Har yili AQSH mamlakati bu shaharlarda mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishga katta mablag' sarflaydi. Bu yerda dunyoning ulkan otellari «N'yu-York» va «MGM» otellari joylashgan. Grand – Kan'on Kolorado daryosi bo'yidagi vodiya joylashgan. U mashhur milliy park sifatida yiliga 3.5 million mehmonlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. AQSH ning boshqa shtatlari ham ko'zga tashlanadigan turistik maskanlarga boy. Masalan: Texasda har tomonlama qulay go'zal plyajlar mavjud bo'lsa. X'yustonda kosmik tadqiqotlar markazi mavjud. Vayoming. Kolorado. Montana. Yuta Shtatlari juda boy turistik resurslarga ega.

CHet el mehmonlari ikkita asosiy guruhga bo'linadi: qo'shni mamlakatlar Meksika va Kanadadan keladigan mehmonlar hamda okean ortidagi mamlakatlardan keladigan mehmonlar. Birinchi guruh umumiy tashrif buyuruvchilarning 60-62% ni tashkil qiladi. Biroq N'yu-York Gavaya orollari va Kaliforniya ham ular uchun muhim turistik markaz bo'lib hisoblanadi. Qit'alararo mehmonlarning asosiy qismi AQSHga Yevropa va Osiyo mamlakatlaridan tashrif buyuradilar. Yevropa qit'asidan tashrif buyuruvchi sayohatchilarning 2.5 mln.ga yaqinini Buyuk Britaniyaliklar. Osiyo qit'asidan keladigan mehmonlarni 3.0-3.5 mln.ga yaqinini Yaponiyalik mehmonlar tashkil qiladi.

Yaponiyalik mehmonlarning 2/3 qismi ko'proq Tinch okeani orollari – Gavay va Guamga tashrif buyuradilar.

Qit'alararo mehmonlar mamlakat bo'ylab sayohati vaqtida San – Frantseskoga yaqin joylashgan rayon – Silikon vodiysiga ko'proq tashrif buyuradilar. chunki Silikon vodiysi yuqori texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy markazi hisoblanadi. SHu sababli u ko'proq Yaponiyalik turistlarni jalb qiladi. CHet el mehmonlarining tashrifi quyidagicha: ularning ko'pchilik qismi N'yu-Yorkka to'g'ri keladi va 17.9% ni tashkil qiladi. undan keyin Tinch okeani qirg'oqlari 19.5%. Florida o'zining qirg'oq bo'yi maskanlari bilan birgalikda 18.5% ni tashkil qiladi. AQSH aholisi sonining ko'pligiga qaramasdan mamlakatdan chetga aholining juda kam qismi sayohatga chiqadi. Masalan. har yili chet davlatlarga 50-70 million kishi sayohatga chiqadi. ularning asosiy qismi qo'shni mamlakatlar Meksika va Kanadaga tashrif buyuradilar. CHetga chiqish turizmining 25%i Yevropa mamlakatlariga. 17%i Uzoq Sharqqa va 10%i Karib orollariga to'g'ri keladi.

Amerikaliklarning qisqa dam olish ta'tillarining 51%i ikki yoki undan kamroq kunni tashkil qiladi. Amerika aholisi orasida ko'llar va qirg'oq bo'yida joylashgan kurort hamda dam olish zonalariga qilinadigan tashriflar soni ortib bormoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlari mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon bo'yicha turistik tashriflarning 6.0% Amerika Qo'shma Shtatlari mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 6.7%ga kamaygan. Amerika mintaqasi bo'yicha tashriflarning 36.5%i bu mamlakatga to'g'ri kelgan.

Xalqaro turizm tushimlari bo'yicha. jahon turizm daromadlarining 14.0%i. Amerika mintaqasi tushimlari bo'yicha 58.2% ni tashkil qilgan. Xalqaro turizm daromadlari bo'yicha jahonda birinchi o'rinni egallagan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 7.4%ga kamaygan.

2001 yil 11-sentyabrda AQSHda sodir etilgan terroristik xurij turizm va transport sohasida yangi tarkibiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. SHuning uchun ham AQSH turizm industriyasining o'sish darajasining pasayishi kuzatilgan. Bu esa. amerikalik turistlarni huddi Yevropadagi singari ichki turizm imkoniyatlaridan foydalanishga undaydi va xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor berilib. yangi institutsional o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. AQSHda YaMM miqdori 67.4 mlrd. dollar. jon boshiga 25850 dollarga to'g'ri keladi.

AQSH O'zbekiston Respublikasi bilan 1992 yil 19 fevraldan diplomatik munosabatlar o'rnatgan va ikkala davlatda ham elchixonalar ochilgan. AQSH O'zbekistonning eng muhim iqtisodiy hamkori hisoblanadi. O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va gumanitar islohotlar yo'lida dadil borishida hozirgi davr izchil bosqich sifatida qaralar ekan. Amerikalik hamkorlar tajribasi bizga qo'l keladi. Amerikadan o'rganishimiz mumkin bo'lgan sohalar bir talay, chunki bu davlat uzoq tarixiy davr mobaynida bozor iqtisodiyotini rivojlantirish borasida katta va boy tajribaga ega. biz esa «Amerikani yangidan kashf etib o'tirmasdan». uning ijobiy saboqlarini har tomonlama qunt bilan o'rganishimiz va eng muhimi, hayotga tadbiiq etishimiz zarur. Ana shunda boshlangan siyosiy va iqtisodiy islohotlarimiz samarasi yanada yuqori bo'ladi

Kanada davlatining turizmi

Kanada Shimoliy Amerikada joylashgan davlat bo'lib, hududining kattaligi jihatidan Rossiyadan keyingi o'rinda turadi. Aholisi 29.0 million kishi. Eng yirik shaharlari Ottava, Monreal, Vankuver, Toronto. Aholisining asosiy qismi Yevropadan ko'chib kelganlarning ajdodi bo'lib, anglo – kanadaliklar umumiy aholining 40% ni tashkil etadi. Franko – Kanadaliklar aholining 27%ni, etnik guruhlar 33% ni, tub xalq xindular 390 ming kishini, eskimoslar esa 28 ming kishini tashkil qiladi. Rasmiy tili ingliz va frantsuz tillari. Kanada iqtisodiy jihatdan jahonning eng yuksak rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi. Yalpi milliy mahsulotning hajmi bo'yicha sanoati rivojlangan davlatlar ichida mustahkam yettinchi o'rinni egallaydi. «Katta yettilik»lar guruhiga kiradi. Kanadada Temir yo'llar, avtomobil' yo'llar nihoyatda rivojlangan. Asosiy portlari: Galifaks, Kvebek, Sent–Djons, Vankuver, Tander–Bey, Toronto.

Kanada davlati ikkinchi jahon urishidan keyin turizm industriyasi bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Bular sayohat, turizm, sport va faol dam olish, san'at va madaniyat ushbu yo'nalishlarning har birida davlat tomonidan ta'sis etilgan, agentliklar u yoki bu ma'suliyatni zimmasiga olgan holda faoliyat olib boradilar. Ular bir – birlariga yordam beradilar va bir – birlari bilan ma'lum bir majburiyatlar asosida ish olib boradilar.

Urushdan keyingi o'n yilliklarda Kanada hukumati mamlakat ichki zahiralari birinchi navbatdagi vazifalarini bajarish uchun o'z imkoniyatlarini ishga solib bir qator umum- xalq madaniy tadbirlarini ta'sis qildilar. 1950 yillar jismoniy tarbiyaga, 60-yillarda yoshlar bilan ishlash va ularni muxofazasi qilishga, 70–yillarda madaniyat va madaniyatlararo muloqotlar, 1980-1990–yillarda yuqoridagi mavzularni birlashtiruvchi oila va nikoh mavzulariga e'tibor qaratilib, bir qancha dasturlar hayotga tadbiiq etildi.

Kanadada bir qancha katta ko'ngil ochar milliy parklar va 20 dan ortiq milliy – tarixiy parklar va manzillar bunyod etilgan. Kanadaning turizm industriyasi AQSH turizmini eslatadi. Turistlar uchun Ontario va Kvebek, Alberto va Britaniya Kolumbiyasi yuqori mavqega ega. AQSH turizm bozorining 18.9 millionini kanadaliklar tashkil qiladi. Kanadalik turistlar AQSH ning janubiy hududida joylashgan yozgi va qishki kurortlariga, Meksika va Karib orollariga ko'proq qiziqishadi. Yevropa va Buyuk Britaniyaga Kanadaliklar asosan qarindosh va do'stlarini ko'rish uchun boradilar, bu kanadaliklarning 38%i dan ko'prog'ini tashkil qiladi. Kanadada xalqaro turizmida chet el turistlarining kelishi 1990 yillargacha turg'un holatda bo'lgan, 1990–2000 yillarda chet ellik turistlar tashrifida bir muncha o'sish kuzatilgan.

2001–2002 yillarda esa sezilarli darajada kamayish kuzatilgan. Masalan, 2001 yilda 2000 yilga nisbatan 7.5%ga, 2002 yilda 2001 yilga nisbatan 3.3%ga kamayish kuzatilgan. Xalqaro turizmdan kelib tushadigan tushimlar miqdori ham 2001 yilda 12.0%ga, 2002 yilda esa 10%ga pasayganligi kuzatilgan. AQSHdan keladigan turistlar soni ham yiliga 12.7 milliondan 11.8 millionga tushgan. Osiyo va boshqa mintaqalardan tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar soni sezilarli darajada kamaygan. Kanada turizm bozorini asosan Buyuk Britaniya, Frantsiya va AQSH mamlakatlari ta'minlaydi.

Kanada mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlili natijalarini ko'rsatishicha, jahon bo'yicha turistik tashriflarning 2.8%i, Amerika mintaqasi bo'yicha 17.4% Kanada mamlakatiga to'g'ri keladi, 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 1.9% ga ko'paygan.

Xalqaro turizm tushimlari bo'yicha jahon turizm daromadlarining 2.0%i. Amerika mintaqasi tushumlari bo'yicha 8.4% ni tashkil qilgan.

2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 10.0% ga pasayganligi kuzatilgan.

Kanada mamlakatida har bir xorijiy tashrif 557 AQSH dollarini tashkil qilgan. bu ko'rsatkich Amerika mintaqasi bo'yicha 995 AQSH dollarni. Amerika Qo'shma SHTatlarida esa 1588 dollarni tashkil etgan. Kanada YaMMning hajmi 646 mlrd. AQSH dollari. jon boshiga hisoblaganda 23870 AQSH dollarini tashkil etadi. YaMMning 6.4%ni xalqaro turizm tushimlari tashkil qiladi.

Kanada mustaqil O'zbekiston respublikasini birinchilar qatorida 1991 yil 1–dekabrda tan oldi va 1992 yil 7–apreldan diplomatik munosabatlar o'rnatildi. O'zbekiston va Kanada o'rtasida siyosiy. iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlik shartnomalari mavjud.

4.Meksika davlat turizmi

Meksika davlati Shimoliy Amerikaning Janubiy-Farbiy qismida joylashgan. Hududi 1958.2 ming kv. km. ga teng Tinch okeani va Kaliforniya qo'ltig'idagi qator orollar ham uning hududiga kiradi. Aholisi 94.0 mln. kishidan iborat. Poytaxti Mexiko. Mexikoda 20 mln. dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Yirik shaharlari Gvadalajara. Monterrey. Puebla. Leon. S'yudad–Xuarez. Aholisining 55% ispan-hind metislari. (1910-yilning 16 sentyabrigacha Ispaniya mustamlakasi bo'lgan. 16 sentyabr Meksikaning «milliy bayrami» hisoblanadi. chunki shu yili Ispaniya asoratidan holi bo'lib mustaqil rivojlanish yo'liga o'tdi). 29% mahalliy xindular va yevropaliklarning ajdodlaridan iborat. Rasmiy tili- ispan tilidir.

Meksikani tog'lar mamlakati. deb atash mumkin. chunki Meksika hududining yarmi dengiz sathidan 1000 m. balandlikda joylashgan. Uning tabiiy boylik zahiralari juda katta bo'lib. bu sohada Lotin Amerikasida birinchi o'rinda turadi. SHuning uchun ham turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha katta imkoniyatlarga ega mamlakat.

Meksika qadimiy va boy madaniyatga ega bo'lgan mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi. U yerda dunyoga mashhur asori – antiqalar nihoyatda ko'p. muzey va kutubxonalarda qadimiy ko'rgazma va qo'lyozmalar saqlanib qolgan.

Meksikada avtomobilsozlik. elektronika va elektrotexnika yetakchi sohalardan hisoblanadi. Mamlakatda yiliga 390-400 ming avtomobil' ishlab chiqariladi. Mamlakatda transport vositalari yaxshi rivojlangan. 26.5 ming km. temir yo'l. 237 ming km. avtomobil' yo'llari mavjud.

Dengiz flotlari Tinch va Atlantika okean qirg'oqlarida joylashgan. Mamlakatda 53 ta aeroport bo'lib. Meksika shaharlari va yetakchi davlatlar bilan havo aloqalari o'rnatilgan. Yalpi milliy mahsulot 728.2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. Meksikada turizm sohasi faoliyati ham ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan chet el valyuta tushumlarining 10%i turizm sohasiga to'g'ri keladi.

Xorijiy turistik tashriflar bo'yicha Meksika davlati Amerika qit'asida AQSH va Kanadadan keyingi uchinchi o'rinda turadi. 2000 yilda Meksikaga 20 million 641 ming xorijiy turistlar tashrif buyurgan. bu ko'rsatkich 1999 yilga nisbatan 5.0% o'sishni tashkil etgan. 2001 yilda 2000 yilga nisbatan xorijiy turistlar tashrifi 4.0% ga kamaygan.

2002 yilda 19.7 mln. chet el turistlari tashrif buyurgan 2001 yilga nisbatan 0.7% ga tashriflar sonini kamayishi kuzatilgan.

Meksika turizm bozorini asosan AQSH. Kanada. Yevropa Ittifoqi davlatlari. Markaziy Amerika. Osiyo va Tinch Okeani hududidagi mamlakatlar ta'minlaydi.

Meksika aholisining turmush tarzi nihoyatda notekis. Barcha daromadlarning 45%i 10% aholi qo'lida to'plangan. 69% aholi nochor ahvolda yashaydi. Meksika mamlakatida umuman. ko'pgina ijtimoiy masalalar o'z yechimini kutmoqda. SHuning uchun ham mamlakatda chetga chiqish va ichki turizm kam rivojlangan. Biroq mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar va turistik resurslar mavjud.

Meksika mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon turistik tashriflarning 2.7%i. Amerika mintaqasiga qilingan tashriflarning 17.1%i Meksika mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar

tashrifi 0.7% ga kamaygan.

Xalqaro turizm tushimlari bo'yicha jahon turizm daromadlarining 1.9%i. Amerika mintaqasi tushimlari bo'yicha 7.8% ni tashkil qilgan.

2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 5.4% ga o'sganligi kuzatilgan.

Har bir xorijiy tashrif Amerika mintaqasida o'rtacha 995 AQSH dollarini tashkil qiladi. Meksika davlatida esa 2002 yilda har bir xorijiy tashrif 452 AQSH dollarini tashkil etgan. Bu Meksikada turizm industriyasini, servis xizmatlarini yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Meksika O'zbekiston respublikasini 1991 yil 26- dekabrda tan oldi va 1992 yil 16 martidan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Ikkala mamlakat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar yo'lga qo'yilmoqda

Braziliya davlatining turizmi

Braziliya Janubiy Amerikada joylashgan davlat. Braziliya hududining kattaligi 8.5 mln. kv. Km., aholisining soni 162.6 mln. kishi. Lotin Amerikasidagi eng yirik va iqtisodiy jihatdan qudratli davlat hisoblanadi. Amerika qit'asidagi AQSH va Kanadadan boshqa davlatlar Lotin Amerikasi deb yuritiladi. Bu mamlakatga xos muhim xususiyat shundan iboratki, bu mamlakatda portugaliya tili davlat tili hisoblanadi, va hollanki, Lotin Amerikasidagi boshqa davlatlarda asosan ispan tili davlat tili hisoblanadi. Braziliya 1500 yili portugaliyaliklar tomonidan kashf etilgan. XIX asrga qadar Portugaliya mustamlakasi bo'lgan.

Braziliya «qizil daraxt» degani. 1822 yilda mustaqil imperiyaga aylandi. 1889 yili respublika deb e'lon qilinadi. Bozor munosabatlari asosida rivojlanish yo'lini tanlab olib, muhim islohotlar o'tkazildi. Yirik shaharlari Braziliya 1.6 mln., San-Paulu 15.4 mln., Rio – de Janeyro 9.8 mln., Belu-Orizonti 2.1 mln., Sal'vador 2.1 mln., Fortaleza 1.5 mln. kishi istiqomat qiladi.

Braziliya va mintaqadagi boshqa davlatlarning yana bir muhim xususiyati shuki, ularning iqtisodiyoti xorij sarmoyasiga, birinchi navbatda, AQSH ga bog'liq. SHu sababli braziliyaning tashqi qarzi 125 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. Braziliya bu qarzni to'lash u yoqda tursin, xatto uning foizini to'lashga ham qodir emas.

Mamlakatda 1980 yillardagina bir qancha ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi, xorij sarmoyasiga qaramlikdan chiqish chora-tadbirlari ko'rildi va asta – sekinlik bilan industrializatsiya sari yo'l tutildi, chunki mamlakat iqtisodi asosan agrar sohaga asoslangan edi.

Hozirgi kunda Braziliya mintaqada iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan davlatga aylandi. Yalpi ichki mahsulot miqdori 375 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, o'ninchi o'rinni egallaydi. YaMM miqdori 886.3 mlrd. AQSH dollar, jon boshiga esa 5580 dollarni tashkil etadi.

Braziliya kofe yetishtirish bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi.

Mamlakatning asosiy savdo sheriklari: AQSH, Farbiy Yevropa mamlakatlari, OPEK, ya'ni neft qazib oluvchi 11 davlat, Yaponiya, Kanada va Lotin Amerikasidagi davlatlardir.

Transport vositalari ichida avtomobil' asosiy bo'lib, 1.7 mln. km. avtomobil' yo'li mavjud. Temir yo'llarning uzunligi 30.6 ming km. Asosiy dengiz portlari – Paramaribo, Kayenna, Fortaleza, Natal, Rio-de –Janeyro, Sal'vador, Vitoriya va boshqalar.

Mamlakat hududining 60%ni o'rmonlar tashkil etadi. Qimmatbaho turdagi daraxtlar zahirasi bo'yicha Braziliya jahonda birinchi o'rinda turadi, ammo ulardan unumli foydalanilmaydi. Aholining 42%i xizmat sohalorida faoliyat ko'rsatadi.

Braziliya turizm sohasi bo'yicha juda katta imkoniyatlarga ega, lekin mamlakatda turizm juda sekinlik bilan rivojlanmoqda. Braziliya iqtisodiyotida xizmat sohalari nufuzi ortib borayotgan bo'lsa ham, turizm va u bilan bog'liq tarmoqlar sust rivojlanmoqda. 2002 yilda mamlakatga 3.8 mln. ga yaqin xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Lekin 2001 yilga nisbatan 20.7% ga tashriflar soni kamaygan.

O'rta darajada rivojlangan Braziliya iqtisodiyotida bir qancha muammolar mavjud. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu asosan tashqi qarzlarni bo'lib, ular yildan yilga oshib bormoqda. Mamlakatdagi boyluk nihoyatda notekis taqsimlangan, 10% aholi qo'lida 90% boyluk to'plangan, 40 mln. aholi esa qashshoqlikka mahkum etilgan, ishsizlar soni 10 mln. dan ortiq kishini tashkil etadi, 23 mln. aholi savodsizdir.

SHuning uchun ham mamlakatda turizm industriyasi sust rivojlanmoqda.

Braziliya mamlakati xalqaro turizm harakatlarini iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon turistik tashriflarning 0.54% ni. Amerika mintaqasiga qilingan tashriflarning 3.3%i Braziliya mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi – 20.7% ga kamaygan. Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha. jahon turizm daromadlarining 0.65%i. Amerika mintaqasi tushumlari bo'yicha 2.7% ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori – 16.0% ga kamayganligi kuzatilgan. Har bir xorijiy tashrif Braziliya mamlakatida 825 AQSH dollari tashkil qilgan. Jahon bo'yicha bu ko'rsatgich 18.2% ga yuqori bo'lgan. Amerika mintaqasi bo'yicha 20.6%ga past bo'lgan.

Braziliya turizm bozorini asosan AQSH. Buyuk Britaniya. Kanada. Germaniya. Meksika. Frantsiya. Yaponiya. Skandinaviya mamlakatlari ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi bilan Braziliya federativ Respublikasi o'rtasidagi munosabatlar endigina shakllanmoqda. Bu mamlakat bizning respublikamizni 1992 yilning 26 yanvar kuni tan olgan bo'lsa. 1993 yilning aprelidan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Dastlabki Braziliya sayyohlari O'zbekistonga tashrif buyurganlar.

Braziliyaning futbol terma jamoasi besh marta jahon chempioni bo'lgan (1958: 1962: 1970: 1994: 2002). Bunday yuksak natijaga dunyoning xech qaysi mamlakati terma jamoasi erishgan emas. Braziliya fuqarosi. futbol qiroli Peleni kim bilmaydi deysiz. ko'p futbolchilarimiz Peleday futbolchi bo'lishni orzu qilishadi.

O'z davrida bozorning serqirra yo'lini bosib o'tgan va o'tayotgan bu mamlakat tajribasini o'rganish foydadan holi bo'lmaydi. Braziliya tajribasidan shunday xulosa chiqarish mumkinki. bozor munosabatlariga o'tishning o'zi barcha muammolarni hal etmas ekan. uzoq yillar bozor yo'lidan borishiga qaramasdan. bu davlatda yuzaga kelgan ayrim muammolar hali tugatilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Braziliya bilan ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlikni yanada kuchaytirishdan manfaatdor.

6. Chili mamlakati turizmi

Chili Janubi - Farbiy Amerikada joylashgan davlat. Hududi 756.626 kv.km. Yirik shaharlari: Sant'yago (4.3 mln.). Vin'ya- del'-Mar (302 ming). VAl'paraiso (276 ming). Tal'kauano (221 ming). Konseps'on (330 ming). Aholisi 14.2 mln. kishiga yaqin. shundan kreollar 68%. yevropaliklar 30%ni. 2.0%ni xindular tashkil etadi.

Chili hududi F.Magellanning ekspeditsiyasi tomonidan 1520 yilda ochilgan va Ispaniya mustamlakasiga aylantirilgan. XIX asrning boshlarida mustaqillik uchun kurash kuchaydi va 1810 yilning 18 sentyabrda mustaqil Chili davlati yuzaga keldi. Boshqa Lotin Amerikasi davlatlaridan farqli ravishda bu yerda nisbatan siyosiy mo'tadillik hukmron bo'ldi. 1973 yil 11 sentyabrda Sal'vador Al'ende boshliq hokimiyat harbiy yo'l bilan ag'darildi. hokimiyat tepasiga A.Pinochet (1973-1989 yy.) boshChiligidagi harbiy xunta keladi.

Siyosiy partiyalar faoliyati ta'qiqlanadi. Iqtisodiy sohada neoliberal tamoyillarga amal qilinadi. «Ochiq» iqtisodiy siyosat oqibatda yaxshi natijalar berdi. 1980-yillarning boshida «Chili mo'jizasi» to'g'risida gapira boshladilar. chunki aholining iste'mol darajasi o'rta miqyosda rivojlangan mamlakatlar qatoriga yetib olgandi.

Olib borilgan siyosat tufayli Chili Lotin Amerikasidagi eng rivojlangan davlatlardan biriga aylandi. Mamlakat erishgan yutuqlarda liberal siyosat bilan birga xorij investitsiyalari ham katta ahamiyat kasb etdi. Xorijiy sarmoyalarning 34% xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirildi. Iqtisodiy faol aholining 60.5% savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat ko'rsatmoqda.

YaMM 97.7 mlrd. AQSH dollar. jon boshiga 7.010 AQSH dollarini tashkil etadi. Temir yo'llar uzunligi 7.766 km.. avtomobil' yo'llar uzunligi 79025 km.. ichki daryo yo'llarining uzunligi esa 725 km. asosiy dengiz portlari: Ikike. VAl'paranso. Asosiy savdo sheriklari AQSH. Yaponiya. Buyuk Britaniya. Germaniya. Braziliya. so'nggi yillarda Yangi industrial mamlakatlar va asosan XXR bilan savdo-sotiq tobora avj olmoqda. Mamlakatda ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan. qashshoqlik masalasi keskin muammo bo'lib turibdi. 44% aholi kambag'allik darajasida yashaydi.

Xalqaro va ichki turizm sust darajada rivojlanmoqda. 2000 yilda bu mamlakatga 1.7 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgani kuzatilgan. 1999 yilga nisbatan 6.0% ga o'sish kuzatiladi. Lekin

2002 yilda 1.4 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. 2000 yilga nisbatan 2001 yilda 1.1% ga. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda 18.0% ga xorijiy turistlar tashrifi kamaygan.

Bu keltirilgan misollar mamlakatda turizm sohasiga yaxshi e'tibor qaratilmaganligi natijasi bo'lsa kerak.

Chili mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon turistik tashriflarning 0.20%i. Amerika mintaqasiga qilingan tashriflarning 1.2%i Chili mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi – 18.0% ga kamaydi.

Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha. jahon turizm daromadlarining 0.15%i. Amerika mintaqasi tushumlari bo'yicha 0.6% ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yil daromadlar miqdori 8.2% ga kamayganligi kuzatilgan.

Har bir xorijiy tashrif Chili mamlakatida 519 AQSH dollarini tashkil qilgan. jahon bo'yicha bu ko'rsatgich 23.2% ga. Amerika mintaqasi bo'yicha 48.0% ga past bo'lgan. Tahlil natijalari ham Chili mamlakatida turizm industriyasini sust rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Chili va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar 1994 yil 15 sentyabrda o'rnatilgan.

Mamlakat yalpi ichki mahsulotining 26% turli soliqlar hisobiga to'ldiriladi va Lotin Amerikasida eng yuqori hisoblanadi. Hukumat qadamba-qadam minimal ish haqini oshirib borayapti. Inflyatsiya darajasi ham ancha past. bu mamlakatda savodxonlik darajasi ancha yuqori - 89%. Ta'lim tizimi ham yaxshi rivojlangan. Yetakchi universitetlari: Chili. Val'parasio. Katolik.

Chili davlatining og'ir iqtisodiy ahvoldan chiqishi o'rnak bo'lishi mumkin. Uni o'rganish va amalda qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

Argentina mamlakatining turizmi

Argentina Janubiy Amerikaning janubi-Sharqida joylashgan davlat. Hududi 2.778.5 kv.km.. aholisi 34.3 mln. kishini tashkil etadi. Poytaxti Buenos – Ayres. yirik shaharlari: Rosario. Kordova. Mendosa. La-Plata. Aholining asosiy qismi Ispaniya. Italiya. Markaziy Yevropa mamlakatlaridan ko'chib kelganlarning avlod-ajdodi. Rasmiy tili – ispan tili hisoblanadi.

Bu mamlakat 1816 yilning 9 iyulida mustaqilligini e'lon qilgan. Argentinaning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti nihoyatda notekis. ayrim siljishlar chuqur inqirozlar bilan almashib turadi. Inqirozdan chiqish uchun hozirgi zamon texnologiyalariga asoslangan sanoat korxonalarini yaratish. xorij sarmoyasini ko'proq jalb etish. ishbilarmonlikni faollashtirish va boshqa yo'llardan foydalaniladi. Braziliya va mintaqadagi boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikka katta ahamiyat berildi. 1991 yilning martida Argentina. Braziliya. Paragvay va Urugvay davlatlari o'rtasida janubiy Amerika umumiy bozori «Merkosur» tashkil etildi. Ayni vaqtda bu davlat mintaqadagi mamlakatlar ichida eng rivojlanganidir. YaMM 207.8 mlrd. AQSH dollarni. jon boshiga esa 7900 AQSH dollarni tashkil etadi. bu ko'rsatgich qo'shni davlatlarnikidan deyarli ikki marta yuqoridir. Mamlakat turli – tuman tabiiy – iqtisodiy resurslarga boy. O'rmon boyliklari jihatdan Argentina Braziliya va Chilidan keyin mintaqada uchinchi o'rinni egallaydi. Bu tabiiy resurslar turizm sohasini rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ichki bozorda chet el kompaniyalari bilan erkin raqobat qilish imkoni yaratilgan. Natijada 1991 yilda o'sish sur'atlari 6.5% ga yetdi. SHunga qaramasdan mamlakatning tashqi qarzlari 62 mlrd AQSH dollarni tashkil qiladi.

Mamlakat taraqqiyotida transport vositalari hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Temir yo'llar uzunligi 34.1 ming km.. avtomobil' yo'llari uzunligi 54.6 miln. km. ni tashkil etadi. Yirik dengiz bandargohi Buenos-Ayres bo'lib. kemalarda dunyoning istalgan joyiga borish imkoni bor. 4 ta xalqaro avialiniya muntazam ishlab turadi. 10 ta xalqaro aeroport mavjud.

Bu davlatda savdo. ayniqsa. xorij mamlakatlari bilan keng yo'lga qo'yilgan. Savdodagi asosiy sheriklari Farbiy Yevropa mamlakatlari. AQSH. Yaponiya va Braziliya.

Mamlakatda 200 ta radiostantsiya. 60 dan ortiq telemarkazlar faoliyat ko'rsatadi. Davlat axborot agentligi va ikkita xususiy agentlik ish yuritadi.

Mamlakatda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta bo'lishiga qaramasdan. turizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmagan. Yalpi milliy mahsulotning 1.0%ga

yaqini turizm sohasiga to'g'ri keladi. Mamlakatda turizm industriyasini rivojlanishi sust darajada amalga oshirilmoqda. Mamlakatda 2000 yilda eng yuqori ko'rsatgichga erishilgan. ya'ni 2.9 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. 1999 yilga nisbatan 0.4% ga o'sish kuzatilgan. 2001 yilda 2000 yilga nisbatan 9.9% ga pasayish kuzatilgan.

Argentina turizm bozorini asosan Farbiy Yevropa mamlakatlari. Buyuk Britaniya. Germaniya. Avstraliya. Yangi Zelandiya. AQSH. Yaponiya. Kanada. Meksika. Frantsiya. Skandinaviya mamlakatlari ta'minlaydi.

Argentina mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon turistik tashriflarning 0.4%i. Amerika mintaqasiga qilingan tashriflarning 2.4%i Argentina mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 7.6% ga ko'paygan.

Xalqaro turizm tushimlari bo'yicha. jahon turizm daromadlarining 0.46%i. Amerika mintaqasi tushimlari bo'yicha 1.9%ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 2.0% ga o'sganligi kuzatilgan.

Har bir xorijiy tashrif Argentina mamlakatida 800 AQSH dollarni tashkil qilgan. jahon bo'yicha bu ko'rsatgich. 18.5%ga yuqori bo'lgan. Amerika mintaqasi bo'yicha 24.4% ga past bo'lgan. Argentina O'zbekiston Respublikasini 1991 yilning 24 dekabrda tan oldi va 1993 yilning 9 sentyabridan boshlab diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танкидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

Мавзунини mustahkamlash uchun savollar:

1. Америка mintaqasi turizm harakatlarining rivojlanishini aytib bering?
2. Америка Qo'shma Shtatlari turizmi qanday?
3. Kanada davlatining turizmida qanday o'ziga xos xususiyatlar bor?
4. Meksika davlat turizmiga misollar keltiring?
5. Braziliya davlatining turizmiga misollar keltiring ?

6. Chili mamlakati turizmiga misollar keltiring ?
7. Argentina mamlakatining turizmiga misollar keltiring?

Ma'ruza 5: Osiyo –Tinch okeani regionni mamlakatlari xalqaro turizm geografiyasi

Reja:

1. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi
2. Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining turizmi
3. Janubiy Osiyo mamlakatlari turizmi

Tayanch iboralar va so'zlar: *Osiyo –Tinch okeani regionni turizm harakatlari, Shimoliy-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo mamlakatlari, Turistik regional, Xalqaro turizm, axoli badligi, Dunyo mintaqalari, turistlarni sug'urtalash, imtiyozlar, qidiru-qutqaruv, xizmatlari, tibbiy xizmat, turizm sohasidagi suboektlar vazifasi*

Evropa va Amerika mintaqasidan keyin. Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari. turizm sohasida o'zining yuqori darajada tez rivojlanishi bilan ajralib turadi. Mintaqaning ayrim mamlakatlarida keyingi yillarda aniqrog'i 1990 yildan boshlab turizm industriyasi nihoyatda tez sur'atlarda rivojlana boshladi. Ayniqsa Xitoy va uning boshqa hududlari hisoblangan Gongkong. Makao va Tayvan' shuningdek. Malayziya. Tailand. Singapur. Koreya respublikasi. Avstraliya. Yaponiya. Indoneziya. Yangi Zelandiya. Filippin mamlakatlari turizm sohasida juda katta natijalarga erishib kelmoqda.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr Osiyo-Tinch Okeani hududidagi mamlakatlar iqtisodiyoti uchun o'ziga xos "sakrash" yillari bo'ldi. Ko'p yillar mobaynida o'rtacha va qoloq bo'lib kelgan davlatlar tarixan qisqa vaqt ichida ulkan yutuqlarga erishdi. 1970 yillar ohiriga kelib. Singapur va Gongkong Sharqiy Osiyodagi eng yirik moliya markaziga aylanishdi. 1980 yillar o'rtasiga kelib Gongkongning chet ellardagi to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalari 2 mlrd dollarni. Singapurda esa – 1 mlrd dollarni tashkil qildi.

Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mamlakatlarida hamma cohalar bo'yicha iqtisodiy hamkorlik va integratsiya jarayonlari kuchayib bormoqda. Deyarli 30 yil mobaynida janubiy va Sharqiy Osiy mamlakatlari uyushmasi ASEAN muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Unga Osiyodagi to'rtta «Ajdah»dan biri – Singapur. shuningdek. «Yangi to'lqin». yangi industrial mamlakatlar – Malayziya. Indoneziya. Tailand. Bruney va Filippin mamlakatlari kiradi.

Ushbu guruh doirasida o'zaro hamkorlik va integratsiya jarayonlarini amalga oshirib hamma sohalar bo'yicha iqtisodiy o'sish va rivojlanishga erishmoqdalar.

Turizm sohasida mintaq bo'yicha Xitoy. Gonkong. Indoneziya. Malayziya. Singapur. Tailand dunyo turizm markazlari ichida eng sevimli va yuqori darajadagi talabga sazovor bo'lmoqdalar.

Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining turizmi

Shimoliy-Sharqiy Osiyoning asosiy turizm industriyasi rivojlangan mamlakatlari Xitoy Xalq Respublikasi. Yaponiya. Koreya Respublikasi. Gonkong. Makao va Tayvan' xalqaro va milliy turizm sohasida juda katta natijalarga erishib kelmoqda.

1990 yilda Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga 28 mln. xorijiy turistlar tashrifi kuzatilgan bo'lsa. 1995 yilga kelib ularning soni 44.1 mln. kishiga yetadi. Besh yil ichida o'sish sur'atlari 46.8% o'sganligi kuzatilgan. 2000 yil bu mamlakatlar turistik markazlariga 62.5 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. 2001 yilda bu ko'rsatkich 65.6 mln. kishini tashkil etgan. 2002 yilda esa 73.6 mln. xorijiy turistik tashriflar amalga oshirilgan. 2000 yilga nisbatan 2001 yilda o'sish sur'atlari 5% ni tashkil qilgan bo'lsa. 2002 yilda 2001 yilga nisbatan 12.2% ga o'sganligi kuzatilgan. Buning asosiy sababi Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida turizm sanoatining yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi. 1990-2002 yillar oralig'ida xalqaro turistik tashriflar 162.8% ga o'sganligi kuzatilgan (5.2.1-jadval).

2002 yilda Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga 73.6 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga qilingan tashriflarning 56%i bu hudud mamlakatlariga to'g'ri kelgan. Jahon turizm tashriflari ichidagi ulushi esa 10.5% ni tashkil etgan. Bu hududning turizm sohasida yuqori natijalarga

erishishida. dunyoning eng qadimiy madaniyatiga ega bo'lgan «Buyuk sirli mamlakat» Xitoyning ulushi benixoya katta. Xitoyning Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ichidagi ulushi 50% ni. Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari ichidagi ulushi 5.2% ni tashkil qilgan.

Xitoy Xalq Respublikasining turizmi

Xitoyda 1978 yildan boshlab misli ko'rilmagan o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa mamlakatda iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilganligi butun dunyo e'tiborini o'ziga tortmoqda. Mamlakatning yer maydoni 9.560 ming kv. km. Deyarli Yevropa qit'asiga teng. Aholisi 1 mlrd. 367 mln. kishidan ortig'roq. jahonda birinchi o'rinda turadi. XXR 1949 yil 1 oktyabrda tashkil topgan. SHuning uchun 1 Oktyabr' milliy bayram sifatida bayram qilinadi. Sanoati va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda etakchi o'rinlarni egallaydi. Temir yo'llarining uzunligi 54000 km. atrofida. avtomobil' yo'llarining uzunligi esa 1.300.000 km. Asosiy dengiz portlari: Guanchjou. Dalyan'. TSin'xuandao. SHanxay. SHerchjen'. CHjuxay. SHan'tax. Syamin'. Xevan viloyatlarida erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilingan. Ular chet el kapitalini jalb qilishga qulay sharoitlar yaratadi.

Agar ilgari Xitoyda «Kapitalizm o'limi» qoidasini isbotlashga urinilgan bo'lsa. xozirgi davrda «ochiq eshiklar siyosati» bozor sotsializmini qurish tamoyili Xitoy islohotining hal qiluvchi qoidalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu sohada tub islohotlar Xitoyda chet el kapitali ishtirokida kompaniyalar tashkil etish bilan bog'liqdir. Xitoyda chet el kapitalini jalb qilishda. asosan to'rta maqsad ko'zda tutilgan.

1. Mamlakat sanoatining ilmiy texnika darajasini ko'tarish.
2. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini ilg'or usullarini o'zlashtirib olish.
3. CHet el valyutasini kelib turishini o'stirish.
4. Xalqaro iqtisodiy axborotlardan voqif bo'lib turishga yanada kengroq yo'l ochish.

Xitoyning iqtisodiy xo'jalik yuritish tajribasi. bozor muammolari. moliya uslublari katta bir maktab. aholisi miqdoriga nisbatan kichik hududda beqiyos ko'p xalqni ish. moddiy ne'matlar. oziq-ovqat. kiyim-kechak bilan ta'minlash. ishlab chiqarish. ta'minot. iste'mol jarayonini boshqarish. madaniyatni ko'tarish. xalqaro bozor raqobatlariga dosh berish bu xazilakam ish emas. Bu o'ta uddaburonlik. ephillik. ishbilarmonlik. tadbirkorlik. ma'suliyat. idora qilish bu mustaxkam intizomni taqozo etadi. Bu borada xitoyliklardan o'rgansa va ibrat olsa arziydi.

Xitoyda boshqa sohalar singari turizm sohasi ham jadal tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Xitoy Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi asosiy turistik mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Xitoy dunyoning eng qadimiy madaniyatiga ega bo'lgan mamlakat. Xitoy barcha chet elliklar uchun qadimiy madaniyatga ega bo'lgan «Buyuk Sirli» mamlakatga aylanib bormoqda. 1978 yildan boshlab Xitoy o'z iqtisodiyotini zamonaviylashtirishga harakat qilgan xolda turistlar uchun «Ochiq eshiklar» siyosatini yurgaza boshladi. Endi chet ellik boyvachchalar «Buyuk Sirli» mamlakatga birinchilardan bo'lib ayniqsa Gonkong. Makaoga qaytish uchun o'zaro musobaqalasha boshladilar. SHuningdek. Xitoyning eng qadimiy madaniyatiga qiziqish tufayli ham ikki yil ichida bu yerga keluvchi chet ellik turistlar soni 500 mingdan oshib ketdi. Xitoy Xalq Respublikasining bunday siyosat yurgazishining asosiy sababi – mamlakatga chet el valyutasini oqib kirishi kerak edi.

1983-1989 yillargacha turizm Xitoy uchun chet el valyutalari tushumining eng asosiy manbai bo'lib hisoblanar edi. Bu muddat ichida Xitoy Xalq Respublikasining boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan o'zaro aloqalari o'zgara boshladi. 1987 yildan boshlab esa Tayvan' aholisi Syangan (Gonkong) orqali Xitoy Xalq Respublikasiga sayohatlar qila boshladi. 1990 yilda XXRga 27 mln. chet el turistlari tashrif buyurgan bo'lsa. ularning 25 mln. nafarini Tayvan'. Syangan. Makaodan kelgan turistlar tashkil etgan edi. 1980 yillarning oxirlariga kelib XXR ga chet el turistlari tashrifi sonining o'sishi pasaya boshladi. Buning asosiy sababi – mamlakatda turizm sanoati yaxshi rivojlanmagan edi. Turizm menejmenti umuman yo'lga qo'yilmagan edi. Bu esa o'z navbatida zamonaviy talablarga javob beruvchi o'rta va oliy darajadagi yangi mehmonxonalar qurilishiga sabab bo'ldi. Bunga chet el kapitali ham jalb qilindi. Turizmni yanada rivojlantirish uchun aeroportlar. temir yo'l. transport qurilishlariga

ko'proq e'tibor qaratildi.

1989 yildagi «qayta qurish» tufayli sobiq Sovet Ittifoqi va XXR o'rtasidagi chegaralar ochildi hamda mamlakatga ko'plab sovet fuqarolari ham tashrif buyura boshlashdi. Ularning tashriflaridan asosiy maqsad «SHop tur» edi.

Xitoyda amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy qayta qurish. Xitoyning ichki turizmini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilgan. Xitoyda har yili 290-300 million kishi ichki sayohatlarga chiqadi.

Mamlakatda turizmni rivojlantirish maqsadida turistlar uchun maxsus turistik hududlar tashkil qilina boshlandi. 1982 yilda bunday turistik hududlar soni 122 tani tashkil etgan bo'lsa. 1990 yilda ularning soni 500 taga yetkazildi. Xitoyning Shimoliy-Sharqida ham markazidagi turistik hududlarda asosiy tarixiy va madaniy yodgorliklar joylashgan bo'lsa. janubiy turistik hududlarda dam olish. xordiq chiqarish maskani sifatida so'lim va go'zal oromgohlar bunyod etilgan.

1997 yilda Syangan Xitoy tarkibiga qayta qo'shildi. Unga Xitoy ichida o'z tuzumini 50 yilgacha saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lgan avtonomiya berildi. Xozirgi kunda turizm Syangan avtonomiyasida chet el valyuta tushumi manbai sifatida 3-o'rinni egallaydi. Syanganga xorijiy turistlar asosan shou tur. madaniy xordiq. sport asosan ot sporti hamda har yili o'tkaziladigan turli xil festivallarda ishtirok etish uchun kelishadi. SHuningdek Syanganda «Sun» imperatorligi davridan saqlanib qolgan madaniy yodgorliklarni ziyorat qilish uchun ham ko'plab xorijiy turistlar tashrif buyuradi. Xozirig kunda Xitoy turistik markazlariga asosan Yaponiya. Buyuk Britaniya. AQSH. Olmoniya. Koreya. Tailand. Avstraliya. Yangi Zelandiya fuqarolari tashrif buyurmoqda. Xitoyliklar esa. asosan Tailand. Filippin. Indoneziya. Singapur va Yaponiya mamlakatlariga turistik sayohatlarga chiqadilar.

Xitoyda turizmni rivojlantirishga qaratilgan siyosatning o'ziga xos tomoni unda «arzon narxlar» siyosati qo'llanilayapti. Jahon bo'yicha har bir turist o'z sayohati davomida o'rtacha 675 AQSH dollari sarflasa. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida har bir turist o'rtacha 720 AQSH dollar sarflaydi. Xitoyda esa har bir turist 2002 yil ma'lumotlari bo'yicha 552 AQSH dollar miqdorida mablag' Xitoy Xalq Respublikasi xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijasi ko'rsatishicha. jahon turistik tashriflarining 5.24%i. Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga qilingan tashriflarning 28%i Xitoy Xalq Respublikasiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 11% ga ko'paygan (5.3.1-jadval).

Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha jahon turizm daromadlarining 4.3%i. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi tushumlari bo'yicha 21.5% ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 14.6% ga o'sganligi kuzatilgan. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida har bir turistik tashrif o'rtacha 720 AQSH dollarini tashkil etgan. XXR da esa 2002 yilda har bir xorijiy tashrif 552 AQSH dollarini tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Turizm sohasida Xitoyda «arzon narxlar» siyosati yurgizilayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston va XXR o'rtasida diplomatik aloqalar 1992 yil 2 yanvarda elchixonalar darajasida o'rnatilgan.

Toshkentda termos. televizor. mini-traktor ishlab chiqarish bo'yicha hamkor korxonalar ishlab turibdi. Xitoy elchixonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

4. Yaponiya davlatining turizm iqtisodiyoti

Yaponiya. (yaponcha «nippon nixon») Tinch okeanidagi orollarda Sharqiy Osiyoda joylashgan davlat. Hududi to'rt minga yaqin orollarni qamrab olgan. Shimoliy-Sharqdan Janubiy-Farbga qariyb 3 ming km.ga cho'zilgan: eng yirik orollari: Xokkaydo. Xonsyu. Sikoku. Kyusyu. Mamlakatning asosiy orollari ulkan muhandislik inshootlari ya'ni suv osti tunellar va ko'priklar orqali o'zaro bog'langan. Maydoni 370 ming kv. km.. aholisi 125 mln. nafarga yaqin. Yaponiya bir millatli mamlakat. Aholisining 90%i dan ortig'rog'ini yaponlar tashkil etadi. Yaponiya aholisini soni jihatidan dunyoda oltinchi o'rinda turadi.

Yaponiyaliklar o'z yurtlarini «Nixon» deb ataydilar. bu so'z ikki ieroglifdan tashkil topgan bo'lib «Ni» quyosh va «Xon» ildiz. tomir so'zlari birikmasining ma'nosi «quyosh tomiri» demakdir. Odatda bu davlatni «Kun chiqar mamlakat» deb ham ataydilar.

Yaponiyaning eng yirik shaharlari: Tokio. Iokagama. Osaka. Kobe. Nagaya. Kioto. Sapporo. Fukuoka.

Yaponiya poytaxti – Tokio dunyodagi eng yirik shaharlardan biri. eng muhim sanoat. transport. turizm. savdo va madaniyat markazi hisoblanadi. SHaharning tashqi qiyofasida Yevropa va Yaponiya arxitekturasi qoʻshilib ketgan shakli aks etadi.

Tokiodan Tokio qoʻltigʻi sohili boʻylab shaharlar bir biriga tutashib ketgan. Ularda moddiy boylik ishlab chiqarmaydigan sohalarida ishlovchi xodimlar. xizmatchilar. ilmiy xodimlar. mehmonxona xizmatchilari. turizm sohasi xizmatchilari soni koʻpayib bormoqda.

Qoʻltiqdan chiqaverishda hamma sohalar boʻyicha sanoati rivojlangan hududning ikkinchi eng yirik markazi millioner shahar – Iokagama shahri joylashgan boʻlib. u dengiz kanali orqali poytaxt bilan qoʻshilgan. Bu shaharda mamlakatning eng yirik mehmonxonalari va turizm markazlari joylashgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr Osiyo va Tinch okeani hududidagi mamlakatlar iqtisodiyoti uchun oʻziga xos «sakrash» yillari boʻldi. Koʻp yillar oʻrtacha va qoloq boʻlib kelgan davlatlar tarixan qisqa vaqt ichida ulkan yutuqlarga erishdi. Ikkinchi jahon urushidan qattiq siyosiy va iqtisodiy talofat koʻrgan. xatto taslim boʻlishdek ogʻir musibatni boshidan kechirgan Yaponiya bir avlod umri davomida sanoat hamda ilmiy-texnika rivojida dunyoda eng taraqqiy etgan mamlakat darajasiga koʻtarila oldiki. «Yaponiya moʻjizasi» jahondagi barcha olimlar. iqtisodchilar. sotsiologlarni xayratga soldi. Yaponiyaning rivojlanish «sir»lari hammani shu jumladan. bizni ham qiziqtirishi tabiiy. Ayniqsa sanoatning va xizmat koʻrsatish sohalarining nihoyatda tez oʻsish surʼatlari. jahonda boʻlayotgan oʻzgarishlarga tezlik bilan moslashuvchanlik. horijdagi ilgʻor tajribalarni nihoyatda ustalik bilan ijodiy qabul qilish va yanada rivojlantirish borasidagi nodir qobiliyat yaponiyaliklarga xos xususiyatdir. Aynan shu bois u qisqa vaqt ichida jahonda AQSHdan keyin ikkinchi davlatga aylandi.

Yaponiyada quriqlikdagi transport ham. dengiz transporti ham birday rivojlangan. Bu. turizm industriyasini rivojlanishida katta rol oʻynaydi. Temir yoʻllarning uzunligi 27.327 km.. avtomobil yoʻllarining uzunligi esa 1.111.974 km. ichki daryo portlari 1.770 km. atrofida. Asosiy dengiz portlari: Muroran. Kitakyusyu. Kobe. Osaka. Tokio. Iokogama. Kawasaki. Kagosima. Nagoya. Ximedzi. Nagasaki. Tiba.

YaMM – 2527.4 mlrd. dollar. jon boshiga 20200 dollarni tashkil etadi.

Yaponiyada 10 mln. gektar yerda qoʻriqxonalar tashkil etilgan. mamlakat hududining 1/4 qismiga toʻgʻri keladi. tabiat qoʻriqxonalari davlat tomonidan qoʻriqlanadi. SHuning yarmini 23 ta milliy bogʻ va davlatga qarashli qoʻriqxonalar tashkil etadi. 1970 yilda 40 ta dengiz suv osti milliy bogʻlari bunyod etilgan.

Bunday bogʻlar Yaponiyada xalqaro turizmni rivojlantirishga va xorijiy turistlarni qiziqishlariga sabab boʻladi. Yaponiya moʻtadil subtropik va tropik iqlim mintaqalarida joylashgan. hududining 3/4 qismi qir va togʻlardan iborat. Yaponiyaning goʻzal tabiat manzaralari va u yerda joylashgan turistik maskanlar har qanday xorijiy sayohatchilarni oʻziga jalb etadi. Yaponiyada boshqa sohalar kabi xalqaro va milliy turizmni rivojlanishiga katta ahamiyat qaratilgan. Yaponiyada koʻngil ochar turizm yaxshi rivojlangan. Yaponiya turizm bozorini asosan Buyuk-Britaniya. AQSH. Germaniya. Koreya. Tailand. Avstraliya. Yangi Zelandiya mamlakatlari taʼminlaydi.

Yaponiyaga 2000 yilda 4.8 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. 1999 yilga nisbatan 7.2% ga oʻsish kuzatilgan. 2002 yilda 5.3 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan 2001 yilga nisbatan 9.8% ga oʻsish kuzatilgan.

Yaponiyaning chetga chiqish turizmi asosan AQSH. Kanada. Meksika. Argentina. Braziliya. Xitoy. Malayziya. Gonkong. Tailand. Koreya. Singapur. Avstraliya hamda Janubiy-Osiyo mamlakatlariga toʻgʻri keladi.

Yaponiya davlati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijasi koʻrsatishicha. jahon turistik tashriflarining 0.8%i. Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga qilingan tashriflarning 4%i Yaponiya davlatiga toʻgʻri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 9.8% ga koʻpaygan.

Xalqaro turizm tushumlari boʻyicha jahon turizm daromadlarining 0.75%i. Osiyo va

Tinch okeani mintaqasi tushumlari bo'yicha 3.7% ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 6% ga o'sganligi kuzatilgan (5.4.1-jadval). 2002 yilda har bir xorijiy tashrif 668 AQSH dollarini tashkil qilgan. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992 yil 26 yanvarda o'rnatiladi. Yaponiya bilan O'rta Osiyo o'rtasida Buyuk ipak yo'li orqali qadimgi savdo aloqalari mavjud. Xozirgi kunda bu aloqalar qayta tiklanib mustahkamlanmoqda.

5. Koreya davlatining turizmi

Koreya Respublikasi Koreya yarim oroli Osiyo qit'asining Shimoliy-Sharqiy qismida joylashgan bo'lib, shimoldan janubga tomon uzunligi 800 km, g'arbdan Sharqqa esa 360 km, dan 122 km, gacha cho'zilgan, hududi 98.480 kv.km, Aholisi 45.522 mln. kishi, YaMM 680 mlrd. AQSH dollariga teng, aholi jon boshiga 15000 AQSH dollar.

Koreya Respublikasining temir yo'llari uzunligi 6.763 km, avtomobil' yo'llari 63200 km, ichki suv yo'llari 1.609 km, Asosiy portlari: Pusan, Mokpxo, Asosiy savdo sheriklari AQSH, Yaponiya, Yevropa ittifoqi, ASEAN mamlakatlari va Xitoy Xalq Respublikasi. Koreya davlatini bugungi kunda «To'rt ajdaho» yoki «Osiyo yo'lbarisi» deb atashmoqda. Koreya Respublikasi jo'shqin rivojlangan agrar-industrial mamlakat, Koreya yangi industrial mamlakatlar ichida yetakchi o'rinni egallaydi, Iqtisodiyotini yillik o'sish sur'atlari 8% ni tashkil qiladi.

Koreyada biotexnologiya, geninjeneriyasi, lazer kompazitsiya materiallari kashf qilish borasida faol ilmiy-texnik ishlar olib borilmoqda, Janubiy Koreya uyushmalari kundun-kunga rivojlanib, g'arbning yetakchi kompaniyalari bilan raqobatlashmoqda, Samsung, LJ, DEU kompaniyalari jahonning yirik 100 ta korporatsiyalari qatoridan o'rin oldi, Davlatning iqtisodiyotdagi faol ishtiroki natijasida milliy monopoliyalalar soni ko'paydi, Bugungi kunda dunyodagi 500 ta yirik korxonalaridan 11 tasi Koreyada joylashgan.

Koreya Respublikasida boshqa sohalar qatorida turizm sohasiga ham katta ahamiyat berilgan, Turistik potentsiali juda katta, Mamlakatda turistik imkoniyatlarni mahsulot sifatida ishlab chiqarishning o'ziga xos usul va uslublari o'zlashtirilib olingan, Xalqaro turizm mamlakat iqtisodiyotining eng serdaromad sohasiga aylangan, «Pekij tur» va ishbilarmon turizm rivojlangan, 2000 yilda 5.322 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan, 1999 yilga nisbatan 14.2% ga o'sish kuzatilgan, 2000 yilda jahon turizm harakatlari 5.8% ga o'sgan edi, Koreya turizm bozorini asosan Yaponiya, Germaniya, Buyuk-Britaniya, AQSH, Tailand, Avstraliya, Yangi Zelandiya mamlakatlari ta'minlaydi, Koreya aholisi Singapur, Indoneziya, Xitoy, Tayvan, Tailand, Avstraliya, Yaponiya, Filippin mamlakatlariga sayohatlar uyushtiradilar, Koreya Respublikasi xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijasi ko'rsatishicha, jahon turistik tashriflarining 0.76%i, Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga qilingan tashriflarning 4.1%i Koreya Respublikasiga to'g'ri keladi.

6. Tayvan' davlatining turizmi

Tayvan' Xitoy Xalq Respublikasi viloyati ammo alohida davlat sifatida faoliyat yuritadi, Tayvan' o'z atrofidagi bir qancha orollardan iborat, Ikkinchi jahon urushidan so'ng mustaqil taraqqiyot yo'lidan bormoqda, Hududi 36.180 kv. km., aholisi 21.6 mln. kishiga yaqin, Poytaxti Taybey – 2.5 mln. ga yaqin aholi yashaydi, YaMM 257 mlrd. AQSH dollar atrofida, jon boshiga 12.1 AQSH dollarga to'g'ri keladi, Jahondagi bir qancha davlatlar bu mamlakatning tan olishiga qaramay to'la mustaqillikka ega emas.

XX asrning birinchi yarmida Xitoydagi siyosiy rivojlanish barqarorlikka yuz tutdi va natijada bu mamlakatda fuqarolar urushi kelib chiqadi, 1949 yilda bu urush kommunistlar g'alabasi bilan tugaydi, Mag'lub bo'lgan Xitoy zodagonlari Tayvan'da o'z davlatlarini tuzishadi, Bu davlatning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, tez taraqqiyot sur'atlariga ega va yangi industrial mamlakatlar guruhiga kiradi, Tashqi savdo aylanmasi 162.1 mlrd. AQSH dollarga teng, Kichik bir mamlakatning eksport qudrati nihoyatda yuqori bo'lib, jahonda 13-o'rinni egallagan, Valyuta zahiralari 80 mlrd. AQSH dollardan ortiq, iqtisodiy rivojlanishda besh yillik rejalardan foydalanadi, Temir yo'llari uzunligi 4600 km, atrofida, avtomobil' yo'llarining uzunligi esa 20.1 ming km, Asosiy dengiz portlari: Gaosyun, TSzilun, Xualyan', Asosiy savdo

sheriklari: AQSH. Yaponiya. Gonkong va XXR bilan ham bevosita savdo munosabatlarini olib boradi.

1997 yilda Tayvan' XXR si tarkibiga yirik portlar. savdo markazlari. moliyaviy va turistik markaz sifatida qayta qo'shiladi. Unga Xitoy ichida o'z kapitalistik tuzimini 50 yilgacha saqlab qolish huquqiga ega bo'lgan avtonomiya beriladi. Xozirgi kunda xalqaro turizm Tayvan' (Syangan) avtonomiyasida chet el valyutasi tushumi manbai sifatida 3-o'rinni egallaydi. Tayvan'ga turistlar asosan SHou Tur. Teatr. madaniy xordiq. ot sporti hamda har yili o'tkaziladigan turli xil festivallarda ishtirok etish uchun kelishadi. SHuningdek Syanganda «Sun» imperatorligi davridan qolgan yodgorliklar saqlanib qolgan. Ularni ham ko'plab turistlar ziyorat qiladilar. Tayvan' turizm bozorini: Yaponiya. Germaniya. Buyuk-Britaniya. AQSH. Tailand. Avstraliya. Koreya. Yangi Zelandiya mamlakatlari ta'minlaydi. Tayvan' aholisi asosan: Singapur. Indoneziya. Xitoy. Tailand. Avstraliya. Filippin mamlakatlariga sayohatga chiqadilar.

Tayvan' mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijasi ko'rsatishicha jahon turistik tashriflarining 0.38%i. Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga qilingan tashriflarning 2.1%i Tayvan' mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 4.2% ga ko'paygan (5.6.1-jadval).

Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha jahon turizm daromadlarining 0.89%i. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi tushumlari bo'yicha 4.4% ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 11.7% ga o'sganligi kuzatilgan.

2002 yilda har bir xorijiy tashrif 1539 AQSH dollarni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Osiyo va Tinch okeani mintaqasi bo'yicha o'rtacha 720 AQSH dollarni tashkil etgan. jahon bo'yicha 675 AQSH dollarni tashkil qilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. bu mamlakatning iqtisodiyoti rivojlanish tajribasini o'rganish boshqa mamlakatlar uchun xususan o'zbekiston uchun foydalidir.

Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining turizmi

Janubiy-Sharqiy Osiyoning turizm industriyasi rivojlangan mamlakatlari Singapur. Malayziya. Indoneziya. Tailand. Filippin. Avstraliya va Yangi Zelandiya davlatlarida xalqaro turizm tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ushbu hudud tarkibidagi turli mamlakatlar turizmning turli xil moddellariga ega.1990 yilda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatalariga 21.5 mln. xorijiy turistlar tashrifi kuzatilgan bo'lsa. 1995 yilga kelib ularning soni 29.2 mln. kishiga yetadi. Besh yil ichida o'sish sur'atlari 37.2% ga o'sganligi kuzatilgan. 2000 yil ushbu mamlakatlar turizm markazlariga 37 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. 2001 yilda bu ko'rsatkich 40.2 mln. kishini tashkil etgan.

Malayziya davlatining turizmi

Malayziya XX asr oxirlarida iqtisodiy rivojlanish sur'atlari jihatidan Osiyo-Tinch okeani hududidagi davlatlar ichida yuqori pog'onaga ko'tarilgan davlatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Malayziya Janubiy-Sharqiy Osiyoda joylashgan davlat bo'lib. uning hududi 332.8 ming kv. km. Ma'muriy-hududiy jihatidan 13 shtat va 2 federal okrugga (Kuala Lumpur va Labuan orollari) bo'linadi. Aholisi 20.1 mln. tub aholisi 55% ni tashkil etadi. Aholisi tarkibi turlicha. agar Yaponiya. Koreya. Xitoyda mahalliy aholi xal qiluvchi o'rinni egallasa. bu yerda boshqa xalqlar aholining deyarli yarmini tashkkl etadi. Davlat tili – malay tili. ingliz. xitoy. tamil' tillari rasmiy tillar sifatida tan olinadi.

Malayziya XVI asrdan boshlab Portugaliyaning. 1641 yildan Niderlandiyaning. 1824 yildan Buyuk-Britaniyaning mustamlakasi bo'lgan. 1941-1945 yillari esa uni Yaponiya bosib oladi.

Malayziya mustaqillig 1957 yilning 31-avgustda e'lon qilingan. va qaramlikdan ozod bo'lgan. 1963 yilning 16 sentyabrida mamlakat Singapur. Sarovan va Sabax orollari bilan birlashib. Malayziya federatsiyasi nomini oladi. 1967 yildan buyon Malayziya ASEAN tashkilotiga a'zo bo'lib. bu mamlakatga Bruney. Indoneziya. Filippin. Singapur. Tailand. Malayziya va V'etnam mamlakatalari kiradi.

XX asrning 1980-90 yillari mamlakatda yuksalish davri bo'ldi. Iqtisodiyot yiliga

o'rtacha 7.5-11% ga o'sib borishi kuzatildi. Savdo va xizmatlar ko'rsatish tovar aylanmasi esa bundan ham tezroq rivojlana boshladi. Xo'sh bu davlatdagi iqtisodiyotning taraqqiyot sirlari nimada? Ular bir nechta bo'lib, ayrimlarini sanab o'tamiz.

Davlat iqtisodiyotda faol rol o'ynaydi, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish va sof bozor munosabatlari o'zaro qo'shilib ketgan. Iqtisodiyot uzoq davrga rejalashtiriladi: erkin bozor va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan rag'batlantiriladi, davlat tomonidan investitsiyalash keng yo'lga qo'yilgan. Turli millat vakillari va dinlar o'rtasida ixtilof va kelishmovchilik deyarli bo'lmagan.

Malayziyaning iqtisodiy rivoji asosan uch omilga: kauchuk, pal'ma yog'i qalay ishlab chiqarishga bog'liq. Mamlakat shu uch mahsulotni eksport qilish bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi.

1982-92 yillar oralig'ida ayniqsa, xususiy tarmoq yuqori unumdorlikka erishdi, ishlab chiqarish tarmoqlari bilan bir qatorda, nisbatan yangi xizmat ko'rsatish sohalarida muhim muvaffaqiyatlar qozonildi. An'anaviy sohalar vujudga keldi va eng muhimi ishlab chiqarilgan mahsulotlar dunyo raqobat kurashida yengib chiqib yetakchi o'rinlarni ekalladi. Elektron sanoatni rivojlantirish yetakchi soha deb hisoblanadi va bu borada boshqa ilg'or mamlakatlar bilan yaxshi va samarali hamkorlik olib borilmoqda. Ayniqsa Yaponiya va AQSH ishbilarmonlari bu mamlakatga alohida mehr bilan intilmoqdalar.

Mamlakatda temir yo'llar uzunligi 1800 km., avtomobil yo'llarining uzunligi esa 39.100 km. Asosiy portlari: Jorjtaun, Kelang, Kuangan, Kota-Kinabalu, Kuching, Miri, Sandakan, Sibiu.

YaMM – 166.8 mlrd. dollar, jon boshiga 8650 dollarni tashkil etadi.

Malayziyaning yetakchi mutaxassislari mamlakatning iqtisodiy rivojlanish omillarini quyidagicha ifodalamoqdalar: xususiy va davlat tarmoqlari o'rtasidagi hamkorlik, nazorat va intizomning mavjudligi, bilimli, ahloqli ishchi kuchi, ijobiy o'zgarishlarni istovchi va yangi sharoitlarga tezlikda moslasha oluvchi hukumat borligi. Demak erkin bozor munosabatlari mavjudligi bilan birga, davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishga faol ishtiroki muvaffaqiyat garovidir va undan tashqari, rivojlanishning yana bir muhim omili, xalq xo'jaligiga chet el kapitali, ya'ni sarmoyalar qo'yilishining o'sib borishidir.

Mamlakatda yirik ishlab chiqarish bilan birga, kichik ishbilarmonlik, xizmat sohalari va ayniqsa turizmning o'sish sur'atlari, iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etib kelmoqda.

Malayziya, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari xalqaro turizm faoliyatini rivojlanishida juda katta rol o'ynaydi, asosan Singapur mamlakati, har yili chet ellardan tashrif buyuradigan mehmonlarning 58-60%i Singapur mamlakatidan keladigan mehmonlar tashrifiga to'g'ri keladi. Malayziya turizm bozorini 9.3-9.5%i Tailand mamlakatiga, 7-7.5%i Yaponiyaga, 7% dan oshig'rog'i Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi. Oxirga yillarda Xitoy Xalq respublikasi va Tayvan mamlakatidan kelayotgan xorijiy turistlar soni jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Bundan tashqari Malayziya turizm bozoriga AQSH, Koreya, Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlari turistlarining qiziqishlari ortib bormoqda.

Malayziya mamlakatining iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lganligi sababli, mamlakat aholisi juda ko'p chet el sayohatlariga chiqadilar. Sayohatchilarning katta qismi Singapur mamlakatiga to'g'ri keladi, yiliga savdo va ko'ngil ochar sayohatlar uchun bu mamlakatga 9.5 mlnga yaqin Malayziya aholisi sayohatlar uyushtiradi. Bundan tashqari Tailand va Indoneziya turizm bozorlarini ta'minlovchi asosiy mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

2000 yil Malayziya mamlakatiga 10.2 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurganligi kuzatilgan, 1999 yilga nisbatan 28.9% ga tashriflar soni ko'paygan.

2002 yilda esa 13.3 mln. chet ellik xorijiy turistlar tashrif buyurgan, o'sish sur'atlari 2001 yilda, 2000 ilga nisbatan 25% ni, 2002 yilda 2001 yilga nisbatan esa 4% ni tashkil qilgan.

Malayziya mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijasi ko'rsatishicha, jahon turistik tashriflarining 1.9%i, Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga qilingan tashriflarning 10.1%i Malayziya mamlakatiga to'g'ri keladi, 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 4% ga ko'paygan.

Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha jahon turizm daromadlarining 1.43%i. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi tushumlari bo'yicha 7.2% ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 6.4% ga o'sganligi kuzatilgan (5.9.1-jadval).

2002 yilda har bir xorijiy tashrif 510 AQSH dollarini tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Osiyo va Tinch okeani mintaqasi bo'yicha o'rtacha 720 AQSH dollarini tashkil etgan. Har bir xorijiy turistik tashriflar ko'rsatgichi jahon bo'yicha 24.% ga kam bo'lgan. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi bo'yicha 29.2% ga past bo'lgan.

Malayziya va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 21 fevralda o'rnatilgan. Mustaqil O'zbekistonning Malayziya bilan iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalaridagi munosabatlari tobora mustahkamlanib bormoqda.

Janubiy Osiyo mamlakatlari turizmi

Janubiy Osiyo mintaqasi yer sharida aholi eng zich yashaydigan hududlar qatoriga kiradi. Bu mintaqada aholi soni 1.5 mlrd. kishiga yaqinlashmoqda.

Janubiy Osiyo mintaqasida hindiston. Eron. Bangladesh. Pokiston. Afg'oniston. Mal'div Respublikasi. Nepal. SHri-Lanka mamlakatlari joylashgan.

Turizm bu mintaqada juda sekinlik bilan rivojlanmoqda. 1970 yildan 1996 yilgacha ya'ni 26 yil davomida xalqaro turizm 20% ga o'sganligi kuzatilgan. 1970 yilda bu mintaqaga 0.9 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lsa 1996 yilda 4.5 mln. turistlar tashrif buyurgan. Xalqaro turizm tushumlari 100 mln AQSH dollari darajasiga ko'tarilgan. 1970-80 yillarda xorijiy turistlar tashrifi hamda tushumlar miqdori bo'yicha ham o'sish kuzatilgan. 1970 yilda jahon turizm tushumlarining 0.56%ini tashkil qilgan bo'lsa. 1980 yilda 1.5% ni tashkil etgan. 1985-1993 yillarda turistik tashriflar soni o'sgan bo'lsa ham tushumlar miqdori bo'yicha pasayish kuzatilgan. Jahon turizm tushumlarining 0.62% ni tashkil qilgan. 1994 yildan boshlab sekinlik bilan bo'lsa ham o'sish kuzatilgan. 1996 yil Janubiy Osiy mamlakatlariga 4.485 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Turizm tushumlari 3.963 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Jahon turizm tashriflarining 0.76%i. jahon turizm tushumlarining 0.94%i to'g'ri kelgan. Bu mintaqada siyosiy barqarorlik, o'zaro kelishmovchiliklar, turizm sohasi bo'yicha sarmoya siyosatini yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi sababli, xalqaro turizm sust darajada rivojlangan.

Janubiy Osiyo mintaqasida turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi. 1970-2002 yillar

| Yillar | Turistik tashriflar mln. kishi | O'rtacha yillik o'zgarish % | Jahon turizm tashriflari ichidagi ulushi % | Turistik tashriflar-dan tushgan tushum mlrd. AQSH dollari | O'rtacha yillik o'zgarish % | Jahon turizm tashriflari ichidagi ulushi % |
|--------|--------------------------------|-----------------------------|--|---|-----------------------------|--|
| 1970 | 0.912 | - | 0.55 | 0.1 | - | 0.56 |
| 1975 | 1.557 | 70.72 | 0.70 | 0.329 | 229.0 | 0.81 |
| 1980 | 2.280 | 48.44 | 0.79 | 1.549 | 370.6 | 1.5 |
| 1985 | 2.540 | 11.4 | 0.77 | 1.400 | -9.62 | 1.21 |
| 1986 | 2.731 | 7.52 | 0.80 | 1.77 | 19.07 | 1.19 |
| 1987 | 2.707 | -0.88 | 0.74 | 1.875 | 12.48 | 1.09 |
| 1988 | 2.881 | 6.43 | 0.72 | 1.929 | 2.88 | 0.97 |
| 1989 | 3.054 | 6.0 | 0.71 | 2.022 | 4.82 | 0.95 |
| 1990 | 3.179 | 4.09 | 0.69 | 1.990 | -1.58 | 0.77 |
| 1991 | 3.279 | 3.15 | 0.72 | 1.968 | -1.11 | 0.76 |
| 1992 | 3.509 | 7.01 | 0.73 | 2.076 | 5.49 | 0.7 |
| 1993 | 3.459 | -1.42 | 0.69 | 2.015 | -2.94 | 0.62 |
| 1994 | 3.949 | 14.17 | 0.72 | 3.159 | 56.77 | 0.91 |
| 1995 | 4.300 | 8.89 | 0.76 | 3.642 | 15.29 | 0.91 |

| | | | | | | |
|------|-------|------|------|-------|------|------|
| 1996 | 4.485 | 4.3 | 0.76 | 3.963 | 8.8 | 094 |
| 2002 | 6.079 | 24.4 | 0.88 | 5.367 | 35.0 | 1.14 |

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti.

2002 yilda Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlariga 6.079 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. 1996 yilga nisbatan o'sish sur'atlari 24.4% ni tashkil etgan. Jahon bo'yicha turizm tashriflarining 0.88%i Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlariga to'g'ri kelgan. Xalqaro turizm tushumlari 5.367 mlrd. AQSH dollarni tashkil qilgan. Har bir turistik tashrif 2000 yilda 882 AQSH dollarga to'g'ri kelgan.

2002 yilda Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlariga qilingan tashriflar

| № | Asosiy turistik mamlakatlar | 2000 yil mln. kishi | O'zgarish % 2000/1999 |
|----|-----------------------------|------------------------|--------------------------|
| 1. | Hindiston | 2.649 | + 6.7 |
| 2. | Eron | 1.342 | + 1.6 |
| 3. | Mal'div Respublikasi | 0.467 | + 8.7 |
| 4. | Nepal | 0.464 | - 5.7 |
| 5. | Pokiston | 0.557 | + 28.8 |
| 6. | SHri-Lanka | 0.400 | - 8.3 |
| 7. | Bangladesh | 0.200 | - 15.6 |
| | Jami | 6.079 | 6.8 |

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti.

Janubiy Osiyo mintaqasi xorijiy turistlarni o'ziga jalb qilish bo'yicha 2002 yilda tarixiy ahamiyatga molik muvaffaqiyatlarga erishdi. 2002 yilda jahon turizm harakatlari 2.7% ga o'sishga erishilgan edi. Janubiy Osiyo mintaqasida oldingi yilga nisbatan o'sish sur'atlari 6.8% ni tashkil etdi. Bu yillik o'sish dunyo bo'yicha o'rtacha o'sishdan yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Bu mintaqada xalqaro ahamiyatga molik tadbirlar bo'lib o'tmagan bo'lsada. Eron va Hindistonning ekzotik dam olish joylari xorijiy turistlarning diqqat e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda. Boshqa tomondan esa Nepal va SHri-Lanka hududlarida oldingi yilga nisbatan 5.7-8.3% ga kamayish kuzatildi. Buning sababi hududda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy beqarorlik deb hisoblash mumkin.

13. Hindiston davlatining turizmi

Hindiston Osiyo qit'asining janubida joylashgan davlat. Hududi 3.287.732 kv.km. Yirik shaharlari: Dehli (8.4 mln. aholi). Kal'kutta (11 mln). Bombay (12.6 mln). Madras (5.4 mln). Bangalor (4.1 mln). Haydarobod (4.3 mln). Ahmadobod (2.7 mln). Aholisining ko'pligi jihatidan dunyoda Xitoy Xalq respublikasidan keyin 2-o'rinda turad. Aholisining soni 1 milliarddan ortiqroq.

XIX-asrning o'rtalaridan to 1947 yilgacha Buyuk Britaniyani mustamlakasi bo'lgan. 1947 yil 15 avgustda mamlakat siyosiy mustaqillikka erishdi. 1950 yil 26 yanvarda respublika deb e'lon qilindi. Ammo davlat ikki mamlakatga Hindiston va Pokiston mamlakatlariga ajralib ketadi. hozirigi kunda hindiston hududida 3 ta mustaqil davlat paydo bo'lgan: Hindiston. Pokiston va Bangladesh. Hindiston Buyuk Britaniya boshChiligidagi hamdo'stlik a'zosi hisoblanadi.

Hindistonda 500 dan ortiq qabilalar itiqomat qiladi. Ular 100 dan ortiq turli tillarda so'zlashadilar. ammo hind va ingliz tillari rasmiy til hisoblanadi. Aholining 83% hinduizm. 11% islom diniga e'tiqod qilishadi. Shu bilan birga Sinx. Xristianlik. Jaynizm. Buddizm va boshqa dindorlar ham bor.

Keyingi yillarda xukumat iqtisodiyotni boshqarishda liberal qonunlarni keng joriy etmoqda. ma'muriy choralardan moliya iqtisodiyoti va bozor munosabatlariga o'tilmoqda. Bu esa xususiy tarmoq faoliyatiga yangi imkoniyatlar yaratib berish demakdir. Sarmoya qo'yish siyosatida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa hind sanoatini moderinizatsiyalash

uchun chet eldan keltirilgan yordam uchun ko'pgina imtiyozlar joriy etilgan.

Mamlakatning asosiy savdo sheriklari AQSH. Buyuk Britaniya. Yaponiya. Germaniya. Mamlakatda yetishtiriladigan choy. to'qimaChilik mahsulotlari. tibbiy dori-darmonlar ko'p mamlakatlarda yaxshi ma'lum.

Eksportning 60% dan ortig'i sanoata rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi. hozirgi kunda iqtisodiy o'sish sur'atlari ancha yuqori. YaMM 125.390 mlrd. AQSH dollar. jon boshiga esa 1.360 AQSH dollar. Temir yo'llarining uzunligi 61850 km.. avtomobil' yo'llarining uzunligi esa 1.970 ming km. Asosiy dengiz portlari: Bombey va Madras.

Hindiston dunyoning eng qadimiy va madaniyati yuksak mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun ham xorijiy turistlarni bu mamlakatga qiziqishlari katta. hindistonda xalqaro turizmni rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Hindistonning tarixiy-me'moriy yodgorliklari. tarixiy joylari. muqaddas ziyoratgohlari xorijiy turistlar xordiq chiqarishi uchun qulay bo'lgan milliy ruhdagi dam olish maskanlari. tabiati an'anaviy hunarmandchilik. xalq ommaviy san'ati dunyo aholisini doimiy ravishda jalb qilib kelgan. 2002 yilda hindistonga 2.649 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Janubiy Osiyo mamlakatlariga qilingan tashriflarning 43.4% Hindistonga to'g'ri kelgan.

Hindiston mamlakatining xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijasi ko'rsatishicha jahon turistik tashriflarining 0.38%i. Janubiy Osiyo mintaqasiga qilingan tashriflarning 43.4%i hindiston mamlakatiga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 6.7% ga ko'paygan (5.13.1-jadval).

Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha jahon turizm daromadlarining 0.42%i. Janubiy Osiyo mintaqasi tushumlari bo'yicha 43.1% ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 2.2% ga o'sganligi kuzatilgan. Har bir xorijiy tashrif Hindistonda 765 AQSH dollarini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich jahon bo'yicha 13.3% ga. Osiyo mintaqasi bo'yicha 6.2% ga yuqori bo'lgan.

O'zbekiston va Hindiston o'rtasida Buyuk Ipak yo'li orqali qadimdan yaxshi iqtisodiy va madaniy munosabatlar mavjud bo'lgan. Bobur va uning avlodlari bu ikki xalq o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlagan.

O'zbekiston bilan Hindiston respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar rasmiy ravishda 1992 yil 18 martda o'rnatilgan bo'lib. ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

Hindistonlik quruvchilar Toshkent. Samarqand va Buxoro shahalarida 3 ta super mehmonxonalarini qurib. ishga tushirdilar. hozirga kunda Toshkent Dehli shaharlari o'rtasida samolyot qatnovi yo'lga qo'yilgan. Ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi 15 mln. AQSH dollarini tashkil qiladi. 30 dan ziyod qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda.

14. Eron Islom respublikasining turizmi

Eron Janubiy-Farbiy Osiyodagi davlat bo'lib. o'rta-Sharq mamlakatlari guruhiga kiradi. Hududi 1648 ming kv.km. Aholisi 64.7 mln kishiga yaqin. Yirik shaharlari: Tehron (6.5 mln. aholi). Mashhad (1.8 mln). Isfaxon (1.1 mln). Tabriz (1.1 mln). SHeroz (965 ming). SHimolda Kaspiy dengizi. janubda Fors. Ormuz va Ummon qo'ltiqlari bilan o'ralgan. bu qo'ltiqlardagi Keshm. Xo'rmuz. Xark va boshqa orollar ham Eron mamlakatiga tegishli. Aholisining etnik tarkibi: forslar 65%. ozariylar 18%. kurdlar 5%. lurlar. arablar. turkman va blujlar. umuman 30 dan ortiq xalqlar yashaydi. Rasmiy tili Fors tili hisoblanadi. Islomning shia yo'nalishiga aholining 90%i e'tiqod qiladi.

Eron 1979 yilning 1-aprelida Islom Respublikasi deb e'lon qilingan. Ungacha rasman «Eron shaxanshoh davlati» deb yuritilar edi. 1979 yilning 11 fevrali milliy bayram kuni. ya'ni SHoh hokimiyatini ag'darilgan kun. Xozirigi kunda davlat qo'shilmaslik harakatiga qo'shilgan.

Bu mamlakat tarixida Iroq bilan bo'lgan 1980-1988 yillardagi uzoq muddatli urushni alohida ta'kidlab o'tish zarur. chunki urush yillari yiliga 14-15 mlrd AQSH dollari hajmida harajatlarni talab qilar etdi. Oqibatda davlat iqtisodiyotiga katta talofat yetkazildi.

Eron agrar industrial davlat bo'lib. uning iqtisodiyotida neftni qazib olish va qayta ishlash sanoati muhim o'rinni egallaydi. Bu soha yalpi ichki mahsulotning katta qismini tashkil

etadi. U davlat byudjetining uchdan birini tashkil etadi. Valyuta kiriminin 37%ini ta'minlaydi. 1960 yildan OPEK a'zosi. neft' qazib oluvchi davlatlar ichida Saudiya Arabistoni va RF dan keyingi o'rinda turadi. YaMM 310 mlrd. AQSH dollari. jon boshiga esa 4720 AQSH dollarni tashkil etadi.

Mamlakatda temir yo'llari uzunligi 4850 km. avtomobil' yo'llarining uzunligi 140.1 ming km. ichki daryo yo'llari 904 km.ni tashkil qiladi.

Mamlakatda ijtimoiy muammolar anchagina. mehnatga yaroqli aholining 20% ishsiz. valyuta-moliyaviy ahvoli ham ancha mushkul. davlat byudjetining kamomadi 3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. Mamlakatning tashqi qarzi 12 mlrd. AQSH dollar. amaldagidan 2-3 marta ortiq. tashqi savdo aylanmasi 45 mlrd. AQSH dollari atrofida. kamomadi 5 mlrd. AQSH dollar. ya'ni passiv sal'do. Mamlakatning asosiy savdo sheriklari Yaponiya. Germaniya. Italiya va boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar. ularga savdo aylanmasining 75%i to'g'ri keladi.

Mamlakat yer yuzasining yarmidan ko'prog'ini tog'lar tashkil etadi. Eron jahondagi eng qadimiy davlat bo'lib. tarixi va madaniyati nihoyatda boy. Eronda xalqaro turizmni rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Lekin shunga qaramasdan turizm nihoyatda darajada sust rivojlangan. Hozirgi kunda olib borilayotgan tayyorgarlik ishlari. siyosatning demokratlashtirilgani tufayli turizm ancha jonlandi. 2002 yilda Eron Islom Respublikasiga 1.342 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgani kuzatilgan. Bu ko'rsatkich 2000 yilga nisbatan 1.6% ga o'sgan. Janubiy Osiyo mamlakatlariga qilingan tashriflarning 22% Eron Islom Respublikasiga to'g'ri kelgan.

Eron Islom Respublikasining xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijasi ko'rsatishicha. jahon turistik tashriflarining 0.19%i. Janubiy Osiyo mintaqasiga qilingan tashriflarning 22%i Eron Islom Respublikasiga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 1.6% ga ko'paygan.

Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha jahon turizm daromadlarining 0.2%i. Janubiy Osiyo mintaqasi tushumlari bo'yicha 21.7%ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 1.5%ga o'sganligi kuzatilgan (5.14.1-jadval).

Har bir xorijiy tashrif Eron Islom Respublikasida 750 AQSH dollarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich jahon bo'yicha 11.1%ga. Osiyo mintaqasi bo'yicha 4.2% ga yuqori bo'lgan.

Qadimdan O'zbekiston va Eron munosabatlarida hamma sohalarida mushtaraklik mavjud bo'lgan.

Eron Islom Respublikasi 1991 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasini tan oladi va 1992 yilning 10 mayida diplomatik munosabatlar o'rnatiladi. o'zaro elchixonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Buyuk Ipak Yo'li Mashhad orqali o'tganligi munosabati bilan siyosiy. iqtisodiy va madaniy aloqalar tarixan rivojlangan. Hozirgi kunda Osiyo mintaqasida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarda muhim o'rinni egallayotgan Eron Islom Respublikasi bilan O'zbekiston Respublikasi munosabatlari yangi bir pallaga kirib bormoqda va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatilmoqda. O'zbekistonda Eron Islom Respublikasi bilan 35 tadan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд,

2013

7.Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012

8.Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9.Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.

10.Амиркулов К., Қурбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.

11.Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.

16.Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>

13. <http://www.wesmirbook.ru>

14. www.uzdaily.com

15. www.cia.gov

Ма’руза 6: Яқин Шарқ ва Африка regionlari mamlakatlari xalqaro turizm geografiyasi

Reja:

1. Яқин Шарқ mintaqasi mamlakatlari xalqaro turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi
2. Misr Arab Respublikasi turizmi
3. Saudiya Arabistoni mamlakati turizmi
4. Birlashgan Arab Amirliklari mamlakati turizmi
5. Isroil mamlakati turizmi
6. Baxreyn. Iordaniya. Livan mamlakatlari xalqaro turizm faoliyatining iqtisodiy tahlili

Tayanch iboralar va so’zlar: *Yaqin Sharq, Afrika regionlari, Yaqin Sharq mintaqasi, Turistik regional, Xalqaro turizm, axoli badligi, Dunyo mintaqalari, turistlarni sug’urtalash, imtiyozlar, qidiru-qutqaruv, xizmatlari, tibbiy xizmat, turizm soxasidagi suboektlar vazifasi*

1.Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlari xalqaro turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi

Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlari asosiy turizm markazlari bo’lib Misr. Iroq. Iordaniya. Quvayt. Oman. Qatar. Saudiya Arabistoni. Suriya. Birlashgan Arab Amirliklari. Yaman va Isroil mamlakatlari hisoblanadi. Bu mintaqada Livandagi kelishmovChiliklarga qaramasdan 1970 yillardan boshlab sezilarli darajada xalqaro turizm harakatlari rivojlana boshladi. Bu mintaqada 1970 yilda 1.8 mln. xorijiy turistlar tashrifi kuzatilgan bo’lsa. 1980 yilga kelib ularning soni 6 mln. kishini tashkil qilgan. Xalqaro turizm tushumlari esa 0.4 mlrd. AQSH dollaridan. 3.5 mlrd. AQSH dollariga o’sganligi kuzatilgan. 1986-87 yillarda xalqaro turizm tashriflari 17.7% ga. xalqaro turizm tushumlari esa 16%ga pasayganligi kuzatilgan. 1980 yilda jahon turizm tashriflarining 2.1%ini tashkil qilgan bo’lsa. 1987 yilga kelib bu ko’rsatkich 1.48% ga pasayib ketgan. 1988-99 yillarda xorijiy tashriflar birmuncha o’sganligi kuzatiladi. ya’ni 1987 yilda 5.4 mln. xorijiy tashriflar kuzatilgan bo’lsa. 1990 yilda 7.5 mln. kishiga yetadi. 1991 yilga kelib xorijiy sayyohlar soni yana kamaya boshlaydi. tashriflar 10.3% ga. xalqaro turizm tushumlari 16.5% ga pasayganligi kuzatiladi. 1994 yildan boshlab (2001 yildagi pasayishni hisobga olmaganda) 2002 yillarda bir maromda o’sish kuzatiladi .

Bu mintaqaga qilingan xorijiy turistik tashriflarning tahlil qilish natijlari ko’rsatishicha. 1980-96 yillargacha nomuntazam ravishda yildan yilga tebranib turishlar. ya’ni o’sish yoki pasayishlar kuzatiladi. 2000 yilda 24 mln. xorijiy turistlar tashrif buyuradi. 2002 yilda bu ko’rsatkich 27.6 mln. kishiga yetadi. Xalqaro turizm tushumlari bo’yicha 2000 yilda jahon turizm tushumlarining 2.6%. 2002 yilda 2.7% ni tashkil qiladi. 2000 yildan 2002 yilgacha xalqaro turizm tushumlari 4.9% ga o’sganligi kuzatiladi. Har bir xorijiy turistik tashrif 2000 yilda 514 AQSH dollarini tashkil qilgan bo’lsa. 2002 yilda 470 AQSH dollarini tashkil qilgan.

Jahon bo'yicha bu ko'rsatkich 43.6% ga past bo'lgan.

Yaqin Sharq mintaqasiga qilingan tashriflar va ulardan kelib tushgan tushumlar dinamikasi. 1970-2002 yillar

| Yillar | Turistik tashriflar mln. kishi | O'rtacha yillik o'zgarish % | Jahon tu-rizm tash-riflari ichidagi ulushi % | Turistik tashriflar-dan tushgan tushum (mlrd. AQSH dol.) | O'rtacha yillik o'zgarish % | Jahon turizm tashriflari ichidagi ulushi % |
|--------|--------------------------------|-----------------------------|--|--|-----------------------------|--|
| 1970 | 1.864 | - | 1.12 | 0.404 | - | 2.26 |
| 1975 | 3.520 | 88.84 | 1.58 | 0.733 | 81.44 | 1.80 |
| 1980 | 5.992 | 70.23 | 2.08 | 3.470 | 373.4 | 3.36 |
| 1985 | 6.240 | 4.17 | 1.89 | 4.803 | 38.41 | 4.14 |
| 1986 | 5.132 | -17.76 | 1.51 | 4.032 | -16.05 | 2.87 |
| 1987 | 5.431 | 5.83 | 1.48 | 5.305 | 31.57 | 3.08 |
| 1988 | 6.961 | 28.17 | 1.73 | 5.051 | -4.79 | 2.54 |
| 1989 | 7.519 | 8.02 | 1.74 | 5.434 | 7.58 | 2.55 |
| 1990 | 7.444 | -1.0 | 1.63 | 5.127 | -5.65 | 1.99 |
| 1991 | 6.674 | -10.34 | 1.46 | 4.279 | -16.54 | 1.64 |
| 1992 | 7.921 | 18.68 | 1.64 | 5.398 | 36.15 | 1.82 |
| 1993 | 7.200 | -9.1 | 1.44 | 4.996 | -7.45 | 1.54 |
| 1994 | 9.868 | 37.6 | 1.81 | 5.107 | 2.22 | 1.47 |
| 1995 | 13.705 | 38.88 | 2.42 | 7.187 | 40.73 | 1.80 |
| 1996 | 15.144 | 10.5 | 2.55 | 8.243 | 14.70 | 1.94 |
| 2000 | 24.000 | 13.2 | 3.49 | 12.341 | 13.50 | 2.60 |
| 2001 | 23.600 | -1.3 | 3.45 | 11.667 | -52 | 2.53 |
| 2002 | 27.600 | 16.7 | 3.90 | 12.963 | 10.0 | 2.73 |

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti.

Saudiya Arabistoniga Islom dinining muqaddas shaharlarini ziyorat qilish va farz amallaridan biri xaj va umraga Makka va Madina shaharlariga har yili bir necha million musulmonlar kelib ketishadi. Bu mamlakatda asosan diniy turizm nihoyatda rivojlangan.

Yaqin Sharq mintaqasidagi ikkinchi xalqaro turizm rivojlangan mamlakat Birlashgan Arab Amirliklari (BAA). Bu mamlakatga 2002 yilda Yaqin Sharq mintaqasiga qilingan xorijiy turistik tashriflarning 19.7%i. xalqaro turizm tushumlarining 10.2%i to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistik tashriflar bo'yicha 31.7% ga. xalqaro turizm tushumlari bo'yicha 24.8% ga o'sish kuzatilgan.

Mintaqadagi xalqaro turizm markazlaridan biri hisoblanmish yana bir mamlakat Misr Arab Reapublikasidir. Bu davlat nihoyatda qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda turizm va xizmat sohalari milliy daromadning muhim tarmoqlari hisoblanadi. 2002 yilda mintaq bo'yicha xorijiy turistik tashriflarning 17.8%i. xalqaro turizm tushumlarining 29%i bu mamlakatga to'g'ri kelgan. Shuningdek Suriya mamlakatiga tashriflarning 10.2%i. tushumlarining 10.5%i. Iordaniya mamlakatiga tashriflarning 5.8%i. tushumlarining 6.1%i. Isroil mamlakatiga tashriflarning 8.7%i. tushumlarining 11.1%i. Baxreyn mamlakatiga tashriflarning 13.6%i. tushumlarining 17.1%i. Livan mamlakatiga tashriflarning 3.5%i. tushumlarining 7.9%i to'g'ri kelganligi kuzatilgan.

Mintaqada xalqaro turizm tashriflarining 65-70%i Saudiya Arabistoni. Birlashgan Arab Amirliklari va Misr mamlakatlariga to'g'ri keladi. Xalqaro turizm tushumlarining 70-75%i ushbu mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Yaqin Sharq mintaqasi xalqaro turizm bozorini ta'minlovchi asosiy mamlakatlar Misr.

Saudiya Arabistoni. Iordaniya. AQSH. Germaniya. Buyuk Britaniya. Frantsiya. va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari.

Yaqin Sharq mintaqasidagi siyosiy beqarorlik natijasida, doimiy ravishda xalqaro turizm harakatlarida tebranishlar kuzatilmoqda. Fors qo'ltig'idagi siyosiy vaziyat nafaqat Iroq mamlakatini, Saudiya Arabistoni hamda Iordaniya va Misr mamlakatlariga qiliniadigan xorijiy tashriflarni 40% ga kamayishiga olib keldi.

Keyingi yillarda ham butun davr mobaynida Fors qo'ltig'ini o'z ichiga olgan Yaqin Sharq asosiy «olovli nuqta» bo'lib keldi. Bu yer sayyoramizning turli madaniyat va dinlari juda murakkab holda yonma-yon shakllangan asabiy ziddiyatlar tugunidir. Bu yerda faqat arab mamlakatlari bilan Isroilnigina emas, balki boshqa ko'plab davlatlarning ham manfaatlari o'zaro to'qnashgan.

2. Misr Arab Respublikasi turizmi

Misr ikki qit'ada, Afrikaning Shimoliy-Sharqiy qismi va Osiyoning Sinay yarim orolida joylashgan Yaqin Sharqdagi qadimiy davlat. Misr Arab Respublikasi hududi 1.001.450 kv. km. bo'lib, 63 millionga yaqin aholi yashaydi. Poytaxti – Qohira. 6.8 mln. kishi istiqomat qiladi. Asosiy yirik shaharlari: Iskandariya va Port-Said. Aholisining 98% arablar bo'lib, 2 mingga yaqin misrlik chet ellarda istiqomat qiladi. Arab tili rasmiy til hisoblanadi, asosiy aholi islom diniga e'tiqod qiladi.

Misr 1922 yil 28 fevralda mustaqillikni qo'lga kiritgan. Milliy bayram 23 iyul' «Inqilob kuni» (1952 yildan boshlab). Misr Respublika bo'lib, amaldagi konstitutsiya 1971 yilning 11 sentyabrida qabul qilingan, unga referendum natijasida 1980 yilning 22 mayida ba'zi bir o'zgartirishlar kiritilgan. Davlat boshlig'i Prezident hisoblanadi va olti yilga saylanadi.

Bu davlat nihoyatda qadimiy va boy tarixga ega. Tarix otasi Gerodot: «Misrni Nil yaratgan» deganda nechog'li haq bo'lgan, chunki mamlakat aholisining 90% dan ortig'i shu daryo vohasida istiqomat qiladi. SHuni eslatib o'tish kerakki, Nil daryosi jahondagi eng uzun (6671 km) daryodir.

Misr uzoq yillar o'z boshidan mustamlakaChilik hukmronligini kechirgan davlat. 1882 yili inglizlar tomonidan mustamlaka qilingan. 1914 yildan (Protectorat) yarim mustamlaka, deb e'lon qilinadi. 1952 yildan Kamol Abdul Nosar (1918-1970) boshChiligidagi mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tadi. 1958 yilning fevralida Suriya va Misr birlashib Birlashgan Arab Respublikasi (BAR) deb atala boshlandi, ammo 1961 yilning sentyabrida Suriya bu hamjamiyatdan ajralib chiqadi.

1971 yilning sentyabridan Misr Arab Respublikasi vujudga keladi. Mustaqillik yillari siyosiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Ayniqsa, 1981 yildan Xusni Muborak rahbarligida yirik islohotlar o'tkazilgan.

Mustamlaka davrida boshqa davlatlarning xomashyo bazasiga aylanib qolgan Misr, sanoatni ustuvor rivojlantirib, agrar davlatdan industrial davlatga aylanish uchun uzoq yillardan beri kurash olib bormoqda.

Misr sanoatining rivojlanishini asosiy xususiyati shundan iboratki, unda davlat tarmog'i yetakchi hisoblanadi, ya'ni hal qiluvchi sanoat korxonalari davlat qo'lida to'plangan. 1965 yili asosiy ishlab chiqarish vositalarining 85% davlat nazoratida bo'lgan. Qishloq xo'jaligi, savdo, maishiy xizmat, turizm sohalarida xususiy tarmoq hal qiluvchi hisoblanadi.

Misrning transport tarmoqlari asosan Nil vodiysida va Suvaysh (uzunligi 173 km) kanali, O'rta yer dengizini Qizil dengiz bilan birlashtiradi, Osiyo qit'asini Afrika qit'asidan ajratib turadi.

Iqtisodiyotni boshqarishda rejalashtirish 1957 yildan beri mavjud, 1960 yildan boshlab besh yillik rejalardan foydalaniladi. Shuni ta'kidlash lozimki ular davlat tarmog'i uchun imperativ (majburiy) boshqa tarmoqlarga indikativ (ixtiyoriy).

YaMM 151.5 mlrd. AQSH dollari, jon boshiga 2490 AQSH dollar.

Misrning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Turizm va xizmat sohaları milliy daromadning muhim tarmogari hisoblanadi. Mamlakatga yiliga 5 mln.ga yaqin sayohatchilar kelib ketadilar bu soha 4 mlrd. AQSH dollarga

yaqin daromad keltiradi. YaMM ning 3% ga yaqini turizm sohasiga to'g'ri keladi.

Misrda turizm sektori asosan o'zining madaniy-tarixiy yodgorliklari, dunyoga mashhur piramidalari, saroylari bilan bog'liq. 1980 yillarda Qizil dengiz qirg'oqlarida plyaj turizmini rivojlantirish rejasini qabul qiladi. Ushbu hudud asosan Xurgada shahariga tegishli bo'lib, asosiy turizm markaziga aylanishi kerak edi. 1990 yillar boshida Farbiy Yevropa mamlakatlaridan turistlarni qabul qilish uchun yettita turistik qishloqlar quriladi.

1979 yilda Misr, Isroil mamlakati bilan tinchlik bitimini tuzganidan so'ng, u siyosiy jihatdan tinch mamlakatlardan biriga aylandi va buning natijasida mamlakatda xalqaro turizm jadal rivojlani boshladi. Misr yer sharining barcha mamlakatlaridan turistlar qabul qiladi.

Misr xalqaro turizm bozorini asosan AQSH, Saudiya Arabistoni, Frantsiya, Germaniya, Italiya va Yaponiya mamlakatlari ta'minlaydi.

Mamlakat temir yo'llari uzunligi 5.110 km., avtomobil' yo'llari uzunligi 51.925 km. Asosiy portlari: Aleksandriya, Port-Said, Suets.

Mamlakatda 14 ta Universitet foyiat yuritadi, eng yiriklari Qohira, Ayn-SHams, Iskandariya hamda Al-Ashar islom universitetlari hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlarida 700 mingdan ortiq talaba ta'lim oladi.

Toshkent Sharqshunoslik instituti va Islom universitetining Misr Oliy o'quv yurtlari bilan aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilgan, ko'pgina talabalar Misr Oliy o'quv yurtlarida o'z bilimlarini oshirmoqdalar. Toshkent va Qohira o'rtasida bevosita avia qatnov o'rnatilgan.

Misr Arab Respublikasi mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijasi ko'rsatishicha, jahon turistik tashriflarining 0.7%i. Yaqin Sharq mintaqasiga qilingan tashriflarning 17.8%i Misr Arab Respublikasi mamlakatiga to'g'ri keladi. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 12.6% ga ko'paygan.

3. Saudiya Arabistoni mamlakati turizmi

Saudiya Arabistoni Janubiy-Farbiy Osiyodagi podshohlik Arabiston Yarim orolining 80% dan ortig'ini hamda g'izil dengiz va Fors qo'ltig'i qirg'og'idagi bir qancha orollarni qamrab olgan, hududi 2.15 mln kv. km. Poytaxti – Ar-Riyod. Boshqa yirik shaharlari Jidda, Makka, Madina, Al-Taif. Aholisi 18.8 million kishiga yaqin tub xalqi asosan arablardan iborat, rasmiy til arab tili, ingliz tili ham keng ishlatiladi. Davlat dini – Islom dinidir. Podshohlikda islom dinining asosiy muqaddas qadamjolari bo'lgan Makkai-Mukkarama va Madinai-Munavvara joylashgan. OPEK a'zosi. Jahonda neft' ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda turadi. 23 sentyabr podshohlik e'lon qilingan kun – milliy bayram hisoblanadi. Davlat va din boshlig'i podshoh bo'lib, u bir vaqtning o'zida hukumat boshlig'i, qurolli kuchlar qo'mondoni va bosh hakam hisoblanadi, hukumat vakillari asosan podshoh oila a'zolaridan tashkil topadi. 1992 yilning 29 fevralida hukumatning maxsus yig'lishida qirol Fahd uchta farmonni e'lon qiladi. «hokimiyat tizimi asoslari», «hududiy tuzilish tizimi», «Maslahat kengashi to'g'risidagi nizom». Birinchi marta davlat qurilishi va davlatni boshqarishning umumiy tamoyillarini mustahkamlab, yuridik hujjatlar qabul qilingan. Yangi maslahat organi – Maslahat kengashi tashkil etildi, bu organ podshoh tomonidan to'rt yilga tayinlanadi. Kengash mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari bo'yicha xalqaro bitimlar to'g'risida xulosalar tayyorlaydi. Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalari faoliyati rasman ta'qiqlangan. Saudiya Arabistonining hozirgi chegarasi 1926 yilning yanvarida vujudga kelgan. 1970 yillardagi neftga bo'lgan talab ortganligi tufayli, bu mamlakat katta boylikka ega bo'ldi, undan tashqari mamlakat nihoyatda qulay harbiy strategik sharoitga ega. SHular tufayli jahonda ayniqsa musulmon davlatlarida uning nufuzi keskin ortdi. Neft' ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha 1960 yilda OPEK tashkilotiga a'zo bo'lgan. Bu mamlakat jahondagi barcha neft' zahiralarning 25% ni tashkil etadi. SHu sababli mamlakat iqtisodiyoti neft' sanoati bilan chambarchas bog'liq. YaMM ning 80% shu soha bilan uzviy bog'langan.

Saudiya Arabistoni uzoq vaqtlar tuyaChilik, finik xurmolar yetishtirish, xajga boruvchi musulmonlarga xizmat ko'rsatishdan daromad qilar edi. Hozirgi kunda uning iqtisodiyotini asosini neft' qazib olish tashkil etadi: mamlakat eksportining 95% ni neft' tashkil qiladi.

Arabistonda hozirda o'ta zamonaviy avtomobil' yo'llari, aeroportlar, El Jubayl va

Yanbu singari yirik sanoat majmualari. obod shaharlar bunyod etilgan.

So'ngi yillarda Fors qo'ltig'ining neft' qazib oluvchi mamlakatlari yirik imigratsiya rayoniga aylangan. Bu yerda arab va noarab mamlakatlaridan kelgan 6 mln. chet ellik yashaydi va ishlaydi. Ularning bu yerga ish haqining yuqoriligi jalb qilgan. CHet elliklar Saudiya Arabistonida ish bilan band barcha aholining yarmini tashkil etadi. Ular qo'li bilan shaharlar va yirik avtomobil' yo'llari quriladi. neft' qazib olinadi.

Saudiya Arabistonida butun dunyo musulmonlarining muqaddas shahri bo'lmish Makkaga «Makkai Munavvaraga». bu yerdagi Masjidi jome xovlisida muqaddas Ka'ba joylashgan va payg'ambarimiz janobi Rasulullox Muhammad salallohu alayhi vassalam dafn etilgan shahar – Madinaga «Madinai Mukarrama»ga yiliga 2 mln.ga yaqin musulmonlar hajga boradi. Boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilarning bu shaharlarga kirishi man etilgan.

Saudiya Arabistoni poytaxti – Ar-Riyod dunyodagi eng tadrijiy rivojlanayotgan shaharlardan biridir. Uning aholisi 1960 yil 160 ming kishi bo'lgan bo'lsa. 2000 yilga kelib 2 mln. dan oshib ketdi. Vazirliklar. banklar. mehmonxonalar odatda 7-8 qavat bo'lib. o'ziga xos nafis arxitekturasi bilan ajralib turadi. Ko'chalar chekkasiga yashil o'simliklar ko'p ekilgan. sanoat korxonalarini esa shahar tashqarisida joylashgan.

Saudiya Arabistonida asosan diniy turizm rivojlangan. har yili O'zbekistondan 5 mingdan ortiq musulmonlar haj va umra amallarini bajarish uchun safar qiladilar.

Yaqin-Sharq mintaqasiga qilingan xorijiy tashriflarning 27.2%. xalqaro turizm tushumlarining 28.9% Saudiya Arabistoni mamlakatiga to'g'ri keladi. 2002 yilda 2001 yilga nisbatan xalqaro turizm harakatlarining 12% ga o'sganligi kuzatilgan.

Saudiya Arabistoni mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijasi ko'rsatishicha. jahon turistik tashriflarining 1.07%i. Yaqin Sharq mintaqasiga qilingan tashriflarning 27.2%i Saudiya Arabistoni mamlakatiga to'g'ri keladi (7.3.1-jadval).

Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha jahon turizm daromadlarining 0.78%i. Yaqin Sharq mintaqasi tushumlari bo'yicha 28.9% ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistik tashriflar 11.7% ga. daromadlar miqdori 12.0% ga o'sganligi kuzatilgan.

2002 yilda har bir xorijiy tashrif 497 AQSH dollarni tashkil qilgan. har bir xorijiy turistik tashriflar ko'rsatgichi jahon bo'yicha ko'rsatgichdan 23.4% ga past. Yaqin Sharq mintaqasi bo'yicha 5.7% ga yuqori bo'lgan. Tahlil natijalari Saudiya Arabistonida xalqaro turizm yaxshi rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Saudiya Arabistoni O'zbekiston Respublikasini 1991 yil yanvarda tan olgan va 1992 yilning 20 fevralidan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Ikki mamlakat o'rtasida yaxshi siyosiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar mavjud. Davlat elchixonalarini faol ish olib bormoqda.

4. Birlashgan Arab Amirliklari mamlakati turizmi

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) Fors va Ummon ko'rfazi qirg'og'ida. Arabiston Yarim orolining Sharqiy qismida joylashgan federativ davlat. Birlashgan Arab Amirliklari 7 amirlik: Abu-Dabi. Dubay. Sharja. Ajman. Umm-Ulxaytayp. Al-Fujayra va Ra's-ul-Xayma kiradi. hududi 83.600 kv.km. atrofida. Aholisi 2.7 mln. Poytaxti – Abu-Dabi. Yirik shaharlari: Dubay. Sharja va Ra'yo-ul-Xayma. Mahalliy aholi barcha aholining faqat 25-30%ini tashkil qiladi. Rasmiy ma'lumotlar e'lon qilinmaydi. BAA da xizmat qiluvchi ishchilarning 90% xorijliklardir. Bu yerda 600 mingga yaqin hind va pokistonliklar yashaydi. Eron va Arab mamlakatlaridan 400 ming aholi istiqomat qiladilar. SHuningdek. 25 ming ingliz va yevropaliklar ham yashaydi. Arab tili rasmiy til. ingliz tili keng qo'llaniladi. Islom dini davlat dini hisoblanadi. Milliy bayrami – 2-dekabr bo'lib. federatsiya vujudga kelgan kunga to'g'ri keladi. OPEK a'zosi.

BAA – federatsiyadir. Uning tarkibiga kiruvchi har bir amirlik mutlaq monarxiya hisoblanadi va katta mustaqillikka ega. 1971 yilda qabul qilingan konstitutsiyaga asosan hokimiyatning oliy organi amirlik boshliqlaridan iborat Oliy kengash saylanadi. Ular ichidan 5 yilga mo'ljallab prezident saylanadi. Mamlakatda siyosiy partiya va tashkilotlar faoliyati man etilgan. BAA tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak XVIII-XIX asrlar bo'sag'asida bu hududda arab qabilalari istiqomat qilganlar. Ular asosan chorvaChilik va baliqChilik bilan. qisman savdo

bilan mashg'ul bo'lganlar. XIX asrdan boshlab bu tomonlarga Buyuk Britaniya fuqarolari kirib kela boshladi. Mahalliy qabila boshliqlari va bosqinchilar o'rtasida 1820. 1843. 1853. 1892 yillarda bir necha bor shartnomalar tuzilgan. ularda ajnabiylarga katta imtiyozlar berilgan. BAAning hozirgi hududi 1853 yilda shartnomali Ummon deb atalgan va aslida Buyuk Britaniyaning protektorati (yarim-mustamlaka) bo'lgan. bu xolat XX asrning 60 yillariga qadar davom etib kelgan. Buyuk Britaniya o'z qo'shinlarini Fors ko'rfazidan olib chiqib ketgach 1971 yilning 2-dekabrida Birlashgan Arab Amirliklari tashkil etilgan.

BAA iqtisodiyoti neft' sanoati rivojiga asoslangan. o'rganilgan neft' zaxiralari 7 mlrd. tonna bo'lib. asosan Abu-Dabi amirligiga to'g'ri keladi. Neft' va gazni olish uni eksport qilish yo'li bilan xalq boyligi yaratiladi. SHu yo'l bilan yiliga 14.5 mlrd. AQSH dollari boylik xazinaga kirib keladi. Bu yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 43% ni (33.5 mlrd. AQSH dollar) tashkil qiladi. YaMM – 62.7 mlrd. AQSH dollar. jon boshiga 22480 AQSH dollariga teng.

BAA ning iqtisodiy rivoji xorij sarmoyalari bilan chambarchas bog'langan. SHuni hisobga olib 1985 yili Dubay amirligida Jabal-Ali hududida erkin iqtisodiy makon ochilgan. unda 55 davlat kompaniyalari o'z vakolatxonalarini ochgan. Federal va mahalliy hokimiyat tashkilotlari mamlakat iqtisodiyotiga xorij investitsiyalari kirib kelishini qo'llab quvvatlaydilar. Ular uchun turli imtiyozlar mavjud. Ko'p korxonalarda xorij sarmoyalari 49% ga teng (demak davlatniki 51%). Savdo sohasi iqtisodiyotda katta o'rin egallaydi. chetga neft'. baliq. xurmo. marvarid eksport qiladi. Savdo sheriklari Yaponiya. AQSH. Buyuk Britaniya. Frantsiya. Italiya. Saudiya Arabistoni. keyingi yillarda boshqa arab mamlakatlari ham qo'shilgan.

BAA O'rta Sharqdagi eng yirik moliyaviy markaz hisoblanadi. Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan 63 tijorat bankining umumiy depoziti 40-45 mlrd. dollar. xorij quyilmalari. valyuta zahiralari 10 mlrd. dollar. chet el aktivlari 23 mlrd. dollarni tashkil etadi. Bank sohasida sof daromadlarning o'sish dinamikasi 25% bo'lib. 2.5 mlrd. dollar foyda ko'riladi.

Birlashgan Arab Amirligida har bir mahalliy aholi to'rt nafar xorijiy ishchini o'z xizmatiga olish huquqiga ega Moskva jurnalistlaridan biri mamlakat poytaxti Abu-Dabini quyidagicha tavsiflagan edi «Omonliklarning rang-barang yopinchi'g'i. sikxlarning tyurbanlari tovlanadi. Bu yerda pokistonliklarni ham. koreyslarni ham. malayziyaliklarni ham. arab mamlakatlaridan kelgan muhojirlarni ham uchratamiz. Dam olish kunlari dengiz sohili bo'ylab go'yo butun Sharq xalqlari saf-saf bo'lib sayr qilayotgandek bo'lib tuyuladi». Tub joy aholi mamlakat aholisining 1/6 qismini tashkil etadi. Biroq ular - katta imtiyozga ega bo'lgan kamChilikdan iborat.

Mamlakatda xalqaro turizmga katta ahamiyat berilgan. asosan tijorat va plyaj turizmi yaxshi rivojlangan. Turizmni rivojlantirish uchun mamlakatda barcha imkoniyatlar ishga solingan. chunki undan katta daromad tushadi.

Birlashgan Arab Amirliklari mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon bo'yicha turistik tashriflarning 0.77%i. yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlari bo'yicha 19.7%i Birlashgan Arab Amirliklari mamlakatiga to'g'ri keladi. 2002 yilda 2001 yilga nisbatan xorijiy turistik tashriflar 31.7%ga o'sganligi kuzatiladi (7.4.1-jadval).

Xalqaro turizm tushimlari bo'yicha. jahon turizm tushimlarining 0.28%i. yaqin Sharq mintaqasi tushimlarining 10.2%i BAA mamlakatiga to'g'ri kelgan. 2002 yilda 2001 yilga nisbatan 24.8%ga o'sish kuzatiladi.

Birlashgan Arab Amirliklari O'zbekiston Respublikasining 1991 yilning 26 dekabrda tan olgan va 1992 yilning 25 oktyabridan diplomatik munosabatlar o'rnatgan.

Toshkent-SHarja shaharlari o'rtasida aviatsiya aloqasi mavjud.

5. Isroil mamlakati turizmi

Osiyoning janubi-g'arbiy. O'rta Yer dengizi atrofidagi yaqin-Sharq davlati. Hududi BMT Bosh Assambleyasining 1947 yil 181-rezolyutsiyasiga asoslangan holda 20.770 kv.km. rasmiy tili - Ivrit tili. Aholining 82% iudaizm. 14% Islom va boshqa dinlarga e'tiqod qiladilar. 1948-1949 yillardagi Arab-Isroil urushi davomida 6.7 ming kv.km. 1967 yildagi «Olti kunlik urush» natijasida Iordan daryosining Farbiy qirg'og'i. Sharqiy Quddus Ierusalimdan 5.9 ming kv.km. Fazo Sektoridan 0.38 ming kv.km va Suriyaga qarashli Golend balandligidan 1.3 ming kv.km.

yer bosib olingan va hozirgacha turli mojarolarga sabab bo'lmoqda. Xalqaro tan olingan chegaralarga ega emas. Yirik shaharlari: Quddus. Tel'-Aviv. Xayfa. BMTning 1947 yildagi rezolyutsiyasiga xilof ravishda 1950 yil g'uddus Isroil davlatining poytaxti deb e'lon qilindi. Isroil parlamentar respublika. Ma'muriy jihatdan 6 okrugga bo'linadi. Umumiy aholisi 5.5 mln. kishiga yaqin. shulardan yahudiylar 82%ni, arablar 16%ni boshqa millat vakillari 2%ni tashkil etadi. Bu davlatning hozirgi aholisi asosan muhojirlar asosida ko'paydi. dastlab 600 ming aholisi bor edi xolos.

Ayniqsa. Sobiq SSSR va hususan O'zbekistonda yashagan yahudiylar ham o'z vatanlariga qaytganlar. Isroil o'z parlamentiga ega. Ammo. o'z konstitutsiyasiga ega emas. Davlat boshlig'i prezident bo'lib parlament (knesset) tomonidan 5 yilga saylanadi. Ijroi hokimiyati bosh vazir tomonidan olib boriladi.

Isroilning tashqi siyosatida AQSHning roli nihoyatda kuchli. ikkala davlat o'rtasida «Strategik ittifoq» mavjud. bu hujjat 1981 yili imzolangan. Bunga asosan AQSH Isroilga yiliga 3 mlrd. dollarlik iqtisodiy va harbiy yordam ajratadi. Isroil rivojlangan industrial davlatdir. Yalpi ichki mahsuloti 65.7 mlrd. dollarga teng. aholining o'rtacha yillik daromadi 11 ming dollar atrofida. Bu mamlakat iqtisodiyoti uchun o'ziga xos narsa shuki. harbiy sanoat xissasi baland va chet el sarmoyalariga asoslanib rivojlanish yetakchi o'rinni egallaydi. AQSH va Yevropa ittifoqi davlatlarining kapitali hal qiluvchi hisoblanadi. Iqtisodiy mo'tadillashtirish rejasiga asosan davlat harajatlari. shu jumladan. ijtimoiy himoya uchun ajratilgan mablag'lar keskin kamaytirilgan. ish haqi va baholar ma'lum tartibga solindi. oqibatda inflyatsiya darajasi 14-18%ga kamaydi. Tashqi qarzlar 18.4 mlrd. dollarga teng. Ishsizlik bu mamlakatda ancha yuqori - 10.5%ni tashkil etadi. Sanoatda aholining 26%i. qishloq xo'jaligida esa 11-12%i xizmat qiladi. Siyosiy barqarorlik yo'qligi sababli mudofaga katta e'tibor beriladi va bu sohaga yalpi ichki mahsulotning 25%i sarflanadi. Iqtisodiyotda sanoat YaIMning 30%ni. qishloq xo'jaligida esa 10%ni tashkil etadi. Sanoatda mudofadan tashqari elektronika meditsina. aloqa vositalari. komp'yuterlar. umuman fan rivojiga bog'liq sohalar tez rivojlanmoqda. YaMM-70.1 mlrd. dollar. jon boshiga 13.880 dollar. Mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 32.4 mlrd. dollarga teng. Asosiy savdo sheriklari AQSH. Yaponiya va Farbiy Yevropa mamlakatlari. Transport vositalaridan temir yo'llar uzunligi 600 km. avtomobil' yo'llari - 4750 km. Asosiy dengiz portlari: Ashdot. Xayfa.

Isroil mamlakati turizm bozorini 50%ga yaqinini Yaqin Sharq mamlakatlari. 3.1%ni Janubiy Osiyo mamlakatlari. 18.4%ni Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari. 19%ga yaqinini Yevropa mamlakatlari. 2.5-3.0%ni Amerika mintaqasi mamlakatlari. 6.5-7.0%ni Afrika mamlakatlari ta'minlaydi.

Isroil mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon bo'yicha turistik tashriflarning 0.34%i. yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlari bo'yicha 8.7%i Isroil mamlakatiga to'g'ri keladi. 2002 yilda 2001 yilga nisbatan xorijiy turistik tashriflar 3.8%ga o'sganligi kuzatiladi (7.5.1-jadval).

Xalqaro turizm tushimlari bo'yicha jahon turizm tushimlarining 0.30%i. yaqin Sharq mintaqasi turizm tushimlarining 11.1%i Isroil mamlakatiga to'g'ri kelgan. 2002 yilda 2001 yilga nisbatan 3.0%ga o'sish kuzatilgan.

Har bir xorijiy tashrif 600 AQSH dollarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich. jahon bo'yicha ko'rsatgichdan 12.5%ga past bo'lgan. yaqin Sharq mintaqasi bo'yicha 27.6%ga yuqori bo'lgan. Tahlil natijalarini ko'rsatishicha xalqaro turizm industriyasi Isroil mamlakatida yaxshi rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Isroil davlati mustaqil O'zbekistonni 1991 yilning 25 dekabrda tan olgan va 1992 yilning 21 fevralidan boshlab diplomatik munosabatlar o'rnatilgan.

Toshkent - Tel-Aviv shaharlari o'rtasida aviatsiya aloqasi mavjud. Ikkala mamlakat o'rtasida siyosiy. iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatilgan.

Isroil mamlakatida 400 dan ortiq nomda matbuot nashri chop etiladi. SHular ichida eng yirigi «Mlarf» ro'znomasi 150-170 ming nusxada chop etiladi. «Gaarets» ro'znomasining tirajini 50 ming nusxa bo'lib. ivrit tilida chop etiladi. hozirgi kunda muhojirlarning talabini qondirish

uchun rus tilida ham bir qancha ro'znom va oynomalar chop etilmoqda.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати **Асосий адабиётлар**

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

Ма’руза 7: Африка минтақаси мамлакатлари туризми

Reja

1. Африка минтақасининг умумий тавсифи
2. Африка минтақаси халқаро туризм ҳаракларининг ривожланish динамикаси
3. Janubiy Afrika respublikasi turizmi
4. Tunis va Marokash mamlakatlari turizmi

Таянч иборалар ва со’злар: *Африка минтақаси, Африка регионлари, Janubiy Afrika, Turistik regional, Xalqaro turizm, axoli badligi, Dunyo mintaqalari, turistlarni sug’urtalash, imtiyozlar, qidiru-qutqaruv, xizmatlari, tibbiy xizmat, turizm soxasidagi suboektlar vazifasi*

Bu bo’limda Afrika minraqasining umumiy tavsifi. Afrika minraqasi mamlakatlari xalqaro turizm harakatlarining sust darajada rivojlanish sabablari. Afrika minraqasi hududlari bo’yicha Shimoliy. Farbiy. Markaziy. Sharqiy va Janubiy Afrika mamlakatlari turizm iqtisodiyoti. Afrika minraqasiga qilingan xorijiy tashriflar va xalqaro turizmdan kelib tushgan tushimlar tahlil qilinadi.

Yaqin Sharq minraqasi mamlakatlari xalqaro turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi. Yaqin Sharq minraqasi mamlakatlari qilingan tashriflar va ulardan kelib tushgan tushimlar tahlili. Yaqin Sharq minraqasi mamlakatlari xalqaro turizm bozorini ta’minlovchi asosiy mamlakatlar. minraqada doimiy ravishda xalqaro turizm harakatlarining tebranib turish sabablari ko’rsatiladi.

Minraqa mamlakatlari bilan O’zbekiston Respublikasi o’rtasida olib borilayotgan diplomatik munosabatlarni yoritish bilan bu bo’lim yakunlanadi.

1. Африка минтақасининг умумий тавсифи

Африка минтақасининг умумий maydoni 30.3 mln. kv.km. Африка минтақаси hududi shimoldan janubga 8 ming km. ga. Farbdan Sharqqa tomon esa 7.5 ming km. ga cho’zilgan.

Dunyodagi hech qaysi materik mustamlakachilik zulmi va qul savdosi bo'yicha Afrikachalik jafu chekkan emas. XX asr boshiga kelib butun Afrika mustamlakachilik materigiga aylandi va bu hol ko'p jihatdan hamma sohalarida quloq bo'lib qolishini belgiladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng mustamlakachilik tizimi qadamma-qadam tugatila bordi va hozirgi kunda mintaqada 55 mustaqil mamlakatlar mavjud. Bularning deyarli barchasi ozodlikka erishgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Janubiy Afrika respublikasi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar toifasiga kiradi. Afrika ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha boshqa mintaqalardan ancha orqada. Buning ustiga bu quloqlik xatto hozirgi kunda ortib bormoqda.

Afrika mamlakatlarining ko'pchiligi hududiga ko'ra Yevropa mamlakatlaridan yirikdir. Afrika mintaqasida hududiga ko'ra eng katta mamlakat Sudan (2.5 mln. kv. km.) hisoblanadi. U Yevropa mamlakatlarining eng kattasi bo'lgan Frantsiyadan 4-5 baravar katta. Jazoir. Zoir. Liviya. Angola. Efiopiya. JAR ham maydoniga ko'ra Frantsiyadan 2-3 baravar katta. Afrika mintaqasida yer resurslari ancha katta bo'lishiga qaramasdan yer osti boyliklari. foydali qazilmalari. suv resurslari nihoyatda notekis taqsimlangan. bunday holat Afrika mintaqasi mamlakatlarini rivojlanishiga katta to'sqinlik qiladi.

Afrika yer yuzidagi «eng issiq materik». binobarin u issiqlik resurslari bilan juda yaxshi ta'minlangan. Biroq materik hududi bo'ylab suv resurslari nihoyatda notekis taqsimlangan. Bunday holat qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarining rivojlanishiga va umuman aholisining hayotiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Afrika mintaqasi aholisining etnik tarkibi bilan bog'liq muammolar ham talaygina va juda xilma-xildir. Etnograf olimlar materikda 300 dan 500 tagacha etnosni. ya'ni xalq. qabila. qavm. urug' elat va hokazolarni ajratadilar. Ularning ayrimlari. ayniqsa Shimoliy Afrikada. yirik millatga aylanib bo'ldilar. biroq ko'pchiligi hamon elat va qabila darajasida qolib kelmoqdalar. buning ustiga ko'p joylarda urug'-qabilaChilik tizimini qoldiqlari saqlanib kelmoqda.

Afrikaning ozodlikka erishgan mamlakatlarida ilgari. ya'ni mustamlakachilik davridagi chegaralar hamon saqlanib kelmoqda: vaholanki. ular bir vaqtlar aholining etnik xususiyatlarini hisobga olmay o'tkazilgan edi. Buning natijasida ko'plab yaxlit xalqlar davlat chegarasining ikki tomonida qolib kelmoqda. Bu hol hanuz etnoslararo ziddiyatlar va hududiy ixtiloflarga sabab bo'lmoqda. ular ko'pincha harbiy to'qnashuvlarga. «etnik qochoqlar» sonining ko'payib ketishiga olib kelmoqda. O'tmish sarqitlaridan yana biri shuki. xanuz ko'pchilik Afrika mamlakatlarida davlat tili sobiq metropoliyalarning tili. ya'ni ingliz. frantsuz. portugal tillari bo'lib qolmoqda.

Yuqorida ko'rib o'tilgan jiddiy muammolar mintaqada nafaqat xalqaro turizmini boshqa sohalarini ham rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Afrika juda katta tabiiy va aholi salohiyatiga qaramay. hamon dunyo xo'jaligining hamma sohalarini bo'yicha eng quloq qismi bo'lib kelmoqda. Binobarin. mintaqada hozirgi rivojlanish bosqichining bosh vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy tub o'zgarishlarni jadallashtirish orqali. murakkab muammolarni o'z vaqtida hal etishdan iboratdir.

2. Afrika mintaqasi xalqaro turizm haraklarining rivojlanish dinamikasi

Afrika mintaqasida boshqa sohalar kabi xalqaro turizm ham nihoyatda sust darajada rivojlanmoqda siyosiy beqarorlik. millatlararo va diniy ziddiyatlar xorijiy sayyohlarning mintaqaga bo'lgan qiziqishlarini ma'lum darajada pasaytirmoqda.

Turizm bozorini generatori bo'lib Afrika mintaqasi mamlakatlari hisoblanadi. Umumiy xorijiy tashriflarning 56.0%i Afrika mintaqasi mamlakatlariga to'g'ri keladi. Afrika mintaqasi turizm bozorini asosan Yevropa mamlakatlari ta'minlar edi. «CHO'ldagi bo'ron» urushi ta'sirida Yevropa mamlakatlaridan tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar 51% dan 34.1% ga kamayganligi kuzatiladi. Amerika mintaqasi mamlakatlarining tashriflari 5.3% dan 2.9% gacha kamayganligi kuzatiladi.

1970 yildan 1980 yillargacha xorijiy tashriflar va tushumlar miqdori bo'yicha sezilarli darajada o'sish kuzatilgan. 1985-90 yillarda rivojlanish sur'atlari pasaygan. 1991-96 yillarda esa tashriflar soni o'sganligi bilan. tushumlar miqdori pasayib ketgan. Xorijiy tashriflar jahon xalqaro turizm harakatlarining 3.3%ini. tushimlar miqdori bo'yicha esa 1.8% ni tashkil qilgan.

Oxirgi yillarda Afrika mintaqasining Shimoliy hududlarida. O'rta yer dengizi janubiy qirg'oqlarida ommaviy turizmga e'tibor qaratilganligi munosabati bilan 2000 yillarga kelib bir muncha ijobiy siljishlar kuzatiladi. 1996 yilda mintaqaga 19.4 mln xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lsa. 2000 yilga kelib ularning soni 27.4 mln kishiga yetadi. Ya'ni tashriflar 1.4 marttaga oshadi. Turizm tushumlari mintaqada 8.7% ga ko'payib. jahon turizm tushumlarining 2.28% ni tashkil etadi. Afrika mintaqasiga tashrif buyurgan xorijiy turistlarning asosiy qismi Fransiya. Germaniya. Buyuk Britaniya mamlakatlari aholisiga to'g'ri keladi va umumiy xorijiy tashriflarning 20% ni tashkil qiladi.

**Afrika mintaqasi hududlari bo'yicha 1990-2002 yillarda
xalqaro turistik tashriflar**

| Hududlar | Xalqaro turistik tashriflar mln. kishi | | | | | O'zgarishi % | | Ulushi |
|---------------------------|--|------|------|------|------|--------------|-----------|--------|
| | 1990 | 1995 | 2000 | 2001 | 2002 | 2001/2000 | 2002/2001 | 2002 |
| Shimoliy Afrika | 8.4 | 7.3 | 10.1 | 10.6 | 10.3 | 4.8 | -2.4 | 1.5 |
| Farbiy Afrika | 1.4 | 1.9 | 2.6 | 2.7 | 2.9 | 4.9 | 7.4 | 0.4 |
| Markaziy Afrika | 0.4 | 0.4 | 0.7 | 0.7 | 0.7 | 0.0 | 0.0 | 0.1 |
| Sharqiy Afrika | 2.8 | 4.5 | 5.9 | 6.2 | 6.3 | 6.0 | 1.6 | 0.9 |
| Janubiy Afrika | 2.0 | 6.0 | 8.1 | 8.1 | 8.9 | 0.0 | 9.8 | 1.3 |
| Afrika mintaqasi bo'yicha | 15.0 | 20.1 | 27.4 | 28.3 | 29.1 | 3.2 | 2.8 | 4.1 |

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti.

Afrika mintaqasi bo'yicha eng ko'p xorijiy mehmonlar Shimoliy Afrika hududiga tashrif buyuradilar. Asosiy tashriflar Marokash va Tunis mamlakatlariga to'g'ri keladi. Afrika mintaqasiga qilingan tashriflarning 45%ga yaqini ushbu mamlakatlarga to'g'ri keladi. bu mamlakatlarga qilingan har bir xorijiy tashrif 300 AQSH dollarni tashkil qiladi.

Afrika mintaqasida. Janubiy Afrika mamlakati yuqori darajada rivojlangan mehmonxona xo'jaligiga va transport tizimiga. hamda zamonaviy xalqaro turizm industriyasiga ega bo'lganligi sababli mintaqada eng yuqori ko'rsatgichga erishgan. Mintaqaga qilingan xorijiy tashriflarning 22.5%i. xalqaro turizm tushimlarining 23.1% Janubiy Afrika mamlakatiga to'g'ri kelgan. Har bir turistik tashrif 415 AQSH dollarni tashkil qilgan. Mintaqa bo'yicha har bir turistik tashrif o'rtacha 405 AQSH dollarni tashkil qilgan. Mintaqaga nisbatan Janubiy Afrika mamlakatida +2.5% ga ijobiy o'zgarish kuzatilgan.

SHimoli Afrika hududida joylashgan Marokash va Tunis mamlakatlariga mintaq bo'yicha umumiy tashriflarning 40.0%i to'g'ri kelgan. 2000 yilga nisbatan 2001 yilda bu mamlakatlarda xorijiy tashriflar bo'yicha o'sish kuzatilgan. 2002 yilda 2001 yilga nisbatan esa 6.0% ga pasayish kuzatilgan.

Xalqaro turizm tushimlarining 30.3% bu mamlakatlarga to'g'ri kelgan. lekin 2001 yilga nisbatan 2002 yilda tushimlar miqdori 11.4% dan 14.8% ga pasayganligi kuzatilgan. har bir turistik tashrif o'rtaga 386 AQSH dollarni tashkil qilgan. Mintaqaga nisbatan bu mamlakatlarda -4.9% ga salbiy o'zgarish kuzatilgan. ya'ni mintaq ko'rsatgichlaridan past bo'lgan.

Umuman Afrika mintaqasi jahon turizm harakatlarining rivojlanish darajasidan anchagina orqada qolmoqda. chunki mintaqadagi ko'pgina mamlakatlar iqtisodiy rivojlanmagan. Moliyaviy mablag'larning yetishmasligi natijasida ta'sirchan infratuzilmaga ega emasligi sababli xalqaro turizm harakatlarining rivojlanishi sust darajada.

Afrika mintaqasiga 2002 yilda 29.1 mln. turistlar tashrif buyurgan. jahon turizm harakatlarining 4.1% ni tashkil qilgan. 2000 yilga nisbatan 2001 yilda 3.2% ga. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda esa 2.8% ga o'sish kuzatilgan. Xalqaro turizm tushimlari 11.8 mlrd. AQSH dollarni tashkil qilgan. jahon turizm tushimlarining 2.48%i Afrika mintaqasiga to'g'ri kelgan. Turizm tushimlari 2000 yilga nisbatan 2001 yilda 7.8% ga 2002 yilda 2001 yilga nisbatan 1.0% ga o'sganligi kuzatilgan. Afrika mintaqasiga qilingan. har bir tashrif o'rtacha 405 AQSH dollarni

tashkil qilgan (6.2.3-jadval).

3. Janubiy Afrika respublikasi turizmi

Janubiy Afrika respublikasi (JAR) Afrika qit'asining janubida joylashgan davlat. Hududi - 1 mln. 225 ming 315 kv.km. Aholisi 43.5 mln. kishi. 75%i qora tanlilar. 14%i oq tanlilar. qolganlarini Osiyo qit'asidan chiqqan aholi tashkil etadi. Yirik shaharlari Pretoriya. Keyptaun. Durban. Yoxannesburg. Port-Elizabet. Ma'muriy-hududiy jihatdan mamlakatda keyingi davrda ancha o'zgarishlar ro'y bergan va 9-provintsiyaga bo'lingan: Ottent. Shimoliy Transvaal'. Sharqiy Transvaal'. Shimoliy Farb. Kvazula (Natal). Farbiy Burun. Shimoliy Burun. Erkin hudud. Ayrim provintsiyalar xatto o'z poytaxtlariga ham ega. Janubiy Afrika respublikasi 1910 yil 31 mayda mustaqillikka erishgan. ungacha Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan. Rasmiy tili ingliz va afrika tili. Milliy bayrami 31 may respublika e'lon qilingan kun. Respublika 1961 yili e'lon qilingan. 1984 yili kuchga kirgan. Bu mamlakat ko'p yillar davomida mustamlaka asoratida bo'lgan. 1652 yili Gollandiya bu o'lkani egallab olib Kan mustamlakasini barpo qilgan edi. 1806 yilga kelib bu o'lka Buyuk Britaniya tomonidan zabt etiladi. Mustamlakaga aylangan bu yurtning mahalliy aholisi va burlar 1820 yilga kelib qit'aning ichki hududlariga ko'chirila boshlanadi hamda bir qancha mustaqil davlatlar barpo etiladi. Buyuk Britaniya 1843 yilda Natal' hududini anneksiya qiladi.

Keyinchalik yangi tashkil bo'lgan mustaqil davlatlar bilan mustamlakachilar o'rtasida bir necha bor urushlar bo'lib o'tadi.

1899-1902 yillari tarixda Angliya - Burlar urishi. deb nom olgan kurash natijasida Transvaal'. Oranj erkin davlatlari ham mustamlakaga aylantiriladi. Yangi egallangan hududlar 1910 yili Kan mustamlakasi bilan birga Janubiy Afrika Ittifoqiga birlashtirildi va Britaniya yarim mustamlakasi vujudga keldi. Mustamlaka yillari mahalliy aholini har tomonlama kamsitish siyosati amalga qo'llanilib. qora tanli aholini siqib chiqarish va alohida maxsus bantustanlarda joylashtirish siyosati amalga oshirildi. 1961 yili Janubiy Afrika respublikasi tashkil bo'lib. Buyuk Britaniya boshChiligidagi hamdo'stlikdan chiqadi. Ammo hokimiyat faqat «oq tanlilar» qo'liga beriladi. Oqibatda uzluksiz kurashlar davom etib. 1992 yili barcha irqChilik qonunlari bekor qilindi. 1994 yili erkin umumiy saylovlar bo'lib. hokimiyat tepasiga mahalliy aholi vakili keladi.

Janubiy Afrika respublikasi qit'adagi eng rivojlangan mamlakat bo'lib. industrial agrar davlatlar guruhiga kiradi. Lekin bu davlatda yuksak rivojlangan sanoat yuqori texnologiya va infratuzilma bilan birga qoloq. xom ashyo eksportiga mos ishlab chiqarish shakllari ham saqlangan.

Janubiy Afrika respublikasini ikkiyoqlama iqtisodli mamlakat deb atash mumkin. chunki unda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning ham. rivojlanayotgan mamlakatlarning ham xususiyati birday uyg'unlashgan. Afrikaning Sahroi Kabirdan Janubda joylashgan mamlakatlari orasida Janubiy Afrika respublikasi alohida o'rin tutadi. Birinchidan. u geografik o'rniga ko'ra Tropik Afrikaga kirmaydi. Ikkinchidan. u rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga ham kirmaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek u Afrika materigidagi iqtisodiy jihatdan rivojlangan birdan - bir mamlakatdir. U iqtisodiy rivojlanishning barcha ko'rsatgichlari bo'yicha Afrika mintaqasida birinchi o'rinda turadi.

JAR da Afrikaning eng yirik sanoat rayoni - Vitvatersrand shakllanib. uni ko'pincha. «Afrika ruri» deb ataydilar. Uning poytahti - Yoxannesburg. katta zamonaviy shahar mamlakatning iqtisodiy poytaxti hisoblanadi.

Mamlakatning asosiy boyligi tog' - kon sanoatida yaratiladi: oltin. platina. olmos. xrom. vannadiy zahiralari va ularni qazib olish bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlarni egallagan. oltin qazib olish bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi. Aholining 35% sanoatda. 32% xizmat ko'rsatish sohaslarida. qolganlari esa qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatadi.

Yalpi ichki mahsulot miqdori yiliga 171 mlrd. AQSH dollarga teng bo'lib. 40%i industriya sohasiga. 8.2%i transport va aloqa sohasiga. qolgan qismi xizmat ko'rsatish. qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga to'g'ri keladi. Mamlakat rivojiga xos muhim xususiyat. bu xorij sarmoyalarining iqtisodiyotda yetakchi o'rinda ekanligidir. Eng yirik sarmoyalarni Buyuk

Britaniya. Germaniya. Frantsiya kompaniyalari joylashtirgan.

YaMM - 194 mlrd. AQSH dollar. jon boshiga 4420 AQSH dollarni tashkil etadi. Temir yo'llar uzunligi 20.6 ming km.. avtomobil yo'llar uzunligi 188.4 ming km. ni tashkil etadi. Asosiy portlar Durban. Keyptaun. Port - Elizabet. Tashqi savdo aylanmasi ijobiy sal'doga ega. Asosiy savdo sheriklari Buyuk-Britaniya. Germaniya. Italiya. AQSH. Yaponiya. ya'ni industrial rivojlangan mamlakatlar.

Mamlakat daromadida xalqaro turizm katta o'rinni egallaydi. turizm sohasida yilga 2.7 mlrd. AQSH dollar bo'yluk byudjetga tushadi.

Yalpi ichki mahsulotning 1.6%i turizm sohasida yaratiladi. Yalpi milliy mahsulotning 1.39% ni xalqaro turizm tushimlari tashkil etadi.

Janubiy Afrika respublikasining madaniy merosi juda katta. Bu meros xalq ijodi. ya'ni fal'klorni. juda qadimgi devor yozuvlarini yozish an'analarini saqlab qolgan amaliy dekkorativ san'atni o'z ichiga oladi. o'zining musiqa madaniyatiga. ashula va raqs uslublariga. musiqa asboblariga ega va ularni saqlab kelmoqda. Qadim zamonlardan beri turli xil teatrlashtirilgan tomoshalar va turli xil sayillar o'tkazilib kelinadi.

Janubiy Afrika respublikasi xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon turistik tashriflarning 0.9%i. Afrika mintaqasi mamlakatlariga qilingan tashriflarning 22.5% Janubiy Afrika respublikasiga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tashrifi 10.9%ga ko'paygan.

Xalqaro turizm tushimlari bo'yicha jahon turizm daromadlarining 0.6%i. Afrika mintaqasi tushumlari bo'yicha 23.1% ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 8.7% ga o'sganligi kuzatilgan.

Har bir xorijiy tashrif Janubiy Afrika respublikasida 415 AQSH dollarni tashkil etgan. Bu ko'rsatgich jahon bo'yicha 62.6% ga past bo'lgan. Afrika mintaqasi bo'yicha 2.5% ga yuqori bo'lgan.

4. Tunis va Marokash mamlakatlari turizmi

a) Tunis mamlakati xalqaro turizm faoliyatining iqtisodiy tahlili

Tunis Shimoliy Afrika hududida joylashgan mamlakat. Afrika mintaqasiga qilingan xorijiy tashriflarning yarmidan ko'prog'i Shimoliy Afrika hududiga to'g'ri keladi. Bu hududida joylashgan Tunis va Marokash mamlakatlari Afrika mintaqasiga qilingan umumiy xorijiy tashriflarining 45% ga yaqinini tashkil etadi.

Shimoliy Afrikaning umumiy maydoni 10 mln. kv.km.ni tashkil qiladi va aholisi 150 mln. kishidan iborat. Bu hududning geografik o'rni avvvolo O'rta yer dengiziga ro'para ekanligi bilan bog'liq. SHu tufayli Shimoliy Afrika amalda Janubiy Yevropa va Janubiy-Farbiy Osiyo bilan qo'shni Yevropadan Osiyoga boradigan asosiy dengiz yo'llariga to'g'ridan to'g'ri chiqa oladi. Sahroi Kabirning aholi nihoyatda siyrak yashaydigan hududilari mintaqaning ichki qismi hisoblanadi.

Shimoliy Afrika - qadimgi Misr madaniyatining beshigi bo'lib. uning dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Antik davrda Afrikaning O'rta yer dengiz bo'yi qismi qadimgi Yunoniston va Rimning asosiy ekinzor yerlari bo'lgan edi: yer osti suvlari to'planadigan galereyalar va boshqa xil inshootlar izlarini hayotsiz xuvullab qum va toshlar«dengizi» orasida hamon uchratish mumkin. Qirg'oq bo'yidagi ko'p shaharlar hayoti tarixi qadimgi yunon. rim va Karfgenliklar bunyod etgan shahar hamda qishloqlardan boshlanadi. VII - XII asrlardagi arab tsivilizatsiyasi. ya'ni yuksak ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniyati Shimoliy Afrika aholisining etik tarkibi. madaniyati. dini va turmush tarziga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatgan. Bu hududini hozirda ham «arablar afrikasi» deb ataydilar. Uning deyarli barcha aholisi arab tilida so'zlashadi va islom diniga e'tiqod qiladi. Ko'p zamonaviy shaharlariga ham arablar asos solganlar.

Shimoliy Afrikaning xo'jalik hayoti Kashbar dengiz bo'yi hududlarida to'plangan. Bu yerlarda sanoatning asosiy ishlab chiqaruvchi markazlari. subtropik dehqonChilikning yetakchi rayonlari joylashgan. Tabiiyki. region aholisining deyarli barchasi shu polosada to'plangan. Qishloq joylarda yassi hamda loy tomli paxsa va xom g'ishtli uylar eng ko'p tarqalgan.

SHaharlar qiyofasi ham nihoyatda o'ziga xos. Mana shuni hisobga olib etnograf. ya'ni

Marokash respublikasi xalqaro turizm faoliyatining iqtisodiy tahlili

| Xalqaro turistik tashriflar (mln. kishi) | | | | | | Xalqaro turizm tushumlari (mlrd. AQSH dollari) | | | | | |
|---|---------------------------------------|--|------------------------|-----------------------------------|--|---|---|---------------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|---|
| Jahon bo'yicha tashrif-lar | Afrika mintaqasi bo'yicha tashrif-lar | Marokash mamlakati-ga qilingan tashrif-lar | Jahon bo'yicha ulushi% | Afrika mintaqasi bo'yicha ulushi% | 2002 yilda 2001 yilga nisbatan o'zgarishi% | Jahon bo'yicha umumiy tushum | Afrika mintaqasi bo'yicha umumiy tushum | Marokash mamlaka-ti turizm tushumlari | Jahon tushumlari bo'yicha ulushi% | Afrika mintaqasi bo'yicha ulushi% | 2002 yilda 2001 yilga nisbatan o'zgarish% |
| 702.6 | 29.1 | 4.193 | 0.60 | 14.4 | -0.7 | 474.2 | 11.785 | 2.152 | 0.45 | 18.3 | -14.8 |

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti.

Tunis mamlakati xalqaro turizm faoliyatining iqtisodiy tahlili

6.4.1-jadval

| Xalqaro turistik tashriflar (mln. kishi) | | | | | | Xalqaro turizm tushumlari (mlrd. AQSH dollari) | | | | | |
|---|--------------------------------------|---|------------------------|-----------------------------------|---|---|---|-----------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|--|
| Jahon bo'yicha tashrif-lar | Afrika mintaqasi bo'yicha tashriflar | Tunis mamlaka-tiga qilingan tashrif-lar | Jahon bo'yicha ulushi% | Afrika mintaqasi bo'yicha ulushi% | 2002 yilda 2001 yilga nisbatan o'zgarishi % | Jahon bo'yicha umumiy tushum | Afrika mintaqasi bo'yicha umumiy tushum | Tunis mamlakati turizm tushumlari | Jahon tushumlari bo'yicha ulushi% | Afrika mintaqasi bo'yicha ulushi% | 2002 yilda 2001 yilga nisbatan o'zgarish % |
| 702.6 | 29.1 | 5.064 | 17.4 | -6.0 | 0.72 | 474.2 | 11.785 | 1.422 | 0.30 | 12.1 | -11.4 |

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti.

elshunoslar alohida arab shahri tipini ajratadilar. Bu shaharlar ham odatda boshqa Sharq shaharlari kabi ikki qismga - eski shahar va yangi shaharga bo'lingan bo'ladi.

Eski shaharlarning asosini. odatda kasba. ya'ni baland joyda. tepalikda joylashgan istehkom tashkil etadi. Kasbani eski shaharning boshqa dahalari zich xalqa tarzida o'ralib turadi: bu dahalar tomi yassi. hovlisi gir aylantirib devor bilan o'rab olingan pastak uylardan tashkil topgan bo'ladi. Bu - dahalarning eng ajoyib. e'tiborga loyiq qismi - rang-barang Sharq bozorlaridir. Ko'pincha himoya devorlari bilan o'rab olingan bu eski shahar Madina deyiladi.

Madinadan tashqarida shaharning yangi. zamonaviy qismi joylashadi. SHaharning bu yangi qismi ham ko'pincha shahar kambag'allarining haroba kulbalari xalqasi bilan o'ralgan bo'ladi. Bunday keskin tafovutlar eng katta shaharlar qiyofasida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi: bu shaharlarning qiyofasi faqat milliy ruhda bo'lmay. kosmopolitik belgilarga ham egadir. Shimoliy Afrika hududining janubiy qismi aholisi juda siyrak tarqalgan. asosan dehqonChilik bilan shug'ullanadi. Boshqa hududlarda faqat tuya boquvchi ko'chmanchilar yashaydi. Saxroi Kabirning Jazoir va Liviya qismlarida esa neft' konlari mavjud. Shimoliy Afrikaning janubiy qismida nafaqat turizm boshqa sohalar ham kam rivojlangan mamlakatlar joylashgan. Shimoliy Afrikada asosan Tunis va Marokash mamlakatlari xalqaro turizm rivojlangan hududlar hisoblanadi. Tunisda asosan plyaj turizmi yaxshi rivojlangan. Tunisda xalqaro turizm «CHO'ldagi bo'ron» urishidan keyingina rivojlana boshlandi. urishgacha bo'lgan davrda 1.5-1.7 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurar edi.

b). Marokash respublikasi xalqaro turizm faoliyatining iqtisodiy tahlili

Shimoliy Afrika hududida joylashgan yana bir mamlakat Marokash. O'rta dengiz qirg'oqlarida hamda Atlantika okeani qirg'oqlarida plyaj turizmi rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi. 1970-1980 yillarda mamlakatda davlat tomonidan badavlat mijozlar uchun elita turizmini rivojlantirish bo'yicha katta e'tibor qaratilgan edi.

Ammo 1990 yilga kelib ommaviy turizmga e'tibor qaratiladi. Marokash ham Tunis kabi 1965 yilgacha Frantsiya mamlakatining mustamlakasi bo'lgan. shuning uchun ham xorijiy tashriflarning 28-30%i Frantsiya mamlakatiga to'g'ri keladi. Marokash respublikasi turizm bozorini asosan Frantsiya. Germaniya. Buyuk Britaniya. Italiya. AQSH. Ispaniya. Shvedsariya. Niderlandiya hamda Arab mamlakatlari ta'minlaydi. Bu mamlakatga 1988 yilda 375-400 ming xorijiy tashriflar kuzatilgan bo'lsa. 1991 yilda ularning soni 1.5 mln. kishiga yetadi va 1992 yilda 2.0 mln. kishini tashkil qiladi. 2000 yilda 4.1 mln. 2002 yilda esa 4.2 mln. xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatilgan. Afrika mintaqasiga tashrif buyurgan turistlarning 14.5%ga yaqini. Shimoliy Afrika hududiga qilingan tashriflarning 40.1%i Marokash respublikasiga to'g'ri keladi. Marokash respublikasi xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarini ko'rsatishicha. jahon turistik tashriflarning 0.60%i. Afrika mintaqasi mamlakatlariga qilingan tashriflarning 14.4% Marokash respublikasiga to'g'ri kelgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda xorijiy turistlar tushimlari bo'yicha jahon turizm daromadlarining 0.45%. Afrika mintaqasi tushumlari bo'yicha 18.3%ni tashkil qilgan. 2001 yilga nisbatan 2002 yilda daromadlar miqdori 14.8%ga kamayganligi kuzatilgan (5.4.2-jadval).

Har bir xorijiy tashrif Marokash respublikasida 513 AQSH dollarini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich jahon bo'yicha 31.6%ga past bo'lgan. Afrika mintaqasi bo'yicha 26.6%ga yuqori bo'lgan.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

- 1.Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
- 2.Мирзиёев. Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
- 3.Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
- 4.Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув кўлланма) II қисм. Наманган. 2002.

- 5.Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
- 6.Усмонов М.Р.,Жумабоев Т.Ж.,Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
- 7.Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
- 8.Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

- 9.Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
- 10.Амиркулов К., Курбониезов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.

Ма’руза 10: Туризм индустрияси

Режа

- 1.О’zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning roli. Turizmning geografik xususiyatlari va uning tasnifi.
- 2.Xalqaro turizmning tarixi va rivojlanishi.
- 3.Turizmni geografik o’rganishning ilmiy – uslubiy jihatlari.
- 4.O’zbekistonning xalqaro turistik bozorga integratsiyalashuvi. O’zbekistonda mehmonxona industriyasini rivojlantirish tendentsiyalari
- 5.O’zbekistonda mehmonxona industriyasini rivojlantirishning mintaqaviy imkoniyatlari

Tayanch tushunchalar (kalit so’zlar): *Turizm industriyasi, Joylashtirish, Sayohatlar va sayohlik, Mahalliy turizm, Sog’lomlashtirish, sog’liqni tiklash, Diniy turizm, Sport turizmi, Tanishuv turizmi, turizm geografiyasi, Turizmning ekologik jihatlari. Tarixiy obidalar ekoturizmi. Tog’ ekoturizmi, dengiz turizmi, Halqaro turizm geografiyasi. Mehmonxonalarni «Harf» yordamida turkumlash. Yo’lduzlar yordamida turkumlash. Mehmonxonalarda asosiy xizmatlar. CHet tillarni bilish. Axloq, xulq – atvor. Meditsina (tibbiy) talablar. Uniforma.*

Туризм индустрияси бу – о’zaro bog’langan shunday tashkilotlar va tadbirkorlarki, ular turistlar iste’mol qilishi va turizm protsessini yurgazishi uchun kerakli xizmat, mexnat va mahsulotlar yig’indisidan iboratdir. Туризм индустрияси mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, transport vositalari, ommaviy ovqatlanish bo’ektlari, ko’ngilochar tashkilotlar, tanishuv soglomlashtirish, sport, diniy, madaniy va boshqa turoperatorlarlik va turagentlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, shu bilan birga turist-ekskursion va tarjimonlik xizmatlarini ko’rsatuvchi tashkilotlar yig’indisidir.

Туризм sohasida bir necha tashkilot turlari turizm faoliyatini amalga oshiradilar. Ular turizmni tashkil etuvchilar (turoperator, turagenstvo), tashuvchilar, mehmonxonalar, ommaviy ovqatlanish ob’ektlari, attraksion va boshqa turizmga yaqin xizmatlar. Hamma ko’rsatilgan tashkilotlar bir-birini tuldirib, turistlarga, turistlarga zarur bo’lgan xizmatlarini sifati, soni va xilma-xilligi bo’yicha yetarli darajada amalga oshirishlari kerak.

Жойлаштираш – туризмнинг eng asosiy elementi. Joylashtirish bo’lmasa turizm ham bo’lmaydi. Bu har bir turistdan ko’proq foyda olmoqchi va o’z resurislarni samarali ishlatmoqchi bo’lgan rayon yoki regionning o’zgarmas va qat’iy talabidir. Mehmonxona industriyasi mehmondo’stlik tizimining asosi. U har bir millatning qadimiy urf-odatlaridan biri – mehmondo’stlik, mehmonni xurmat qilish, uni yaxshi kutib olish va xizmat ko’rsatishdan kelib chiqadi.

SHuni ham eslatib o’tish lozimki, faqatgina tranzit turistlar va ekskursiyalardan tushgan mablag’larga yashovchi turist markazlari mavjud.

Joylashtirish vositalari va tizimi – turli xizmat ko’rsatish darajali, vaqtincha turist yashash uchun mo’ljallangan turli xildagi (chayla va bungalodan supergigant otelgacha) binolardir. Mehmonxonadagi joylar soni turistik markazning turistlarni qabul qilish potentsialiga baho berishda qo’llaniluvchi eng asosiy ko’rsatkichdir. Mehmonxonadagi joylar soni shu regionda turistlarni qabul qilish imkoniyatlarini aniqlab beradi. Nomer fondining bandligi ko’rsatkichi esa ma’muriyat va turizm tashkilotchilarning faoliyati samarasini aniqlab beradi. Rejalashtirishda xatolar qilish shunga olib keladiki, sezon avjiga chikkanda oldindan xaq to’lab quygan turistlar ham tshunmovChilik natijasida kuchada qoladi. Bugungi kunda mehmondo’stlik industriyasi

regionning eng kuchli tizimi va Iqtisodiyotning eng muhim soxasidir. Mehmonxona industriyasini yakka va jamoalashgan joylashtirish.

Aholining o'zi yashab turgan mintaqqa, hudud, o'lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish maqsadida uyushtirilgan rekreatsion faoliyat turiga **sayohat, ya'ni turizm deyiladi**. «Turizm» termini frantsuzchadan olingan bo'lib, «**tour**» - **aylana, aylanma harakat va «sayr-sayohat»** degan ma'noni anglatadi. 1963 yilda BMT-ning Xalqaro turizmga oid Rim konferentsiyasiga muvofiq «sayyoh» deb, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga safarga borib, kamida 24 soat ichida o'sha yerda turib, sayyohlik xizmatidan foydalangan kishiga aytiladi (Mironenko, Tverdoxlebov, 1981, b.11). Agar kishilarning ana shu muddat davomida

mamlakat hududining boshqa joyida o'zi yashab turgan manzildan tashqarida bo'lishi mahalliy turizm deyiladi.

R. Abdumalikovning fikricha, turizm- sayohat paytida «tur» (belgi) o'rganish degan ma'noni bildirib, tog', adirlar va uzoq masofalarga sayohat qilish, oxirgi manzilga belgi qo'yib kelish yoki cho'qqiga chiqqanlikni bildirish uchun biron belgi qo'yishni anglatadi, deb ta'riflaydi (Abdumalikov, 1978). Bu fikr ko'proq maktab o'lkashunosligi va turizmi bilan bog'liqdir.

Webster lug'atiga ko'ra «**tourist**» so'zi – xursandChilik yoki qiziqadigan sayohatga chiqadigan odam deb ifodalanadi. XIX asrdagi boka lug'atda «odamlar xursandChilik uchun, qiziquvchi va boshqa ishlari yo'qligida sayohatga chiqadilar» yoki «odamlar kiyim boshqalarga maktanish uchun sayohatga chiqadi» degan ifodaoarni ukish mumkin.

Sayohatlar va sayohlik – bu biznesning bir – biriga yaqin turlari sayohatchilarga u yoki bu tug'risida xizmat ko'rsatadi. Ma'lum sayohlikka eng yaqinrok soxa – bu turlarni tarkatish, ya'ni sayyohlik agentliklarini faoliyatidir bunda bevosita aviakompaniyalar, avtomobillar ijarasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar, temir yo'llar, avtobus marshrutlari, mehmonxonalar va restoranlar qatnashadilar. Bu guruxlarni hammasi sayyohlik infrastrukturasini ifodalaydi. Qo'yish biznes turlariga xizmat ko'rsatish soxasini rivojlantiruvchi va sayyohlarni kredit kartochkalarini ta'minlovchi moliyaviy strukturalar kiradi.

Kishilarning biror mintaqadan yoki hududdan boshqa joylarga safar qilishida bevosita geografik xususiyatlar, ya'ni qulay tabiiy geografik sharoit va siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm geografiyasi, A.Soliev fikricha, bu «jonli, faol» yoki «harakatdagi geografiya» dir. CHunki, biror turistik ob'ektini ko'rish uchun o'sha joyga borib bevosita ko'rishi lozim. Bu maqsadga esa geografik marshrutlar asosida amalga oshiriladi. Qolaversa, geografiya fanining tarixi, kelib chiqishi ham ko'p jihatdan aynan turli xil sayohatlarga, hozirgi zamon tili bilan aytganda, turizmga bog'liq.

Turistik resurslar maqsad va vazifalariga ko'ra tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi (Putrik, Sveshnikov, 1986). SHu jihatdan turizm geografiyasi bilan rekreatsiya geografiyasining farqlarini aniqlash muhim masaladir.

Ba'zi olimlar fikricha, turizm o'zining umumiy xususiyatlari va vazifalariga ko'ra uch tipga ajratildi; 1. Davolanish, 2. Sog'liqni tiklash-sport 3. Tanishuv turizmi (Erdavletov,2000). Bizning fikrimizcha, yuqoridagi tipologik vazifalarni hisobga olgan holda turizmni sog'lomlashtirish va sport, tanishuv, diniy, kasbiy va boshqa turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Dmitrevskiy bulardan tashqari, ilmiy, ekskursion, festival, xizmat, qishloq turizmlarini ham belgilagan (Dmitrevskiy, 2000)

SHu bois, sayyohning marshrutlarga chiqishidan maqsadi va istagi har xil bo'lishini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Turistik faoliyatda sayyoh yakka yoki maxsus marshrut asosida safarga chiqishi mumkin. SHuningdek, sayohat paytida bir vaqtning o'zida ko'pgina maqsadlarni, ya'ni, turizmning ko'pgina vazifalarida ishtirok etishi ham nazardan holi emas Aholining turmush sharoitini yaxshilanib borishi, uning bo'sh vaqtini ko'payishi, oilaning moddiy daromadini o'sishi dam olish paytlarini ko'ngildagidek o'tkazishga sabab bo'ladi. SHu bois, kishilar dunyoni ko'rish, tabiat qo'ynida dam olish, sog'lig'ini tiklash va boshqa turistik manbalardan foydalanishni istashadi. Bu esa bevosita turizm geografiyasi bilan bog'liq masaladir. CHunki, kishilar dunyoni xaritadan emas, balki o'z ko'zlari bilan ko'rishni istashadi

(Zachinyaev, Fal'kovich, 1972). Darhaqiqat, sayohat davomida sayyohlar hududlarning turistik imkoniyatlarini safarlar uyushtirish orqali amalga oshiradi. Bu turizmning o'ziga xos xususiyatidir. SHu o'rinda, turizmning turlari va ko'rinishlari, jumladan, tashkiliy asoslari, davomiyligi, mavsumiyligi va yosh jihatlari turlicha bo'lishini hisobga olish lozim (3-chizma).

Ma'lumki, turizmning 2 asosiy bo'limi mavjud bo'lib, bular ichki (mahalliy) va tashqi (halqaro) turizmdir. Mahalliy turizm - bu o'z mamlakati hududida qiyinChiliksiz (vizasiz, bojxona to'siqlarisiz va h.k) istalgan joyga safar qilishi, dam olishi va boshqa turistik faoliyatda mashg'ul bo'lishidir. Mahalliy turizm bilan xalqaro turizm bir biri bilan chambarchas rivojlanib boradi. Ammo mahalliy turizmda so'zlashuv, transport (ko'pChilik o'z shaxsiy avtomobillarida sayohat qilishini hisobga olib) va boshqa muammolar ancha oson kechadi.

Mahalliy turizmning mintaqamiz (Markaziy Osiyo) uchun eng muhim jihati tanlagan sayyohlik marshruti bilan birgalikda diniy qadamjoylarga ziyorat qilishi hamda qarindosh-urug' va do'stlarni ko'rish bir vaqtning o'zida amalga oshishi mumkin. Mahalliy turizm o'zi yashab turgan mintaqani ko'rishi va o'rganishi orqali ma'naviy dunyoqarashi oshadi hamda vataniga muhabbat uyg'onadi, shuningdek, aholini sog'lomlashtirish, ish qobiliyatini tiklash va mehnat resurslarining faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xalqaro turizm - bu bir davlatdan boshqa davlatga uyushtiriladigan sayohatdir. U viza, meditsina tekshiruvi, valyuta almashtirish va boshqa ko'pgina tadbirlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro turizm ma'lum maqsadda uyushtirilgan marshrut yo'nalishi asosida guruh yoki yakka tartibda kechishi mumkin. Bunda eng avvalo sayyohlar shu davlatning o'ziga xos bo'lgan tarixiy obida va shaharlari, madaniyati, san'ati, urf odati bilan tanishish hamda boshqa betakror turistik ob'ektlaridan zavq olishdan iboratdir. SHuningdek, xalqaro turizm sport musobaqalari, ilmiy anjumanlar, konferentsiya, madaniy aloqalar, diniy marosimlar (masalan, haj safriga borish) bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Sog'lomlashtirish, sog'liqni tiklash turizmi bevosita rekreatsiya turizmi bilan bog'liq bo'lib, kishilarning mehnat ta'tili vaqtlarida o'z salomatligini va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan faoliyatdir. Sanatoriya-sog'lomlashtirish rekreatsiya majmuiga kurort deyiladi. «**Kurort**» so'zi nemis tilidan olingan bo'lib, u «**davolanadigan joy**» ma'nosini anglatadi.

Diniy turizm halqlarning o'z diniga bo'lgan xurmati va e'tiqoti nuqtai nazaridan muqaddas qadamjoylar, shaharlar, qabriston va aziz sanalgan maskanlarga ziyorat qilishdir.

Sport turizmi - sport o'yinlariga, musobaqalarga va sport musobaqalari o'tkaziladigan mintaqaga yoki mamlakatga sportchilar bilan birgalikda muhlislarning tashrifi demakdir. Qayd etish joizki, hozirgi paytda turizmning bu tarmog'i katta daromad manbai sifatida tez o'sib bormoqda.

Tanishuv turizmi keng qamrovli bo'lib, sayyohlikning barcha tarmoqlari bilan chambarchas bog'liq. Turizmning bu tarmog'ida sayohat paytida sayyoh yangi joylar bilan tanishish, ko'rish bilan ma'naviy zavq oladi. SHuning uchun yuqoridagi turizmning funksional turlaridan barchasida asosan bu tarmoqning bevosita ishtirok etishi xarakterlidir.

SHunday qilib, **turizm geografiyasi (TG) iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir bo'lagi bo'lib, u turli mamlakat va mintaqalarda sayyohlikning shakllanishi, rivojlanish va xududiy tashkil etish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o'rganadi.** TG hududiy harakat oqibatida, ya'ni yer yuzining turli tomonlariga geografik marshrutlar uyushtirish asosida vujudga keladi. Bu esa mintaqada xizmat ko'rsatish geografiyasini tashkil etish va rivojlantirishga ham sababchi bo'ladi.

Turizmning ekologik jihatlari. Turizmni iqtisodiy geografik jihatdan baholashda aholi va uning xo'jalik faoliyatining o'sishi tabiatga, tabiiy muhitga salbiy ta'siri o'rganilsa, tabiiy geografiyada esa atrof-muhit, tabiiy komponentlar va landshaftlarning antropogen omil ta'sirida o'zgarishi bilan bog'liq muammolar tahlil etiladi. Ushbu masalalar bilan turizmning nisbatan yangi yo'nalishi bo'lgan ekologik turizm yoki ekoturizm shug'ullanadi.

1997 yil Braziliyada bo'lib o'tgan Butunjahon kongressida qayd etilgan ma'lumotga ko'ra dunyo bo'yicha jami sayohatga chiqqanlarning 12 foizi ekoturizmda ya'ni, «yashil» sayohatga chiqishgan. G'arb olimlarining baholashicha, 1993 yil ekoturizmdan tushgan daromad 30 mlrd.

AQSH dollarini, ya'ni uning xalqaro turizmning daromad hissasi 10 foizni tashkil etgan. Sayohatning bu turi asosan AQSH, Kanada, Avstraliya, Nepal, Ekvador, Braziliya, Fillipin, Keniya, JAR davlatlarida tez rivojlanmoqda (Aleksandrova, 2002).

Dunyo miqyosida turizmning eng yangi yo'nalishlaridan biri- «ekoturizm»ning asosiy maqsadi turistik marshrutlarni hududiy tashkil etishda atrof muhitni, tabiiy muvozanatni saqlab qolishga e'tiborni kuchaytirishdir. SHu nuqtai nazardan ekologik turizm umumiy ekologik muammolarni yechish bilan uyg'unlashib ketadi. Bunda turizm landshaftlar ekotizimida turistik salohiyatidan ularga zarar ko'rsatmagan holda foydalanish jiddiy ahamiyat kasb etadi. Bu esa 1992 yilda Rio-de-Janeyroda BMT-ning atrof muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan konferentsiyasida qabul qilgan « barqaror rivojlantirish» tamoyiliga muvofiq keladi.

Turistik sayohatlarga chiqishdan maqsad sayohat paytida yangi joylarni ko'rish, tabiat go'zalligidan, toza tog' yoki o'rmon havosidan bahra olish, yovvoyi tabiat bag'rida dam olish, shuningdek, o'zga halq urf-odati, madaniyati, san'ati, tarixiy obidalarini ko'rishdan iboratdir. Binobarin, ekologik toza hudud ajoyib tabiat va boshqa rekreatsiya resurslari ekoturizmning muhim ob'ekti bo'lishi bilan birga, ayni vaqtda ekologik tang hududlarni ham tadqiq qilish ahamiyatdan xoli emas.

Ekologik turizmning o'sishini shundan ham ko'rish mumkinki, asosiy xalqaro turistik marshrutlar go'zal ekzotik tabiati va betakror turistik resurslari mavjud bo'lgan Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Amerika, Afrika davlatlariga, Gavayya orallariga to'g'ri kelmoqda. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro turizm bozorida ekoturizmning hissasi hozirgi vaqtda 1/5 ga yetdi.

Respublikamiz tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at, musiqa va boshqa turistik imkoniyatlarga nihoyatda boy. Bundan tashqari, O'zbekistonning betakror tabiati, tog' va daryolari, cho'l va vohalari, ko'l va landshaft zonalari asosiy rekreatsiya resurslaridir. Ularni ekoturizm nuqtai nazaridan o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dengiz va okeanlarda nihoyatda katta turistik imkoniyatlar mavjud. Keyingi paytlarda dunyo okeani bo'ylab yer sharining turli qismlariga sayohatlarga chiquvchilar soni tez o'sib bormoqda. CHunki, dengiz sarguzashtlari, iqlimi, go'zalligi, tabiati, hayvonot dunyosi, orollarining o'ziga xos tabiati bilan tanishish kishiga zavq bag'ishlaydi.

O'rmon ham dam oluvchi va tabiat qo'yniga sayr qiluvchi sayyohlarni o'ziga tortadi. O'rmon o'zining kislorod zaxirasi, o'simlik va xayvonot dunyosi bilan, shuningdek, sog'lig'ini tiklovchi va sokinlikni istovchi sayyohlar uchun muhim turistik ob'ekt hisoblanadi. SHu bois, botaniq bog'lar, parklar, milliy bog'lar sayyohlarning eng gavjum joylaridir.

Daryo va ko'llar o'ziga xos landshaft, mikroiklim hususiyatlari kishilarning asosan mavsumiy dam olishi, baliq tutishi, suv sporti, cho'milish joylari (plyajlar) va hokazolar sayyohlarni qisqa vaqt davomida maroqli dam olishini ta'minlaydi. Bejis emaski, hozirgi paytda ko'plab dam olish uylari ushbu turistik ob'ektlarda qurilgan.

Turizm yaxshi rivojlangan Italiya, Shvedsariya, Ispaniya kabi mamlakatlarda mahalliy va chet ellik sayyohlar uchun turistik firmalar tomonidan har xil marshrutlar asosida ekskursiyalar ko'proq daryo va ko'llarga uyushtiriladi. Bunda daryo va ko'llarning ekologik jihatdan tozaligini saqlab qolish nazarda tutiladi.

Respublikamizda ham qator katta va kichik daryo va ko'llar, suv omborlari mavjud bo'lib, ularning turistik salohiyati hozircha uncha ko'ngildagidek emas. Binobarin, bunday gidrologik ob'ektlaridan samarali foydalanish uchun avvalo keng ko'lamlı geografik va kartografik tadqiqotlar o'tkazish, sayyohlik bilan shug'ullanadigan firma va kompaniyalar qiziqishini oshirish lozim. Masalan, Samarqand shahri va uning atrofi ko'l va bog'lari nihoyatda turizm uchun qulay. Ammo shaharni kesib o'tgan Zarafshon daryosi qirg'oqlariga faqatgina tartibsiz mavsumiy, mahalliy sayyohlar kelib ketadi, xolos. Vaholonki, shaharning qulay turistik imkoniyati va demografik sig'imini hisobga olib, Zarafshon daryosi sohilida, Samarqand dengizi (Xishrav suv ombori) va boshqalarda turistik xizmatni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Orol dengizi va Orolbo'yi hududlari ekologik tang zona hisoblanadi. Bu hududga bevosita

tanishtiruv ahamiyatiga ega bo'lgan ekoturistik sayohatlar uyushtirish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, o'lkamizda qator baliq-ko'llar (mozorlar) mavjud bo'lib, ular Baxmal, Nurota, Yangiqo'rg'on va boshqa tumanlarda joylashgan. Albatta bunday ob'ektlarni ham mahalliy va xalqaro turizm dasturlariga kiritish lozim.

Tarixiy obidalar ekoturizmi. O'zbekistonning boy tarixi, uning bosib o'tgan yo'li va shon-shuhratidan dalolat beruvchi tarixiy obidalar uzoq yillardan beri saqlanib kelinmoqda. Biroq, keyingi yillarda aholi soni va ehtiyojining o'sishi, shaharlarning kengayishi va rivojlanishi (urbanizatsiya) sanoat hamda transportning yuksalib borishi ta'sirida bunday ob'ektlarda ekologik vaziyatning keskinlashuvi yuzaga kelmoqda. Demak, aytish mumkinki, tabiiy muhit, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi nomutanosiblik oxir oqibat ekologik vaziyatning yomonlashuvi, ekoturistik vaziyatning salbiy ko'rinishini vujudga keltiradi.

Tarixiy yodgorliklar bilan tanishish respublikamizda juda ko'p bo'lgan qadimiy shahar xarobalarini bevosita ko'rishni ham nazarda tutadi. SHu jihatdan Axxi, Afrosiyob, Ayoqqal'a, Kampirqal'a, Tuproqqal'a, Pop, Nasaf, Kosonsoy kabi shahar qoldiqlari sayyohlar diqqatini o'ziga jalb qilishi mumkin.

Tog' ekoturizmi bevosita tabiat bilan inson o'rtasida o'zaro to'qnashuvi qay tarzda kechishi bilan bog'liq. Yurtimizdagi ko'plab tabiat go'shalari borki, u bevosita sayyohlarning dam olish va sog'lomlashtirish vazifasini bajaradi. Binobarin, tog' hududidagi hushmanzara joylar chet ellik sayyohlar uchun ochilmagan qo'riqdir. Biz ularni qiziqтира olsak, har bir sayyohni tabiat qo'ynida dam olish va sog'lig'ini tiklashga erisha olsak ekoturizmning imkoniyatlari nihoyatda kengayadi. Ammo buning uchun ekologik vaziyat va turizm xizmatini yaxshilash talab etiladi.

Mahalliy sayyohlarning mavsumiy dam olish paytlaridagi tartibsizligi natijasida o'simlik va xayvonot dunyosining payhon qilinishi, lola, ravoch, kiyik o'ti, tog' piyozi kabi noyob, tibbiyotda foydalaniladigan o'simliklarning yo'q qilinishi shu joylarda noxush ekologik vaziyatni yuzaga keltiradi. Bunday hududlarni qo'riqlash, avaylab asrash, dam olishni va turistik marshurutlarni tug'ri tashkil etish lozim.

Halqaro turizm geografiyasi. Davlatlar o'rtasida sayyohlar ayriboshlash halqaro aloqalarning bir turi bo'lib, u turistik tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydi. Xalqaro turizm jahon xalqlarini bir-birini o'rganishga, xalqlar o'rtasida do'stona aloqani, savdo-sotiqni, madaniyat va ilm-fanni yusaltirishga xizmat qiladi.

Halqaro turistik faoliyat - mintaqa va regionlar yoki davlatlar bo'yicha migratsion xarakter hisoblanadi. Sayohat paytida sayyohlar mehnat (mahsulot ishlab chiqarish, moddiy daromad olish) bilan band bo'lmasdan, balki qabul qiladigan davlatga valyuta to'lashadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dunyo miqyosida turizmning geografik taqsimoti bir xil emas. SHu bois, mintaqa yoki davlatlar turistik salohiyatlari va ulardan foydalanish hususiyatlariga ko'ra bir biridan farq qiladi. 6-chizmadan ko'rish mumkinki, Yevropa 57,7 foizni, Amerika qit'asi 18,5, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi 16.0 foizni tashkil etgan. Jahon miqyosida Yevropa va Amerika mintaqasida xalqaro turizm salmog'i yuqori, ammo rivojlanish sur'ati esa Sharqiy Osiyo, xususan Tinch okeani sohillari davlatlarida jadal kechmoqda.

Turizm jahon iqtisodiyotining asosiy tarmog'i sifatida sohalar ichida yillik foyda ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarning biriga chiqib oldi. Jahon mamlakatlari ichidagi birinchi o'nlikda turadigan davlatlarda turizmdan keladigan foyda ko'rsatkichlarini hamda keladigan sayyohlar sonini taqqoslash asosida xalqaro turizmning mintaqaviy o'rnini aniqlash mumkin

Jahonda birinchi o'nlikda turadigan davlatlarga keladigan sayyohlar soni

| /r | Mamlakatlar | Sayyohlar soni. mln.kishi | Umumiy jahondagi ulushi % hisobida |
|----|--|------------------------------|---------------------------------------|
| | Jaxon bo'yicha jami: SHu jumladan; | 697,6 | 100,0 |

| | | | |
|---|-----------------|------|------|
| 1 | Frantsiya | 75,5 | 10,8 |
| 2 | AQSH | 50,9 | 7,3 |
| 3 | Ispaniya | 48,2 | 6,9 |
| 4 | Italiya | 41,2 | 5,9 |
| 5 | Xitoy | 31,2 | 4,5 |
| 6 | Buyuk Britaniya | 25,3 | 3,6 |
| 7 | Rossiya | 21,2 | 3,0 |
| 8 | Meksika | 20,6 | 3,0 |
| 9 | Kanada | 20,4 | 2,9 |
| 0 | Germaniya | 19,0 | 2,7 |

Jadval Butunjahon turistik tashkiloti ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqoridagi jadvallardan ma'lum bo'ladiki, xalqaro turizmdan eng yuqori daromad bo'yicha AQSH (85,2 mlrd. dol. – 17,8 foiz), sayyohlar soni jihatidan esa Frantsiya (75,5 mln kishi –10,8 foiz) ajralib turadi. SHuningdek, ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha AQSH, Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya mamlakatlari ham ancha yuqori mavqega ega.

Xalqaro turizmning jahon miqyosida yil sayin o'sib, foyda ko'rsatkichlari oshib bormoqda. SHu bois, olimlar va mutaxassislar XXI asrni turizm asri bo'lishini bashorat qilmoqdalar.

Turizmni rivojlanishida mehmonxona xizmati va mehmonxonalarni turkumlash tizimi. Sayyohlar faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sayyohlarni joy bilan ta'minlash masalasini xal qilishdir. Xozirgi paytda dunyodagi mehmonxonalar tarmog'i har qanday talabga javob bera oladi. Niderlandiya poytaxtida dunyodagi eng baland suzuvchi mehmonxona joylashgan. Bu besh qavatli qulay «kema» Amsterdam qirg'oqlari bo'ylab so'zib, sayyohlar o'zlarini xuddi dengiz sayyohatida yurgandek xis qiladilar. Baxreyn davlatida Fors ko'rfazi tubida suv osti mehmonxonasi mavjud. Mehmonxonaga bir-biri bilan original bog'lanib turuvchi oltita korpusdan iborat. Mehmonxonaning ichiga maxsus shaffof lift orqali tushuladi. Bunda sayyohlar dengiz ostida ajoyibotlarning shoxidi bo'ladilar. SHunga o'xshash mehmonxona Floridada ham bor, lekin u faqat olti kishiga mo'ljallangan bo'lib. Dunyodagi eng kichik mehmonxona xisoblanadi. Uning umumiy maydoni 135 kv. metrga teng.

Rossiyadagi «Izmaylovo» mehmonxonasi Moskvada 1880 yildagi olimpiada uchun maxsus qurilgan bo'lib, u bir vaqtning o'zida 9.5 ming mehmonlarni qabul qilishi mumkin. Singapurda dunyodagi eng baland 73 etajli mehmonxona joylashgan. Trinidad Respublikasi poytaxtida va Tabago Port-of Speyneda jarlik tepasidagi qoyaga osilib turgan mehmonxona bor, unga faqat tom orqali kirish mumkin. Tokiodagi 1300 nomerli mehmonxona dunyodagi eng tez xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonadir. 4 yerda xujjatlarni rasmiylashtirish, to'lash, kalit olish boshqa ishlar uchun mehmon 45 sekund sarflaydi. Hamma ishlar avtomatlashtirilgan, maxsus videonazorat uskunalar tomonidan bajariladi.

Dunyodagi eng qimmat nomer «Lyuks» San Frantsisko «Fermont» mehmonxonasining bosh binosida joylashgan. Mehmonxona 1927 yilda qurilgan bo'lib, «Lyuks» nomerining narxi soliqlarni xisobga olmaganda sutkasiga 6 ming dollar turadi. Mijoz kecha-kunduz oksoch, dvoretskiy (oshxona), haydovchi xizmatlari bilan ta'minlanadi.

Mehmonxonalarni turkumlashda har xil mamlakatlarda har xil tizim qo'llanadi, xozirgi kunga kelib 30 dan oshiq tizim mavjud.

Dunyodagi mehmonxonalarni yagona turkumga ajratish uchun bir qator omillar xalaqit beradi.

Bu omillar sayyohlik faoliyati ko'rsatuvchi davlatlarning madaniy-tarixiy rivojlanishi, ularning milliy xususiyatlari, xizmat ko'rsatish sifatini baholash o'lehovlaridan farqlar va boshqalar bilan bog'liq.

Eng ko'p tarqalgan turkumlarga quyidagilar kiradi:

- yo'lduzlar yordamida turkumlash tizimi. Bu tizim Frantsiyada, Avstraliyada, Vengriya, Misr, Rossiya, Xitoy va boshqa xalqaro sayyohlik ommalashuvida qatnashuvchi qator mamlakatlarda qo'llaniladi;

- Harflar yordamida turkumlash, Gretsiyada qo'llaniladi;
- Buyuk Britaniya uchun harakterli «Toj»lar yordamida turkumlash;
- Darajalar yordamida turkumlash va boshqalar.

Endi bu turkumlarning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Eng ko'p uchraydigan turkumlashdan biri frantsuz milliy turkumlashidir. Bunga ko'ra mehmonxonalar qulayligiga qarab shartli yo'lduzlar bilan belgilanadigan turkumlarga bo'linadi.

Avstriya sayyohlikni qabul qilish bo'yicha dunyoda tan olingan modellardan biri xisoblanadi. SHuning uchun mamlakatning tog'li qismlarining o'zida 20 mingdan ortiq mehmonxonalar mavjud.

Eng arzon joylashish vositalariga Avstriyada 100 tadan kam bo'lmagan «youth hotells» kiradi (solishtirish uchun: Rossiyada 10 tadan kam). Bu qimmat bo'lmagan yoshlarga mos yotoqxonalarda xoxlovchilar tunab qolishlari mumkin, lekin bu yerda alohida qulayliklar mavjud emas.

Avstriya mehmonxonalari 5 yo'lduzli tizim bo'yicha baholanadi, lekin qishloq joylarida «turkumdan tashqari mehmonxonalar» ham mavjud. Ular bir, ikki, uch qavatli uylardan iborat bo'lib, ko'pincha fermer oilalari tomonidan ochilgan bo'ladi.

Avstriyadagi 3 va 5 yo'lduzli mehmonxonalar bir biridan uncha farq qilmaydi. Bu klassdagi ko'p mehmonxonalarda basseyn, sauna, restoran, bufet va solyariy mavjud. O'xshashlik Avstriyada tarqalgan mehmonxona inter'erini «romantik uslub»da bezatish bilan chukurlanadi. Bu uslubda zamonaviy texnika qadimiy turkumi anjomlari bilan uyg'unlashib ketadi. Ba'zan, uch yo'lduzli mehmonxonadagi uskunalar to'rt yo'lduzli mehmonxonadan yaxshirok bo'lishi mumkin (masalan, basseyn mavjudligi uchun). Umuman, ikki oliy turkumdagi mehmonxonalar o'zlarining yo'lduzlilikini keng nomerlari va ko'rsatiladigan xizmatlar to'plamining ko'pligi yordamida oqlaydilar. Besh yo'lduzli mehmonxonalar to'rt yo'lduzlidan qo'shimcha «ikir chikirlar» va yuqori darajada xizmat ko'rsatishi bilan ajralib turadi.

Misrda mehmonxonalarni turkumlashda ham yo'lduzlar ishlatiladi, lekin Yevropa turkumidan farqli ularoq yo'lduzlar taxminan 1/2 yo'lduzga oshirilgan.

Xitoyda 1996 yilning boshiga kelib 4000 ga yaqin joylashish vositalari mavjud edi. Ularni baholashda ko'p tarqalgan 5 yo'lduzli tizim qo'llaniladi. Bundan tashqari mamlakatda o'ziga xos shkala ham mavjud bo'lib, unga ko'ra eng oddiy qabul qilish joylariga «mehmon uylari» kiradi. Bu karvonsaroy yoki xotellarni student yotoqxonalar bilan tenglashtirish mumkin. «Mehmon uchun uylar» qulayrok xisoblanib, bular 2 yo'lduzli mehmonxonalar qatoriga kiradi.

Yanada nufuzli uch va to'rt yo'lduzli darajadagi talablarga javob beruvchi mehmonxonalarga – sayyohlar mehmonxonalarni, besh yo'lduzli darajaga – «vino uylari»ni kiritish mumkin. Bunda Xitoy standartlaridEvropa standartlaridan qolishmaydi.

«Harf» yordamida turkumlash. Gretsiyada, garchi mehmonxona old tomonlarida odatiy yo'lduzlar qo'yilgan bo'lsada, harflar yordamida turkumlash ommalashgan. Hamma grek mehmonxonalari 4 guruxga bo'linadi: A,V,S,D.

A guruxdagi mehmonalar – 4 yo'lduzli,

V guruxdagi – 3 yo'lduzli,

S 2 yo'lduzli darajaga kiradi.

Oliy klassdagi mehmonxonalarga ko'pincha «deluxe» turkumiga kiradi. Lekin, keltirilgan turkumlarga qaramay, Gretsiyada bir xil guruxdagi mehmonxonalar bir biridan ma'lum darajada farq qiladi.

«S» guruxdagi (2 yo'lduzli) mehmonxonalarda eng xizmatlar to'plami taklif etiladi va ular dengiz qirg'oqlarida joylashgan.

«V» guruxdagi (3 yo'lduzli) mehmonxonalar deyarli har doim kurort zonada, dengiz bo'yida joylashgan bo'ladi.

«A» guruxdagi (4 yo'lduzli) mehmonxonalar yuqori darajada xizmat ko'rsatish bilan ajralib turadi.

Oliy darajaga da'vo qiluvchi mehmonxonalar odatda dunyo talablariga javob beruvchi mehmonxonalaridir.

Angliya mehmonxonalarning turkumlanishi bir muncha murakkab. Ba'zi kataloglarda na'anaviy yo'lduzli turkumlash qo'llansa-da, mehmonxonalarning old tomonida yo'lduzlar emas tojlar tasvirlangan. Mehmonxona darajasini «tojlar tilida» yo'lduzli turkumlashga o'tkazish uchun tojlar umumiy sonida bittasini olib tashlash kerak. Misol uchun, Londondagi «Royal Norfolk Hotel» mehmonxonasi 3 yo'lduzli yoki 4 tojli deb ko'rsatilishi mumkin.

Eng to'g'ri turkumlash deb Britaniya sayyohlik agentliklari assotsiatsiyasi taklif qilgan turkumlash xisoblanadi:

- byudjet mehmonxonalari (*). SHahar markazida joylashgan bo'lib, eng kam qulayliklarga ega.
- Sayyohlar darajasidagi mehmonxonalar (**). Mehmonxonalarda restoran va bar mavjud.
- O'rta darajadagi mehmonxonalar (***). Xizmat ko'rsatish saviyasi yetarli darajada yuqori.
- Birinchi darajadagi mehmonxonalar (****). Yashash uchun juda yaxshi sharoit va a'lo darajada xizmat ko'rsatish.
- Oliy darajadagi mehmonxonalar (*****). Yashash va xizmat ko'rsatish oliy (ekstra klass) darajada.

Boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda Angliya mehmonxonalari qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. London mehmonxonalarning ba'zilari to'liq xususiyashtirilgan, ba'zilari aksioner jamiyatlarga, kompaniyalarga tegishli ekanligini nazarda to'tish kerak. Ingliz mehmonxonalarning asosiy qismi maxalliy menejerlar tomonidan boshqarilishiga qaramay, ularning ko'pchiligi yirik xalqaro tizimlarga kiradi.

Italiyada 40 mingta mehmonxonalar bo'lib, ular butun mamlakat bo'yicha tarqalgan.

Sayyohlar Italiya mehmonxona eshiklarida tanish yo'lduzlarni ko'rsalarda ularni turkumlanish juda chigallashgan. Mamlakatda rasman «yo'lduzli» shkala yo'q. Italiyada qabul qilingan me'yorlarga ko'ra mehmonxonalar 3 darajaga bo'linadi.

1 daraja - **** yo'lduzli, 2 daraja - *** yo'lduzli, 3 daraja - ** yo'lduzli mehmonxonaga mos keladi. Bundan tashqari har bir darajada u yoki bu tomonga erkin o'tishi mumkin.

Italiya mehmonxonalarning ajralib turadigan xususiyati bu uning kichik bo'lishidir (50-80 nomerli mehmonxonalar). Odatda, kichik mehmonxonalar yuqori darajaga kiritilmaydilar va ular 2 yo'lduzli darajaga mos keladi. Lekin al'pdagi kurortlarda taminlanishi va xizmat ko'rsatish, saviyasi eng yuqori talablarga javob beruvchi kichik mehmonxonalar ham uchrab turadi.

Italiya mehmonxonalarning ba'zi kamchiliklari boshqa afzalliklar masalan yaxshi jixozlangan konferents – zalning mavjudligi evaziga qilinadi.

Isroil O'rta Yer va Kizil Dengiz qirg'oqlarida joylashgan yuqori darajadagi kurort mehmonxonalarga ega.

Yo'lduzlar yordamida turkumlash. Mehmonxonalar miqdori oshmokda, ammo 7-8 yil oldin mavjud bo'lgan yo'lduzlar yordamida turkumlash yuqolgan. Uning o'rniga mehmonxonalarni 3 ta darajaga ajratish usuli paydo bo'ldi. Lekin bunga qaramay sayyohlik tashkiloti xodimlari mijozlarga qulay bo'lishi uchun Isroil mehmonxonalari yo'lduzli shkala bo'yicha baholaydi.

Isroilning 3 yo'lduzli mehmonxonalari mijozlar to'liq xordik chiqarish uchun eng kam xizmatlar to'plamini olishlari mumkin.

4 yo'lduzli mehmonxonalarda nafaqat katta qulaylik, balki o'rnashgan joyining yaxshiligi va yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish mavjud.

Oliy darajadagi mehmonxonalar alohida fayzi va yuqori tabaka (aristokrat)ga xos xashamati bilan ajralib turadi.

Ispaniyada sayyohlik joylashtirish vositalari quyidagi darajalarga bo'linadi.

- 5 darajadagi mehmonxonalar (1 dan 5 yo'lduzgacha);
- mehmonxona shkaladagi uylar, bungalolar v boshqalar (1 dan 4 yo'lduzgacha)

- pansionlar 3 darajada.

Bundan tashqari Davlat Sayyohlik Vazirligiga qarashli sayyohlarni qabul qiluvchi davlat korxonalarini ham mavjud. Ular asosan shaharning go'zal rayonlarida joylashgan qadimiy qal'alar, qasrlar, saroylar bo'lib «Lyuks» mehmonxona sifatida jixozlangan bo'ladi.

SHunday qilib, har bir mamlakat uchun o'ziga xos mehmonxonalarini turkumlash usuli bo'lib, har xil mamlakatda joylashgan bir darajadagi mehmonxonalarini bir-biridan farqi katta bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasida mavjud sayyohlik va mehmondo'stlik bo'yicha me'yoriy xujjatlarga ko'ra 10 nomerlardan kam bo'lmagan mehmonxonalar (motellar) darajalar bo'yicha turkumlanadi. Darajalar yo'lduzlar mos keladi va ularning ko'payishi bilan xizmat ko'rsatish saviyasi ham olib boradi.

Mehmonxonalar 5 darajaga, motellar esa 4 darajaga bo'linadi. Bunday mehmonxonalar uchun - ***** - oliy daraja, * - past darajadir. Mehmonxonalarini ma'lum bir daraja berish uchun attestatsiyadan o'tkazilganda quyidagi talablar e'tiborga olinadi:

- bino va unga to'tashgan joyga bo'lgan talab;
- nomerlar zaxirasiga;
- texnik as-bob – uskunalarga;
- mebellar bilan ta'minlanganligiga;
- nomerlarni sanitar – gigienik ta'minlashga;
- ijtimoiy xonalarga,
- ovqatlanish xonalariga,
- joylashtirish korxonalarini taqdim etadigan xizmatlarga;
- xodimlar va ularning tayyorgarligiga va boshqalarga.

Mehmonxonalarda asosiy xizmatlar. Mehmonxona korxonasi tashkiliy tuzilishi mehmonxonaning vazifasi, joylashishi, mehmonlarning xususiyatlari va boshqa omillar orqali aniqlanadi. U har bir xodimning zimmasiga yuklatilgan vakolat va majburiyatlarni aks ettiradi. Ishchi bu har bir mehmonxonada mavjud bo'lgan asosiy xizmatlarni aniqlashga xalakt bermaydi:

- nomerlar zaxirasini boshqarish;
- administrativ xizmat;
- umumiy ovqatlanish xizmati;
- tijorat xizmati;
- injener (texnik) xizmat;
- yordamchi va qo'shimcha xizmatlar .

Nomerlar zaxirasini boshqarish xizmati nomerlarni bron' qilish, sayyohlarni kutib olish, ularni ro'yxati olish, nomerlarga joylashtirish va uyga yoki boshqa sayohat marshruti punktiga jo'natish bilan bog'liq masalalarni xal qilish, sayyohlarga nomerlarda xizmat ko'rsatishni ta'minlash, nomerlarni sanitar – gigienik xolatini va qulayligini ta'minlash hamda mehmonlarga doimiy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi.

Xizmat tartibi:

Direktor yoki nomerlarni ekaplo'tatsiyasi bo'yicha menejer, qabul qilish va joylashtirish xizmati, oksochlar xizmati (shveytsarlar, koridornyylar, garderobniklar, garaj xodimlari) port'e xizmati, kons'erj xizmati, xat tashuvchilar xizmati, nomerlarni tozalash bo'yicha inspektor, xavfsizlik xizmati.

Administrativ xizmat mehmonxona kompleksdagi hamma xizmatlarni boshqaruvni tashkil qilish, moliyaviy masalalarni yechish, xodimlar masalalarni xal qilish, mehmonxona xodimlari uchun ishlashi kerak sharoit yaratish va saklash, mexnatni muxofaza qilish bo'yicha o'rnatilgan qonun-qoidalarni bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish uchun javobgardir.

Xizmat tarkibi:

Sekretariat, moliyaviy xizmat xodimlar xizmati, ekolog, yongin va texnika xavfsizligi bo'yicha inspektorlar.

Umumiy ovqatlanish xizmatchilari mehmonlarga mehmonxonaning restoran, kafe, barlarda xizmat ko'rsatadi, bankir prezintatsiyalar o'tkazish bo'yicha masalalarni xal qiladi.

Xizmat tarkibi:

Oshxona, restoran, barlar, kafelar, banketning xizmati.

Tijorat xizmati tezkor va strategik rejalashtirish masalalarini xal qiladi.

Xo'jalik va moliyaviy faoliyat natijalarini xal qiladi.

Xizmat tarkibi:

Tijorat deriktori marketing xizmati, injener (texnik) xizmatlar, konditsioner tizimlarini, issiklik bilan ta'minlash tizimlari, sanitar texnik uskunalarini, elektro-texnik uskunalarini, ta'mirlash va ko'rish xizmatlarini, televidenie va aloqa tizimlarini ishlashi uchun sharoit yaratadi.

Xizmat tarkibi:

Bosh injener, joriy ta'mir xizmati, atrof muxitni obodonlashtirish xizmati, aloqa xizmati.

Mehmondo'stlik san'atida xodimlarga qo'yiladigan talablar. Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga qo'yiladigan talabalarni shartili ravishda 4 guruxga bo'lish mumkin.

1.Malaka, ixtisos (mehmonxonalaridagi hamma darajalar uchun).

1.1 Hamma xizmat ko'rsatuvchi xodimlar professional tayyorgarlikdan o'tishlari zarur. Tayyorgarlik darajasi ular ko'rsatayotgan xizmatlarga mos bo'lishi kerak. Bir xodim mehmonxonada yashovchilarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tayyorgarlik ko'rish boshqa xodim ularni umumiy ovqatlantirish xavfsizligi soxasida malakaga ega bo'lishi kerak.

2. CHet tillarni bilish.

1 yo'lduz darajasidagi mehmonxonalarda qabul qilish va joylashtirish xizmati xodimlari bitta chet tilini bilishlari kifoya.

2 yuulduz darajadagi mehmonxonalarda ham talab shunday.

3 yo'lduz darajasidagi mehmonxonalarda hamma xodimlar 2 ta chet tilini yoki shu xududga keluvchi mijozlar ko'proq gaplashadigan tillarini yetarli darajada bilishlari lozim.

4 yo'lduzli mehmonxonalarda ham xuddi shunday talablar qo'yiladi lekin tillarni yanada yuqori darajada bo'lishi kerak.

5.yo'lduzli mehmonxonalarda hamma xodimlar nomida 3 ta chet tilini bilishi va mijozlar bilan erkin gaplasha olishlari kerak.

3.Axloq, xulq – atvor.

Hamma darajadagi mehmonxonada xodimlari mehmonxonada mehmondo'stlik sharoit yaratishni bilishi, mijozning har bir iltimosni hayrixoxli bilan bajarishga tayyor bo'lishi, yashovchilar bilan muloqotda vazmin va sabr – toqatli bo'lishlari zarur.

4.Meditsina (tibbiy) talablar.

Hamma darajadagi mehmonxonalarining xodimlari vaqti – vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tishlari va bu xaqida tegishli sertifikat olishlari kerak.

5.Uniforma.

Hamma darajadagi mehmonxonalarining mijozlar bilan muloqotda bo'luvchi xodimlari har doim formal kiyim kiyishlari kerak. Formal kiyim doimo toza va yaxshi ko'rinishda bo'lishi kerak. Formal kiyim bilan birga har bir xodim o'z ismi, familiyasi yozilgan shaxsiy znachok taqib yurishi kerak.

Hamma mehmonxonada komplekslarida xodimlarning dam olishi va ovqatlanishi uchun alohida sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak. Bu sharoitlarning xajmi xodimlar miqdoriga mos kelishi kerak.

Mehmonxonada kompleksiga xizmat ko'rsatuvchi, ovqatlantirish korxonalarining xodimlariga qo'yiladigan umumiy talablar.

1.Tovar, ofitsiant va nitrometrdotel' malaka tekshiruvlar va testlar natijalariga ko'ra konkurs asosida qabul qilinadi.

2.Metrdotel', ofitsiantlar, borish bittadan kam bo'lmagan yevropa tillarini bilishlari kerak. Guruxga har xil tillarni biluvchi ofitsiantlar ham kushiladi.

3.Muntazam ravishda 5 yilda 1 marta ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, administrativ, boshqaruv, texnik xizmati xodimlari malaka darajasini tekshirish natijasida kayta attestatsiyadan o'tkaziladi.

4.Har 3 yilda sayyohlik korxonasi xodimlarini malakani oshirish kurslarida maxsus dastur bo'yicha kayta professional tayyorgarlikda o'tkazilishi zarur.

5.Hamma xodimlar formali, maxsu yoki sanitar kiyim va poyafzal kiyib yurishlari kerak. Kiyim shu korxonada o'rnatilgan muomila bo'yicha, toza va yaxshi xolatda bo'lishi kerak.

6.Hamma ovqatlanish, xurmatdagi sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar formali kiyim bilan birga mehmonxona belgisi, xodimning manbasi, familiyasi va ismi yozilgan znachok takib yurish kerak.

7.Metrdotel'ning kiyim boshqalarda rasmiy bezagi bilan ajralib turadi. Farq yoki smoking kiygan bo'lishi ham mumkin.

8.Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning tashqi ko'rinishi tartibli, ozada bo'lishi kerak.

9.Mehmonxonalariga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ularga nisbatan odobli, e'tiborli va sermulozamatli bo'lishi kerak.

10.Xodimlar ish joylarida boshqa ishlar bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

11.Oshxona, texnik xizmat va yordamchi xizmat xodimi mijozlarning xonalarida sanitar va maxsus kiyimda ko'rinmasliklari kerak, agar bevosita vazifalarni bajarmayotgan bo'lsalar.

Nizom xodisa yuz berganda xodim darxol navbatdagi administratorchi, metrdotel'ni yoki korxonada direktorini chaqirishi lozim.

Qanchalik qiziq bo'lmasin, lekin ko'pchilik uchun butun tatilni magazinlarida harid qilib o'tkazish uchun safarga chiqish oddiy xoldir. Xodimlar u yoki bu mamlakatga qilingan tashrifini eslatib turadi. Har bir mamlakat u yoki bu narsani ishlab chiqarishi bilan ajralib turadi. SHotlandiya – aviatorlar, Meksika – sombrero, Irlandiya – odelo, Frantsiya – duxi.

«Daydilik» bu holda – sarguzashtlar inson zoti instinktlar ishtiyoqi o'tirmasdan, uni bir joyda yegiliklarni qidirishga undaydi. Ilgari ko'p safar qilish jamiyat tomonidan rag'batlantirmasdi. Lekin yevropalik aholi bundan mustasno. G'arbiy nemislar Avstraliyaga tashrif buyuruvchilarning 86% ini tashkil qiladi. Ular yana Yugoslaviya, Italiya va Ispaniyaga ham tez – tez sayyohat qiladilar.

Amerikaliklar asosan ta'lim dasturlari bo'yicha sayyohat qilishni xush ko'radilar. Uning Rim, Amsterdam «Parijni afzal ko'radilar». Lekin sayyohlarning ham ko'payishi kutilmoqda.

Salomatlikni yaxshilash uchun sayyohatchilar, insonlar salomatligini yaxshilash va hayotni uzaytirish maqsadida suv zaxiralari mavjud kurortlariga, dengiz bo'yicha sayyohat qiladilar. Ko'p mehmonxonalar ham o'z xizmatlar tarkibiga balchikli va mineral vannalar quyilgan. Bilim olish uchun sayyohat qilish, sayyohatlar insonga yangi bilimlarga ega bo'lish istagini kolirishga imkon beradi. Yevropada dam oluvchi amerikaliklarning ko'p qismini maktab ukituvchilari tashkil qiladi. Talablar yolgiz o'zlari ya'ni univesitet xomiylik qiladigan guruxlar bilan yevropa bo'ylab sayyohat qiladilar.

Amerikaliklarni Yevropa doimo o'ziga jalb qilgan. Ular har birining avlodi yevropadan yangi yer izlab va din erkinligi maqsadida amalga oshib utgan deb uylaydi. Ispaniyada sayyohlar korridada qatnashishlari Frantsiyada inkodromlarda pul sarflaydilar.

Azart uchun sayyohat qilish azart o'yinlariga qiziqishni tavakkal qilishga intilishi har qanday madaniyatda u xox oddiy xox murakkab bulsin uchratish mumkin. Ko'pchilik uchun tavakkal qilish xuddi narkotikka bog'langandek ishkiboz bo'ladilar.

Atlantik – Siti, Los – Vegas kabi joylarda ishkiboz uynchilarga hayotdagi bir xillikda talaffus qiladilar. Los – Vegas yilga 14 mln. sayyohlar jalb qiladi.

O'zbekistonda mehmonxona industriyasini rivojlantirish tendentsiyalari. Mehmonxona sanoati korxonalarining yuzaga kelishi qadimgi Rim bilan aloqadordir (taxminan er.av.50-yillar). Rim Imperiyasi yirik bo'lganligi sababli amaldor va savdogarlar tez-tez tashqariga chiqib to'rganlar. Natijada ularni joylashtirish uchun doimiy xovli-joy va tavernalar yuzaga kelgan.

Rim davlatining asosida qat'iy sinfiy tizimning mavjudligi joy bilan ta'minlash korxonalari rivojiga ham e'tiborni kuchaytirdi. Xatto davlat amaldorlari yo'lga o'tlanishdan

avval o'z qo'l ostidagilari orqali joylashish o'rnini kelishib olishga odatlandilar.

Qadimgi Rimdagi qo'nib o'tish manzillari asosiy yo'l bo'yida va qishloqlarda joylashgan, faqat qulaylik xaqida gap bo'lishi mumkin emasdi.

Rim Imperiyasining qulashi bilan xovli va tavernalar o'z - o'zidan inqirozga uchradi. Faqat 4 asrdan so'ngina, O'rta asr davri (500- 1300 y.) boshlangungacha, yangi turda joylashtirish korxonalarini yuzaga kela boshladi.

Jaxon mehmonxona sanoati rivojiga O'rta asrlarda Angliyada sodir bo'lgan jarayonlar ham o'z ta'sirini o'tkazdi. 1066 yilda Angliyaning istilo qilinishi oqibatida sayoxatchilar soni oshdi. Xususiy uylar mehmonxona o'rnini bosdi va xovlilar tijorat korxonasi sifatida qo'llandi.

O'rta asrlarda odamlar muqaddas joylarga ko'proq tashrif buyura boshladilar. O'sayotgan talabni qondirish maqsadida turar joylarni kengaytirildi. Uyg'onish davriga kelib esa, Yevropada iqtisodiy o'sish boshlandi, mamlakatlararo aloqalar muntazam yo'lga qo'yildi.

Ingliz xovlilari yog'ochdan qurilgan, yirik sayoxatchilar esa toshli qasrlarda va monastrlarda to'xtash unda yashab turishni xoxlaganlar, bu joylar qaroqchilar xujumidan ishonchli ximoya qilingan. Lekin uyg'onish davrida qirol Genrix VI monastrlarni tarqatib yuborish xaqida farmon berganidan so'ng, sayoxatchilar xovlilarda qolishga majbur bo'ldilar.

Evropa va Amerika bo'ylab sayoxatga chiqa boshlagan inglizlar asta - sekin uy qurish va uni boshqarish sirlarini o'zlashtirdilar.

Bugungi kunda dunyoda 30 mingdan ziyod turli otellar mavjud. Aniqrog'i, bu ko'rsatkich "Reed Travel Group" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Official Hotel Guide-96" katalogida ko'rsatilgan. Bu mehmonxonalaridagi umumiy nomerlar soni 12 mln. ni tashkil qiladi.

Evropa mintaqasida nomerlar soni ko'p. Ikkinchi o'rinda Amerika va undan so'ng Sharqiy Osiyo turadi. Mehmonxonalar qurish tobora avj olib bormoqda. 1995 yilda AQSHning o'zida 82 ming o'rinli mehmonxonalar qurib bitirildi. Jadal qurilishlar turistlar ko'p boradigan joylarda davom etyapti. Bu Janubi - Sharqiy Osiyo orollari, masalan, Bali (Indoneziya) va Pxuket (Tailand) dadir.

Yirik mehmonxona tizimi tomonidai qiziqish Mal'div Respublikasi va ba'zi Afrika mamlakatlaridan ham kuzatilmoqda.

Dunyodagi eng yirik otel' Tailandning Pataya shaxrida joylashgan "Ambassador City Jomtien" dir. U 5100 nomerli bo'lib, 40 mt atrofidagi maydonni egallaydi.

Jadvalda ko'rsatilib, 20 ta eng yirik otellarning 13 tasi Las - Vegasda joylashgan. Zamonaviy Las-Vegas aloxida yirikligi bilan farqlanadi. Yaqindagina eng yirik deb hisoblangan (masalan, 1515 o'rinli "Caesuras Palace") bugun 20 ta eng yirik otellar ro'yxatiga ham kirmay qoldi.

Las-Vegas - bu umum e'tirof etilgan xordiq sanoatining lideri sanaladi. SHaharda 50 ta kazino bo'lib, ularning ko'pi otel' xududlarida joylashgan. Ushbu otellardagi apartamentlar o'lchami va qulayligi jixatidan eng katta va yaxshisidir. Bunda mini-basseynlar, bir nechta yirik teleekranlar, 2 va undan ortiq xonalar, xol va yotoqxonalar, oshxona hamda barlar mavjud. Bunday apartamentlar binoning aloxida ajratilgan tomonida joylashtirilgan va xususiy ya'ni atab qo'yilgan joy (bron qilish) xizmatiga ham ega.

Dunyo bo'yicha eng yirik otellar

| Mehmonxona nomi | Joylashgan o'rni | Nomerlar soni |
|---------------------------|------------------|---------------|
| "Ambassador City Jomtien" | Tailand | 5100 |
| "MGM Grand" | Las-Vegas | 5005 |
| "Excalibur" | Las-Vegas | 4032 |
| "Flamingo Hilton" | Las-Vegas | 3642 |
| "Las Vegas Hilton" | Las-Vegas | 3174 |
| "The Mirage" | Las-Vegas | 3049 |
| "Monte Carlo" | Las-Vegas | 3014 |
| "Treasure Island" | Las-Vegas | 2900 |
| "Bally's" | Las-Vegas | 2814 |

| | | |
|-----------------------------------|-------------------------|------|
| “Circus Circus” | Las-Vegas | 2793 |
| “Imperial Palace” | Las-Vegas | 2636 |
| “Luxor” | Las-Vegas | 2523 |
| “Hilton Hawaiian Village” | Gonolulu | 2523 |
| “Stardust” | Las-Vegas | 2335 |
| “New York Hilton” | N’yu-York | 2131 |
| “Disney’s Carribean Beach Resort” | Orlando | 2112 |
| “Riviera” | Las-Vegas | 2109 |
| “Disney Dixie Landing” | Orlando | 2048 |
| “Hyatt Regency” | CHikago | 2033 |
| “Hotel Parque Ten-Bell” | Las-Galletas (Ispaniya) | 2004 |

Ko’pgina kazinoli otel’ nomerlari badavlat mijozlar uchun maxsus saqlanadi, ularning narxi 1000 dollardan 25000 dollargachadir. Ba’zan kazinoga keladiganlar u yerda eng qimmat nomerdan ham oshiqroq mablag’ni tashlab ketadilar. SHuning uchun bunday mehmonxona xodimlarining eng asosiy vazifasi avvalo mijozning talab va istaklarini qondirishdan iborat.

Hozirda jahon bo’ycha mehmonxona o’rinlarning soni 17,5 milliondan ortib ketgan. Ularning 37,8 foizi Yevropada, 35 foizi Amerikada, 22,2 foizi Osiyo va Okeaniyada, 2,8 foizi Afrikada va 2,2 foizi O’rta Sharq mintaqasida joylashgan. Dunyo mamlakatlari bo’ycha tahlil qilinadigan bo’lsa, mehmonxonalarining aksariyati AQSH, Yaponiya, Italiya, Germaniya, Xitoy, Frantsiya, Meksika, Kanada, Tailand, Gretsiya, Avstriya, Indoneziya, Avstraliya, Rossiya, Turkiya va Argentina mamlakatlarida joylashgan. qolgan mamlakatlarning birortasining egalik qilayotgan o’rinlarining soni dunyo bo’ycha umumiy ko’rsatkichning 1 foizga yetmaydi.

Jahon bo’ycha mehmonxona o’rinlari soni bilan yetakchilik qilayotgan mamlakatlar

| O’rin | Mamlakat | Jahon umumiysidagi hissasi |
|-------|------------|----------------------------|
| 1 | AQSH | 24,1 |
| 2 | Yaponiya | 9,0 |
| 3 | Italiya | 5,6 |
| 4 | Germaniya | 5,1 |
| 5 | Xitoy | 4,7 |
| 6 | Frantsiya | 3,4 |
| 7 | Meksika | 2,6 |
| 8 | Kanada | 2,1 |
| 9 | Tailand | 1,8 |
| 10 | Gretsiya | 1,8 |
| 11 | Avstriya | 1,8 |
| 12 | Indoneziya | 1,5 |
| 13 | Avstraliya | 1,1 |
| 14 | Rossiya | 1,0 |
| 15 | Turkiya | 1,0 |
| 16 | Argentina | 1,0 |

Inson sayohat qilishni boshlagandan buyon uydan tashqarida qaerda bo’lishidan qat’i nazar, boshpana va ovqatlanishga ehtiyoj sezadi. Bunday talablarni qondirish uchun keyinchalik turistik korxonalar va tashkilotlar paydo bo’ldi¹.

Hozirgi kunda O’zbekistonda turizmning milliy modelini shakllantirish jarayoni ketmoqda. Mutaxassislarning fikricha, respublikada har yili turistlar oqimining 15% ga ko’payishi kutilmoqda, bu Butunjaxon turistik tashkilotining taxminlariga nisbatan ikki marotaba

¹Филлиповский Е.Е., Шмарова Л.В Экономика и организация гостиничного хозяйства. Учебное пособие.-М.: ФИС, 2006,с 3 стр.

ko'pdir. Turizm milliy iqtisodiyotning istiqbolli sohaslaridan biriga aylanmokda, mamlakatning ichki yalpi mahsulotidagi ulushi 0,4% tashkil qiladi.

O'zbekiston katta turistik imkoniyatlarga ega. Bu yerda 20 dan ortiq mehmonxonalar faoliyat ko'rsatmokda. Ulardan 50 % xalqaro talablarga javob beradi.

SHuningdek, 14 ta turbazalar va kempinglar mavjud. Mehmonxona fondi 8,6 ming xonadan iborat bo'lib, ulardan 7 000 tasi yil davomida ishlaydi. 2000 yil boshiga kelib turizm sohasida 6,7 ming kishi band edi. 2000 yilda turistik korxonalar tomonidan 730 ming kishiga, shu jumladan 350 ming chet ellik turistlarga xizmat ko'rsatilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra 2005 yilda turistlar oqimi 1,5 mln. tashkil qilishi, shundan 750 mingi chet ellik turistlar bo'lishi, chet ellik turistlarga xizmat ko'rsatish xajmi 2 mlrd. AQSH dollariga yetishi mo'ljal qilinmoqda. SHu jumladan, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi turistik korxonalari 150,5 mln. AQSH dollarlik xizmat ko'rsatishlari ko'zda tutilmoqda. Respublikaning eksport imkoniyatlarini rivojlantirish uchun 2005 yilga qadar quyidagi bir qator tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda: turizm bo'yicha ochiq iqtisodiy hududlarni barpo qilish; xorijiy turistlarning oqimlari va qiziqishlariga qarab qo'shimcha xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, yangi turistik marshrutlarni yaratish va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, yangi mehmonxonalar, kempinglar, dam olish zonalarini ko'rish, turistik mehmonxonalar va xo'jaliklarni jihozlash uchun mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha investitsiya loyihalarini tayyorlash.

O'zbekiston bo'yicha turistik marshrutlar qadimgi Ipak yo'li shaharlari bo'yicha sayohatni va ko'plari YuNESKO tomonidan qo'riqlanadigan 4000 mingdan ortiq me'moriy yodgorliklarni ziyorat qilishni o'z ichiga oladi. Turistik agentlik quyoshli cho'llarning issiqlik ufurib to'rgan yo'llari bo'ylab, mangu erimaydigan qorli cho'qqilardagi chang'i trassalari bo'ylab, ovChilik, del'taplanda uchish va Al'penizm kabi turli sayohatlarni taklif qiladilar. "Marko Polo izidan", "Kuyosh karvoni", "Buyuk Ipak yo'li karvoni" kabi qiziqarli marshrutlar taklif qilinadi.

Xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda ilg'or yo'nalishlarning respublika kontsepsiyasiga asoslangan holda turizm infratuzulmasini rivojlantirish siyosatini olib borish "O'zbekturizm" milliy kompaniyasiga yuklatilgan. 1993 yil ko'zida "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi Butun jahon turistik tashkilotiga a'zo bo'ldi va o'sha kundan boshlab O'zbekistonni "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro loyahasining muvofiqlashtiruvchi markaziga aylantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Toshkentda BTT va YuNESKO boshChiligida BTT ning "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro seminari bo'lib o'tdi. Uning Registon maydonida bo'lib o'tgan ko'chma yig'ilishida Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. Mazkur loyihaning mantiqiy davomi sifatida 1995 yildan beri har yili "Ipak yo'li bo'ylab turizm" xalqaro turistik yarmarkasi o'tkazib kelinmoqda. Unda ishtirok etuvchi ishtirokchilar soni 100 tadan 170 tagacha ko'paydi. O'zbekistonning turistik tashkilotlari milliy turistik mahsulotni xalqaro bozorga olib chiqish borasida tinmay izlanmokdalar. Ularning Londondagi, Berlindagi, Milandagi va Moskvadagi yirik turistik yarmaka-birjalarida muntazam ravishda ishtirok etishlari buning dalilidir. BTT ning Texron va Yaponiyadagi "Buyuk ipak yo'li"ga bag'ishlangan seminarlarida O'zbekiston xalqaro loyihaning geografik va muvofiqlashtiruvchi markazi deb e'lon qilindi.

Respublikamizning turizm sohasida olib borayotgan faoliyati BTT ning 1997 yil oktyabr oyida Istambulda bo'lib o'tgan 12-Bosh assambleyasida munosib baholanib, O'zbekiston Frantsiya va Italiya davlatlari bilan bir qatorda Butunjahon turistik tashkilotining Ijroiya qo'mitasiga a'zo etib saylandi. Turizm sohasida chet ellik hamkorlar bilan bir necha investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

Xorijiy hamkorlar ishtirokida 5 yo'lduzli "Interkontinental", 4 yo'lduzli "Lya Meridian", 4 yo'lduzli "Xilton", 3 yo'lduzli "SHeraton" mehmonxonalari qurildi, "O'zbekiston", "SHodlik" mehmonxonlari tubdan qayta ta'mirlandi va xorijiy boshqaruvga topshirildi. Xivadagi "Xorazm" mehmonxonasini ta'mirlash ishlari tugatildi, Buxorodagi "Buxoro" mehmonxona majmuasi to'liq jihozlandi.

Ammo, dastlabki hisob-kitoblar respublikada turizmning to'laqonli infrato'zulmasini

barpo qilish uchun qo'shimcha mablag'lar zarur ekanligini ko'rsatdi. Ushbu mablag'lar xorijiy kompaniyalarning sarmoyalari hisobiga olinishi rejalashtirilmoqda.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

Мавзунини mustahkamlash uchun savollar:

1. Туризм географиясининг ширганish об'екти ва predmetini izohlang
2. Mehmonxonalarining turkumlash tizimi qanday bo'lishi kerak?
3. Mehmonxonona va motellar qanday darajalarga ajratiladi?
- 4.5* darajadagi mehmonxonalar xususiyati qanday?
5. Ispaniyada sayyohlik joylashtirish vositalari qanday darajalar bo'yicha turkumlanadi?
6. Sayohatlar va sayohlik, turizm tushunchalarini izohlang?
7. Dunyo bo'yicha eng yirik otellarining hududiy tarkibini tushuntiring?

Ма'руза 11: Ўзбекистоннинг jahon xo'jaligi tizimidagi tutgan o'рни. Ўзбекистоннинг tabiiy va rekratsion resurslari

Reja:

1. Ўзбекистоннинг tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari
2. Ўзбекистон tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi.
3. Ўзбекистон Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi yangi bosqichlar.
4. Ўзбекистонда tashqi iqtisodiy aloqalarning istiqbillari

Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar): Tashqi iqtisodiy aloqalar, Tashqi iqtisodiy faoliyat, Diversifikatsiya, Konventsiya, Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, Eksport va Import, Tashqi iqtisodiy faoliyat, Savdo-iqtisodiy munosabatlar, Milliy iqtisodiyot, Tashqi bozor, Ichki bozor, Integratsiya, Investitsiya, xorijiy investitsiya, Kontseptsiya, Raqobatbardoshlik, Butunjahon savdo tashkiloti

1. Ўзбекистоннинг tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari. Ўзбекистон Osiyo qit'asida, hududi yirik daryolari bo'lmish Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, g'arbda Turon pasttekisligini va Sharqda tog'li o'lkalarni o'z ichiga oladi.

Respublika tabiati boy va xilma-xil. Ўзбекистон hududining kattagina qismini sahrolar va cho'llar egallaydi, Sharqiy qismida osmono'par tog'lar, daryo atroflarida ajoyib vodiylar bor.

Jazirama qum sahrolari, muzliklar, oppoq qorga burkangan tog' cho'qqilari, paxtazorlar bilan qoplangan yam-yashil vodiylar mavjudligi O'zbekiston tabiati uchun xos.

Respublikaning 448,9 ming km² ga teng bo'lgan maydoni g'arbdan Sharqqa 1425, shimoldan janubga esa 930 kilometr ga cho'zilgan. Maydoni jihatidan O'zbekiston Avstraliya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Shvedsariya mamlakatlari maydonini qo'shib hisoblaganda ham ulardan kattalik qiladi.

Mamlakatimiz shimolda Qozog'iston, Sharq va janubi-Sharqda Qirg'iziston va Tojikiston, g'arbdan Turkmaniston, janubda Afg'oniston bilan chegaradosh. Respublika chegarasining umumiy uzunligi 6221 kilometrni tashkil etib, undan 2203 km. Qozog'iston, 1021 km. Turkmaniston, 1161 km. Tojikiston, 1099 km. Qirg'iziston, 137 km. Afg'onistonga to'g'ri keladi.

Respublika hududida tepalik va tog'liklar o'ziga xos ravishda uyg'unlashib ketgan. Respublika maydonining qariyb uchdan bir qismini egallagan tog'liklari mamlakatning Sharqiy qismiga to'g'ri keladi va qo'shni Qirg'iziston va Tojikiston tog'liklari bilan tutashib ketadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'rtasida joylashgan bo'lib, uning Shimoliy chekka nuqtasi orol dengizining shimolida – 45 gradus 36 minut Shimoliy kenglik, janubiy chekka nuqtasi – 37 gradus 11 minut Shimoliy kenglik, chekka g'arbiy nuqtasi – 56 chi gradus meridian chizig'i va Sharqiy chekka nuqtasi 73 gradus 10 minut Sharqiy kenglikda yotadi. Respublikaning shimoldan Sirdaryo, janubdan Amudaryo havzasi (botig'i) tabiiy chegara bo'lib, Sharqda Qurama, Chotqol, Farg'ona, Turkiston va Oloy tog'lari o'rab turadi.

Tog'lar oralig'ida ancha katta cho'kma-botiqlar-Farg'ona botig'i, Toshkent-Mirzacho'l tekisligi, Sangzor-Nurota botig'i, Samarqand botig'i, Qashqadaryo va Surxondaryo botiqlari joylashgan. Farg'ona vodiysi deb atalgan Farg'ona botig'i tog'lar oralig'idagi yirik botiq bo'lib, uning uzunligi 370 kilometr ga teng. Vodiy uch tomonidan tog'lar bilan qurshalgan va faqat g'arb tomonigina ochiq. O'zining ajoyib va go'zal tabiiy sharoiti aholisining mehmondo'stligi tufayli, bu vodiy «O'rta Osiyo g'avhari» degan nomga munosib bo'lgan. O'zbekistonning tekislikdan iborat bo'lgan qismlariga Ustyurt yassi tog'ligining bir qismi, quyi Amudaryo yerlari, Qizilqum qumliklari kiradi.

O'zbekiston serquyosh o'lka. Uning yirik qit'a markazida, okeanlar va boshqa suv havzalaridan uzoqda joylashganligi iqlimning quruqligi va kontinental ekanligini ko'rsatadi. Iqlimning quruqligi bu yerda yog'in-sochinning kam bo'lishi bilan ifodalanadi, yoz oylarida havoda namlik va bulutlar kam bo'ladi. Yozda kunduz kunlari 15 soatgacha cho'zilib, qishda taxminan 9 soatni tashkil etadi. Respublika iqlimi qo'shni Eron va Afg'onistondagi singari tipik subtropik o'zgaruvchan iqlimdan ma'lum darajada farq qiladi, bu rel'ef ustki qismining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. O'zbekistonda eng sovuq oy yanvar hisoblanadi. Qishda sovuq 35-38 darajaga boradi. O'zbekistonning eng Shimoliy qismida qish qariyb 5 oyga cho'zilsa, vodiylarda bir yarim ikki oy davom etadi, xolos. Yozning eng issiq oyi iyo'l'. Bu paytlarda tekislik va tog' yon bag'irlarida o'rtacha harorat 25-30 daraja issiqqa, janubga esa (Termiz, SHerobod) 30-35 darajaga ko'tariladi. Yozda issiq 42 darajadan ortib ketadi. 1944 yil iyo'l' oyida Termiz shahrida issiq 50 darajaga yetganligi qayd qilingan. Issiq 42-47 darajaga ko'tariladigan kunlar O'zbekiston uchun oddiy bir xoldir. O'zbekistonning sahrolarida esa issiq 70-72 darajaga ko'tarilishi mumkin. O'zbekistonda yog'ingarChilik asosan kam bo'ladi, bu borada respublika hududlari orasida farq juda katta. O'zbekistonning ko'pchilik joylarida yillik yog'in miqdori 200-300 millimetrni tashkil etadi. Yog'ingarChilik eng kam bo'ladigan joylarga quyi Amudaryo va sahro yerlar kiradi. Bu joylarda yil davomida bor yo'g'i 10 millimetrdan kam yomg'ir yog'adi. Qumliklarning Sharqiy va janubi-Sharqiy hududlarida yog'ingarchilik asta-sekin ortib borib, Sharqdagi tog'liklarga yaqinlashgach, yog'inlar miqdori keskin ko'payadi va 900-950 millimetr ga yetadi. Qishloq xo'jaligi uchun suv eng zarur bo'lgan paytda yog'ingarchilik kamayib ketadi. Iyo'l' oyidan to sentyabr' oyigacha yog'in deyarli yog'maydi. Bu davr ichida yillik yog'in miqdorining bor yo'g'i 1-6 foizi bahorga, 25-40 foizi esa qish oylariga to'g'ri keladi. Kuzda yog'in miqdori yillik yog'inning 10 foizdan 20 foizgacha to'g'ri keladi.

Respublika hududlari bo'yicha yer ustki suvlari nihoyatda notekis taqsimlangan. O'zbekiston hududining qariyb uchdan ikki qismini egallaydigan poyonsiz tekisliklarida suv manbalari juda kam. Ayni paytda respublika Sharqida joylashgan tog'li qismida daryolarning keng shahobchalari mavjud. Yer usti suvlarining bu tarzda respublika hududlari bo'ylab notekis taqsimlanishi mamlakat tabiiy sharoiti natijasidir. Bu esa o'z navbatida, ayniqsa qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston hududidagi oqar suvlar paydo bo'ladigan asosiy joylar tog'li yerlardir, chunki xuddi shu joylarda yog'ingarChilik eng ko'p bo'ladi. Bundan tashqari, bu joylarda suv bug'lanishi kam. O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekistonda mavjud bo'lgan daryolar uchun asosiy manba qor va muzliklardir.

O'zbekistonni suv bilan ta'minlashda O'rta Osiyoning eng yirik daryolari bo'lmish Amudaryo va Sirdaryo muhim o'rin egallaydi. Amudaryoning umumiy uzunligi 1437, Sirdaryoning uzunligi esa 2137 kilometr ga teng. Ammo bu ikki daryo respublikaning suvga bo'lgan ehtiyojini qonlirmaydi. Suvga bo'lgan mavjud yetishmaslik ma'lum darajada kichik daryolar va yer osti suvlari ustiga tushadi.

O'zbekiston dehqonchiligi sun'iy sug'orishga asoslangan hududlar qatoriga kiradi. SHunga ko'ra daryolar mohiyati, ularning roli mavjud dehqonChilik yerlari uchungina emas, balki yangi yerlarni o'zlashtirishda ham katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston hududida qator kanallar qazigan qadimgi sug'orish ustalarining amalga oshirgan ishlari kishini lol qoldiradi. O'tmishdagi sun'iy sug'orish uslublari ko'pgina olimlar, tarixchilar, arxeologlar va turli davlatlar elchilarini hayratga solgan va qoyil qoldirgan.

Bir vaqtlar Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolaridan va Farg'onadagi Isfara, So'x, Quvasoy soylaridan qator kanallar chiqarilgan. Kanallar sug'orish maqsadlarigagina emas, balki ma'lum darajada elektr stantsiyalar rivoji uchun ham xizmat qilmoqda. Narpay, janubiy Farg'ona, Shimoliy Farg'ona, katta Farg'ona, eski Angor, Amu-Buxoro, katta Namangan kanallari va boshqa suv inshootlari shular jumlasidandir.

Respublikamiz hududida 250 taga yaqin ko'l mavjud bo'lib, ular asosan kichik ko'llardir. Bu ko'llardan eng kattasi Orol ko'lidir. U katta maydonni egallagani uchun dengiz nomi bilan yuritiladi. Respublikada mavjud bo'lgan kichik ko'llar o'zlarining shifobaxshligi bilan mashhur. Bular jumlasiga Axsikent, Tuzkon, Dengizko'l va boshqalar kiradi.

So'nggi 30-35 yil ichida Orol dengizining sathi qariyb 15-16 metr ga pasayib ketdi, qirg'oqlari esa o'nlab kilometr ga chekindi. Bu, eng avvalo, Orolga suv olib kelayotgan Amu va Sirdaryo suvi yo'l-yo'lakay juda ko'p sarf bo'lib ketganligi tufayli ro'y berdi. Natijada ro'y bergan bu ko'ngilsiz voqea Orol dengizi va uning atrofida ekologik vaziyat yomonlanishiga olib keldi. Orol muammosi mahalliy muammogina bo'lib qolmay, jahon muammosiga aylandi. Bu muammoni biron bir davlat yakka holda hal etishga qodir emas. SHu munosabat bilan bu muammoni hal qilish ishida Yevropa mamlakatlari va YuNESKO faollik ko'rsatishlari lozim.

Shuni e'tiborga olib mamlakat Prezidenti izchillik bilan jahon jamoatchiligi diqqatini Orol muammosiga qaratib kelmoqda.

So'nggi o'n yilliklar ichida respublikada qator suv omborlari vujudga kelgan. Ular orasida CHorvoq, Ohangaron, Tuyabo'g'iz, Janubiy Surxon, CHimqo'rg'on va boshqa sun'iy ko'llar vujudga keldi. O'zbekistonda hammasi bo'lib, 45 ta shunday suv omborlari mavjud. Ular suv tarmoqlaridagi oqimni mavsum ehtiyojlarini hisobga olgan holda tartibga solib turadi va o'z xususiyatiga ko'ra irrigatsiya yo'nalishidagi suv omborlari vazifasini o'taydi.

Mamlakatimiz turli xil ma'danli suv manbalariga ham boy, ular kimyoviy tarkibiga ko'ra inson organizmi uchun foydali. O'zbekistonda mavjud bo'lgan ana shunday suvlar orasida tarkibida oltingugurt, vodorod, yod, radiy kabilar bo'lgan suvlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi va shifobaxsh suvlar tarzida foydalaniladi.

Farg'ona va Surxondaryo artezian suv havzalarining tarkibida oltingugurt-vodorodli suvlari o'zlarining kimyoviy va shifobaxshligi tarkibiga ko'ra Kavkazning mashhur ma'danli suv havzalaridan qolishmaydi. Jumladan, respublikada ma'danli manbalardan foydalanish asosida qurilgan va ishga tushirilgan Chimyon va Chortoq sanatoriyalarining dovrug'i O'zbekiston doirasidan chiqqan.

O'zbekiston xilma-xil o'simliklar dunyosiga ham boy. Respublika o'simligi dunyosi orasida 25 ming xildan ortiq efir moylari bo'lgan o'simliklar mavjud. Uning bu tabiat in'omining noyob ekanligi shundan ham ko'rinib turadiki, ularning qariyb 30 foizi faqat bizning o'lkamizda o'sadi.

Tabiat mamlakatimizga xilma-xil mineral xom ashyolari ham in'om etgan. Ular respublika ijtimoiy-iqtisodiy jabhalari va aholi hayotini yaxshilashda juda muhim hisoblanadi.

O'zbekistn yer bag'rida qator foydali qazilma konlari mavjudligi, xom ashyolardan yuzdan ortiq xillari borligi aniqlangan. Mis, kumush, oltin, qo'rg'oshin, rux, vol'fram, tabiiy gaz va boshqa ayrim yer osti boyliklari zahiralari bo'yicha mamlakatimiz jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakatimiz hududlarida tuz, alyumin xom ashyosi, xilma-xil qoplama va qimmatbaho toshlar, turli xil metallar, qurilish materiallari bo'lib, xizmat qilishi mumkin bo'lgan xom ashyolar zahirasi ham mavjud. G'ozg'on marmar konining dovrug'i ko'p joylarga tarqalgan. Kaolin, ozokerit, korund kabilar ham ko'p joylarda uchraydi.

Respublikada mavjud bo'lgan oltin zahirasi, ayniqsa ahamiyatga ega. Oltin qazib chiqarishda O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamkorligidagi davlatlar orasida Rossiyadan keyin ikkinchi, jon boshiga to'g'ri keladigan oltin bo'yicha esa, birinchi o'rinda turadi. Respublikada oltin chiqadigan eng muhim hudud Muruntovdir. Bu oltin koni asosida respublikaning jazirama qum sahosida Zarafshon shahri vujudga keldi. Toshkent, Jizzax, Namangan viloyatlarida ham uncha katta bo'lmagan oltin konlari mavjud.

O'zbekistonning ayrim hududlarida mis konlari topilgan bo'lib, ulardan Toshkent viloyatining Olmaliq yerlaridagi mis konlari ishga tushirilgan. Bu yerdagi mis boyligidan foydalanish tufayli, 1951 yili Olmaliq shahri vujudga kelgan va u endilikda O'zbekistonning muhim rangli metallurgiya markaziga aylangan.

Respublika tabiiy gaz, ko'mir, neftga ham boy o'lka. Tabiiy gazning ahamiyati yoqilg'i sifatidagina emas, zarur kimyoviy xomashyo sifatidagi mohiyati ham yil sayin ortib bormoqda. Bu borada respublikamiz imkoniyatlari juda katta. Qashqadaryo va Buxoro hududlari O'zbekistonning tabiiy gazga boy hududlari hisoblanadi. Gaz konlari va zahiralari jihatidan Qashqadaryo O'zbekiston hududlari ichida eng boy va tengi yo'q viloyat hisoblandi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ko'mir muhim ahamiyatga ega, uning zahiralari ham ancha katta. Toshkent viloyatida Angren, Surxondaryo viloyatidagi SHargun va Boysun ko'mir konlari bu borada alohida ko'zga tashlanadi. Hozircha keng tarzda rivoj topmagan Boysun ko'mir konining kelajagi porloq. Bu kon ko'mirining sifati juda yuqori.

O'zbekistonda neftning yetishmasligi respublika uchun katta muammolardan bo'lib keldi. Neft va neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun uni respublika doirasi tashqarisidan olib kelishga majbur bo'linar edi. Endi shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, neft chiqarish borasida O'zbekiston katta istiqbollarga ega. Keyingi vaqtlarda O'zbekistonning ayrim hududlarida yangi neft konlari ochildi. 1990 yili O'zbekistonda 2810 ming tonna neft chiqarilgan bo'lsa, 2000 yilga kelib bu raqam 8 million tonnadan oshdi. Keyingi yillarda yiliga 8-10 mln tonna neft qaziq olinmoqda. Endilikda O'zbekiston neft borasida o'z mustaqilligiga erishdi va xilma-xil neft mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniga ega bo'ldi. Kelajakda respublikani neft bilan ta'minlashda Buxoro viloyati bilan Turkmaniston chegarasi yaqinida topilgan Ko'kdumaloq va Namangan viloyati hududida ochilgan Mingbuloq neft konlarining istiqboli katta.

Yer osti boyliklari tabiat in'om qilgan buyuk boylikdir. Biroq, ularni aql-idrok bilan samarali foydalanishgina biz ko'zlagan iqtisodiy mustaqillikka erishishda katta ahamiyat kasb etishi mumkin.

Mintaqaviy siyosatning - zaruriyati bir vaqtning o'zida barcha hududlar iqtisodiyotini bir darajada rivojlantirib bo'lmasligidan kelib chiqadi. Binobarin, mintaqaviy siyosat rivojlanishi mumkin va mamlakat uchun muhim bo'lgan ustuvor yo'nalish va tarmoqlarga qaratiladi. SHu mazmunda u mintaqaviy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, amaliy (konstruktiv) yo'nalishi hisoblanadi; mintaqaviy siyosat hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi vaziyatni dinamik holda muvofiqlashtirish va barqarorlashtirishga harakat

qiladi.

Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadi quyidagilar:

- Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni yumshatish va shaharlashtirish;
- Mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish asosida mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- Mintaqalar yordamida mamlakatning eksport salohiyatini ko'tarish, iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash;
- Joylardagi ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish;
- Shahar va qishloq aholi manzilgoxlarini rivojlantirish, urbanizatsiya hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish va boshqarish;
- Ishlab chiqarish kuchlarini turli hududiy tashkil etish;
- Aholi bandligini yaxshilash

Yuqoridagi strategik maqsadlarga turli yo'llar yordamida erishiladi. Buning uchun avvalambor hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini mutloq ko'rinishida tenglashtirish g'oyasidan voz kechish talab qilinadi. Shuningdeq mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish, ochiq iqtisodiyot yuritish, qulay investitsiya muhitini yaratish lozim, Xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilgan holda o'zaro manfaatli qo'shma korxonalar qurish, turli yo'nalishdagi erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirish hududlar rivojlanishiga katta to'rtki beradi.

Mintaqaviy siyosat - alohida hududlarni tanlab olish asosida amalga oshiriladi, natijada iqtisodiy landshaft qutbiylashadi, o'sish qutb va markazlari vujudga keladi. Har xil omil va sharoitlarni atroflicha tahlil qilish va rivojlanish imkoniyatlarini baxolash orqali saralab olingan u yoki bu hudud iqtisodiyoti yuksalgandan so'ng navbat mamlakatning boshqa hududiga o'tadi. Natijada, iqtisodiy rivojlanish ham hududiy sikllik yoki davriylik «geografik uzun to'lqinlar» hususiyatiga ega bo'ladi. SHu sababdan, ma'lum muddatda tanlangan hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga urg'u berilishi boshqa hududni kamsitish, imtiyozlarini cheklashni anglatmaydi. Shunki, keyinchalik bu hududga ham xuddi shunday e'tibor beriladi. Ammo mintaqaviy siyosat hududlarning o'zlarini ham faolligini nazarda tutadi. SHuning uchun mahalliy xokimiyatning bu borada izlanuvchan, tadbirkor bo'lishi talab etiladi. Mintaqaviy siyosat o'z mohiyatiga ko'ra tashqi siyosatdan (geosiyosatdan) farq qilib, u mamlakatning ichki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning darajalari ham har xil, Masalan, mamlakat ichkarisiga nisbatan 2 darajadagi siyosat ajratiladi: davlatning mintaqaviy siyosati, ya'ni mamlakat hokimiyatining turli hududlarga (jumladan, viloyatlarga) nisbatan to'tgan siyosati hamda mintaqalarning o'zini siyosativiloyat xokimiyatining qishloq, tuman va shaharlar rivojlanishiga munosabati. Har qanday sharoitda ham ushbu siyosatni yurgazuvchi yuridik tashkilot respublika va viloyatlar hokimiyati hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni hududiy jixatdan yanada yuqoriroq yoki quyiroyq bosqichda ko'rish mumkin. Chunonchi, qishloq tumani xokimligining ham o'zining ichki siyosati bo'ladi. Ayni vaqtda davlat darajasidan yuqorida turgan davlatlararo mintaqaviy siyosat ham mavjud. Bunda mintaqa sifatida alohida davlatlar yoki qo'shni mamlakatlarning tutash hududlari nazarda tutiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi miqyosida ana shunday mintaqaviy siyosat olib boriladi. Kelajakda xuddi shunday darajadagi mintaqaviy siyosat boshqa hududiy iqtisodiy ittifoqlar darajasida ham qo'llanilishi mumkin. Sobik Ittifoq davrida O'zbekistonda mintaqaviy siyosat amalda yo'k edi. Ba'zi hududlarning jadalroq rivojlanishi ko'proq «Butunittifoq» manfaatlarini ko'zlab olib borilardi. Jumladan, Mirzacho'l yoki Qarshi dashtlarini o'zlashtirib, paxtaChilikni yanada rivojlantirish, Buxoro, Qashqadaryo tabiiy gaz, Navoiy viloyati oltin konlarini qazib olish aynan shu maqsadda bajarilgan.

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, mintaqaviy siyosatga tegishli ilmiy tadqiqotlar ilgari ham olib borilgan. Sobik Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish bo'yicha Kengash (SOPS) Respublika hududlar imkoniyatlarini atroflicha tadqiq qilish, hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantirish kontseptsiyalarini yaratgan. Dastavval Farg'ona vodiysi, so'ngra

Buxoro —Navoiy, AngrenOlmalik Qashqadaryo va Quyi Amudaryo mintaqalari maxsus o'rganilib, bu hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning Bosh sxemalari to'zilgan. Olib borilgan ishlar natijasida o'sha davrda Ittifokda mashhur bo'lgan mintaqalar kompleks muammolarini o'rganish ilmiy yo'nalishi shakllangan. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, makroiqtisodiy barkarorlikni mustaxkamlash davrida mintaqaviy siyosatning amaliy ahamiyati yanada kuchaymoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha makroiqtisodiy barkarorlik 1996 yildan beri kuzatilmoqda; ba'zi viloyatlar, masalan, Andijon, Buxoro, Xorazm va boshqalar sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ayni vaqtda iqtisodiy salohiyati katta bo'lgan hududlar (Farg'ona, Samarqand, Navoiy viloyatlari) bu barqarorlikka kechroq erishishdi.

Dunyo xo'jaligi va umumbashariy muammolar yondashuvi-dunyo xo'jaligining tarixiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida o'zining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy salohiyatiga ega mamlakatlar rivojlanishiga jiddiy ta'sir etuvchi, xalqaro siyosat, harbiy-siyosiy mojarolar, yoqilg'i-energetika, oziq-ovqat, demografik, ekologik va boshqa umumbashariy muammolar yechimlarini ishlab chiqishga intiluvchi iqtisodiy-siyosiy birlashmalar va ittifoqlar mavjudligiga asoslanadi. Jumladan, XX asrning oxirida Yevropada jiddiy milliy tizimlarni umumlashtirgan (moliya-kredit, yagona pul va boshq.) transmilliy mintaqa Yevropa Ittifoqining yuzaga kelishi, MDH, Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi va boshq. shakllanishi jarayoni davom etayotganligi e'tiborga molik. Geosiyosiy yondashuv - hududiy jihatdan yaqin va chegaradosh mamlakatlar iqtisodiy integratsiya asosida umumiy bozor (bojxona, valyuta ittifoqlari va boshq.) tuzish uchun intiladilar. Masalan, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi, MDH doirasida Yevrosiy o iqtisodiy hamkorligi va boshq.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni oqilona amalga oshirish xo'jalikning turli tarmoqlarini keng rivojlantirishga imkon beradi. Sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini takomillashtirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish, mehnat resurslari, tabiiy mineral-xom ashyodan yanada samaraliroq foydalanishga zamin yaratadi. Oqilona va yanada samaraliroq amalga oshirilgan tashqi iqtisodiy aloqalar mamlakat oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradi.

Ayni paytda tashqi iqtisodiy aloqalar mazmunini hamkor mamlakatlar va butun jahonda ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlari xarakteri, tuzilishi, dinamikasi, taraqqiyot darajasi belgilaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalar mamlakatlarning o'zaro manfaatli va teng huquqlik printsiplariga asoslanmog'i maqsadga muvofiq.

Jahondagi har qanday davlat, xoh kichik, xoh yirik yoxud taraqqiyotning qanday darajasida bo'lmasin, tashqi iqtisodiy aloqalarsiz o'z salohiyatini to'laqonli namoyon qila olmaydi. Shunki bugungi kunda jahonda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar assortimenti bir necha million turni tashkil qiladiki, birorta davlat ularni o'zida ishlab chiqarish qudratiga ega emas. Ayrim hollarda esa ba'zi turdagi mahsulotlarni o'zida ishlab chiqargandan ko'ra, boshqa mamlakatlardan olib kelish (sotib olish) arzonga tushadi. SHuning uchun tashqi savdo mamlakatning turli talablarini kondirishda, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni sog'lomlashtirish va samaradorligini oshirishda muhim kasb etadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning ayni shu tavsifi har bir mamlakat oldiga milliy manfaatlar doirasida boshqa alohida mamlakatlar yoxud ular guruhlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarga kirishish zaruriyatini qo'yadi.

Mamlakatlar savdo-iqtisodiy munosabatlari keng mazmundagi hamda tarmoqlanuvchi tushuncha hisoblanib, bevosita iqtisodiy manfaatlariga asoslangan, xalqaro mehnat taqsimoti tamoyillariga asosan, u yoki bu resurslarni birgalikda o'zlashtirish, ehtiyojlarni qondirishning samarali muqobil imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq amaliy hatti-harakatlar yig'indisidir.

Mamlakatlar savdo-iqtisodiy munosabatlari – tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi oqimi, valyuta munosabatlari kabi yo'nalishlarda tarmoqlanadi. Lekin ayni paytda faqat ushbu munosabat shakllarining o'zini anglatib qolmay, ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlarini, shart-sharoitlari hamda bu boradagi davlat siyosatini ham qamrab oladi.

Aholi dinamikasi

Mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotini o'rganish va mavjud muammolar yechimini topishni aynan aholi bo'g'inidan boshlamoq kerak. Darxaqiqat, axoli murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir, u bilan ishlab chiqarish «boshdan oyoq», chambarchas bog'liq. Chunki, mehnat resurslarisiz ishlab chiqarish bo'lmaydi, ishlab chiqarish esa axoli uchun kerak: moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi ham, ularni iste'molchisi ham aynan ana shu aholi, ya'ni kishilarning ma'lum hududdagi birligidir.

O'zbekiston Respublikasi axoli soniga ko'ra dunyodagi o'rta darajadaga mamlakat hisoblanadi. Uning axolisi, 1 yanvar 2010 yil ma'lumotlari bo'yicha, 27767,4 ming kishini tashkil etadi.

Respublika axolisi turli davrlarda har xil sur'atlar bilan o'sib borgan. Masalan, 1897 yil, ya'ni o'sha yilda o'tkazilgan birinchi Umumrossiya axoli ro'yxatiga ko'ra, hozirgi O'zbekiston hududida 3948 ming kishi yashagan. 1913 yilda u 4331 ming kishini tashkil qilgan. Birinchi Butunittifoq axoli ro'ixati (1926) natijalari esa bu yerda 4620 ming kishini qayd etgan.

Demak, o'tgan 14 yil davomida u 29 ming yoki o'rtacha har yili 21 ming kishiga yaqin ko'payib borgan.

Ikkinchi jahon urushi arafasida, ya'ni 1939 yilda O'zbekiston aholisi 6347 ming kishidan iborat bo'lgan va u keyingi 1959 yil aholi ro'yxatiga ko'ra 8119 ming kishiga yetgan. O'tgan 20 yil mobaynida Respublika aholisi 1772 ming kishiga yoki o'rtacha bir yilda 88,6 mingga ko'payib borgan.

Ko'rinib turibdiki, bu davrda mamlakat aholisining o'sish sur'ati ancha tezlashgan. Agar urush va uning salbiy demografik oqibatlari bo'lmaganda, ehtimol, Respublika aholisining o'sishi bundan ham yuqoriroq bo'lar edi.

Etmishinchi yillarda (1970-1979 yy.) mamlakat axolisi 11774 mingdan 15389 ming kishiga yetgan; o'rtacha bir yillik ko'payish, mutloq ko'rsatkichda 402 ming kishiga, nisbiy, ya'ni foiz ko'rinishida u 3,00 foizga teng bo'lgan. Vaholanki, bu ko'rsatkich 1913-1926 yillarda 0,45 foiz va 1939-1959 yillarda 1,25 foizni tashkil etgan.

Sobiq Ittifoqda o'tkazilgan so'nggi axoli ro'yxati O'zbekistonda 19780 ming kishini qayd qilgan. Ikki aholi ro'yxati oralig'ida (1979-1989 yy.) aholi soniga yana 4391 ming kishi qo'shilgan va uning o'rtacha bir yillik ko'payish sur'ati 2,55 foizni tashkil qilgan. Bu esa oldingi davrga qaraganda 0,45 foizga kam bo'lgan. Binobarin, aytish mumkinki, O'zbekiston demografik rivojlanishining eng yuqori ko'rsatkichlari 70-yillarga to'g'ri kelgan.

Respublika aholisi 1989-2000 va 2010 yillarda 223,8 foizga o'sgan, bir yillik ko'payish 1,95 foizni tashkil qilgan (bu oldingi yillardan yanada pastroq). SHu davrda aholining o'sish darajasi Surxondaryo hamda Qashqadaryo viloyatlarida eng yuqori bo'lib, 239,2 va 236,0 foizni tashkil qilgan. SHuningdek, bu ko'rsatkich Namangan, Xorazm, Jizzax, Andijon, Samarqand viloyatlarida ham birmuncha yuqori va, ayni vaqtda Navoiy, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida uning nisbatan pastligi kuzatiladi. Poytaxt Toshkent shahrida esa o'sish juda sust: Bir yillik ko'payish atigi 0,10 foizga teng, xolos.

Aholi salmog'iga ko'ra Samarqand viloyati birinchi, Farg'ona ikkinchi va Toshkent viloyati uchinchi o'rinda turadi. Demografik salohiyatning eng past miqdori Navoiy va Sirdaryo viloyatlari. Respublika hududining tabiiy sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarining turli-tumanligi aholi joylashuviga ham ta'sir qiladi. Mamlakat bo'yicha aholi joylashuvining o'rtacha zichligi 1 km² ga 62,0 kishidan iborat bo'lgan holda u Navoiy viloyatidagi 7,7 kishidan Andijon viloyatidagi 601,0 kishigacha farq qiladi (bu boradagi ichki tafovut 70 martadan ziyod).

Tarixan axoli mamlakatimizning sug'oriladigan voha va vodiylarida zich joylashgan. CHunonchi, bu ko'rsatkich Farg'ona, Namangan, Xorazm viloyatlarida ham ancha yuqori. Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Navoiy viloyati O'zbekiston hududining 61,9 foizini tashkil qilsada, bu yerda mamlakat aholisining atiga 9,3 foizi yashaydi; SHu bois, aynan ana shu ikki ma'muriy birlik Respublika aholisi joylashuvining o'rtacha ko'rsatkichiga jiddiy ta'sir etadi.

Buxoro va Jizzax viloyatlarida ham aholi zichligi uncha yuqori emas. Surxondaryo va

Qashqadaryoda esa u o'rtacha ko'rsatkichdan birmuncha yuqori. Biroq, shunga qaramasdan, hatto bu hududlarning ham ichki, qadimdan sug'oriladigan rayonlarida (masalan, Vobkent, SHofirkon, G'ijduvon, SHahrisabz, Qarshi, Yakkabog' tumanlarida) aholi ancha zich joylashgan. Umuman olganda, Respublika axoli joylashuvi ko'p jihatdan gidrografik shaxobchalarsug'oriladigan daryo va irrigaqiya inshootlari bilan belgilanadi. SHu bilan birga yirik shaharlar, ayniqsa Toshkent aglomeratsiyasi doirasidagi qishloq tumanlarida ham aholi joylashuvi juda zich (1 km² ga 700-800 kishini tashkil etadi).

2010 yil ma'lumotlariga binoan, O'zbekiston Respublikasining 51,6 foiz aholisi shahar joylariga to'g'ri keladi. Mutloq raqamda u 14330,9 ming kishi. SHaxar axolisining oldingi yillardagi miqdori quyidagicha bo'lgan (ming kishi hisobida): 1926 y. -1002; 1939 y. -1470; 1959 y.-2729; 1970 y.-4327; 1979 y. -6348 va 1989 y.-8059,3 ming kishi. SHahar axolisining o'sish sur'ati ayniqsa 70-80-yillarda yuqori bo'lgan. Bunga sabab 1972 yilda aholi manzilgohlarining shahar maqomiga o'tkazish uchun talab etiladigan eng kam axoli miqdorini 10 mingdan 7 mingga tushirilishi va buning oqibatida shaxarlar sonining nihoyatda tez ko'payishidir (agar 1970 yilda Respublikada 42 shahar mavjud bo'lgan bo'lsa, 1979 yilda ularning soni 90 taga yetgan).

1989-2002 yillarda shaxarliklar sonining o'sishi ancha susaygan. Natijada umumiy urbanizatsiya ko'rsatkichi 40,7 foizdan 37,1 foizga tushib qolgan. Viloyatlar darajasida mazkur jarayon ayniqsa Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Xorazmda sezilarli bo'lgan va u faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax va Namang'an viloyatlarida birmuncha ko'tarilgan. Hozirgi kunda shahar joylarda yashovchilarning nisbiy miqdori bo'yicha Qoraqallog'iston hamda Toshkent va Navoiy viloyatlari oldinda turadi, uning eng past darajasi esa Surxondaryo viloyatida kuzatiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi 68-sonli "O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari" qarori bilan mamlakatimizdagi 952 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berilishi shahar aholisini salmog'ini 37,1 foizdan 51,6 foizga o'zgarishiga olib keldi.

Urbanizatsiya jarayoni va uning yakuniy ko'rsatkichi odatda hududlar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi, shaxar hosil qiluvchi omillarining mavjudligiga bog'liq. SHu nuqtai nazardan Qoraqalpog'iston va qisman Navoiy viloyatida bu ko'rsatkichning yuqoriligi mazkur hududlar sanoat salohiyatidan emas, balki bu joylarda intensiv qishloq xo'jaligini rivojlantirish sharoitlarining cheklanganligidan darak beradi. Faqat poytaxt Toshkent viloyatida u haqiqiy real voqelikni aks ettiradi, chunki bu yerda, boshqa viloyatlarga qaraganda, sanoat tarmoqlari nisbatan yaxshiroq rivojlangan.

Mamlakat iqtisodiyoti va uning tarkibiy tuzilishini shaharlar to'ri va tizimi ham yaqqol ifodalab beradi. Aksariyat hollarda shaharlar sonining ko'payishga, yirik shahar va shahar aglomeratsiyalarining mavjudligi hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining yuqoriligini ko'rsatadi. 2010 yil ma'lumotlariga ko'ra, Respublikada 122 shahar va 965 shaharcha mavjud bo'lib, ularning barchasida 14330,9 ming atrofida aholi yashaydi. SHaharlar soni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi (12), Qashqadaryo (12) va Toshkent (16) viloyatlari ajralib turadi. Ayni vaqtda ularning to'ri Jizzax, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida yaxshi rivojlanmagan.

Mamlakat milliy iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligi hamda qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashganligi sababli bu yerda kichik shaharlar to'ri juda keng tarqalgan. Jumladan, Respublikada kichik shaharlar (axolisi 20 ming kishigacha) 150 ta yoki jami shaxar manzilgoxlarining deyarli 2/3 qismini tashkil qiladi. Ammo ularda mamlakat shahar aholisining atigi 15,1 foizi yashaydi, xolos. SHuningdek, «yarim o'rta» shaharlar ham son jihatidan ko'p, bevosita o'rta miqyosdagi shaharlar esa son jihatidan ancha oz; ularning soni 16, demografik salohiyati esa 10,6 foiz. Aynan ana shu bo'g'indagi shaharlar sonining kamligi Respublikada urbanizatsiya jarayonining mukammal shakdda rivojlanmaganligidan darak beradi.

O'zbekistonda hammasi bo'lib 17 ta katta shahar mavjud bo'lib, ularga jami shahar axolisining 57,8 foizi to'g'ri keladi. Axoli soniga ko'ra Toshkentdan keyingi o'rinlarda Namangan, Samarqand, Andijon, Buxoro, Nukus, Qarshi shaharlari turadi. SHuningdek,

CHirchiq, Olmaliq, Angren, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarining ham har birida 100 mingdan ziyod aholi bor. Ayni vaqtda Sirdaryo viloyatining ma'muriy markazi Gulistonda atigi 76,8 ming kishi yashaydi.

SHu bilan birga yirik markazlar negizida shaharlar hududiy tizimining murakkab shakllari ham vujudga kelgan. CHunonchi, Toshkent, Samarqand, Farg'ona-Marg'ilon aglomeraqiyalari shular jumlasidandir.

Boy tarixga ega bo'lgan, ishlab chiqarishning an'anaviy, «osiyocha» yoki Sharqona usuli qishloq xo'jaligining sug'orma dehqonChiligi va u bilan bog'liq shaharlar to'riga asoslanadi. Binobarin, Sharq tarixi va Sharq madaniyatini dehqonChilik hamda qishloq va shaharlarning ajralmas birliga, urbanizaqiyaning o'ziga xos yo'nalishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. SHu bois ham Respublikamiz iqtisodiyoti va demografik salohiyati ko'proq qishloq xo'jaligi va qishloq axolisidan tashkil topadi.

Joriy ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda 11811 ta qishloq axoli manzilgohlari bor. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarining har birida mingdan ortiq qishloqlar mavjud, ularning eng kam miqdori esa Sirdaryo viloyatida-284. Respublikamizda o'rtacha har bir qishloqqa 1397 kishi to'g'ri keladi. Bu jihatdan Namangan (2448) va Andijon viloyatlari (3053) oldinda turadi. Hududi qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun uncha qulay bo'lmagan Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Buxoro va Navoiy viloyatlarida esa qishloqlar ancha kichik (o'rtacha 650-720 kishi).

Yuqoridagilarga mos ravishda qishloq joylarda mehnat resurslari ham ko'p va hatto ular keragidan ham ortiqcha. Ish o'rinlarining yetishmasligi, ishsizlik, mehnat bozorining faol emasligi aholisi zich joylashgan voha va vodiylarda ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aynan shuning uchun xam Respublikada qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishga, qishloq sanoati va infrastrukturasi rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu dolzarb masala davlatning mintaqaviy siyosatida o'z yechimini topmog'i lozim.

O'zbekiston aholisi asosan tabiiy ko'payish natijasida oshib boradi. Bu omilning roli hamma vaqt ham yuqori bo'lgan. Eng so'nggi yillarda esa u axoli soni o'sishining birdan bir manbai bo'lib kelmoqda. Biroq, ta'kidlash joizki, 90-yillarda aholining takror barpo bo'lish jarayonida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi; endi Respublikamizni an'anaviy holatda tug'ilish yoki tabiiy ko'payish yuqori mamlakat sifatida ta'riflash uncha to'g'ri emas. Buning uchun quyidagi raqamlarga murojaat qilish kifoya (1000 kishi axoliga nisbatan).

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танкидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониезов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tashqi iqtisodiy aloqalar deganda nima tushunasiz?
2. Tashqi iqtisodiy aloqalarning milliy tarkibini o'rganib chiqing?
3. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi yangi strategiyasi nima?
4. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishini o'rganib chiqing ?
5. O'zbekiston eksportidagi tarkibiy o'zgarishlarni taxlil qiling ?
6. O'zbekiston importidagi tarkibiy o'zgarishlarni taxlil qiling ?

Ma'ruza 8: O'zbekiston turistik imkoniyatlari va yo'nalishlari

Reja

1. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish asoslari
2. O'zbekistonni turistik rayonlashtirish
3. O'zbekistonning tarixiy va madaniy yodgorlik resurslari
4. O'zbekiston respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora - tadbirlari

Tayanch iboralar va so'zlar: O'zbekistonda turizmni, O'zbekistonni turistik rayonlashtirish, , *Turistik regional, Xalqaro turizm, axoli badligi, Dunyo mintaqalari, turistlarni sug'urtalash, imtiyozlar, qidiru-qutqaruv, xizmatlari, tibbiy xizmat, turizm sohasidagi suboektlar vazifasi*

1. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish asoslari

Turizm jahondagi ko'pgina mamlakatlar singari respublikamiz iqtisodiyotiga o'zining hissasini qo'shayotgan qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori rivojlanib bormoqda. Biroq, hozirgi paytda turizm imkoniyatlari O'zbekiston Respublikasida samarali foydalanilmayotganligi tufayli u xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari ko'rsatkichlaridan ancha orqadadir.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning geografik o'rni turizmni rivojlantirishda Markaziy Osiyo davlatlari ichida ancha qulaydir. Bu borada Respublika Prezidenti I.A.Karimov o'z asarida, «Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan O'zbekiston xalqaro aloqalarini yo'lga qo'yish nuqtai nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qisman qulay jo'g'rofiy-strategik mavqega ega. Qadim zamonlarda Sharq va G'arbni bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'li O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar shu yerda kesishgan» – deb yozadi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz tsivilizatsiya o'choqlaridan biri sifatida dunyo xalqlari madaniyati, san'ati, arxitektura, shaharsozlik va ilm faniga ulkan hissa qo'shdi. O'lkamiz uzoq yillar davomida jangu-jadallar natijasida vayronalarga aylantirildi. Ammo O'zbekistonning qulay geografik o'rni uning yanada taraqqiy etishi uchun katta ahamiyat kasb etdi. Binobarin, mintaqaning rivojlanishida bevosita turizmning hissasi nihoyatda salmoqli bo'lgan. Chunki, Buyuk Ipak yo'li tugunida joylashgan Yurtimizda savdo-sotiq va boshqa aloqalardan tushgan daromadlar mamlakat xazinasiga katta ulush qo'shganligi shubhasizdir. Demak, mintaqaning geografik o'rni uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Ma'lumki, mintaqamizdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, ya'ni ulug' ajdodlarimiz: Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Al-Moturudiy, Al-Farg'oniy, Xo'ja Axror Vali, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqalarning milliy, ma'naviy va madaniy me'rosi bizning ulkan boyligimiz bo'lib, ular qoldirgan ko'plab tarixiy, diniy qadamjolar, tarixiy obidalari dunyo sayyohlarida katta qiziqish uyg'otadi. Jumladan, O'zbekiston tarixiy obida va yodgorliklarga boy bo'lgan shaharlari hamda o'ziga xos tabiati hamisha jahon sayyohlarini o'ziga jalb qilib

kelgan. Biroq, sobiq sho'rolar davrida turistik aloqalarning markaz tomonidan boshqarilishi tufayli mustaqil ravishda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari cheklangan edi.

O'zbekiston turizmining o'tmishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u bevosita uzoq tarixga borib taqalsa-da, ammo tarmoq sifatida yaqin davrda paydo bo'lgan. Hozirgi respublikamiz hududlarida dastlabki ekskursiya sayohati byurosi 1936 yilda ochildi va O'zbekiston kasaba uyushmasi qoshida «Sayohat-ekskursiya boshqarmasi» tashkil etildi. Bu tashkilot yaqin va uzoqlarga uyushtiriladigan safarlar bilan shug'ullandi. 1962 yilda respublikaning viloyat va o'lkalari qoshida ham sayohat byurolari tashkil etiladi. 1982 yilga kelib viloyatlar va Qaraqalpog'istonda jami 13 ta «Sayohat va ekskursiya soveti», 29 ta «Ekskursiya va safarlarga chiqaruvchilar byurosi», 5 ta sayohatchilar mehmonhonasi, 12 ta turistik baza va kempinglar barpo etiladi (Qurboniyozov, Sa'dullaev, Abirqulov, 1999).

Sayohatlar aksariyat ittifoqdosh respublikalarga markaz tomonidan tasdiqlangan dastur asosida amalga oshirilgan. Bu davrlarda respublikada sayohatlar ko'proq sport, o'lkashunoslik, alpinizm, sog'liqni tiklash hamda boshqa ittifoqdosh respublikalar bilan tanishish maqsadlarida olib borilgan. SHo'rolar hukmronligining inqirozi natijasida bu aloqalar o'z-o'zidan buzildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki yillardan boshlab iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohatlar va o'zgarishlar davri boshlandi. Respublikaning suveren davlat maqomida dunyo mamlakatlari tomonidan tan olinishi, 120 dan ortiq davlatlar bilan rasmiy diplomatik munosabatlarning o'rnatilganligi, shuningdek, Toshkentda ko'plab mamlakat elchixonalarining o'chilishi qisqa davr ichida O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishida muhim qadam bo'ldi.

Aytish joizki, O'zbekiston o'z mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiyotini rivojlantirishda jahon tajribasidan keng foydalanmoqda. Bu o'rinda turizm sohasini rivojlantirishga davlat tomonidan katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, Prezident I.A.Karimovning 1995 yil 2 iyunda chiqargan «Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasini ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish» to'g'risidagi Farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda dastlabki qadamlardan biri bo'ldi.

SHuningdek, turkiytilli davlatlar boshliqlarining 1996 yil oktyabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan IV – uchrashuvida prezidentimiz «Buyuk Ipak yo'lini tiklash, ma'rifiy turizmni rivojlantirish, turkiytilli davlatlarning madaniy me'rosini qayta tiklash, asrash va barqaror rivojlantirish» dasturini birgalikda ishlab chiqish, maqsadli sayyohat yo'nalishlarini kengaytirish va sayyohlikning tegishli infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida takliflarni oldinga surdi¹. Bundan tashqari, 1998 yil 15 aprelda qabul qilingan «2005 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi» to'g'risidagi Vazirlar mahkamasi qarori turizmning kelajak istiqbolini belgilashda katta ahamiyat kasb etdi.

Yuqoridagi qaror va farmonlar asosida qisqa vaqt ichida respublikamizning ko'pgina mintaqalaridagi tarixiy, diniy obidalar, buyuk siymolar qabrlari, dahmalari, masjidular madrasalarini qaytadan tiklash va ta'mirlash ishlari keng miqyosda amalga oshirildi. Bu bevosita turistik ob'ektlarning ko'payishiga va yaxshilanishiga olib keldi.

Ma'lumki, BMT ning 1972 yilda qabul qilgan konventsiyasida xalqlarning nodir madaniy yodgorliklarini avaylab asrashga kelishgan. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha 500 dan ortiq madaniy yodgorliklar ro'yxatga olingan bo'lib, ular o'ziga xos takrorlanmas tarixiy-madaniy ansambllar, arxitektura yodgorliklari, tabiiy qo'riqxonalar va boshqa turistik ahamiyatga molik ob'ektlarni qamrab olgan (Okladnikova, 2002). SHu jihatdan O'zbekiston o'zining turistik ob'ektlarini salohiyati bo'yicha jahonda katta mavqega ega.

Respublikamizda hozirgi paytda 4000 dan ziyod tarixiy obidalar, monumental-arxitekturaga xos bo'lgan manzillar mavjud. Bular Budda diniga mansub topilmalar, Iskandar Zulqaynar yurishlari, arablar istilochiligi, mo'g'illar bosqini hamda Amir Temur va temuriylar imperiyasi va boshqa davrlardan dalolat beruvchi sayyohlik ob'ektlarini tashkil etadi. Ammo

¹Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бىсаҳасида: кавфсизликка тақдид, баръларорлик шартлари ва таралъиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997 – б.308-309

ulardan bor yo'g'i 500 tasi turistlarni qabul qila oladi, xolos. SHundan faqatgina 200 ga yaqini xalqaro talablarga javob bera oladi (Hoshimov, 1998). SHuningdek, O'zbekistonda dunyo tarixiy yodgorliklari qatoriga kirgan 21 ta tarixiy joylar aniqlangan. Bundan tashqari, mintaqamizda tabiiy iqlim xususiyatlari bilan bog'liq 90 dan ortiq iqlimiy, tabiiy hamda kishilar salomatligi uchun eng qulay davolash maskanlari bor. Ular asosan tog' va tog'oldi mintaqalarda joylashgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, O'zbekiston o'zidagi mavjud turistik ob'ektlar (madaniy, tarixiy, arxitektura, arxeologik obidalar, ziyoratgohlar, aziz sanalgan qadamjolar, dam olish, sog'lomlashtirish va h.k) salohiyati jihatidan nafaqat O'rta Osiyoda, qolaversa dunyoda o'ziga xos mavqega egadir.

SHu o'rinda, hukumatimizning oqilona siyosati va prezident tashabbusi bilan 1998 yilda islom ahlining buyuk olimlari, hadisshunoslari va islomiy bilimlarning dunyo miqyosida rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Imom Buxoriy, Al Farg'oniy, Marg'iloniy, At-Termiziy, Motrudiy va boshqa zotlarning qadamjolari va qabrlarini qaytadan tiklash ishlari respublikada mahalliy va xalqaro sayyohlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga molik bo'ldi.

Turizm faoliyatini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyulidagi farmoni bilan sayohat sohasida respublikada yagona siyosatni amalga oshiruvchi maxsus davlat organi – «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi tashkil etildi. Bu kompaniya qoshida viloyat va mintaqa filiallari ochildi. 1993 yil Bali shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon turistik tashkilotini (BTT) 10 sessiyasida «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi ushbu nufuzli tashkilotga to'la huquqli a'zo bo'ldi (To'xlijev, 1996).

1995 yil Qohirada o'tkazilgan BTT-ning navbatdagi 11- sessiyasida O'zbekiston «Atrof muhitni muhofaza qilish komiteti»ga va Istambuldagi 12 – sessiyasida Markaziy Osiyo mintaqasida «Buyuk Ipak yo'li» dasturida mamlakatimizning o'rni alohida ta'kidlab o'tildi. SHuningdek, YuNESKO-ning O'zbekistondagi qarorgohi, madaniyat vazirligi va Fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda «Meros» dasturi asosida Buyuk Ipak yo'lida joylashgan tarixiy, arxitektura, arxeologik va boshqa yodgorliklarni tiklash, ta'mirlash va ilmiy o'rganish bo'yicha amaliy ishlar qilinishi bevosita respublikada turizm rivojlanishi uchun katta turtki bo'ldi.

Bundan tashqari, yuqori saviyada o'tkazilgan BTT- ning Samarqand (1994) va Xivada (1999) qabul qilingan deklaratsiyalarida O'zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish lozimligi ta'kidlab o'tildi. 1993 yilda tasdiqlangan «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko'zlab noyob hamda ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, sanitariya, sog'lomlashtirish, iqtisodiy nuqtai nazardan milliy boylik va umumhalq mulki bo'lmish bebaho tabiiy ob'ektlarning muhofaza etishning umumiy va tashkiliy asoslarini belgilab berdi.

1994 yil Toshkentda «Buyuk Ipak yo'lida turizm» mavzusida o'tkazilgan xalqaro yarmarka O'zbekistonda turizm taraqqiyoti va uning boy an'analarini targ'ib qilish borasida muhim voqeaga aylandi. Bu an'ana davom ettirilib, 2000 yili respublikada o'tkazilgan yarmakada 35 mamlakatdan kelgan 200 ta sayyohlik firmalari ishtirok etdi (Ahmedov, 2002). Aytish kerakki, respublikada qisqa davr mobaynida turizmga e'tiborning kuchayishi hamda xuquqiy va tashkiliy asoslarining yaratilishi mazkur tarmoqni rivojlantirishni va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish lozimligini ko'rsatmoqda

Mutaxassislar tahlili shundan dalolat beradiki, dunyo miqyosida 1998 yilda sayyohlar soni 625 mln. kishini tashkil etgan bo'lib¹, o'rtacha yillik o'sishi 14,8 foizni, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida esa 8,8 foiz ko'rsatkichga ega bo'lgan (Nazarova, Komilova, 2000).

Основные страны обеспечивающие туристские потоки R.Uz

| № | Страны | 2001 г. | 2002 г. | 2003 г. | 2004 г. |
|----------|---------------|----------------|----------------|----------------|----------------|
| 1 | Yaponiya | 6139 | 1797 | 709 | 1794 |
| 2 | Angliya | 3789 | 2820 | 492 | 674 |

¹Ушбу кырсаткич 1950 йилда 25,3, 1960 йилда 71,2, 1965 да -113,9 ва 1970 йилда 169,0 млн кишига тенг бълган (Мироненко, Твердохлебов, 1981, б.29)

| | | | | | |
|----|----------------|------|------|------|------|
| 3 | Germaniya | 9815 | 7057 | 1328 | 2287 |
| 4 | SSHA | 9577 | 4976 | 1613 | 3197 |
| 5 | Italiya | 1422 | 493 | 570 | 825 |
| 6 | Frantsiya | 3418 | 2075 | 871 | 1336 |
| 7 | Iran | 5408 | 4341 | 3446 | 3988 |
| 8 | Yujnaya Koreya | 4197 | 2249 | 350 | 281 |
| 9 | Turtsiya | 6401 | 9401 | 4140 | 5303 |
| 10 | Indiya | 3271 | 1094 | 458 | 353 |
| 11 | Izrail | 4303 | 1835 | 379 | 581 |

Основные страны обеспечивающие туристские потоки R.Uz

| № | Страны | 2001 г. | 2002 г. | 2003 г. | 2004 г. |
|----|----------------|---------|---------|---------|---------|
| 1 | Yaponiya | 6139 | 1797 | 709 | 1794 |
| 2 | Angliya | 3789 | 2820 | 492 | 674 |
| 3 | Germaniya | 9815 | 7057 | 1328 | 2287 |
| 4 | SSHA | 9577 | 4976 | 1613 | 3197 |
| 5 | Italiya | 1422 | 493 | 570 | 825 |
| 6 | Frantsiya | 3418 | 2075 | 871 | 1336 |
| 7 | Iran | 5408 | 4341 | 3446 | 3988 |
| 8 | Yujnaya Koreya | 4197 | 2249 | 350 | 281 |
| 9 | Turtsiya | 6401 | 9401 | 4140 | 5303 |
| 10 | Indiya | 3271 | 1094 | 458 | 353 |
| 11 | Izrail | 4303 | 1835 | 379 | 581 |

Okazaniya turistskix uslug, kolichestvo turistov i doxodov po NK «Uzbekturizm»

| Годы | Колличества туристов тыс. человек | Полученные доходы от туризма по НК «Uzbekturizm» тыс. dollarov |
|------|-----------------------------------|--|
| 1993 | 92,0 | 5000 |
| 1994 | 60,9 | 7364 |
| 1995 | 92,0 | 8000 |
| 1996 | 173,8 | 14493 |
| 1997 | 252,9 | 18836 |
| 1998 | 272,0 | 20980 |
| 1999 | 274,0 | 25525 |
| 2000 | 278,0 | 27295 |
| 2001 | 231,4 | 22215 |
| 2002 | 196,7 | 21546 |
| 2003 | 230,4 | 23581 |
| 2004 | 262,7 | 28020 |
| 2005 | 241,9 | 28134 |
| 2006 | 273,2 | 42801 |
| 2007 | 343,5 | 51133,4 |
| 2008 | 370,1 | 62812,7 |

Okazaniya turistskix uslug, kolichestvo turistov i doxodov po NK «Uzbekturizm»

| Годы | Колличества туристов тыс. человек | Полученные доходы от туризма по НК «Uzbekturizm» тыс. dollarov |
|------|-----------------------------------|--|
| 1993 | 92,0 | 5000 |
| 1994 | 60,9 | 7364 |
| 1995 | 92,0 | 8000 |

| | | |
|------|-------|---------|
| 1996 | 173,8 | 14493 |
| 1997 | 252,9 | 18836 |
| 1998 | 272,0 | 20980 |
| 1999 | 274,0 | 25525 |
| 2000 | 278,0 | 27295 |
| 2001 | 231,4 | 22215 |
| 2002 | 196,7 | 21546 |
| 2003 | 230,4 | 23581 |
| 2004 | 262,7 | 28020 |
| 2005 | 241,9 | 28134 |
| 2006 | 273,2 | 42801 |
| 2007 | 343,5 | 51133,4 |
| 2008 | 370,1 | 62812,7 |

**Okazanie turistskie usluzhi inostrannykh turistov po
NK «Uzbekturizm**

| Pokazateli | 2000 | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 1995 |
|--|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| Kolichestva pribyvshix inostrannykh turistov (tys. chelovek) | 278,0 | 231,0 | 196,7 | 230,4 | 262,8 | 241,9 | 273,2 | 343,5 | 370,1 | 92,0 |
| Protsent s otnoshenie za predydущix godov | 101,4 | 83,1 | 85,1 | 171,3 | 114,0 | 90,4 | 112,9 | 125,7 | 107,7 | 151,1 |

**Okazanie turistskie usluzhi inostrannykh turistov po
NK «Uzbekturizm**

| Pokazateli | 2000 | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 1995 |
|--|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| Kolichestva pribyvshix inostrannykh turistov (tys. chelovek) | 278,0 | 231,0 | 196,7 | 230,4 | 262,8 | 241,9 | 273,2 | 343,5 | 370,1 | 92,0 |
| Protsent s otnoshenie za predydущix godov | 101,4 | 83,1 | 85,1 | 171,3 | 114,0 | 90,4 | 112,9 | 125,7 | 107,7 | 151,1 |

O'zbekistonni turistik rayonlashtirish.

Boshqa geografik fanlar kabi turizm geografiyasida ham rayonlashtirish katta ahamiyatga ega. Biroq, ta'kidlash lozimki, turistik va umuman rekreatsion rayonlashtirishning nazariy va metodik muammolari uzil-kesil yechilmagan. Ayniqsa ushbu rayonlarning klassifikatsiyasi va tiplari, ularning hududiy rekreatsion (turistik) tizim yoki majmualar bilan munosabati to'g'risida yagona kelishilgan nuqtai nazarlar yo'q. Aynan na shu masalani V.A.Kotlyarov (1978), N.S.Mironenko, I.I.Pirojnik, I.T.Tverdoxlebov (1989) va boshqa olimlar ham e'tirof etishadi.

Ma'lumki, iqtisodiy geografiyada rayonlar eng avvalo ikki shaklda ajratiladi: integral (oraliq) va sohaviy (tarmoq) rayonlar. SHuningdek, rayonlashtiriladigan ob'ekt hududiy uzluksiz yoki diskret, ya'ni areal ko'rinishda bo'ladi. Ikkinchi shakldagi rayonlashtiriladigan hodisa yoki voqelik hududning ayrim joylarida mavjud bo'ladi, xolos (Coliev, Qarshiboeva,

1999). Masalan, turistik rayonlashtirishda tabiiy landshaftlarni jozibaligi (atraktivnost') hisobga olinganda, turli rayonlar – cho'l, tog', voha va boshqa landshaft rayonlari ajratiladi va ular butun mamlakatni qoplab oladi. Ayni vaqtda ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan turistik rayonlashtirishda belgilangan rayonlar areal (azonal) ko'rinishda bo'ladi. Chunki, arxeologik yodgorliklar, arxitektura va shaharsozlik ob'ektlari, qadamjo va boshqa turistik elementlar hududning faqat ayrim joylarida uchraydi. Binobarin, ana shunday ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy ob'ektlarni turistik jihatdan rayonlashtirish ancha qiyin. Chiliklar tug'diradi (Gladskiy, Chistobaev, 2000).

Turistik rayonlashtirish sohaviy yoki tarmoq rayonlar turkumiga kiradi. Bunday rayonlar ham hududiy mehnat taqsimoti va hududiy ixtisoslashuv asosida vujudga keladi. Rayon shakllantiruvchi omillar sifatida tabiat manzaralari (peyzaj, landshaft), ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-tarixiy ob'ektlar va turistik infratuzilma xizmat qiladi.

Ayrim olimlar fikricha, (masalan, Mironenko, Pirojnik, Tverdoxlebov, 1989) hududiy turistik tizim yoki majmualar turistik rayonlarga nisbatan tor tushunchadir. Biz ham aynan shu fikr tarafdorimiz. Zero, HTM-lar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, turistik rayonlarning ichida shakllanadi va ularning quyi pog'onalariga mos keladi.

Turistik rayonlarga ham integral rayonlar kabi ma'muriy iqtisodiy birliklar doirasida ko'rish ma'qulroq. Chunki, bunday miqyosda statistika masalasi, boshqaruv muammolari osonroq o'z yechimini topadi. Xuddi shu fikrni Ye.A.Kotlyarov (1978, b.58), I.I.Pirojnik (1985, b.152) ham ma'qullashgan. Binobarin, biz ushbu metodologik asoslarga tayangan holda hamda O'zbekistonni mavjud iqtisodiy rayonlar to'rini e'tiborga olib, mamlakatimizdagi turistik faoliyatni quyidagi tartibda ko'rishni lozim topdi:

1. Toshkent turistik rayoni (Toshkent viloyati)
2. Mirzacho'l turistik rayoni (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari)
3. Farg'ona turistik rayoni (Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlari)
4. Zarafshon turistik rayoni (Samarqand, Buxoro, Navoiy, viloyatlari)
5. Janubiy turistik rayoni (Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari)
6. Quyi Amudaryo turistik rayoni (Xorazm viloyati, Qaraqalpog'iston Respublikasi)

Toshkent turistik rayoni. Bu rayon Toshkent shahri Toshkent viloyatini birlashtirib, respublikaning eng muhim turistik mintaqasi hisoblanadi.

Toshkent - respublikaning poytaxti sifatida sayyohlikning eng yirik markazlaridan biridir. Chunki, u xalqaro transport tuguni sifatida (havo, temir yo'l, avtomobil) muhim o'rin tutadi. SHuningdek, Toshkent viloyatidagi mahalliy va xalqaro ahamiyatidagi sayyohlik maskanlari mintaqaning bu borada imkoniyatlarining nihoyatda kattaligidan dalolat beradi. Mazkur rayonda tarixiy obidalar, tabiiy rekreatsiya resurslari, suv omborlar, daryolar va shifobaxsh mineral suvlar, tog' manzilgohlari mavjud. Bu yerda Oqtosh, Xumson, G'azalkent, Tovoqsoy, Boldirsoy, CHorbog', CHimgan, Kumushkon, So'qoq, Ohangaron, Yangiobod, Ertosh, Ko'ksaroy, Qizilchi dam olish va davolanish kishilarning miriqib dam olishi hamda sog'ligini tiklashda beqiyos ahamiyatlidir.

Rayonning tekislik va adir qismida ham ekskurtsiya ob'ektlari va shifobaxsh maskanlar juda ko'p. Bu yerda Botanika, Turon, CHinobod, Toshkent mineral suvi, 8 mart, Qibray, Bo'ston, Zanggi ota kabi o'nlab sanatoriya va kurort zonalarini joylashgan. Ularning xilma xil kasalliklarga shifo berish imkoniyati mavjud. Bu turistik rayonda turizm infratuzilmasi boshqa rayonlarga nisbatan ancha yuqori rivojlangan. Xususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyati tog' oldi mintaqalaridagi turistik ob'ektlarda, mehmonxona va dam olish uylarida sayyohlarga xizmat ko'rsatish yuqori darajada tashkil etilgan. Bu esa yuqori darajada urbanizatsiyalashgan hudud uchun (Toshkent aglomeratsiyasi) ayniqsa muhimdir.

Mirzacho'l turistik rayoni. Mazkur rayon o'zining tabiiy landshaft va qadimiy sardobalari bilan mashhur. SHuningdek, bu yerda irrigatsiya shahobchalari, yangi o'zlashtirilgan yerlar, Sirdaryo IES kabilar ham turistik jihatdan e'tiborga loyiqdir. Zomin va Baxmal tog' va tog'oldi dam olish mintaqalari rayonning eng yirik tabiiy turistik maskanidir. Jizzax viloyatining

Morguzor va Turkiston tog' tizmalaridagi tabiiy va rekreatsiya maskanlari, Sangzor daryosi havzasining o'ziga xos landshaftlari ushbu rayonning turistik boyligi hisoblanadi.

Farg'ona turistik rayoni. Bu turistik rayon respublikamizning eng so'lim, tabiati go'zal maskanlardan biridir. Uch viloyatni birlashtirgan (Farg'ona, Andijon, Namangan) rayon qadimdan rivojlanib, ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyoti jarayonida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilikning eng yirik markazlari sifatida hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Aholining milliy hunarmandchilik buyumlari jahon sayyohlarining e'tiborini jalb qilib kelmoqda. SHu o'rinda, Marg'ilon ipaklari, shoyilari va do'ppilari, Chust pichoqChiligi, charmdo'zlik hamda Rishton kulolChilik mahsulotlari kabilar jahon ko'rgazmalarida ishtirok etib kelmoqda.

Turistik rayonda Madrasai Amir (XVIII-asr), Xudoyorxon saroyi, milliy uslubdagi naqqoshlik va ganchkorlik naqshlari bilan qurilgan tarixiy obidalar Qo'qon, Rishton, Quva, Kosonsoy, SHahrixon va Namanganda ancha keng tarqalgan. Amir Kon, CHilustin g'orlari, Marg'iloniy, Al-Farg'oniy ziyoratgohlari sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

Yozyovon cho'llari Markaziy Farg'onada saqlanib qolgan noyob landshaft turidir. SHuningdek, Axsi, Eski Pop, Tuproqqal'a kabi ekoturistik obidalar va rayon etnografiyasi, san'ati, (askiya, qiziqChilik) madaniyati, urf-odatlari (to'ylari, kurash musobaqalari va h.k.) hamda choyxonalari sayyohlikning o'ziga xos o'rganilmagan jihatlaridan biridir. Farg'ona turistik rayonidagi Andijon, Asaka, Pop, Qo'qon, Marg'ilon, SHahrixon, Chust va boshqa shaharlardagi milliy hunarmandchilikning o'ziga xos turlari mintaqa turistik salohiyatini yanada oshiradi. Bularning barchasini turizmni rivojlantirish maqsadida ilmiy jihatidan o'rganish katta ahamiyatga egadir.

Hozirgi paytda vodiya 55 ga yaqin noyob tabiiy turistik ob'ektlar hisobga olingan. Rekreatsiya va dam olish maskanlaridan Chortoq, CHimyon, SHoximardon, Vodil, Bobur bog'i kabi ob'ektlar rayonning dam olish, sog'lomlashtirish, tanishuv, diniy, sport va boshqa turistik xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Namangan viloyatidagi Chortoq, Gulshan dam olish va davolanish sihatgohlari, Baliqko'l, Nanay, G'ova, Movlono Lutfillo, Parda Tursun kabi dam olish maskanlari va ziyoratgohlari, Andijon viloyatidagi Bog'ishamol, SHirmonbuloq, Xonobod, Dilkushod dam olish maskanlari, Qutayba ibn Muslim, Imom ota, Qambar ota va boshqa diniy ziyoratgohlar turizmga nihoyatda ahamiyatlidir.

Vodiya 50 dan ortiq mineral suv buloqlari mavjud. CHortog' mineral suvi 1946 yilda ochilgan bo'lib, suv 1000-3000 m chuqurlikdan 43-47 gradus issiqlikda otilib chiqadi. CHortog' dam olish maskanida poliartrit, me'da-ichak, xotin qizlar kasalliklari, teri xastaligi va boshqa kasalliklar davolanadi. Bundan tashqari, CHimyon, SHahimardon, Vodil kabi ko'plab rekreatsiya va dam olish ob'ektlari, go'zal sermanzara soylar rayonning turistik imkoniyatini yanada oshiradi (Nurmatov, Islomov, CHorieva, 2002, b.103-105)

Hozirgi paytda maxalliy sayyohlik nihoyatda faol bo'lib, chet ellik sayyohlarni qabul qilish va ularni jalb qilish ancha past darajada. CHunki, mintaqa turistik jihatdan keng ko'lamli o'rganilmagan va turistik infratuzilmaning pastligi kelajakda ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar asosida taklif va loyihalar yaratishni talab etadi.

Zarafshon turistik rayoni. O'zbekistonning eng muhim turistik markazidan biridir. Bu turistik rayon tarixiy rivojlanishi davrida Movaraunnaxr markazi hamda jahon tsivilizatsiya o'choqlari qatori mashhurdir. Turistik rayon dunyoning eng qadimiy shaharlari qatoriga kiruvchi Samarqand, Buxoro shaharlaridagi tarixiy obidalar, arxitektura, arxeologik, shaharsozlik, shuningdek, milliy hunarmandchilik hamda o'ziga xos madaniyati va san'ati bilan ajralib turadi. Zarafshon turistik rayoni xalqaro turizmning Markaziy Osiyodagi muhim bug'ini sifatida o'z salohiyatiga egadir. SHu jihatdan bejizga «Samarqand sayqali ruyi zamin ast, Buxoro qubbatini dini islom ast» deb aytishmagan.

Samarqand dunyoning eng go'zal shaharlaridan biri bo'lib, ochiq muzey hisoblanadi. Uning asrlar davomida saqlanib kelayotgan tarixiy turistik ob'ektlari dunyo sayyohlarini o'ziga chorlab kelmoqda. SHaharning eramizdan oldingi davrlardan boshlab, 14-15 asr va undan keyingi tarixiy, madaniy yodgorliklari diqqatga sazovordir. Qadimiy Afrosiyob, SHohi-Zinda,

Bibixonim madrasasi, Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi, Imom Buxoriy, Al Motrudiy, Xo'ja Axrori Vali va temuriylar tomonidan qurilgan ko'plab maqbaralar muhim turistik ob'ekt sifatida qaraladi.

Biroq ta'kidlash joizki, turistik ahamiyatga ega bo'lgan nodir go'shalari va xilma-xil tabiiy turistik ob'ektlaridan hozirgi kunda imkoniyat darajasida foydalanilmayapti. Binobarin, bu salohiyatlardan turizm soxasida to'raligicha foydalanilsa nihoyatda katta iqtisodiy samaraga erishishga shubha yo'q.

Buxoro viloyati, xususan, Buxoroyi SHarif boy tarixiy turistik ob'ektlarga ega. U islom olamining muqaddas shaharlaridan biridir. Buxoro viloyati va shaharning o'zida 140 dan ortiq tarixiy obidalar saqlangan. Ayniqsa, Ismoil Somoniy maqbarasi (9-10 asr), Sayfuddin Buxoriy (13 asr), Poyi-Kalon ansambli, Qush madrasasi, Labi-hovuz (12-13 asrlar), G'ijduvoni, Naqshbandiy ziyoratgohlari eng noyob tarixiy va diniy turistik ob'ektlar hisoblanadi.

O'zbekistonda Buxoro o'ziga xos milliy hunarmandchilik (zardo'zlik, kashtacilik, kulolchilik va h.k.) maktabiga egadir. Buxoro viloyatidagi Sitorai-Moxi-Xosa va Abu Ali Ibn Sino nomli shifoxonalari respublika ahamiyatidagi sog'lomlashtirish va dam oladigan joylardan biridir. Bundan tashqari, mintaqa cho'l ekoturistik salohiyati jihatidan ham respublikada o'ziga xos mavqega ega.

Navoiy respublika viloyatlari ichida hududiy jihatdan eng katta bo'lib, unda yuzlab madaniy, tarixiy va tabiiy turistik ob'ektlar mavjud. Xususan, mintaqadagi Nurota, Malikrabod, QosimShayx tarixiy ziyoratgohlari diniy sayyohlikda ahamiyatlidir. SHuningdek, viloyat hududidan «Buyuk Ipak yo'li»ning kesib o'tganligi natijasida o'nlab qadimiy sardobalarning ham turizm muhimidir.

Bundan tashqari, viloyatda «seliteb» landshaftlar, jumladan, qadimiy shahar va qal'alar harobalari, arxeologik obidalar, tabiiy ekoturistik joylar hozirgi kunga qadar turizm maqsadida foydalanilmagan. Ayniqsa, Qizilqumning go'zal tabiati, Nurotaning tarixiy ziyoratgohlari va buloqlari hamda zamonaviy Navoiy shaharsozligi mintaqada mahalliy va xalqaro sayyohlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Junubiy turistik rayoni. Ushbu turistik rayon o'zining tarixiy va tabiiy rekreatsiya imkoniyatlari jihatidan boshqa turistik rayonlardan ajralib turadi. Qashqadaryo viloyatining betakror tabiati, Amir Temur qurdirgan Oqsaroy ansambli, ko'plab diniy ziyoratgoh va madaniy yodgorliklar, milliy an'ana va udumlari, to'y va marosimlari mintaqada turizmning ko'plab turlarini tashkil etish va rivojlantirish imkonini yaratadi. Ayni paytda u bilan chegaradosh Surxondaryo vohasi o'zining ming yillik tarixi va muqaddas qadamjolari, tabiiy sharoiti va o'ziga xos mikroiklimi sayyohlikni rivojlantirishda ahamiyatlidir.

Bu yerda yashab ijod etgan buyuk siymolardan At-Termiziy ziyoratgohi, yuzlab tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklari, jumladan, eramizdan oldingi shahar va qal'alar xarobalarining halqaro turizm muhimidir.

Viloyatda tabiiy go'zal va o'ziga xos tabiati, rel'efi turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, Xisor tog'ining go'zal manzarasi va undagi ko'plab shifobaxsh buloq va chashmalar aholining ishdan bo'sh vaqtlarida miriqib dam olishi va salomatligini tiklashga xizmat qiladi. SHuningdek, bu yerda yashayotgan xalqning uzoq o'tmish an'analari, san'ati, madaniyati va urf-odatlari, mahalliy hamda jahon sayyohlarini qiziqtirishi shubhasizdir. A. Ro'ziev ta'rifi bilan aytganda, «bu hudud turizm sohasida ochilmagan qo'riq bo'lib, turistik boyliklari hali kashf etilmagan» (Ro'ziev, 1996).

Quyi Amudaryo turistik rayoni ham ulkan turistik imkoniyatlarga ega bo'lib, u o'zining madaniy, tarixiy obidalari, arxeologik yodgorliklari, hunarmandchiligi hamda san'atining o'ziga xosligi, tabiati va boshqalari bilan ajralib turadi. Xorazm vohasi qadimiy madaniyat, ilmu – fan va san'ati bilan jahon sayyohlarini hayratga solib keladi. SHu o'rinda Xiva dunyoda xech bir joyda uchramaydigan majmualari va ko'p tarmoqli ochiq muzey shahar sifatida mashhurligini ta'kidlash joiz. Binobarin, yurtimizga tashrif buyurgan har bir chet ellik sayyoh bu afsonaviy sanalmish shaharni tomosha qilishga qiziqadi.

SHuningdek, Qoraqalpog'iston dunyo miqyosida ekoturizmning o'ziga xos jihatlarini mujassamlashtirgan turistik rayon hisoblanadi. SHu bois, mintaqani chuqur ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga egadir. CHunki, bu mintaqada yirik shahar va qo'rg'onlarning mavjudligi turistik rayonda katta imkoniyatlar borligidan dalolat beradi. Xususan, qadimiy shahar va qal'a harobalarini sayyohlik yo'nalishlariga kiritish mumkin.

Orol dengizi va uning fojiasini har bir sayyoh o'z ko'zi bilan ko'rgisi keladi. SHu jihatdan Orolbuyi hamda Orol dengizi bo'ylab turistik marshrutlarni kengaytirish lozim. Ammo hozirgi kunda mavjud salohiyatdan samarali foydalanish past darajada.

Respublika mintaqalarining turizm imkoniyatlarini tadqiq qilish bilan birgalikda barcha rayonlarda jahon andozalari asosida turizm infratuzilmasi va bozorini shakllantirish lozim. SHu bilan birga kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish, firma va korxonalar o'rtasida sof iqtisodiy raqobatni yuzaga keltirish, shuningdek, turizm sohasini mukammal egallagan malakali turli kadrlarni tayyorlash mintaqalarning turizm muammolarini hal etish va kelajakda mazkur sohani iqtisodiyotning ustuvor tarmog'iga aylantirishga xizmat qiladi. Binobarin, respublikaning har bir viloyatidagi o'ziga xos turistik ob'ektlaridan oqilona foydalanish O'zbekistonni turizm rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishiga imkon beradi.

3.O'zbekistonning tarixiy va madaniy yodgorlik resurslari

Poytaxti Toshkent shahri. Iqlimi - mo''tadil, subtropik iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 447,4 ming kv. km., aholisi - 25 mln., tili - o'zbek, dini - islom, pul birligi - O'zbekiston so'mi.

O'zbekiston tarixi va kelajagi buyuk davlat. Eng qadimgi madaniyat durdonalari. IX - XV asrlardagi madaniy hayot. O'zbekistonning "Buyuk ipak yo'li"dagi markaziy hudud ekanligi.

Ko'hna madaniyat markazlari: arxeologiya - Afrosiyob, Varaxsha, Sopolli tepa, Fayoz tepa, Shosh tepa, Oq tepa, Shohruxiya yodgorliklari; davlatChilik - Xorazm, Baqtriya, So'g'd, Kushon, Qang' davlatlari; shaharsozlik - Samarqand, Buxoro, Xiva, SHahrisabz, Termiz, Qo'qon, Toshkent, Karmana, Qarshi kentlari; me'morchilik - SHohizinda, Zangi ota, Bahovuddin Naqshband, Shayx Hovandi Tohur majmualari; Registon, (Ulug'bek, Tillakori, Sherdor), Ko'kaldosh, Baroqxon, Abdulqosim madrasalari; Go'ri Amir, Ruhobod, Bibixonim maqbaralari; masjidlar va boshqa inshootlar; hunarmandchilik - sang (tosh) taroshlik, zargarlik, zardo'zlik, misgarlik, yog'och o'ymakorlik, ganch o'ymakorlik; san'at - adabiyot, musiqa, raqs, haykaltaroshlik, miniatyura va rassomchilik, hattotlik, kashtacilik va boshqalar.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida bunyod etilgan me'morchilik va shaharsozlik. "Buyuk ipak yo'li"ning qayta tiklanishi. Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur Mirzo, Ahmad al - Farg'oniy, Alpomish haykallarining, Bahovuddin Naqshband, Imom al - Buxoriy, Burhonuddin al - Marg'inoniy, Abu Mansur Moturudiy yodgorlik majmualarining, temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Xotira maydoni, Shahidlar xotirasi xiyoboni obidalarining barpoetilishi va ularning turizm markazlari sifatida namoyon bo'lishi.

Interkontinental, Sheraton, Le Meridian, Afrosiyob mehmonxonalarining, Hayvonot bog'i, Akvaparklarning ochilishi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Andijon, Namangan, Farg'ona, Marg'ilon, Jizzax, Guliston kabi shaharlarning zamonaviy qiyofaga kirishi, ulardagi me'morchilik binolarining milliylik xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 - yil 3 - noyabrda "Bahovuddin Naqshband tavalludining 675 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi, 1993 - yil 23 - aprelda "1994 - yilda o'rtaasrlarning buyuk olimi Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning 600 yillik yubileyini o'tkazish to'g'risida"gi, 1994 - yil 29 - dekabrda "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, 1996 - yil 3 - yanvarda "Buxoro va Xiva shahrining 2500 yillik yubileyini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi, 1997 - yil 29 - aprelda "Imom al - Buxoriy tavalludining hijriy - qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, shu yili 27 - noyabrda "Ahmad al - Farg'oniy tavalludining 1200 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, shu yili 23 - dekabrda "Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, 1999 - yil 27 - dekabrda "Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida"gi qarorlarining tarixiy

ahamiyati va ularning turizm ishiga qo'shgan ulkan hissasi.

Samarqand viloyati yodgorlik resurslari

Samarqand tarixi. Ko'hnaAfrosiyob. Amir Temur va temuriylar davrida madaniy hayot. Arab sayyohi ibn Battutaning Samarqandga tashrifi. Ispan elchisi Lui Gonzales de Klavixoning Temur saroyida bo'lishi.

Samarqand memorchiligi: Shohizinda majmuyi. Milodiy 7 - asrda yashagan payg'ambarimizning amakivachchasi bo'lmish Qusam ibn Abbos 677 - yili shu erda shahid bo'lib, dafn etilganlar. Mazkur yodgorliklar majmuyi uning sharafiga Shohizinda (Tirik shoh), - deb ataladi. Undaasosan melodiy 9 - asrdan turli maqbaralar qurila boshlagan. Amir Temur bu erda go'zal binolar - maqbaralar bunyod ettirgan. Arab sayyohi Ibn Battuta ham SHohizinda ziyoratida bo'lgan. Majmuyda Qusam ibn Abbos maqbarasidan tashqari Qozizoda Rumi, SHirinbekaog'a, Shodi Mulk og'a, Tuman og'a, Tug'li Tekin, Amirzoda, UstaAli, Amir Burunduq, Xo'jaAhmad hamda shaxsi noma'lum maqbaralar, sakkiz yoqli shiypon va boshqa inshootlar mujassam. Barcha maqbaralar 14 - 15 asrlargaoid.

Go'ri Amir maqbarasi. Maqbaraasli Temurning farmoni bilan nabirasi Muhammad Sulton xotirasi uchun qurdirilgan, lekin, oradan besh oy o'tgach, Temurning o'zi ham shu erda dafn etilganligi sababli, Go'ri Amir nomini olgan. Bu erda Temur va Muhammad Sultondan tashqari, sohibqironning o'g'illari - Shohrux va Mironshoh, nabirasi Ulug'bek, ustoz Mir Sayyid Baraka hamda Shoh Xo'ja ismli shaxsi noma'lum qabrlar mujassam. 1941 - yili iyun oyida Go'ri Amir maqbarasidaarxeolog komissiya qazishmalar o'tkazgan.

Ruhobod maqbarasi. Shayx Burxonuddin Sag'arjiy nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu maqbaraAmir Temur tomonidan qurdirilgan va uning ma'naviy piri, - deyiladi. 19 - asr ma'lumotlarida uning oldida masjid, minora, darvozaxonalar bunyod etilganligi yozilgan.

Bibixonim masjidi. Amir Temurning Hindistonga zafarli yurishi sharafiga 1399 - yili go'zal malikasi Saroy Mulkxonim masjid qurdira boshlagan va uni 1404 - yili tugallagan. Masjid ro'parasida Bibixonim maqbarasi ham mavjud. 1941 - yilgi arxeologik ekspeditsiya ushbu maqbarani ham ochgan. Unda Bibixonim jasadi Temur va Ulug'bek jasadlari kabi mo'miyolangan edi.

Registon. Bu erda uchta yodgorlik ansambli mujassam:

Mirzo Ulug'bek madrasasi. 1417 - yili Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan. O'z davrida ilm - fan markazigaaylangan. Uning memorchiligi monumental peshtoqlar, yon gumbazlar va minoralardan iborat. Madrasa pishiq bo'lishiga qaramay shimoli - Sharqiy minora peshtoqdan qochib, anchaog'a boshlagan, 1932 - yili minora to'g'rilangan. Madrasa juda ham hashamatlidir.

Sherdor madrasasi. 1619 - 1636 yillarda Samarqand shahri hokimi Yalangto'shbiy Bahodir farmoni bilan qurdirilgan. Registondagi Mirzo Ulugbek madrasasining qarama - qarshi tomonida joylashgan va Ulug'bek madrasasining me'moriy uslubini qaytargan. Uning me'mori ustaAbduljabbordir. Madrasa diniy oliy o'quv yurti vazifasini bajargan. Uning peshtoqi alohida bezaklar va koshinlar bilan bezatilgan. Peshtoqdagi sherlar tasviri juda jozibali. SHERlarning ohuga tashlanayotgan manzarasi tasvirlangan. SHERlar orqa fonida quyush aks ettirilgan. U odam qiyofasidir.

Tillaqori madrasasi. 1646 - 1647 yillarda qurilgan bu bino ham Yalangto'shbiy Bahodir tomonidan bunyod etilgan. U Registondagi me'moriy yodgorliklar kompozitsiyasini simmetrik tarzda to'ldiradi. Ichidagi masjid nihoyasiga yetmagan. Masjid markaziy xonasi jozibali va damdabalidir. Barchaxusnkor jilolarga tilla suvi yurgizilgan. SHuning uchun uni Tillakori, - deb ataladi.

Ulug'bek rasadxonasi. Mashhur rasadxona Cho'pon ota tepaligi etagida, Obirahmat arig'i bo'yicha qurilgan. Bobur uni uch qavatli, usti sirlil qilib bezatilgan edi, - deya yozgan. Rasadxona diametri 46,40 metr, balandligi kamida30 metr bo'lib, ichida kattaasbob o'rnatilgan. Bu erda quyosh, oy va boshqa sayyoralar kuzatilgan. Uni arxeolog V.L. Vyatkin topgan vaochgan. Buzilib ketgan rasadxonadan hozirda uning er ostidagi qoldig'i qolgan, xolos.

Abu Mansur Moturudiy maqbarasi. Uning to'liq nomi - Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al - Xanafiy al - Moturudiy as - Samarqandiydir. U Samarqandning Moturud

mavzesida 10 - asrda tug'ilgan, xanafiya mashabining yaratilishida faol ishtirok etgan. Uning tam'limoti Muvarounnahr, Turkiya va Hindistonda keng yoyilgan. Qabri CHokardiza qabristonida. 2000 - yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov farmoni bilan yodgorlik qayta tiklandi, go'zal ziyoratgohga aylandi.

Imom al - Buxoriy maqbarasi. 9 - asrda yashab, "hadis ilmida amir al - mo'iniy", - degan sharaflil nomga sazovor bulgan muhaddislarning eng buyugi hisoblanadilar. Bobomizdan "Al - jome' as - sahih" dek asar bunyod bo'lib, uning nomini butun islom olamiga tanitdi. Ul zot Buxoro shahrida tavallud topganlar. Ziyoratgoh esa Samarqand viloyatining CHelak tumanidagi Xartang qishlog'ida joylashgan. Prezidentimiz farmoni bilan 1998 - yil buyuk muhaddisning hijriy - qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligi keng nishonlanib, unga ajoyib yodgorlik majmuyi bunyod etildi.

Hazrati Hizr masjidi. Samarqandda qurilgan birinchi masjid shu ekanligi rivoyat qilinadi. 19 - asrning o'rtalarida qadimgi masjid poydevoriga hozirgi masjid o'rnatilgan. Tikkalikda joylashgan bu masjidning oldi peshayvonli bo'lib, hashamatli. Xonaqoh, darvozaxona, minoralardan iborat. Turli davrlarda qurilgan va tiklangan. Bosh me'mori usta Abdulqodir Boqievdir. Yaxshi niyatlar bilan unga yuqoridagi nom berilgan.

Buxoro viloyati yodgorlik resurslari

Buxoro tarixi. Ko'hna Varaxsha. Somoniylar davlati. SHayboniyxon asos solgan Buxoroxonligi. Savdo karvonlari, hunarmandchilik, ilm - fan va madaniyatning rivojlanishi. Rossiya, Xitoy, Hindiston kabi davlatlar bilan savdo va elchilik aloqalarining olib borilishi. Italiyalik mashhur sayyoh Marko Poloning, ingliz sayyohi Antoni Jenkinson, rus elchisi Ivan Xoxlov, Boris Pozuxin, venger sayyohi vaolimi Xerman Vamberilarning Buxoroga tashrifi. Buxorodan Rossiyaga Qozi No'g'ay, Mulla Farruh, Hoji Farruh, Ernazar elchilarning elchi bo'lib borishlari. Buxoro temir yo'lining qurilishi.

Buxoro memorchiligi: Ark. Uning Siyovush tomonidan ilk bora qurilishi. 7 - asrda Buxoro hokimi tomonidan qayta tiklanganligi. SHayboniylar davrida hozirgi qiyofasi (ansambl ko'rinishi)ni olishi. Obida 20 metr balandlikda va 4,2 gektar maydonni egallagan ulkan inshoot bo'lib, ko'p burchakli, atroflari qo'rg'on devorlari bilan o'ralgan. Arkda hokimlar, xonlar va amirlar istiqomat qilishgan. Unda zarbxona, xazina, zindonlar bo'lgan.

Ismoil Somoniy maqbarasi. Somoniylar sulolasining asoschisi Ismoil Somoniyning otasi qabri ustiga bunyod etilgan bu yodgorlik 9 - 10 asrlarga mansubdir. U kub shaklida va usti yarim sharsimon qubbali bo'lib, burchaklari ham to'rtta kichik qubbalardan iborat. Devorning qalinligi 1,8 metr. Pishiq g'ishtdan qurilgan. Keyinchalik Ismoil Somoniyning o'zi ham shu erga dafn etilgan.

Mahoki Attori masjidi. 9 - 16 asrlar obidasi hisoblangan ushbu masjid shahar markazidagi attorlar rastasi yonida joylashganligidan shunday nom olgan. Tosh ustunga qurilgan bu masjidagi peshtoq va tahmonsimon eshik o'ymakor ganch, g'isht, koshin, sopol g'ishtchalar bilan bezatilgan. Juda go'zal, o'zigaxos yodgorlik hisoblanadi.

Chashmai Ayyub maqbarasi. 12 - asr yodgorligi bo'lgan mazkur obida to'rtta binodan iborat bo'lib, turli davrlarda bunyod bo'lgan. U Ayyub payg'ambar nomi bilan atalgan. Aytishlaricha, qurg'oqchilik yillarida payg'ambardan yordam so'raydilar. Ayyub esa hassasini erga sanchganda buloq otilib chiqqan. Shundan ushbu nom berilgan. Yodgorlik jarda, ya'ni buloq oqib turgan joyda turibdi. Temur bu erda ham ikkita bino bunyod etgan. To'rttala yodgorlikning hammasida o'zigaxos qubbalar mujassam.

Namozgoh masjidi. Ushbu yodgorlik 12- , 14- , 16 - asrlarga tegishli bo'lib, gumbaz, naqshinkor peshtoq, mehrob koshinlar bilan bezatilgan.

Minorai Kalon. Markaziy Osiyo hududidagi eng baland minora (46,5 metr) hisoblangan ushbu minora 1127 - yilda qoraxoniylardan Arslonxon hukmronligi yillarida qurdirilgan. Pishiq g'ishtdan terilgan, ichidagi zinapoyasi 104 tani tashkil etadi. Ustida 16 darchali mezon bor. Minoradan azon aytilib namozga chaqirilgan va undan dushmani kuzatishda ham foydalanilgan. Poydevorining chuqurligi 10 metrdan oshadi.

Sayfuddin Bahorziy maqbarasi. Bu yodgorlik 13 - asrda yashab ijod etgan kishining nomi

bilan bog'liq bo'lib, ziyoratxona va maqbaradan iborat. Keyinroq maqbaraga taqalib katta peshtoq qurilgan. Ikki tomonida ikkita mezon mujassam.

Buyon Qulixon maqbarasi. Bu yodgorlik Sayfuddin Bahorziy maqbarasi bilan yonma - yon joylashgan bo'lib, 14 - asrda Samarqandda o'ldirilgan mug'ul xoni chingiziyulardan Buyon Qulixon mozori ustiga bunyod etilgan, ikki xonali. Sag'ana kichik xonada. Yodgorlikning to'rtta tomonida ustunlar bor. Maqbaraning ichki va tashqi tomoni zangor, ko'k, binafsha ranglar bilan bezatilgan va naqshinkordir.

Ulug'bek madrasasi. Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek ushbu madrasani 1417 - yilda qurdirgan. Ulug'bek Gijduvon va Samarqandda ham madrasalar bunyod etgan. Lekin, ilk madrasasi Buxorodadir. U to'g'ri to'rtburchak shaklida. Unda hovli, peshtoq, darsxona, masjid bo'lib ikki qavatli. Ustasi Ismoil Tohir o'g'li hisoblanadi.

Masjidi Kalon. Bu arxeologik qidiruv ma'lumotlariga qaraganda 12 - asrda qadimgi imorat qoldiqlari ustiga 14 - 15 - asrlarda qurila boshlanib, 16 - asr boshlarida tam'mirlangan. Jome masjidi hisoblanib, Bibixonim masjididan keyin kattaligi jihatdan Markaziy Osiyoda ikkinchi o'rinda turadi. Yodgorlikning qurilish an'analari temuriylar davrini eslatadi. Uning yettitaeshigi bo'lib, asosiy eshigining ichki va tashqi tomonlari ayvonlar bilan bezatilgan. Masjid 127 x78 metr bo'lib, bir gektar maydonni egallagan. Hovlining yo'lagi 208 ta ustun tepasiga qurilgan 288 ta qubba bilan qoplangan.

Mir Arab madrasasi. 1530 - yilda qurilgan bu madrasa tarxi xuddi Mirzo Ulug'bek madrasasi kabidir. Faqat darsxona o'rniga maqbara joylashgan. Maqbaraning ichiga Mir Arab dafn etilganligi bois, unga shu nom berilgan. Mir Arab asli yamanlik ShayxAbdullohdur. Maqbarada uning avlodlari ham joylashgan. U turli koshinlar, ganchlar bilan bezatilgan. Obida ikki qavatli bo'lib, hujralardan iborat.

Ko'kaldosh madrasasi. Yodgorlik Abdullaxon hukmronligi yillari (1578 - yil)da qurib bitkazilgan bo'lib, Markaziy Osiyodagi yirik madrasalardan biridir. Uning 160 ta hujrasi bor. Eshigi, peshtoq, ayvonchali bolxonalar go'zal qilib qurilgan. Peshtoq koshinlarida ko'k, yashil vaq naqshinkor bezaklar o'simliklarni tasvirlagan. Madrasada yozuvchi Sadridin Ayniy yashagan va o'qigan.

Qo'sh madrasa. Qo'sh madrasa deyilishiga sabab, ikkita madrasadan iborat. Biri Modarixon madrasasi (1566 - yil), ikkinchisi Abdullaxon madrasasi (1588 - yil) dir. Bular ham Ko'kaldosh kabi Abdullaxon davrida qurdirilgan. Modarixonning xajmi kichikroq, bezaklari oddiy uslubdadur. Abdullaxon esa serhasham.

Bozor toqilari. SHayboniylar sulolasi davrlarida turli savdo toqilari qurilgan: Toqi sarrofon (sarroflar -bir davlatning pulini ikkinchi bir davlat puligaalmashtirib beruvchi kishilar); Toqi telpakfurushon (telpak, do'ppi sotuvchilar); Toqi kitobfurushon (kitob sotuvchilar); Toqi zargaron (zargarlik buyumlari tayyorlovchilar va sotuvchilar). Bularning bari 15- asrgaoid me'moriy yodgorliklarimizdir.

Labihovuz maydoni. Maydon o'rtasida 1620 - yili katta hovuz qazilib, atroflari sinchlar bilan mustahkamlangan, harsanglardan zinapoyalar, marmardan tarnovlar ishlangan. Hovuzning eni 36 metr, bo'yi 45,5 metr, chuqurligi 5 metr bo'lib, uning g'arbiy tomonida Nodir Devonbegi xonaqohi (Labihovuz masjidi), Sharqiy tomonida Nodir Devonbegi madrasasi, Shimoliy tomonida Ko'kaldosh vaErnazar elchi nomli madrasasi (saqlanmagan) qad ko'targan. Bari obidalar 16 - 17 asrgaoiddir.

Abdulazizxon madrasasi. Ushbu yodgorlikni Buxoroxoni Abdulazizxon 1652 - yilda Ulug'bek madrasasi ro'parasida qurdirgan. Juda dabdabali peshtoqi bor. UndaXitoy ajdari va semurg' qushining surati aks etgan. Me'mori Mimxokon ibn Xo'ja Muhammadamindir. Madrasada ikkita masjid bor.

Chor Minor. 1807 - yilda qurilgan mazkur madrasani xalifa Niyozqul madrasasi ham, deb ataladi. U me'moriy majmuydan iborat. Ya'ni, ayvonsimon masjid, bir qavatli madrasa, hovuz (hozirda ko'milgan) va maftunkor old darvoza. Ushbu darvoza zangor va ko'k koshinlar bilan bezatilgan 4 ta baland mezonali qubbka shaklida qurilgan. Mezanalar husndor va minoraga o'xshaydi, shu boisdan madrasani Chor Minor deyiladi. Unda Hindiston masjidlari memorchiligi

an'analari ko'rinadi.

Bolahovuz masjidi. Ark qarshisida 1712 - yilda qurilgan. U hujralar va 20 ta baland yog'och ustunlardan iborat, hashamatli ayvondan tashkil topgan. Ayvonlar 1917 - yilda qurilgan.

Sitorai Mohi Xosa. Mazkur saroy shahar tashqarisida, shahardan 4 km. shimolda mavjud. Amir Ahadxon 1892 - yilda eski saroyini qurdirgan. Shuningdek, bu erda yevropa uslubida yangi majmua ham bunyod etilgan. 6,7 gektarga ega bog'i mavjud. 1917 - yilda Amir Sayyid Olimxon yangi saroyini rus muhandislari Sokovich va Margulislar, bezaklarini esa Usta SHirin Murodov rahbarligida qurdiradi.

Xorazm viloyati yodgorlik resurslari

Qadimgi Xorazm tarixi, arxeologiyasi, davlatchiligi, sm'nati, ilm - fani, dini, hunarmandchiligi.

Xiva "Ichan qal'a" tarixiy me'morchilik qo'riqxonasi muzeyi: 1920 - yil 26 - aprelda sobiq Xivaxoni qabulxonasi binosida o'chilib, dastlab Xorazm Respublika tarix - inqilobiy muzeyi, 1924 - yilda Xorazm viloyat tarix - inqilobiy muzeyi, 1970 - yildan "Ichan qal'a" me'morchilik qo'riqxonasi bilan birlashtirilib, Xiva "Ichan qal'a" tarix - me'morchilik qo'riqxonasi - muzeyi", - deb atalgan. "Ichan qal'a"ga to'rtta darvozadan kirilgan: Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza.

Me'moriy obidalari:

Ko'hna Ark. Xivaning qadimgi qal'asi. Qal'a tarixi Xiva tarixi bilan bog'liq. Unda 19 - asrga oid xon va amaldorlarning xovlilari, aslaxona, o'q - dori tayyorlaydigan ustaxona, omborlar, oshxona, otxona, zindon, qo'chqor urushtiriladigan maydon bo'lgan. To'rtta hovlidan tashkil topgan.

Sayyid Alovuddin maqbarasi. 14 - asrda So'fi Amir Kulol Naqshband tomonidan ustoz Shayx Alovuddin mozori ustiga qurdirgan maqbara peshtoqli, unda ziyoratxona va go'rxona mavjud. Sag'anaga Sayyid Alovuddin vafot etgan sanasi (1303 - yil) bitilgan.

Uch avliyo maqbarasi. 16 - asrda qurilgan. Noma'lum uch kishining qabrlari mujassam. Peshtoqi baland, gumbazli kattaxonasi bor. Buxorolik ustalar qurgani bois, Xiva yodgorliklaridan ajralib turadi.

Arab Muhammad madrasasi. 1616 - yilda Xivaxoni Arab Muhammadxon tomonidan qurdirilgan. Me'mori kim ekanligi noma'lum. To'rtburchak shaklida emas, trapetsiya shaklida qurilgan. Darsxonasi bostirma ustida. Gumbazli xonali.

Anushaxon hammomi. 1657 - yilda Oq masjid yonida Abdulg'ozixon tomonidan o'g'li Anusha Muhammad Sultonning Karmanadagi g'alabasi sharafiga qurdirilgan.

Xo'jamberdibek madrasasi. 1688 - yilda qurilgan. Hujralar bilan o'ralgan, dastlab bir hovlili bo'lgan. Olloqulixon madrasasi qurilgach, Xo'jamberdibek madrasasi ikki hovlili qilib qayta bunyod bo'lgan.

Sherg'ozixon madrasasi. Xivaxoni Sherg'ozixon Mashhad (Eronning shimoli - Sharqiy qismidagi shahar)da qilgan g'alabasi sharafiga 1719 - 1728 yillarda qurdirgan. Uning ro'parasida Pahlavon Mahmud maqbarasi joylashgan. Madrasa hovlisi o'rtada, to'rtburchak shaklida, bezaksiz, sodda va bir va ikki qavatli, hujralar, masjid, darsxona bor. Peshtoqi katta.

Muhammad Amin Inoq madrasasi. 18 - asrda Xivaxoni Muhammad Amin Inoq (1770 - 1785) hukmronligi davrida qurilgan. Bir qavatli hovlida ikkita ayvon bo'lib, darsxona, masjid, xujralar bor.

Juma masjidi. Masjidning tashqi ko'rinishi sodda. Ichki kattaxonada 212 ta ustun bor. Bezaklar 18 - 19 asrga tam'luqli. Ustunlarning to'rttasi 10 - asrga oid. SHuningdek, 14 - asrga tam'luqli ustunlar bor. 18 - asrda masjid qayta tam'mirlanib, baland minora ham qurilgan.

Bog'bonli masjid. Buni aka - uka bog'bonlar bunyod ettirgan. Uning tomi gumbazli, ikki ustunli peshayvondan iborat. Me'mori Pahlavon Quli bo'lib, 1809 - yilda qurilgan. Bm'zi bezaklar 14 - asrga oid.

Muhammad Aminxon madrasasi va minorasi. Xivaxoni Muhammad Aminxon tomonidan 19 - asrda qurdirilgan. Kalta minor uning yonida joylashgan. Xonning o'limi minora qurilishini to'xtatib qo'ygan. SHu bois, uning bo'yi 26 metrlicha qolib ketgan. Madrasa ikki qavatli

bo'lib, birinchi qavatdagi xujralar dahlizli, ikkinchi qavatdagilari ayvonli.

Muhammad Rahimxon madrasasi. 19 - asrda Xivaxoni Sayyid Muhammad Rahimxon II (Feruz) tomonidan qurdirilgan. Ko'hna Ark ro'parasida bo'lib, kattaligi bo'yicha Muhammad Aminxon madrasasidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Unda yozgi va qishgi masjid, darsxona, kutubxona, xujralar mavjud. Old qismi ikki, qolganlari bir qavatli.

Pahlavon Mahmud majmui. U gumbazli xonaqoh, maqbara va ziyoratxonalardan iborat. 19 - 20 - asrlarga oid. Darvozaxonadan kichik hovliga o'tiladi. Qarshisida katta peshtoq, gumbazli xonaqoh, maqbara, g'arbida qorixona, Sharqida ayvon, hovlida quduq mavjud.

Islom xo'ja madrasasi va minorasi. Isfandiyorxonning bosh vaziri Islom xo'ja o'z davrining taraqqiyparvar shaxslaridan biri bo'lib, 1910 - yilda mazkur obida qurilishini amalga oshirgan. SHuningdek, u mahalliy bolalar uchun madrasa va minoradan tashqari maktab, kasalxona, pochta, ko'priklar va yo'llar ham barpoetgan. Uni xivalik usta Xudoybergan hoji qurgan.

Olloqulixon davridagi me'morchilik: Olloqulixon Xivaxoni bo'lib, 19 - asrda yashagan. Muhammad Rahimxonning o'g'li. Uning davrida Karvon saroy, tim, madrasa, Tosh hovli, Oq masjid, Sayyidboy masjidi kabi inshootlar qurilgan.

Olloqulixon karvon saroyi va timi. To'g'ri to'rtburchak shaklida, hovli va ikki qavatli xujrali. Karvon saroy ichkarisiga ikki gumbaz ostidan o'tiladi. Hovlida ot - aravalarga mol ortish uchun barcha qulayliklar bo'lgan. Gumbazli tim karvon saroydan keyin qurilgan.

Olloqulixon madrasasi. Xivaxoni Olloqulixon tomonidan 19 - asrda qurilgan. Uni ro'paradagi Xo'jamberdibek madrasasiga o'xshatib ishlangan va shu bois, me'morchilikdagi usullardan qo'sh madrasa bunyod bo'lgan. Madrasa sun'iy tepalikda qurilgan. Hovlisidagi ikki qavatli xujralar soni 99 ta.

Toshhovli. Olloqulixon tomonidan 19 - asrda qurilgan. Avval haram, keyin mehmonxona, arxonalar bunyod bo'lgan. Devorlari koshinli, ganch, yog'och, tosh o'ymakorligi mujassam 163 xonali. Undaxon oilasi yashagan, idoralar joylashgan, elchilar, arz bilan kelganlar kutib olingan.

Oq masjid. Uch tarafi ayvonli. Yassi tom ustidagi gumbaz oppoq bo'lib ko'ringani uchun shu nom bilan ataladi. Panjaralar vaeshiklardagi naqshlardan tashqari bezaklari ko'p emas.

Matniyoz Devonbegi madrasasi. Ota darvoza yaqinida 19 - asrda qurilgan mazkur yodgorlik bir qavatli. To'g'ri to'rtburchak shaklida. Darsxona, masjid, xujralari bor.

Sayyid SHolikorboy majmui. Savdogar Sayyid SHolikorboy " Ichan qal'a" Sharqiy darvozasi bo'lmish Polvon darvoza tashqarisida 19 - asrda qurdirgan. Majmua masjid, madrasa, ayvon, minoradan tashkil topgan.

Shuningdek, Xivada Qutlug' Murod Inoq, Musoto'ra madrasalari, Polvon qori, Shayx Qalandar bobo, Abdal bobo kabi minoralar mavjud.

Qashqadaryo viloyati yodgorlik resurslari

Qashqadaryo tarixi. Ko'hna manzilgo'lar. Xo'ja Ilg'or - Amir Temur tavallud topgan qishloq. Amir Temur va temuriylar davrida ilm - fan, me'morchilik, obodonchilik. Ispaniya elchisi Lui Gonzales de Klavixoning Temur saroyiga tashrifi.

Xo'ja Ilg'or qishlog'i me'moriy obidalari. Qishloq tarixi, undagi masjid qoldiqlari va qabristoni. Amir Temurning "Polvon toshi". Tatar g'uzar masjidi. Toshqo'rg'on qishlog'i tarixi va undagi ikkita masjid. Amir Temur "g'ori". Tarag'ay qishlog'i. "Dunyo tepa".

SHahrisabz (Kesh) memorchiligi: Oqsaroy. Amir Temur ushbu obidani Xorazmni egallash sharafiga bunyod etgan. Unda Xorazm ustalari katta me'morchilik ishlarini olib borishgan. U 1370 - 1404 yillarda qurilgan. Oqsaroy peshtoqining Markaziy Osiyo yodgorliklari ichidagi eng yirik peshtoq ekanligi. Uning ravoq oraligi 22,5 metr, minorasining hozirgi vayrona holatidagi balandligi 38 metr, peshtoq kengligi 40 metrdir. U Hindistondagi Tojmahaldan ham husnkor bo'lgan. Xorij elchilari shu erda qabul qilingan. Klavixoning Oqsaroyda bo'lishi. Oqsaroy deyilishiga sabablar: onasining sharafiga qurilganligi. Oqlik va poklik ramzi. Uzoqdan oppoq bo'lib ko'rinishi.

Dorussaodat majmuyi. Buning ma'nosi baxt - saodat uyidir. Mazkur obidani davlatmandlar saroyi ham deyiladi. Chunki, unda temuriylar xilxonasi joylashgan. Amirzoda

Jahongir, UmarShayx mirzo vaAmir Temurning o'zi uchun bunyod etgan sag'analari, maqbaralari, Xazrati Imom masjidi va maqbarasi shular qatoriga kiradi.

Dorutilovat majmuyi. Buning ma'nosi Qur'oni Karim tilovat qilinadigan joydir. Unda Shayx SHamsuddin Kulol, Gumbazi Sayyidon va Tarag'ay Bahodir (Amir Temurning otasi) maqbaralari xamda Ko'k gumbaz masjidi mujassam. Shuningdek, Chorsu, hammom, Malik Ajdar vaXo'ja Mirhamid masjidlari bor.

Qarshi (Nasaf) shahri yodgorliklari: Ko'k gumbaz masjidi. 16 - asrdaAbdullaxon davrida qurilgan. Ko'k gumbaz deyilishiga sabab, o'z nomidan ko'rinib turibdiki, gumbazning ko'k rangda ekanligi. Bo'yi 38 metr. Asosiy xonaqoh 8 x8 metr. Tuzilishi sodda. SHuningdek, Qarshida ko'prik, hammom, Sher Muhammad, Sharifxo'ja, Xo'ja Qurbon, Bekmir, Abdulazizxo'ja madrasalari; Qo'rg'oncha va Zagza masjidlari mavjud.

Viloyatda yana quyidagi me'moriy obidalar mujassam: GuzordaOqsaroy; KitobdaXo'ja Ilim Kon xonaqohi va Bashir ota maqbarasi hamda bir masjid; Yakkabog'da Yodgor Valloma madrasasi; Chiroqchidaeski Langar masjidi, Katta va kichik xonaqohlar; Qamashida Langar ota masjidi va maqbarasi; Kosonda Bandi Kushon masjidi, Husam ota majmuyi, Qo'rg'on masjidi, Po'loti masjidi - xonaqohi; KasbidaXo'ja Karlik, Sulton Mirhaydar majmuyilari, Pandron, To'ra masjid masjidlari, Namozgoh, Sardoba, Qo'shgumbazli maqbara; Jo'ynovdagi Ayvon masjidi; Nishonda Hazrati Imom Mo'yin va Qovchinda Hazrati Shayx majmualari.

Surxondaryo viloyati yodgorlik resurslari

Surxondaryo tarixi. Arxeologik yodgorliklari va ko'hna manzilgohlar: Teshik tosh g'ori, Machay g'ori, Zarautsoy, Sopolli tepa, Dalvarzin tepa, Xotin Rabot, Ayritom.

Surxon memorchiligi: Imom at - Termiziy maqbarasi. Mashhur muhaddis (hadis ilmi olim) lardan biri - Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn ad - Dahhok as - Sullamiy at - Termiziy hoki ustiga bunyod etilgan. Imom Termiziy 9 - asrda yashab, uzoq yillar Iroq, Isfaxon (Erondagi shahar), Xuroson (Erondagi viloyat), Makka va Madinada bo'lgan. Ilm al - qiroat, ilm al - bayon, fiqh, tarix va eng asosiysi hadis ilmini puxta egallagan. Unga Imom al - Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Sayyid, Ishoq ibn Muso, Mahmud ibn Gayxon kabi mashhur muhaddislar ustozlik qilishgan. Uning asarlari ichida "Al - jomi" ("Jamlovchi") asari mashhurdir. Unda payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyatigaoid muhim manbalar mujassam. Imom at - Termiziy maqbarasi SHerobod tumanining Bug' qishlog'ida joylashgan.

Hakim at - Termiziy majmuyi. 9 - 11 - asrlarda ShayxAbu Abdulloh ibn Muhammad hakim at - Termiziy qabri ustiga qurilgan. Ichidaoq marmardan qabr toshi va mahorat bilan bezatilgan mehrob bor. Toshga o'yib o'simliklar tasviri solingan va Qur'oni Karim suralari bitilgan. Majmuada maqbaradan tashqari masjid (11 - asr), xonaqoh (15 -asr) mujassam.

Sulton Saodat majmuyi. 10 - 17 - asrlargaoid. Termizlik sayyidlar avlodlari dafn etilgan maqbaralardan iborat. Maqbaraning asosiy peshtoqi Sharqqa qaratilgan. Maqbaralar peshtoq va gumbazli chorsi xonalardan iborat.

Zurmala minorasi. Termizdan 10 km. masofadagi 12 metrli minora bo'lib, shu xaroba holatida ham ulug'vordir. Xom g'ishtdan terilgan. Minora eramizning dastlabki yillarida qurilgan.

Qirqqiz qal'asi. Mazkur xaroba yodgorlik Termizdan 6 km. masofada bo'lib, ikki qavatli saroydir. Xordiq chiqarish va yozgi issiq kunlarda saqlanish uchun 9 - asrda qurilgan. Birinchi qavatda 17 ta kattaxona, 3 ta zal bor. Ikkinchi qavatda ham ushbu reja takrorlangan. Uni o'zbek xalqining 18 - asrdagi "Qirq qiz" dostoni bilan bog'liqligi haqida ham fikrlar bor.

Jarqo'rg'on minorasi. Jarqo'rg'on tumanida 18 - asrda qurilgan ushbu minoraarcha uslubida pishiq g'ishtlardan terilgan. Sokoli sakkiz yoqli. Sakkiz yoqning yettitasi yuzasida tokcha va g'ishtdan terilgan yozuvlar bor. Sakkizinchi yoqning eshigidan aylanma zinaga chiqiladi. Balandligi 30 metrga yaqin. Aylanasi 17 metrga yaqin, g'ishtdan turli shakllar berilgan.

Zarovutsoy qo'riqxonasi. Termizdan 100 km. masofada. Ko'hitang tog'ida joylashgan. Undagi 200 dan ortiq suratlardan 30 ga yaqini yaxshi saqlanib qolgan. Ularda ibtidoiy

kishilarning ov qilish jarayoni tasvirlangan.

Toshkent shahri va viloyati yodgorlik resurslari

Toshkent (Shosh, Choch) tarixi. Qang' davlatchiligi. Arxeologik yodgorliklari, ilm - fani, hunarmandchiligi, san'ati. Savdogarlik. Toshkentning 4 dahasi va 12 darvozasi. Mustaqillik yillari qurilgan madaniy - maishiy inshootlar.

Me'morchilik: Xo'jaAlambardor maqbarasi. Xo'jaAlambardor (10 - asr) - Movaraunnahrda islomni ilk dm'vatchilaridan bo'lgan - Imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al - Qaffol al - Shoshiyning safdoshi alambardor (bayroqdor) sharafiga qurilgan. Uning tahmin qilingan qabri shaharning eski Beshyog'och qismida, Kamolon darvozasi ortida bo'lib, ziyoratgoh memorial majmuagaasos bo'lgan. Uning er osti chillaxonasi hozirgacha saqlangan. Xo'jaAlambardor maqbarasi qabristonning markazida joylashgan.

Qaffol Shoshiy maqbarasi. Uning to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al Qaffol ash - Shoshiy bo'lib, yashagan davri 10 - asrdir. Toshkentning yetuk olimlaridan biri hisoblanib, shofi'iya (suniylikdagi oqim) mazhabining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Qur'on, hadis, shariat ilmi bilimdoni bo'lgan. Uning "Odob ul - qozi" ("Qozoodobi") asari mashhurdir. Maqbaraxalq tilida Hazrati Imom (Hastimom) deyiladi. U 0,5 grammgachaog'irlikdagi gulf - kalitlarni yasaganligi uchun "Al - Qaffol" ("Qulfchi") nisbati berilgan. Ungaatab qurilgan dastlabki maqbara saqlanib qolmagan. Gulom Husayn nomli me'mor keyinroq uni qayta qurgan. Eshikning tepasidagi kitoba saqlanib qolgan. Maqbaraning o'rtasida kattaginaxona bor. 16 - asrda maqbara yonida Boboxo'ja maqbarasi ham bunyod bo'lgan.

Shayx Zayniddin boboOrifon maqbarasi. Shayx Zayniddin bobo (13 - asr) asli Bag'dod (Iroq) lik bo'lib, u kishining otalari SHahobiddin Orifon Bag'dodning eng katta mutassavvufilaridan biri bo'lganlar. 1214 - yilda tug'ilgan Zayniddin bobo keyinchalik Toshkentga ko'chib kelganlar. Mazkur maqbaraning chillaxonasida hayot kechirib, tasavvuf tariqatini rivojlantirishga hissa qo'shganlar. Rivoyat qilishlaricha, u kishi Hasti Imomda yotgan Qaffol Shoshiyga juda ihlosmand bo'lgan ekanlar. SHu bois, ushbu maqbaradan Hasti Imomgaer osti yo'li bo'lgan ekan. Maqbara sohibqiron Amir Temur farmoni bilan qurilgan, - deyiladi.

Zangi ota himmatiy yodgorlik majmui. Zangi ota (13 - asr) ning asl ismlari Oyxo'ja ibn Toj Xo'jadir. Zangi (arabcha so'z) ota deyilishiga sabab, u kishi qora tanli bo'lganlar. SHuning uchun Zangi ota nisbati berilgan. Turkiston islom olamida ulug' mutafakkir va mutasavvuf donishmandlardan hisoblanadilar. Ustozlari Hakim ota (Sulaymon Boqirg'oniy), zavjalari Anbar otindir. Ul zot qo'y boqib o'stirganlari uchun Cho'ponlarning piri, - deyishgan. Amir Temur ushbu obidani bunyod etgan. Majmua darvozaxona, minora, masjid, madrasa, xonaqoh, shiypon, hovuz, Anbar otin maqbaralaridan iborat.

Cho'pon ota majmui. Mazkur majmuaning qurilishi Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq (15 - asr). Qo'ychivon Cho'ponlar homiysi Cho'pon otagaatab qurilgan. U masjid, maqbara, hujralar, darvozaxonadan iborat.

Shayx Hovandi Tohur majmui. Majmuadaasosan uchta maqbara bor: Shayx Hovandi Tohur, Yunusxon, Qaldirg'ochbiy.

Shayx Hovandi Tohur maqbarasi. Shayx 14 - asrda yashab o'tgan diniy arboblardan, ilohiyot va tariqat ilmi namoyondalaridan biri bo'lib, valiulloh darajasiga yetgan. Otasi Shayx Umar Bog'istoniydir. Xo'jaAhror valiy ularning qarindoshi bo'lgan. Shayx maqbarasi bir necha bor qurilgan va uncha katta bo'lmagan. Ikki xonadan iborat: birinchi - kattaxona 12 qirrali gumbazli ziyoratxona; ikkinchi - kichik xona 8 qirrali gumbazli go'rxonadir. Maqbarani yonida ikkita chillaxona bo'lgan. Ularni Xo'jaAhror qurdirgan, atrofi mozor bo'lgan. Masjid ham bo'lgan. Maqbara 14 - 15 - asr obidasidir.

Yunusxon maqbarasi. Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyning naslidan hisoblanadi. 15 - asrda yashab o'tgan. U Boburning onasi Qutlug' Nigorxonimning otasidir. Ya'ni, Boburga buva hisoblanadi. Toshkentning 1485 - 1487 - yillaridagi hokimidir. Maqbara Yunusxonning o'g'li Ahmadxon tomonidan qurdirilgan. Tarxi to'g'ri to'rtburchak, o'rtasidaxonaqoh bo'lib, gumbazli. Zalning burchaklarida ikki qavatli hujralar bor. Gumbaz

keyinchalik buzilib ketgan.

Qaldirg'ochbiy maqbarasi. Maqbara 15 - asrning birinchi yarmida bunyod bo'lib, kim tomonidan qurdirilganligi noma'lum. Rivoyatlarga ko'ra, bu erga Qaldirg'ochbiy ismli qozoq shahzodalardan yoki biylardan biri dafn etilgan. Kubik shaklidagi maqbara 12 qirrali piramidalik gumbaz bilan yopilgan.

Baroqxon maqbarasi. Baroqxon (16 - asr) - shayboniylar sulolasidagi xon bo'lib, o'z davrida Movaraunnahrni boshqargan. Uning nomi bilan tanga pullar zarb etilgan. Obodonchilik ishlari qilgan. Xususan, madrasa qurdirgan. Hozir ushbu binoda O'zbekiston musulmonlari diniy ishlari idorasi joylashgan.

Ko'kaldosh madrasasi. Ushbu madrasa 16 - asrgaoid bo'lib, uni Toshkent xonlaridan birining vaziri Ko'kaldosh qurdirgan. Muqimiy, Furqat, Hamza, Hislat kabi shoirlar ushbu madrasada bo'lishgan, yashashgan, ilm olishgan. Madrasa O'zbekiston musulmonlari diniy ishlari idorasi tasarrufidadir.

Hofiz Ko'hakiy madrasasi. Hofiz Ko'hakiy (16 - asr) - Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy tarixchi, huquqshunos, tarjimon bo'lib, Mirzo Ulug'bekning sevimli shogirdi Aliqushchining nabirasidir. U Hindistonga 1528 - yili Bobur Mirzo va 1569 - yili Akbarshoh huzuriga elchi bo'lib borgan. Ushbu nom bilan madrasa qurdirgan va talabalarga ilm o'rgatgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uni qayta tiklashga erishildi. Hozir masjid vazifasini o'tamoqda.

Abdulqosim Shayx madrasasi. Abdulqosim (19 - asr) Toshkent shahrida ma'rifatparvarlik ishlari bilan nom qozongan bo'lib, ilmi toliblarga bepul ilm o'rgatgan. Ushbu madrasa ham uning tomonidan bunyod bo'lgan. Hovlida gir aylana ikki qavatli hujralar bor. "Honaqoi Mo'yi Muborak" ichidagi ravoqli mehrobi tepasida arab tilida "Bu ark kabi binoda Rasulning latif mo'yi bor", - deb yozilgan so'zlar bor.

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining milliy qahramoni - Amir Temur va millatimiz donishmandi - Alisher Navoiyga ajoyib haykallar bunyod etildi.

Farg'ona vodiysi yodgorlik resurslari

Vodiy tarixi. Arxeologiyasi, ilm fani va madaniyati. Hunarmandchilik va savdogarlik.

Farg'ona viloyatidagi me'moriy yodgorliklar.

Qo'qon shahri bo'yicha:

O'rda - Xudoyorxon saroyi. 19 - asrning ikkinchi yarmida qurilgan. 4 gektar maydonni egallagan. Darvozaxona peshtoqiga "Arki oliy Sayyid Muhammad Xudoyorxon" deb bitilgan. 100 ga yaqin xonalar bor. Asosan g'ishtdan qurilib zeb berilgan.

Jome masjidi va minorasi. 19 - asr boshlarida Qo'qon xoni Umarxon qurdirgan. Undaxonaqoh va 98 yog'och ustunli ayvon mavjud. Masjid 97,5 x 25,5 metrga teng. Uning yonidagi minora 22 metr balandlikda.

Kamol qozi madrasasi. 19 - asr o'rtalarida qurilgan. Unda darsxona, hujralar va ayvonli masjid bo'lgan.

Miyon hazrat (Miyon Ahmad) madrasasi. 18 - asr oxirida qurilgan. Madrasani xon huzurida maslahatchi lavozimida ishlagan Miyon Ahmad ismli kishi qurdirgan. Unda darvozaxona, hujra (darsxona)lar, masjid, xovli va minoralar bor. Muqimiy shu madrasada tam'lim olgan.

Dahmai Shohon va Modarixon dahmalari. Bu ikkala yodgorlik ham 19 - asrgaoid. Dahmai Shohon hazirasi - Qo'qon xonlarining qabristonidir. U qubba - peshtoqli kirish yo'lak, ikki ustunli masjid va ayvondan iborat. Modarixon "Xon onasi" hazirasida esaxonzoda ayollar ko'milgan. Majmuada peshtoq, gumbaz va ikki minora saqlanib qolgan.

Norbo'tabiy madrasasi. 18 - asrning ikkinchi yarmida qurilgan. U bir qavatli hovlili binodan iborat, tarxi to'rtburchak. (52 m. x 72 m.). To'rt burchagida minoralar ishlangan. Unda masjid va darsxona bor.

Gishtli masjid. Mahalla masjidi bo'lib, 20 - asr boshlarida qurilgan. Xonaqoh va ayvondan iborat. Ixcham tarxli va go'zal qilib bezatilgan.

SHuningdek, Mulkobod masjidi (20 - asr), Ayubboy, Olimxon xoji, Abdurrahmon qozi,

Sm'dixon qozi nomli 20 - asr boshlarida qurilgan uylar ham alohida tarixiy qimmatga ega.

Buvayda tumani bo'yicha:

Podshoh Pirim majmui. Uning o'zagini SHoh Jalil dahmasi tashkil etadi. SHoh Jalil avliyo sifatida tan olingan. Majmua ikki hovlidan iborat: 15 - asrgaoid peshtoqli - gumbazli darvozaxona va 20 - asrgaoid ochiq masjid. 15 - 16 asrgaoid qabr va dahmalar.

Bo'stonbuva maqbarasi. Bu erda SHoh Jalilning otasi dafn etilgan. Obida 15 - 16 - asrlarga tegishli ekanligi aniqlangan.

Bibi Buvayda dahmasi. Bu ayollar dahmasidir. Unda shoh Jalilning onasi vaxotini ko'milgan. Gumbazli ikki xonadan iborat. Buvayda tumani shu nom bilan saqlanib qolgan.

Shuningdek, Rishton tumanidagi Jahonobod masjidi, Xo'ja Ilg'or masjidi, Qorixonaxonaqohi. Oltiariq tumanidagi Xalfa Tillo majmui (bularning bari 20 - asr boshlarigaoid); Marg'ilondagi Pir Siddiq majmui, Xo'ja mag'iz maqbarasi (bularning ikkalasi 18 - asrgaoid), CHaqar masjidi (20 - asr), Sayyid Ahmadxo'ja madrasasi (19 - asr oxiri), Turonbozor masjidi (19 - asr) ham tarixiy ahamiyatga egadir.

Andijon viloyatidagi me'moriy yodgorliklar.

Andijon shahri bo'yicha:

Jome majmui. U madrasa, masjid va minoradan iborat. Madrasa 19 - asr oxirlarida katta va hashamatli qilib qurilgan. Darsxonalar va hujralari bor. Ikki qavatli. Tarxi P shaklida. Masjid Farg'onadagi eng yirik obida hisoblanadi. Minoraning balandligi 32 metr.

SHuningdek, tumandagi savdogar Ahmadbek hoji tomonidan qurdirilgan uy, Paxtaobod tumanidagi Otaqo'zi madrasasi (bularning ikkalasi ham 20 - asr boshlarida qurilgan), Namangan shahridagi Mullo Qirg'iz madrasasi (20 - asr), Ota Valixonto'ra masjidi (20 - asr), Mavlonbuva majmui (19 - asr), Xo'jaAmin qabri (18 - asr), Namangan tumanidagi Sirli masjid (19 - asr), Yusufboy Xoji uyi (20 - asr), Kosonsoy tumanidagi jome masjid (18 - asr), Yusufxon Eshon majmui (18 - asr), To'raqo'rg'on tumanidagi Goyibnazar madrasasi (19 - asr), Chust tumanidagi Lutfullo Mavlono majmui (20 - asr), Pop tumanidagi CHodak madrasasi, Boy Hamadoniy maqbarasi (19 asr) ham alohida tarixiy, estetik va turistik e'tiborga loyiq.

Vodiyda Mustaqillik yillardaAhmad al - Farg'oniy, Burhonuddin al - Marg'inoniy yubileylari munosabati bilan o'rnatilgan yodgorliklar, Andijondagi Bobur Mirzoxotirasigaatab qurdirilgan obidalar turizm markazlari sifatida qad rostlab turibdi.

Boshqa hududlardagi yodgorlik resurslar

Karmana tarixi.

Karmana me'moriy yodgorliklari. Qosim ShayxAzizon majmuasi. 16 - asr islom dini mutafakkirlaridan biri -piri komil Qosim ShayxAzizon bo'lib, Buxoroxoni Abdullaxonning ustoz bo'lgan. Uning to'rt tomonidan quduq bo'lgan. Bu erda masjid ham bor.

Mir Sayyid Bahrom maqbarasi. 10 - 11 - asrgaoid bo'lib, uni samoniylar sulolasi vakillaridan birining qabri, -deb kelinadi. Maqbara pishshiq g'ishtdan, gumbazli, to'rtburchak shaklidir. O'rtada qabr, uning yonida ikkita qabr toshi bor.

Raboti Malik va Sardoba. Bularni 11 asrda qoraxoniylar davrida SHamsulmulk Nosir Ibn Ibrohim qurdirgan. Majmua "Buyuk Ipak yo'li"da karvonsaroy - mehmonxona vazifasini bajargan. Amur Temur, Alisher Navoiylar ham bu erda bo'lishgan.

SHuningdek, Kampir devoli, tarixiy chorbog' va saroylar ham Karmana tarixidaalohidaahamiyatga ega. Asqarobod, CHorgarchorbog', Xonchorbog', Jarchorbog', Gulcharbog', Bog'lochin, Xayrabot, Mirza chorbog'lar shular jumlasidandir.

Buxoroamiri AbdulloAhmadxonning 1894 - 1910 yillarda yashagan uyi - Xonchorbog'dadir. CHargarchorbog'da esa Buxoroamirining saroyi (qarorgohi) bo'lgan.

Jizzax - Samarqand yo'lidagi "Temur darvozasi" ham turizm manzillaridandir.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1.Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.

2. Мирзиёев. Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

13-mavzu: Namangan viloyati turizm geografiyasi

Reja:

1. Namangan viloyati ekotizimlari: tushunchasi, tasniflanishi va tavsiflanishi
2. Namangan viloyati ekotizimlarining turistik imkoniyatlari
3. Namangan viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari

Tayanch iboralar va so'zlar: , *Ekoturizm, Turizm sohasi, Turistik regional, Xalqaro turizm, axoli badligi, Dunyo mintaqalari, turistlarni sug'urtalash, imtiyozlar, qidiru-qutqaruv, xizmatlari, tibbiy xizmat, turizm soxasidagi suboektlar vazifasi*

1. Namangan viloyati ekotizimlari: tushunchasi, tasniflanishi va tavsiflanishi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 4000 tadan ortiq arxitektura, tarixiy va tabiiy yodgorliklar, go'zal landshaftlar, xilma xil noyob o'simliklar va hayvonot dunyosi mavjud. Bularning barchasi sayyohlarning respublikaga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Lekin O'zbekiston Respublikasida o'rtacha turistik infratuzilma 19 foiz, Namangan viloyatida esa undan ham kam foizni tashkil etadi xolos. Shuning uchun ham milliy turistik infrastrukturaning sig'imi va darajasini oshirish o'ta dolzarb mummo hisoblanadi.

Umuman turistik infratuzilmaning imkoniyatlarini kengaytirish uchun, albatta, sayyohlik ob'ekting mavjud holatini o'rganish, uni baholash va istiqbol rejalarini tuzish lozim. Namangan viloyati ham mustasno emas.

Turizm sohasida mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida xalqaro sayyohlarning qiziqishlari va talablari darajasida qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish tizimini yaratish hamda yangi turistik xizmatlar va mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha xorij investitsiyalari uchun loyihalar tayyorlash, jahon turizm bozorida O'zbekistonni yoki uning alohida bir mintaqalarining reklama dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bir qator ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jumladan, I.I.Pirojnik (1985), R. Davidov (1990), A.V.Drozhdov (1999), S.R.Erdavletov (2000, 2016) kabi olimlarning fikricha davlat miqyosida turizmni rivojlantirish uchun avvalambor muayyan bir ma'muriy yoki tabiiy birlikliklar doirasida ularning turistik va ekoturistik imkoniyatlarni o'rganish, baholash va rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish kerak bo'ladi.

“O'zbekturizm” milliy kompaniyasining o'tkazgan sotsiologik so'rovnomalari ko'ra respublikamizga tashrif buyurib turgan sayyohlarning 41 foizi mamlakatimiz tabiati va uning

muhofaza etiladigan hududlarini borib ko'rmochi ekanliklarini bildirganlar

O'zbekiston hududini ekoturistik nuqtai nazardan o'rganish XXI asrdan boshlangan. Har qanday ekoturistik amaliy faoliyat davlatning tegishli ekologik boshqaruviga doir siyosatidan kelib chiqadi. Namangan viloyati hokimining "Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi 2016 yil 16 fevral'dagi 60-son qarorida Angren-Pop temir yo'lini ishga tushirili munosabati bilan viloyatda ekoturizmni rivojlantirish masalasi muhim vazifalar turkumidan joy olishi ta'kidlab o'tilgan.

Namangan viloyati nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo hududida o'ziga xos takrorlanmas tabiiy manzaralarga egaligi bilan ajralib turadi. Viloyat *geografik jihatdan* Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, u cho'zilgan to'rtburchakni eslatadi hamda g'arbdan sharqqa tomon 130 km, shimoldan janubga 35 km.dan 80 km.ga qadar cho'zilgan. Hududi 7,44 ming km² bo'lib, O'zbekistonning Farg'ona vodiysi viloyatlari o'rtasida hududi kattaligi jihatdan birinchi o'rinda turadi. Viloyat shimol va shimoli-sharqdan Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, shimoli-g'arb va g'arbdan Toshkent viloyati va Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati, janub va janubi-sharqdan Farg'ona viloyatining Qo'qon guruhi tumanlari hamda Andijon viloyati bilan chegaradosh

Namangan viloyatining turistik imkoniyatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 fevral'dagi PF-4861-sonli "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonida hududarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish maqsadida: *ana'naviy ma'daniy-tarixiy turizm bilan birgalikda boshqa salohiyatli turlarini, jumladan ekologik turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish*" masalasi qo'yilgan.

Ma'muriy birliklar doirasida joyning ekoturistik imkoniyatlari halqaro miqyosda 2002 yil may oyida Kvebekda (Kanada) BMT ning atrof-muhit dasturi (YuNEP) va Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) bilan birgalikda o'tkazgan konferensiyasida 132 mamlakatdan 10 mingdan ziyod delegatlar, davlat, shaxsiy va nodavlat sektor vakillari qatnashdilar. Unda ekoturizmning rivojlanish tamoyillari Kvebek deklaratsiyasida aks ettirildi. Mazkur yo'naltiruvchi qoidalardan biri etib ma'muriy davlat yoki kichik birliklar doirasida ularning ekoturistik imkoniyatlari belgilash birlamchi metod sifatida kiritildi. Natijada 70 tadan ortiq davlatlarda tabiat turizmi, ekoturizm va tog' turizmi nomi bilan ona tabiat imkoniyatlaridan sayyohlikda unumli foydalanish tadqiqotlari olib borilmoqda. Masalan, I.I.Pirojnik (1985), R.Davidov (1990), A.V.Drozdov (1999), S.R.Erdavletov (2016) kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganib chiqilgan. Ular har bir joyning yoki ekotizimlarning regional ahamiyat kasb etishi va ularni baholashda sayyohlikning turi va tipiga qarab ajratishni ma'qul deb biladilar.

Ma'muriy birliklar ko'rinishida sayyohlikni tizimli tashkil etish, istiqbolda rivojlantirishda mavjud kichik regionlar kesimida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish lozim. Bu borada respublikamizda ma'muriy jihatdan tashkil etilgan tumanlarda rivojlantirish zarur. Tuman termini "o'n ming" degan ma'noni bildirib, qadimgi turkiy tilda "o'n ming", "ko'plik" ma'nosida qo'llanilib, mug'ullar istilosidan so'ng O'rta Osiyoda va ayrim yaqin Sharq mamlakatlarida ma'muriy birlik sifatida qo'llanilgan. Namangan viloyatining tabiiy geografik joylashuvdagi o'ziga xos bo'lgan quyidagi qonuniyat nafaqat Farg'ona vodiysida balki mamlakatimizda xilma-xil turistik ob'ektlarni hosil bo'lish imkoniyatlari shakllantirilgan. Viloyatni shimoliy-g'arbiy qismidan shimoliy va shimoliy sharqqa tomon 2000 km ga cho'zilgan Chotqol va Qurama tog'lar tizimidagi 20 tadan ortiq tog'lar janubiy yon bag'irlarida joylashgan bo'lib, viloyatni salkam 50 foizi hududini egallaydi. SHimoliy yarim sharda parallellarga mos yo'nalgan tog'larni janubiy yon bag'irlari shimoliy yon bag'irlariga nisbatan quyosh radiatsiyasi (issiqlikni), atmosfera atmosfera yog'inlarni bir necha marta ko'p oladi. Bu tabiiy qonuniyat viloyatda turistik ob'ektlarni ko'plab hosil bo'lishiga va geografik tarqalishida asosiy omil bo'lib hisoblanadi. CHunonchi, Namangan shahrida o'rtacha yillik harorat 14,1 S⁰, yillik yog'in

miqdori 191mm, quyoshli kunlar 320 kun. Farg'ona shahrida yillik o'rtacha harorat 12,6 S⁰, yog'in miqdori 172 mm, quyoshli kunlar esa 310 kun tashkil etadi. Andijonda viloyatida yuqoridagi kichiklar o'rtacha yillik harorat 12,0 S⁰, 165 mm yog'in, quyoshli kunlar 320 kundan iborat.

Namangan viloyatida Norin va Qoradaryo quyilishi natijasida Markaziy Osiyoning eng yirik daryolaridan sanalgan Sirdaryo hosil bo'lib, 132 km uzunlikda oqib o'tadi. Bundan tashqari viloyatda SHimoliy Farg'ona, Katta Namangan, Ohunboboev, Katta Farg'ona, Katta Andijon kanallari ham yirik gidrotexnik inshootlar o'z havza va vodiylarida o'ziga xos iqlimiy-ekologik sharoitlarni (yoz oylarida salqin, qish nisbatan iliq, toza havo massasi) hosil qiladi.

Hududda xukmron bo'lgan iqlim va uning o'ziga hosligi, aholi o'rtasida kasallanganlik darajasini boshqa hududlarga nisbatan pastligi, tarkibi minerallardan iborat bo'lgan tabiiy buloqlar, o'rmonzorlar, butazorlar, o'zida dorivorlik hususiyatiga ega bo'lgan o'simlik dunyosi hududga tashrif buyurgan turistlarni o'ziga jalb etgan asosiy ekoturistik ob'ektlar viloyat markazi va tumanlar kesimida tarkib topgan.

1.Namangan shahri: viloyat markazi hisoblanib, unda hozirgi kundagi aholi soni 600,4 ming kishini tashkil etgan mazkur shahar aholi soni bo'yicha respublikamizda uchinchi o'rinda turadi. Shaharda 41 ta tarixiy yodgorlik va diniy madrasa, masjidlar, Z.M.Bobur, B.Mashrab, "Kamolot", "Yoshlar" madaniyat va istirohat kabi bog'lar, 10 tadan ortiq shifo va profilaktika davolanish, halqaro aeroport, 3 ta avtoturarjoylar, 5 ta mehmonxona, 1ta o'lka muzeyi, 50 dan ortiq turistik faoliyatga xizmat ko'rsatadigan aloqa va servis ob'ektlariga ega.

2.Kosonsoy tumani: viloyatni shimoliy qismida Kosonsoy vodiysida joylashgan. Tuman tog' va tog' oldi hudud bo'lgani bois turistik marshrutlarni amalga oshirishda bir qator imkoniyatlar mavjud. Kosonsoy shahri 2000 yillik tarixga ega bo'lib, XII asrda Qoraxoniylar davlatining poytaxti bo'lgan. Miloddan avvalgi birinchi asrda qurilgan Mug'tepa tarixiy yodgorligi o'rnida Koson (Kushon) shahriga asos solingan. IX–XVII asrlarda yaratilgan G'o'zapoya Jome, Sadpiri Komil kabi masjidlar qurilgan. Kosonsoy hududida istiqbolda turistik maskanlarni tashkil etish, shifobahsh mineral buloqlar, madaniyat va istirohat bog'lari, rekreatsion, oromgohlarida turizmning eko, tibbiy, rekratsion, shop va ekstremal turlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Bugungi kunda bunday turistik maskanlar soni 57 tani tashkil etib, ko'p tarmoqli "Kosonsoy" davolanish va dam olish maskani alohida ahamiyat kasb etadi.

3.Mingbuloq tumani viloyatning janubiy cho'l mintaqasida joylashib, maydoni 20 ming ga, aholisi 118.5 ming kishi. Sirdaryo chap sohilida joylashgan. Yer osti suvlarini Sirdaryoga tortib ketish maqsadida kollektor drenaj tizimi yo'lga qo'yilgan. Paxta, bug'doydan tashqari sholichilik, baliqchilik tarmoqlari rivojlangan. Tumanda turizm sohasida davolovchi qumdan foydalanish, SHo'rsuv qishlog'ida suv tarkibida oltingugurt, fluor, brom bo'lgan, yer qaridan chiqadigan issiq suvdan foydalanib ekstermal, tibbiyot, daryoda qayiq va paromlarda sayr qilish, agroturizm kabi turistik turlardan foydalanish imkoniyatlari katta.

4. Namangan tumani viloyatning janubi sharqiy qismida joylashib 45ta turistik ob'ektlar joylashgan. Bu tumanda tarixiy turizmni asosini tashkil etuvchi: Ko'k tunli ota, Sirli masjid, Abdurazzoq qozi, Said Jaloliddin, Shayx Eshon, CHillaxona, Bibi mushkulkushod, O'n bir Ahmad kabi tarixiy obidalar, qadamjoylar va tarixiy yodgorliklar joylashgan. Insonlar tomonidan qishloq xo'jalik ekinlarni yetishtirilishi bilan birga tuman va viloyat bozorlariga anjir, anor, uzum mahsulotlarini yetkazib bermoqda. Yuqoridagi keltirilgan turistik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tumanda tarixiy, diniy va agroturizm turizm tarmoqlarni yanada takomillashtirish lozim.

5. Norin tumani Sirdaryoning chap sohilida viloyatni sharqiy qismida joylashgan bo'lib, tarixiy turistik maskanlari bilan ajralib turadi. Ular sirasiga Buloqmozor, Xaqqulobod, Koresmozortepa, G'ishtmozor, Almani-Qo'rg'oncha, Qozoqovul, Shaydon, Buloqmozor, Uchtepa, Qo'rg'ontepa kabi tarixiy arxeologik yodgorlik kiradi va ularning soni 16 tadan iborat. Bu tumanga tashrif buyurgan turistlar nafaqat tarixiy, balki diniy va ekologik turizm tarmog'i bilan yaqindan tanishishi mumkin. Chunki tuman Farg'ona vodiysidan oqib o'tuvchi Sirdaryo havzasining bosh irmoqlarini tashkil etuvchi Qoradaryo va Norin daryolarining qo'shilishi orqali

Markaziy Osiyoda Sirdaryoni tashkil etadi. Ushbu hududda turizmning rafting usulidan foydalangan holda sayr qilish imkoniyatlari mavjud.

6. Pop tumani hududining kattaligi jihatidan viloyatda birinchi o'rinda turadi va uning umumiy maydonining 40 foizini tashkil etadi. Tuman hududini 70 foizi Qurama tog' tizmasi, tog' oraliq vodiylari va yonbag'irlardagi tog'lardan iborat. Bu tuman tabiiy sharoiti turli tuman ekoturistik ob'ektlarni ajratish imkoniyatini beradi. Yurtimizda olib borilayotgan islohatlar natijasida Toshkent bilan Farg'ona vodiysini bog'lovchi 121,3 km teng bo'lgan Angren-Pop elektrlashtirilgan tezyurar poezdi va 19,1 km tog' tuneli XXI asrning zamonaviy transport logistikasidir. Salkam 50 km uzunlikdagi Ohangaron daryosi va unga quyuluvchi 20 yaqin soy irmoqlarida o'ziga xos rekreatsion, ekstremal va ekoturistik ob'ektlarini o'zida hosil qilgan. Jumladan, tumandagi CHodak, Oltinkon, Parda Tursun, CHorkesar, Madaniyat qishloq aholi manzilgohlari tog' havosi, soy vodiylari, yovvoyi holatda o'suvchi olma, olxo'ri va yong'oqzorlar ham tog' yonbag'irlarida keng tarqalgan. Bu qishloqlarda yashovchi aholi aprel' oyidan to sentyabr' oyiga qadar sayyohlarni qabul qilish uchun barcha servis xizmatlari ega. Hozirda ushbu ekoturistik ob'ektlarga bir dam olish mavsumida 1000 kishigacha sayyohlar kelib ketmoqda. Bu yerdagi asosiy turistik ob'ektlar – Arashonbuva, Munchoqtepa (V-VII-asrlarga oid), Oqtepa, Xo'jaobodtepa, Langarmozor, Bulgadaraztepa, CHillamozortepa, CHodak, G'urumsaroy, Guzar, CHirchirmomo, Ismoil Atoyi, SHox Sulaymon, Xo'ja Muhammad Samosiy, Langarbuva, Imomota kabi tarixiy obidalar, yodgorliklar, masjidlar va muzeylar tarixiy turizmni asosini tashkil etsa, ekoturistik ob'ektlardan CHodak, Parda Tursun va Oltinkon dam olish maskanlari joylashgan. Pop tumaniga keluvchi sayyohlarning asosiy qismi Farg'ona viloyati Qo'qon va uning atrofidan keluvchi ichki sayyohlardan iborat. Ular asosan turizmning ekstremal, rekreatsion, rafting, tarixiy va ekoturistik turlaridan foydalanishadi.

7. To'raqo'rg'on tumani maydoni 17 km², aholisi 212 ming kishidan iborat bo'lib, tumanning tarkib topishi va rivojlanishi bevosita tarixiy turizm bilan bog'liq. Tarixdan bizga ma'lumki, shox va shoir, vatanimizning buyuk ajdodlaridan biri hisoblangan Zaxriddin Muhammad Boburning qarorgohi mazkur tumanda X-XI-asrlarga oid Sirdaryo havzasining o'ng irmog'ida joylashgan Axsikentda qarorgohi bor. Mazkur turistik ob'ekt Namangan viloyatiga tashrif buyurgan 35-40 foiz sayyohlarni qamrab oladi. Turistik marshrutni tashkil etishda tumandagi boshqa tarixiy - arxeologik yodgorliklardan – Quyiqmozortepa, Yortepa, Kuymozor, G'oyibnazarqozi, Isoqxonto'ra Ibrat, Falasbon, Xo'ja Ahmad Vali, Abdulmoniy mavjud. Tumanda 12 tadan ziyod maqbara va masjidleri ham turist ob'ekt bo'la oladi. SHu bilan birga turizmning rafting usulidan foydalanib, Sirdaryo havzasidagi orollarga ham borib, so'ngra o'zining shifobaxsh va minerallarga boy bo'lgan "SHaxant" dam olish maskaniga ham tashrif buyurish imkoniyatlariga ega. 1980 yilda tashkil etilgan mazkur davolash va dam olish maskanida tabiiy yo'llar bilan davolash usullaridan keng foydalangan holda bir yilda 2500-3000 tagacha sayyohlar tashrifi kuzatilmoqda.

To'raqo'rg'on tumanida jami 43 ta turistik ob'ektlar mavjud bo'lib, ularning 18 tasi tarixiy va 25 tasi servis xizmatiga tegishlidir. Sirdaryo bo'yidagi buloqlar esa tabiiy, rekreatsion, ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatiga ega.

8. Uychi tumani viloyatning sharqiy qismida joylashib, uning maydoni 12000 km², aholisi 200 ming kishini tashkil etadi. Tumanda tarixiy va diniy turizm turlaridan - Yakkatut ziyoratgohi, Tariqmozor, Niyozbek, Oqtepa, Oqgumbaz, Tolmozor, Ovchibuloq, Qizrovot, Mashxadmozor kabi tarixiy arxeologik yodgorliklar mavjud. Uychi tumanida hozirgi kunda 47 ta turistik ob'ektlar mavjud bo'lib, ularning 5tasi tibbiy turizm va 23 tasi tarixiy-diniy turlari mavjud. Tumanda turistik xizmat ko'rsatish shoxobchalari 19 tani tashkil etadi.

9. Uchqo'rg'on tumani viloyat markazidan 50 km uzoqlikda joylashgan ma'muriy birlik gidrotexnik inshootlari ko'pligi bilan xarakterlanadi. Uchqo'rg'on suv to'g'oni (Norin daryosida) Katta Farg'ona, Katta Andijon, Katta Namangan, SHimoliy Farg'ona kanallari bular jumlasiga kiradi. Tumanning o'ziga xos gidrologik tabiat komplekslari nozo, rekreatsion, ekstremal, agro-ekoturizmning turlarini rivojlanish imkoniyatini yaratadi. Uchqo'rg'on tumanida sanab o'tilgan turistik ob'ektlardan tashqari Quyuqtepa, O'g'riyortepa, Mozortepa, Oqtepa, Ositinmozor,

Uchyog'ochtepa, No'shkantepa, Gultepa, Beshtepa, Qo'shtepa, Daryobo'yi, Tirikmozor kabi tarixiy va arxeologik ziyoratgohlar, madrasa va masjidlar bor.

10. Chortoq tumani viloyat markazidan 12 km sharqda Chortoqsoy, Katta Namangan va SHimoliy Farg'ona kanallari oqib o'tuvchi hudud adir, adir orti va tog'oldi hudud bo'lgani uchun ham yozi nisbatan salqin, qishi nisbatan iliq, havosi toza va musaffo ekanligi bilan xarakterlanadi. SHu bois tuman hududida dam olish va bal'neologik davolanish maskanlari mavjud. Tumandagi o'ziga xos turistik maskanlar nafaqat O'zbekistonda, qolaversa Markaziy Osiyo davlatlarigacha mashxur bo'lgan Chortoq (1954 yilda tashkil topgan), Gulshan (1970 y.) dam olish va davolanish maskanlari tashkil etilgan. Yer qaridan chiqadigan shifobaxsh mineral suv va balchiqlar davolash hususiyatiga ega. Dam olish va davolanish maskanlari atrofida yashovchi xonadonlar ham bir kunda 4-10 davolanuvchilarni joy bilan ta'minlash imkoniyatlariga ega. Tumanda 47 ta turistik ob'ektlar aniqlangan bo'lib, dam olish va davolanish maskanlari soni 3 ta (Yangi Chortoq), 10 tadan ortiq joyda shifobaxsh buloqlar, 10 ta servis va xizmat ko'rsatish shahobchalari mavjud.

Tumanda tarixiy turizmni ob'ektlaridan Baliqko'l majmuasi 1853 yilda masjid ko'rinishida qurilgan. Maydoni 4,03 ga bo'lib, o'zining shifobaxsh buloqlari, maqbara va ziyoratgohlari bilan ichki turizmni yuritishga xizmat qilmoqda. Tumanda Oqtepa, Uchtepa, Do'stboytepa, Bibi Naima, Sulton Said Jaloliddin, Sadamozor, Alkomacha kabi tarixiy ziyoratgohlar, maqbara va masjidlar joylashgan. Yuqoridagi turizmning turlarini mavjudligini inobatga olib, Chortoq hududida kelgusida tibbiy, tarixiy, diniy, ekoturizm turlarini imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda sohaga oid xorijiy investitsiyalarni kiritish zarurligini taqqazo etadi.

11. Chust tumani viloyat markazidan 42 km g'arbda joylashgan bu hududda qadimdan tarixiy va diniy turizm rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Chust madaniyati bronza davriga oid Bibiona tarixiy yodgorligi deyarli 3000 yillik tarixga ega. Birgina Bibiona hududidagi bulog'ning shifobaxshliligi ko'z, teri tanosili xastaliklariga shifo topib, tuman hududidagi diqqatga sazovor joylarini ham ko'rib ketadilar. Chust tumanining shimolidan oqib o'tuvchi G'ovasoy daryo havzasining shimolida, tog' oralig'idagi tabiat ekzotikalaridan keng foydalangan holda ekoturizmni tashkil etish mumkin.

Daryo havzasi bo'ylariga tashrif buyuradigan turistlar oqimi asosan Namangan va qo'shni Andijon, Farg'ona viloyatlaridan keluvchi sayyohlardan iborat. Mazkur ekoturistik marshrutda turistlar dastlab, daryo havzasi bo'ylaridagi 100 ga yaqin dam olish maskanlarida ekoturistik sayohatni amalga oshirish imkoniyatiga ega. Ekoturistlar tanlangan marshrutning rejasiga muvofiq sayohatni tog'li hududda tashkil etilishini hisobga olib, otda yoki piyoda yurish, daryo havzasida turizmning rafting usulidan foydalanishadi. Tashkil etilgan sayohat davomida ekoturistlar hududda tarqalgan dorivor va shifobaxsh tog' do'lanasi, na'matak, kiyik o'ti, dala choyi, rovoch, tog' kakligi, bulbul, bedana kabi o'simlik va hayvonot dunyosini tomosha qilish, madaniy hordiq chiqarish maqsadida ko'ngil ochar tadbirlarda ishtirok etishlari mumkin. Hozirgi kunda respublikamizning barcha shahar va tumanlarida 104 tadan ortiq madaniyat va istirohat bog'lari faoliyat ko'rsatmoqda. Istirohat bog'idagi 100 yillik va undan ortiq yoshga teng bo'lgan qadimiy daraxtlar va o'zida maftunkorlikni mujassam qilgan madaniylashtirilgan o'simlik dunyosi ham keng tarqalgan. Bunday madaniyat va istirohat bog'laridan biri tuman markazida joylashgan "Mavlono Lutfillo" nomi bilan ataladigan madaniyat va istirohat bog'i majmuasi respublikada mashhurligi bilan xarakterlanadi. Mazkur bog'da hozirgi kunda viloyat aholisidan tashqari qo'shni viloyatlarning Qo'qon, Dang'ara, Buvayda, Uchko'prik, Beshariq tuman va shaharlardan ichki turizm sifatida tashrif buyurishmoqda.

Chust tumani jami 47 ta turistik ob'ektlarga ega bo'lib, shundan 23 tasi tarixiy turizmga tegishli. G'ova, Varzik, Olmos, Og'asaroy rekreatsion ob'ektlari joylashgan. Tarixiy turizm bilan bog'liq bo'lgan Bog'ishamoltepa, Tillatepa, Qiziltepa, Munchoqtepa, Sarimsoqtepa, Qo'shtepa, Egamberdi xoji, Og'asaroy, Otchopar, Eshonbuva, Abdurahmon xoji Ibn Avf kabi ziyoratgohlar va maqbara yodgorliklar faoliyat yuritmoqda.

Ma'muriy birlik hisoblangan mazkur tumanning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan istiqbolli rivojlantirishda ekoturizm bilan bir qatorda turizmning tarixiy, ekstremal, rekreatsion, diniy,

agroturizm kabi turlarida xizmat turlarini shakllantirish lozim.

12. Yangiqo'rg'on tumani viloyatning shimolida joylashgan bo'lib, u ning eng chekkasidagi Nanay qishlog'i viloyat markazidan 80km uzoqda joylashgan. Podshootasoy vodiysida joylashgan tumanning shimoliy hududlarida tog' iqlimi hukmron. Viloyatdagi boshqa tumanlarga nisbatan bu hudud rekreatsion turizm turi ham tarixan shakllangan. Tumanning qo'shni Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh bo'lgan aholi manzilgohlarida bir qator turistik dam olish maskanlari hozirgi kungacha faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, Nanay, Mamay va Podshoota daryo havzasidagi dam olish maskanlari mavsumiyligi bilan xarakterlanadi.

Ekoturistik ob'ektlar tumanning shimolida Mamay, Ko'kyor va Nanay hududlari Podshoota daryo havzasining ikki qirg'oqlarida joylashganligi bilan xarakterlanadi. Hududda ekoturizm bilan bir qatorda Qo'rg'ontepa, SHerqurbonvaliy, Zo'rtepa, Otaxontepa, Jo'lontepa, Qorapolvon, Boboyax so'z kabi tarixiy va diniy ziyoratgohlar, madrasa, masjidlar ham joylashgan bo'lib, hududga tashrif buyurgan turistlar mazkur qadamjolarga ham borish imkoniyatlariga ega.

Namangan viloyatining turistik imkoniyatlari nomli paragrifda viloyatdagi har-bir ma'muriy birlik hisoblangan tumanlarni turistik ob'ektlari va ularning turlarini ham ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, Namangan viloyatining turistik imkoniyatlari va unga xizmat ko'rsatish imkoniyati bor ob'ektlar jadvalida eks etgan, lekin hozirgi kunda ular to'lig'icha turizmga xizmat qilmoqda deb aytish mushkul. Ularning sayyohlik imkoniyatlarini tadqiq qilish va kelajak istiqbollari aniqlash shu kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Barcha tabiiy fanlarda bo'lgani kabi geografik tadqiqotlarda ham hududiy klassifikatsiyalash va muayyan tasnifiy belgilariga muvofiq ravishda hududlarni qismlarga ajratish, tabaqalash va nomlash masalasi doimo dolzarb muammo bo'lib kelgan. Bunga misol qilib tabiiy geografik rayonlashtirishni olish mumkin. Zero ekoturizm geografiya singari tabiat va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarining ekoturistik jihatlarini tadqiq qiladi.

O'zbekiston hududini ekoturistik va agroturistik rayonlarga ajratish va ularni nomlash bilan ilk bor A.Nigmatov, N.SHamuratova (2006, 2007), A.Nigmatov, SH.Yakubjanovalar (2009) shug'ullanishgan va mamlakatimiz hududini 14 ta ekoturistik va 15 ta agroturistik rayonlarga ajratganlar. Har ikkala holatda ham Farg'ona vodiysi alohida bir o'ziga xos ekoturistik va agroturistik rayon sifatida olingan. Ekoturistik rayonlashtirishni ular 1:1000000 masshtabdagi mavzuli kartalarda aks ettirishgan. Kelgusida esa O'zbekistonning mahalliy ma'muriy birliklar doirasida o'rta va yirik masshtabli kartalarda ekoturistik rayonlashtirish ishlarini olib borishni tavsiya etganlar.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida viloyatda ekoturizmni rivojlantirish uchun «Namangan viloyatining ekoturistik rayonlari va marshrutlari» 1:200000 o'rta masshtabli kartasi yaratildi. Unda ekoturistik rayonlarni ajratishda, kartografik, tizimli yondoshuv, qiyoslash kabi metodlardan foydalangan holda geografiyaning:

– *hududiylik, ya'ni ekoturistik chora-tadbirlarni qo'llashda hududiy bir butunlik nuqtai nazardan kelib chiqish;*

– *davriylik, ya'ni uning tarixan qaror topgan va rivojlangan holda ekotizimlarni birlashtirish;*

– *komplekslik, ya'ni ekoturizmni boshqa turistik turlari bilan qo'shib olib borish imkoniyatini inobatga olish kabi geografik tadqiqot predmetiga amal qilindi.*

**Namangan viloyatidagi ekoturistik rayonlari va
istiqboli marshrutlar [28:101-b.].**

| T/r | Ekoturistik rayon | Turistik marshrut | |
|-----|---|--|--|
| | | Sof ekoturistik | Majmualari turistik |
| 1. | Qurama - Chotqol tog' | 1.Namangan – Pop – Qamchiq dovoni - Arashon ko'l; 2.Pop - Parda Tursun; 3.Pop – CHodak - Oltinkon - Pop; 4.Toshkent - Qamchiq dovoni – Arashon ko'l - Toshkent. | 1.Namangan – Pop - Parda Tursun - CHodak - Qamchiq dovoni- Toshkent. |
| 2. | CHodak-Chust-Kosonsoy-Yangiqo'rg'on tog' oldi | 1.CHodak – Chust – G'ova – Chust madaniyat va istirohat bog'i; 2.Namangan - Kosonsoy - Orom dam olish maskani; 3.Namangan – Chortoq – Mamay - Nanay. | 1.Namangan – Pop – Chust – Kosonsoy - Chortoq – Baliqko'l - Yangiqo'rg'on-Namangan. |
| 3. | Sirdaryo o'ng sohil tekisliklari | 1.Namangan – To'raqo'rg'on - Axsikent – SHaxant - Namangan; 2.Namangan shaxri; 3.Namangan – Uychi – Uchqo'rg'on -Namangan; | 1.Namangan shaxri-To'raqo'rg'on - Qamchiq dovoni - Toshkent. 2.Namangan – Uychi – Uchqo'rg'on - Namangan; |
| 4. | Sirdaryo chap sohil tekisliklari | 1.Namangan – Sirdaryo – SHo'rsuv - Namangan; 2.Namangan - Markaziy Farg'ona cho'llari - Namangan; | 1.Namangan - Sirdaryo – Mingbuloq - Namangan. |

1. Qurama-Chotqol tog' rayonidagi ekoturistik marshrutlar:

1.1. Namangan - Pop - Qamchiq dovoni - Arashon ko'l: Viloyatdagi mazkur marshrutga tashrif buyurgan turistlar qattiq qoplamali avtomobil yo'llaridan boshlanib, dastlab Namangan shahri, To'raqo'rg'on va Chust tumanlaridan o'tib, Pop shahridan CHodak dam olish maskanlariga, so'ngra Qamchiq dovoni orqali Arashon buva tog' turistik maskaniga borish imkoniyatiga ega. Popdan CHodaksoy havzasi orqali Arashon tog' tizmasiga tomon past, o'rtacha va baland tog' mintaqasiga tomon rel'ef ko'tarilib borgan sari tog' havosi, landshafti, tog' qoyalari, tizmalari va ulardagi archazorlar, terak, do'lanazorlar bilan almashinadi [30:115-b.]. Dengiz sathidan 4000 m dan baland Arashon ekoturistik ob'ekti tog' havosi, atrofida qoyali va muzli landshaft turistlarni o'ziga jalb etadi. Qamchiq dovonidagi tog' landshafti, fauna va floralari hamda Arashon buva masjidi, buloqlar, oromgoh, oshxona-choyxonalar, bog'lar, gulzorlar va tibbiy shifoxonalar, oziq-ovqat va turistlar uchun sovg'alarning savdo rastalari, diniy, tarixiy, tibbiy, agro, tog'da chana sporti va Al'pinizm kabi kompleks turistik ob'ektlar bilan tanishtiradi. Tarixiy yuqori bo'lgan maskanlardan Oq mozor, CHodak, G'urumsaroy, Ismoil Atoyi kabi ziyoratgohlarni tomosha qilish va ziyorat qilish imkoniyatiga ega.

1.2. Pop – Parda Tursun: Pop shahridan 60 km shimolda tog' orasida joylashgan Parda Tursun qishlog'igacha boradi. Popdan chiqqach yo'lining ikki tomoni past baland adirlar, Madaniyat qishlog'idan tog' havosi va manzarasi boshlanadi. Parda Tursun qishlog'ida sayyohlar uchun mehmonxonalar, oromgoxlar, tarixiy obidalar, sanatoriya, bog'lar, gulzorlar, ovqatlanish va savdo, maishiy xizmat shaxobchalari, buloqlar ko'pki bular diniy, tarixiy, rekreatsiya, tibbiy, agro kabi kompleks ekoturistik ob'ektlardir.

1.3. Pop - Munchoqtepa – Pop: Sirdaryo havzasining o'ng sohilida IX-X asrlarning tarixiy yodgorligi sifatida e'tirof etilgan Munchoqtepa qal'asi bo'ylab tashkil etiladigan mazkur marshrutda tarixiy qadamjoning o'ziga xos madaniyati, uy-ro'zg'or buyumlari, sopol va metallardan yasalgan idishlar, xarbiy qurollar, qadimgi qo'lyozmalar, bir necha asr muqaddam qamishdan yasalgan mayit va uni tobuti, qal'a xonaqalari, saroy xonalari, himoya devorlari,

soqchilar turadigan tepaliklar, suv yo'llari, hammom va madrasa-masjidlari kabi tarixiy-arxeologik yodgorliklarga tashrif buyurgan turistlar ekoturizmni tarixiy va diniy turizm turlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.

2.CHodak -Chust - Kosonsoy -Yangiqo'rg'on tog' oldi ekoturistik rayoni:

2.1.CHodak-Chust-G'ova-Chust marshruti. Pop tumanidan boshlangan mazkur marshrutda Farg'ona vodiysining eng qadimiy manzilgohlaridan biri bo'lgan Chust tumanidan o'tadi. Unda sayyohlar betakror tabiat manzarasi, xunarmandchilik markazlari, madaniyat va istiroxat bog'i, tarixiy arxeologik yodgorliklar, muzeylar, masjidlar, Buonomozor tarixiy qadamjoyi, bolalar oromgohlari, G'ova hududidagi rekreatsion dam olish maskanlari bilan yaqindan tanishadilar. Mazkur ekomarshrut davomiyligida tog'lar, soy vodiylari, dorivor o'simliklar, shifobaxsh buloqlar, sog'lomlashtirish maskanlari davolanish va sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ma'muriy birliklardagi diniy turizm bilan bog'liq bo'lgan qadamjolar Mavlono Lutfilloh, Otchopar Eshonbuva, Abdurahmon xoji ibn Avf kabi tarixiy obidalar hamda ziyoratgohlar ekoturizmni komplekslik hususiyatini ochib beradi. Milliy hunarmandchilikni noyob turi hisoblangan pichoq va uning turlari hozirgi kunda ham xaridorligi bilan ajralib turadi [29:305-b.]. Bu hunarmandlar tayyorlayotgan pichoq turlarini nafaqat tuman, viloyat, balki respublikamizning turli hududlaridan kelgan mexmonlar ham sovg'a va uy ro'zg'or buyumlari sifatida xarid qilishmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizga tashrif buyurgan chet ellik mehmonlar ham Chust pichog'ini O'zbekistonning milliy ramzlaridan biri sifatida sovg'a uchun sotib oladilar. Chust pichog'i bilan birgalikda do'ppi ham o'zining uch yarim ming yillik tarixiga ega.Tarixiy davrlar mobaynida do'ppining to'rtgula, zirova, ova, ayyub, zira, sotim,tog', ilova, bulbulcha ramzi, uzum, quyosh ramzi, bug'doy va humo qushi ramzli nusxalarini nafaqat xorijiy qolaversa, respublikamizni viloyatlaridan kelgan turistlarning aksariyati do'ppi nusxalarini xarid qilishlari kuzatilmoqda.

2.2. Namangan-Kosonsoy - dam olish va davolanish maskanlari. Kosonsoy viloyatning eng xushmanzara go'shalaridan bo'lgani uchun bu tumanda bir qator dam olish va davolanish maskanlari mavjud. SHu bois, mazkur marshrutni asosini rekreatsion ob'ektlar tashkil qiladi. Turistlar marshrut bo'ylab sayohatni tashkil etishda dastlab "Kosonsoy", "Obi hayot", "Faxriylar" sihatgohlari kabi oromgohlarni ko'rish va ularda sayohat qilish hamda davolanish uslublarini ko'rishadi. Ayniqsa Kosonsoyning ma'danli shifobaxsh suvi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu o'rinda mamlakatimizning turli dam olish oromgohlari orasida o'zining inson dardiga shifo beruvchi, toza havosi, so'lim tabiati va turli tuman shifobaxsh davolash usullari bilan ma'lum va mashhur bo'lgan "Kosonsoy" sanatoriyasi Respublikamiz aholisining eng sevimli sihatgohiga aylangan. Har yili minglab yurtdoshlarimizga salomatligini qayta tiklashda katta xizmat ko'rsatayotgan Kosonsoy tumanida joylashgan "Kosonsoy sanatoriyasi" dam olish va davolanish maskanidan biri ekanligi bilan ajralib turadi. Salqin va mo'tadil toza havosi, minerallarga boy suvi, xushmanzara joylari bilan xarakterlanadi. Chotqol tog' tizmasi muzliklaridan va davolanish maskani yonidan o'tuvchi qariyib 150 km joyni o'ziga olgan Kosonsoy havzasi yonida joylashuvi ham albatta maskanga tashrif buyuruvchilarni sonini ortishiga o'z xissasini qo'shmoqda. Kosonsoy davolanish va dam olish maskanida tibbiyotda kasalliklar ro'yxatidan joy olgan xarakat – tayanch organlari, oshqozon ichak, asab sistemasini, yurak qon tomir kasalliklari, nafas yo'llari, ginekologik va siydik yo'llari kasalliklarini davolash uchun mo'ljallangan. Mazkur davolash usullari yordamida malakali vrachlar soni 11ta, o'rta tibbiyot xodimlari 42 nafarni tashkil etib, davolash va profilaktika ishlarini hozirgi kunda olib borishmoqda. Kosonsoy daryo havzasi bo'ylarida joylashgan mazkur maskanda davolash omili iqlim va tabiiy madanli suv hisoblanib, hudud havosidagi kislorod zichligi 26 foizni tashkil etadi. Tabiiy madanli suvning 500 metrdan iborat bo'lgan chuqurlikdan maxsus uzatgichlar orqali mineral suv bur sistemasining qumtosh qatlamlari orasida olinib davolanish asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

2.3.Namangan –Kosonsoy – Mug'tepa - Namangan. Bu ekoturistik rayonga viloyatning Kosonsoy tumanining 500-2000 m gacha ko'tarilgan hududlari Yettikon -Qo'qimboy tog' oldi hududlari va adirlar kiradi. SHimoldagi tog' va tog' etaklari o'ziga xos geologik tuzilishga

ega. Kosonsoy tumani dengiz sathidan 800m balandda joylashgan tog'li hudud ekoturizm ob'ektiga mos. Agroturizm ob'ekti bo'lib paxtachilik, donchilik, bog'dorchilik, chorvachilik rivojlangan qishloq rayonlarini olish mumkin. SHaharlarda miloddan oldingi II-I asrlarda barpo etilgan Kushon davlatining poytaxti bo'lgan Mug'tepa, XV-XVI asrlarda mashhur bo'lgan Mahdumi A'zam Kosonsoy maqbarasi, XVIII asrdagi Yusufxon Eshonto'ra majmualarida ekoturizmni tarixiy turizm bilan birga olib borish imkoniyatini yaratadi. Kosonsoy sanatoriyasi kompleksi, madaniyat va istiroxat bog'i, o'lkani o'rganish muzeyi, xunarmandchilik markazlari, Kosonsoy havzasining ikki sohilidagi oromgoxlar, dam olish maskanlari, madaniy ma'rifiy markazlari, salqin va kishi ruhiyatini yaxshilovchi buloqlar va atrofidagi jozibali tabiat kompleks ekoturistik marshrutlarni tashkil etishga ko'maklashadi .

2.4. *Namangan – Chortoq – Mamay - Nanay.* Namangan shahridan boshlanadigan yo'nalish marshruti dastlab, Chortoq tumanidan oqib o'tuvchi Chortoqsoyning har ikki yonbag'iridagi Chortoq, Gulshan, Bolalar sog'liqni qayta tiklovchi dam olish maskanlari va oromgoxlar, shifobaxsh mineral buloqlar, madaniyat va istiroxat bog'lariga sayohatlar amalga oshiriladi. Marshrutda sayyohlar Baliqliko'l majmuasi, Zirkmozor, Bibi Naima Sutli bulog'iga, Qandiyontepa, Oqtomtepa, Dumaloqtepa, Ko'kyortepa, Julontepa, Qo'rg'ontepa kabi bir qator ziyoratgohlarga, tarixiy-arxeologik yodgorliklarga va tabiiy yodgorliklarini ko'rish imkoniyatlari mavjud. Tashkil etilgan marshrutning ikkinchi bosqichi Yangiqo'rg'on tumanidagi Mamay va Nanay qishloq hududlariga rejalashtirilib, sayyohlar O'ng'or tog'idagi bir qator g'orlar, qoyali tog'lar va Podshootasoy daryo havzasida tashkil etilgan dam olish maskanlarida tunashlari mumkin. Turistlar sayohat davomida turizmning rafting, shop, ekstremal va ekoturizm kabi turlaridan foydalanishlari tavsiya etiladi. Jumladan, Ko'ksaroy sihatgohi 1967 yilda tashkil etilgan dam olish maskaniga 2500-3000 nafar turistlar tashrifi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda turistlar uchun 100 ga yaqin zamonaviy turar joylar, 100x50 hajmdagi suzish havzasi va 100x60 hajmdagi sport maydoni, 500 kishiga xizmat ko'rsatadigan ovqatlanish shoxobchasi, san'at saroyi, fotostudiya, tibbiyot maskanlari, savdo va bozor shaxobchalari, bolalar sport maydonchalari, servis xizmati, otda, tuyada sayr qilish uyushmasi, kashtanzor, chinor, archa, terak, yong'oq, olma, olxo'ri, nok kabi bog'larni, dorivor va shifobaxshlik hususiyati yuqori bo'lgan ziziforaning endemik 2 turini ko'rishimiz mumkin.

3. Sirdaryo o'ng sohili tekislik ekoturistik rayondagi marshrutlar:

3.1. *Namangan-To'raqo'rg'on-Axsikent-SHaxant-Namangan:* Sirdaryoning o'ng sohili tekislik ekoturistik rayonning mazkur marshrutida turistlar To'raqo'rg'on markazi orqali Axsikent tarixiy-arxeologik majmuasi, SHaxant davolanish maskanlari bo'ylab sayohatlar amalga oshiriladi.

Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan Axsikent Sirdaryoni o'ng sohilida joylashib, 400 ga maydonidan iborat. Bu tarixiy shahar aholisi o'z davrida 200 ming kishiga yetgan [11;24-b.]. Savdo markazi, xonaqoxlar, 4 ta himoya qo'rg'oni-tepaliklar, madrasa, majmua, harbiy mashg'ulot o'tkazadigan maydon, oziq-ovqat va qurol aslaha saqlaydigan yer osti omborlari, hammom, xon saroyi, bog'lar ichki va tashqi sayyohlarni hozirda ham jalb etmoqda. Tarixiy turizmni o'zida mujassam etgan Axsikentning sharqiy tomonidan Sirdaryo havzasi oqib o'tishi hisobiga qal'aning suvga tutash joylarida yemirilishi, 1960 yildagi zilzila Axsikentni xaroba holatiga keltirgan. Hozirgi paytda bu tarixiy yodgorlik davlat dasturiga binoan qayta ta'mirlash, tiklash, muzeylar qurish, atrofini ko'kalamzorlashtirish, bog'larga aylantirish va turistlarni jalb qilish maqsadida qayta ko'rib chiqilmoqda. Axsikentdan 2 km shimoli sharqda 40 mingdan ortiq aholi yashaydigan SHaxant qishlog'ida shifobaxsh mineral buloqlar va balchiqdan foydalangan holda yurtimizning barcha viloyatlaridan salomatlikni tiklash maqsadlarida sayyohlar turizmning nozoturizm turini rivojlantirmoqda [40;24-b.]. Undan mevali va manzarali bog'lar, hiyobonlar, ko'l va favvoralar, zoopark filiali, ovqatlanish shohobchalari, savdo va maishiy xizmat uylari, sport, dam olish maskanlari, Xo'ja Axmad Vali tarixiy yodgorliklari ham mavjudligi turizmning eko-nozo-ekstremal-tarixiy kompleks turlarini yanada rivojlantirish imkoniyatini beradi. To'raqo'rg'on tumanida G'oyibnazar va Palasbon ota tarixiy yodgorliklari, Kaptarxona qishlog'idagi Umar Shayx Mirzoning ramziy qabri, Mahdumi A'zam Kosoniy avlodiga mansub

bo'lgan Abdulmoniy maqbaralari viloyatning tarixiy qadamjoylari ro'yxatiga kiritilgan.

3.2. *Namangan shahri marshruti.* Viloyat markazidan boshlanadigan mazkur marshrut shahardagi hunarmandchilik markazlari, zamonaviy savdo do'konlari, madaniyat va istirohat bog'lari (3ta), tarixiy qadamjolar va arxeologik yodgorliklari bilan yaqindan tanishadilar. Namangan shahri hududidan oqib o'tuvchi Yangiariq, SHimoliy Farg'ona kanali shaharda o'ziga xos iqlimiy sharoit yaratibgina qolmay balki rekreatsion tibbiyot, diniy, tarixiy, sport kabi xizmat ko'rsatuvchi turlarini hosil qilgan. SHaharda A.Navoiy nomli viloyat drama va komediya teatri, o'lkani o'rganish muzeyi va filiallari, Motamsaro ona monumenti, bir qator turli sport saroylari (Navbahor, Barkamol avlod, va suzish suv havzalari, velatrek, chim ustida xokkey, otchopar, N.Namongoniy, Azizxo'ja Eshon madrasasi, Mavlono Namongoniy, Mulla qirg'iz madrasasi, Mulla Bozor Oxund majmuasi, Maxdumi Eshon masjidi, Qodirxo'ja Eshon kabi tarixiy va diniy turistik majmualari viloyat markazida joylashgan.

3.3. *Namangan-Uychi-Uchqo'rg'on-Namangan.* Uychi viloyat markazidan 15 km shimoliy g'arbda joylashgan shahar bo'lib, Namangan - Uchqo'rg'on magistral yo'lida Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan. Adir va adir orti tekisliklarining umumiy maydoni 29,5 ming km² teng. Hozirgi aholisi eng zich va uning soni 210 mingdan oshiq bo'lgan bu marshrut SHimoliy Farg'ona, Katta Namangan kanallari bilan birga Podshootasoy, Chortoqsoylari oqib o'tidagan gidroinshootlar atrofida dam olish maskanlari, oromgohlar, shifoxonalar, sog'lomlashtirish maskanlari, sport va san'at saroylari, madaniyat va istirohat bog'larini qamrab oladi. Ekoturizm bilan birgalikda tarixiy turizmni tashkil etuvchi Tariqmozor, Nog'oratepa, Niyozbektepa, Oqtepa, Qoratepa, Oqgumbaztepa, Toshloqtepa, Ovchibuloqtepa, Qizbuloq, Mashxad kabi tarixiy qadamjolar mavjud.

Uchqo'rg'on Namangandan 40km uzoqda joylashgan 30,7 ming km² maydonni egallagan, aholisi 190 ming kishidan iborat rayonning shimoliy va g'arbiy qismlari Qirg'iziston Respublikasi, Janubiy tomoni Norin, g'arbiy tomoni Uychi tumanlari bilan chegaradosh. Tuman geoeologik sharoitini belgilovchi xarakterli hususiyati Norin daryosi, undan boshlanuvchi 5 ta yirik kanal va soylar Uchqo'rg'on suv tugunining hosil qilganligi va uni tuman tabiatiga ijobiy ta'siridadir. Uchqo'rg'on suv ombori atrofida so'lim va salqin manzarali hamda mevali bog'lar, sanatoriy, shifoxona, oromgohlar, dam olish maskani, nuroniylar va yoshlar bog'lari, vokzal, avtovokzal, sport, san'at shaxobchalari tashkil etilgan. Hududda tarkib topgan Nomsiztepa, O'g'riyortepa, Norinkaliklar, Oqtepa, Uchyog'ochtepa, Gultepa, Beshtepa, Qo'shtepa tarixiy qadamjolari, bir tarixiy va tabiiy yodgorliklarni istiqbolda kompleks rivojlantirish zarur.

4. Sirdaryo chap sohilidagi ekomarshrutlar:

4.1. *Namangan - Sirdaryo - SHo'rsuv - Namangan marshruti.* Istiqbolda taklif etilayotgan ekomarshrut Mingbuloq tumanining Gurtepa MFY hududida tarkib topgan SHo'rsuv aholi manzilgohidagi davolash maskaniga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Hududning geografik o'rni va yer osti suvlarining o'ziga xos hususiyatlaridan kelib chiqqan holda inson salomatligini qayta tiklovchi, shifo va qisqa muddatli dam olish maqsadida 1980 yilda tashkil topgan. Inson salomatligini tibbiy ko'rsatkichlari atrof-muhit holati bilan chambarchas bog'liq. SHunday ekan, tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish har-bir insonning burchidir [94;147-b.]. Tabiiy ravishda uchragan suv tarkibida brom, fluor, oltingugurt kabi moddalar tashrif buyurgan 1500-2000 nafar aholining salomatligini ta'minlash uchun xizmat qilmoqda. Ular bot, revmatizm, bo'g'imlarda tuz to'planishi, teri kasalliklarini bartaraf etishda sog'liqni saqlash xodimlari tomonidan berilgan tavsiyalarga ko'ra foydalanish imkoniyati yaratilgan. SHo'rsuvda suvning harorati +70S⁰ bo'lib, u +10,+15,+20,+25+30S⁰ dagi maxsus vannalar, tibbiyot xodimlari va zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan.

4.2. *Namangan - Markaziy Farg'ona cho'l landshafti - Namangan.* CHO'l mintaqasi, uning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini tadqiq etishning dolzarbligini BMT tomonidan 2006 yilni "CHO'llar va cho'llanish halqaro yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan olib borilgan chora-tadbirlar ko'lamidan ibtib olish mumkin [43;3-b.]. Bu borada mustaqil O'zbekiston Respublikasida ham ijobiy ishlar, jumladan turizm sohasida ham foydalanish ko'lami bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunday tabiati nozik ekotizimlarni muhofaza qilish,

uning tabiiy resurslaridan oqilona foydalangan holda ekoturizmni rivojlantirish, cho'l mintaqasida tarqalgan, lekin yo'qolib ketish xafi bo'lgan o'simlik va hayvonot olamini saqlab qolish prioritet ilmiy izlanishlar ko'lamidan joy olmoqda. Viloyatining janubiy qismida joylashgan, Mingbuloq tumanida ham o'ziga xos tabiiy ekoturistik ob'ektlar mavjud bo'lib, ularning asosiy yer fondi Markaziy Farg'ona cho'llaridan iborat. Cho'l mintaqasi o'ziga xos hususiyatlari, tarkib topishi birinchi navbatda Farg'ona vodiysining tabiiy geografik o'rni bilan bevosita bog'liqdir.

Vodiy Tyanshan' va Oloy tog' tizmalari orasida gertsin tog' burmalanishida paydo bo'lgan tektonik botiqda joylashgan. Vodiy hududida dastlabki quruqlik paleozoy erasida tog'lar o'rnida paydo bo'lib, mezozoyda adirlar ko'tarilgan, nihoyat, vodiyning tekislik qismi esa to'rtlamchi davrda to'liq quruqlikka aylangan

Mingbuloq tumanining Gulbog', Gurtepa, Alami, Baland Gurtepa MFY larida aholi istiqomat qilmaydigan hududlaridagi qum barxanlari ekoturistik ob'ektidir. Aholi vakillari o'z salomatligini qayta tiklash maqsadida yilning iyul'-sentyabr' oylarida cho'lga tashrifi kuzatilib, tibbiyot sohasida kasalliklar ro'yxatida qayd etilgan bo'g'im, bot va tayanch harakat tizimi (grija xastaligidan tashqari) kasalliklarini tabiiy ravishda davolashda o'z samarasini bermoqda. Kuzatuv va tahlillar natijasida tabiiy yo'l bilan davolanish maqsadida borgan aholi vakillarini salomatliklarini qayta tiklanish holatlari kuzatildi. Gulbog' hududidagi qum barxanlariga 2017 yilning 20-25 avgust sanalarida 300 nafar kishi nozoturizm ishtirokchisiga aylandi. Qum barxanlariga davolanish maqsadida kelgan aholiga zamonaviy servis xizmatlarini o'z vaqtida ko'rsatish, tashkil etish va rivojlantirish lozim. Bo'g'im xastaligi bilan borgan insonlar kunning birinchi yarmida ya'ni soat 10:00 dan 12:00 gacha tananing oyoq qismidan boshlab, 20-30 daqiqa oyoqning 5-10 sm qismi qumga tiqiladi, so'ngra son va tananing quymich qismigacha qum zarachalari bilan to'ldiriladi. Bu holat kunning ikkinchi yarmida ham takrorlanib, quyosh nuridan kelayotgan harorat biroz pasaygandan so'ng soat 16:00 dan, 17:30 gacha ham tabiiy davolanish profilaktika ishlari olib boriladi. Tadqiqot natijasida yana shuni aytish mumkinki, bunday ekoturistik hududlarga faqat davolanish nuqtai-nazaridan emas, balki cho'l mintaqasiga sayohat, o'ziga xos dorivor o'simliklarni terish va turlarini ko'paytirish, hayvonot dunyosini tabiiy harakatlanishini kuzatishi ham mumkin.

Mingbuloq tumanidagi mavjud ekoturistik hudud istiqbolida servis xizmatlarini takomillashtirish maqsadida mahalliy va mintaqaviy loyihalar asosida biznes rejalarni tayyorlash hozirgi kunning davr talablaridan biridir.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.

16. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>

13. <http://www.wesmirbook.ru>

14. www.uzdaily.com

15. www.cia.gov

AMALIY MASHG'ULOT

1-Amaliy mashg'ulot: Turizm geografiyasining predmeti, maqsadi va vazifalari

Mazkur amaliy mashg'ulotning maqsadi: Turizm geografiyasining predmeti, maqsadi va vazifalari haqida bilim va ko'nikmalarini shakillantirish

Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar): sayoxat, sayoxatchi, sayoxat tashkilotlari, sayoxat motevatsiyasi, sayoxat bosqich, kapital, region, arxitektura, ekologiya, statsional turizm

Ish uchun kerakli jixozlar: Dunyo siyosiy kartasi, amaliy mashg'ulot daftari, yozuvsiz karta

Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1. Turizm geografisi fanning fanlar tizimidagi ahamiyati haqida yozma tavsif berish
2. Rekreatsiya geografiyasi va uning ahamiyatini o'rganish
3. Turizm turlari va klassifikatsiyasini taxlil qilish
4. Xalqaro turizm va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танкидий тахлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир рахбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Курбониезов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
12. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

2-Amaliy mashg'ulot: Turizmni rivojlantirish omillari

Mazkur amaliy mashg'ulotning maqsadi: Turizmni rivojlantirish omillari haqida bilim va ko'nikmalarini shakillantirish

Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar): sayoxat, sayoxatchi, sayoxat tashkilotlari, sayoxat motevatsiyasi, sayoxat bosqich, kapital, region, arxitektura, ekologiya, statsional turizm

Ish uchun kerakli jixozlar: Dunyo siyosiy kartasi, amaliy mashg'ulot daftari, yozuvsiz karta

Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1. Turistik qadamjoylar yoki ob'ektlarni o'rganib chiqish
2. Turizmni rivojlantirish omillari haqida yozma tavsif berish
3. Respublikamizda turizmni rivojlantirishda qabul qilinayotgan farmon va qarorlarni taxlil qilish
4. Turizmning maqsadiga qarab tasniflanishi

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
7. Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
8. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

9. Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
10. Амиркулов К., Қурбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
11. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий география асослари Т., Ўзбекистон, 1996.
12. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари– Т; Университет, 2007.

Электрон манбалар:

12. <http://www.financy.ru>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. www.uzdaily.com
15. www.cia.gov

3-Amaliy mashg'ulot: Turizm geografiasining tarixi va rivojlanishi

Mazkur amaliy mashg'ulotning maqsadi: Turizm geografiasining tarixi va rivojlanishi haqida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish

Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar): sayoxat, sayoxatchi, sayoxat tashkilotlari, sayoxat motevatsiyasi, sayoxat bosqich, kapital, region, arxitektura, ekologiya, statsional turizm

Ish uchun kerakli jixozlar: Dunyo siyosiy kartasi, amaliy mashg'ulot daftari, yozuvsiz karta

Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1. Turizmni rivojlantirishda ilk sayohatlar va sayohatchilar tarixini o'rganib chiqish
2. Turizmni rivojlanishida Buyuk geografik kashfiyotlardan keying davr
3. Buyuk allomalarni turizmni rivojlanishiga qo'shgan xissasi haqida tavsif yozish
4. Zamonaviy turizm asoschilari haqida tavsif berish

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” Тошкент-«Ўзбекистон» - 2016.
2. Мирзиёев. Ш.М “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Авдокушкин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М., 1996.
4. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология (ўқув қўлланма) II қисм. Наманган. 2002.
5. Александрова А.Ю. Международный туризм М., Аспект пресс 2002
6. Усмонов М.Р., Жумабоев Т.Ж., Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013

- 7.Маматкулов Х.М. Халқаро туризм.-Самарқанд, 2012
- 8.Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005

Кўшимча адабиётлар

- 9.Зокиров С.С., Болтаев М.Ж. “Краеведение и экономика туризма” -Т. 2001.
- 10.Амиркулов К., Курбониёзов Р. “Иқтисодий география ва экология” -Урганч 1999.
